



УДК: 301.085:15:371,95(045)

Sardorbek ABDULLAYEV,

The senior teacher, The Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan (PhD)

E-mail: asardorbek85@mail.ru

Based on doctor of economic sciences, professor N.S. Alikoriyev's review

SOCIAL ISSUES AND PROSPECTS FOR INCREASING THE EMPLOYMENT OF NEW SPECIALISTS

Annotation

In this article, in a market economy, the development of democratic values, the formation of civil society, human activity as an active subject of economic and political life, which, in turn, is necessary for the younger generation with the opportunity to learn and receive education throughout life, continuous education, creativity, the issues of creating the necessary conditions for the formation of a socially active and spiritually rich personality are explained.

Key words: Employment, living standards, incomes, wage, social policy, social progress, unemployment, labour market, kinds and types of the employment.

ЯНГИ МУТАХАССИСЛАР БАНДЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ МАСАЛАЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация

Ушбу мақолада бозор иқтисодиёти шароитида демократик кадрятларни ривожлантириш, фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлида инсон иқтисодий ва сиёсий ҳаётнинг фаол субъекти сифатида фаолият кўрсатиши, бу эса, ўз навбатида, ёш авлодни бутун ҳаёти давомида ўрганиш ва таълим олиш қобилияти билан қуроллантириш зарурлигини, узлуксиз таълим ижодий, ижтимоий фаол ҳамда маънавий бой шахсни шакллантириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Олий таълим муассасаси, модернизациялаш, юқори малакали кадрлар, рейтинг, рақобатбардошлик, таълим сифати, ўқиш муддати, педагог ходим, битирувчи, ўзлаштириш кўрсаткичи, иш берувчи.

СОЦИАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НОВЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация

В данной статье в условиях рыночной экономики, развития демократических ценностей, формирования гражданского общества человек должен выступать активным субъектом экономической и политической жизни, что, в свою очередь, должно вооружить молодое поколение способность учиться и получать образование на протяжении всей жизни, непрерывное образование носит творческий, социально активный характер, освещаются вопросы создания необходимых условий для формирования духовно богатой личности.

Ключевые слова: Вуз, модернизация, высококвалифицированные кадры, рейтинг, конкурентоспособность, качество образования, срок обучения, профессорско-преподавательский состав, выпускник, степень овладения, работодатель.

Introduction. Today, the new Uzbekistan takes its place in the ranks of the world community. Every industry in the country is developing in a timely and correct manner, and every industry breathes renewal.

In a market economy, a person acts as an active subject of economic and political life in order to develop democratic values and form a civil society. This, in turn, indicates the need to equip the younger generation with the ability to learn and be educated throughout life. Continuous education creates the necessary conditions for the formation of a creative, socially active and spiritually rich personality.

“Today, the competitiveness of any country in the world market depends not only on the availability of natural resources, but also, first of all, on the regular training of a highly educated and disciplined workforce capable of mastering modern, regularly updated technologies. Without such a labor force, it is impossible to organize new industries that form a modern structure of the economy based on high technologies”[2].

The employment as a socio-economic phenomenon can be defined as socially useful activity of citizens connected with satisfaction of personal and societal needs and generating labor income (earnings). The employment is an essential characteristic of the economy and welfare of the population of

country, while representing the economic category and social problem.

Active employment of citizens is one of the most important factors for the effective functioning of the labor market. After all, the economic development of society is determined by the full realization of the rights of citizens to work[3].

As outlined in the UN Sustainable Development Goals until 2030, higher education is becoming the leading driver of sustainable economic growth in the world. Thanks to this, in the coming years, the world will maintain the pace of training highly qualified personnel, and by 2030 the predicted number of students in higher educational institutions will reach 414 million people, which is 4.2 times more than in 2000 [4]. Therefore, the issue of improving the quality of higher education is a necessary problem that needs to be addressed comprehensively, from the point of view of the fact that the foundation of knowledge acquired by modern specialists throughout their lives is created in higher educational institutions.

As an economic category the employment is a set of relations on the labour market regarding the participation of the population in the employment; expresses the extent of its inclusion in the labor, the degree of satisfaction of public needs and the needs of employees in paid jobs, in incomes.

The employment by the socially useful activities covers a wide range the working-age population. By the nature (sphere) of the activity of all employees can be divided into four large groups: 1) employed in remunerated activity; 2) soldiers engaged in activity that do not bring direct monetary gains (as the transition to the contract form of military service troops will be closer in status to employed in the economy); 3) students with job; 4) busy raising children and maintaining the household [3].

By way of participation in the labour force employed in the economy can be divided into three subgroups: 1) employees employed on the basis of sales of their workers; 2) employers/entrepreneurs, who are implementing their organizational and entrepreneurial skills; 3) self-employed (those who working for the wash account; members of production cooperatives that do not use hired labor on a regular basis) [4].

In accordance with the International classification of status in employment there are six occupational groups: 1) employees; 2) employers; 3) persons working for own account; 4) members of producers' cooperatives; 5) contributing family workers; 6) workers not classifiable by status [5].

Material and methods. Depending on the purpose of analysis uses a different classification of the employment. As a social problem, the employment plays a crucial role in the formation and development of professional abilities of each person in the formation and disclosure of his personality. The work in process of the employment creates the main wealth of the society and ensure its progressive development, contributes to social progress of the world community. In contrast of the employment – the unemployment has a negative impact on the life of a man, his family; is a destabilizing factor leading to stagnation, degradation of certain regions, social upheavals in society. Precisely because unemployment is a serious socio-political problem, the employment must be in the spotlight of society and the state, its socio-economic policy.

In this capacity, the state employment policy is a set of measures aimed at stimulating the involvement and effective use of citizens in the sphere of labour to achieve the goals of the individual and society. The basis for the creation and implementation of this policy is the concept of the employment as a system of beliefs, ideas, revealing the nature of employment of the population at a certain stage of socio-economic development of society. In Uzbekistan the concept of the employment is being worked out in conditions of formation of market economy with social orientation. Its main provisions are set out in the Law "On employment of population in the Republic of Uzbekistan". In this law also in the Constitution of the Republic of Uzbekistan reflects the basic principles of the employment [1].

The first principle reflects the exceptional right of citizens to freely use their abilities for productive and creative labour; forced labour in any form is not allowed (except for special cases established by law). Thus, the voluntary labour as the universal value enshrined in the law. The employment in sectors of the economy (national economy) is not the only sphere of public benefit activity. The sphere of work is one of equal and equally accessible spheres of activity, along with study, housework, parenting, social, religious and other activity. The citizens' unemployment is not a ground for bringing to administrative responsibility. People can freely choose the kind of activity, place and form of his abilities. This principle implies the right of man to work there and so where and how much it needed him. Regardless of gender, age, nationality, all are available in permanent, partial, temporary, occasional employment, part-time, flexible-time

arrangements. The role of society and the state with realization by the person of this principle is to create for everyone equal legal conditions of the employment.

The second principle reflects the responsibility of the state to create conditions for the realization of the rights of citizens to work and freely chosen the employment. The responsibility of the state associated with the principle of promoting employment of citizens, the disclosure of their interests and abilities when selecting the type and activity of public activity. The state employment promotion and creation conditions for it consists in the adjustment of indirect measures (economic, legislative, social) of the economic behavior of citizens in purchasing or relevant qualification for the employment or another activity, in finding a suitable job or school. The principle of the employment promotion has several aspects, along with indirect control of the desired direction of the employment; it is in active and interested participation of subjects in the social-labor relations (government, employers, trade unions) in directing the development of the employment and its regulation. Their close interaction in the development of the employment has a great impact on the qualitative characteristics of educational and vocational-qualification structure of the employed population and its industrial and demographic structure, socio-economic mobility and competitiveness.

The third principle reflects a comprehensive approach to solving employment problems; it involves the coordination of efforts of authorities of all levels, the interaction of mechanisms of state regulation and market self-regulation, the using of financial possibilities of extra-budgetary funds, funds of enterprises, public associations and citizens, to achieve economic and social efficiency of the programmes of the employment assistance.

Results. In a market economy there is no direct centralized administration and control system employment. In this system, the main regulators are the laws, decrees, legal acts, programmes to promote and encourage employment agreement between subjects of the social and labour relations at the national, regional, sectoral level and at the enterprise level; the important role belongs to investment, tax and financial-credit policy. The state in this system is the focal point, the creator of framework conditions for the functioning of the mentioned units controllers) of the system.

The state, through the employment policy at the state and regional levels, pursuing strategic and tactical objectives. The strategic employment policy objectives consist in achieving a high standard of living of the population, creation of conditions for versatile development of a person on the basis of improving the efficiency of the economy. Tactical goals aim to balance the supply and demand of labour on the basis of supply and demand of jobs, the provision of full, productive and effective employment. The market mechanism in the regulation of the employment aimed at increasing production efficiency and, consequently, the elimination of inefficient jobs, the release of workers not satisfying the requirements of demand. The state level of the state employment policy includes a range of active and passive measures to create and preserve jobs and prevent mass unemployment, keeping it on a socially acceptable level ("normal", "natural"), training and retraining the labour force that meets the requirements of scientific and technical progress and the labour market, the development and implementation of large programs and projects provide a way out of stagnation of the depressed regions, etc.

Discussion. Regional level of the public employment policy pursues the same strategic and tactical objectives as the state level, but involves better use of existing capacity in the region, innovative ways of solving the employment problems.

Among them are the elimination of administrative restrictions on labour mobility; training and retraining of the workforce with consideration of the peculiarities of labour in the region; support (administrative, fiscal) activity of employers to create jobs, including for people with limited employment opportunities; expansion of the range of public works for long-term residing in the status of unemployment; the establishment of cooperation between the administrations of labor-surplus and-deficient regions on the temporary use of labour-based contracts; the attraction of foreign capital in regions with a high unemployment rate, including for small and medium businesses and training the workforce.

The main direction of the state policy of the employment at all levels of regulation is to create economically viable jobs, which determine the demand for labour and ensure a balance with labor supply. The supply of labor greatly exceeded the demand, the state should conduct targeted preventive policy on social support for different vulnerable layers of the working - age population-could leave the labour market, reducing pressure on existing vacancies and reducing, thereby, the intensity of the current labour market.

An important factor in the improvement of social labor is the increase in the efficiency of the economy through the strengthening of labor motivation, through the transfer of the means of production in private hands (privatization), through the wage growth, through the provision of normal conditions of work and life, improving the competitiveness of workers, ensuring their social protection in case of dismissal, through the freedom of movement (migration) within the country and the region, through the creation of the housing market.

Conclusion. The account of the population by employment status allows to distinguish the following types of the employment [7]:

1) the productive employment is in the public spheres of material production; it brings the workers labor income; excludes hidden unemployment of persons formally employed, but do not produce anything (such persons form the production of excessive number of employees holding formal jobs non-economic and fall under the procedure of release in connection with the reduction or restructuring of production);

2) the useful employment, which applies to all socially important types of employment, including full-time study, military service, raising children, maintaining the home and personal farms, care for sick family members, elderly citizens, social and religious activities of able-bodied citizens;

3) the rational employment, which reflects the ratio of the productive employment to other forms of useful

employment or the distribution of labor resources of the society in the spheres of public benefit activities, including the distribution of labor potential of the occupations, industries, economy sectors;

4) the full-time employment in which all who wish to work at the prevailing (dominant) level of real wages have jobs; according to another estimate, the full-time employment occurs when the demand everyone to jobs comes from the economic feasibility of the proposed jobs. In relation to individual the full-time employment is work within normal working hours (week) established by law.

Thus, if the demand for economically viable jobs will be met by appropriate vocational qualification structure of the labour supply, this would mean the full-time employment. Without the continuous improvement of working places, creation of new, meeting modern requirements, and output from the production process of old, do not meet the economic feasibility of the impossible to achieve social progress, the interests of the society and of each person. The attainment of full employment cannot be achieved using a single market mechanism, need constant regulation of this process by the state and society, primarily in education, science, health, environmental, and national security, the functioning of the so-called natural monopolies (railroads, power and pipeline networks);

5) the effective employment is the employment that provides a decent income, growth of educational and professional level of working citizens on the basis of the growth of social productivity, and preserving the health of employees. By another measure, effective employment is a viable, productive, socially useful and rational employment, satisfying the social and personal needs. Thus crucial importance for any society is productive employment, which, first, determines the economic potential of the country; secondly, shape the level and quality of life of the population; third, is an essential component of the full-time and the effective employment of the key tasks of socio-economic policy.

The full-time employment is possible at a certain deviation of existing jobs from the status of economically feasible, the disparity between their occupational composition and educational level. In this situation, both the workers, and the state will bear the economic and social losses. Some workers will receive low wages, not providing normal existence, and the state society should receive less money in the budget and social funds.

REFERENCES

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. A rapidly developing economy needs modern personnel. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at a meeting on "Further development of higher education, improving the quality of training, expanding the integration of science and production." Tashkent, October 24, 2018 Source: <http://press-servis.uz> .
3. Sarukhanov E. The labor market and the employment market: contradictions, definitions and interpretations // - M. Zh. Man and labor. 2005. -№2.-315 p.
4. Rudenko G.G., Kulapov M.N., Kartashov S.A. Labor market. - M.2007.-430 p.
5. Abdurahmonov Q.X. Labor economics theory and practice. - T. : "FAN" publishing house of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2019. -670 p.
6. Abulqosimov H.P. Macroeconomic regulation and sustainable development of Uzbekistan. - T. : Akademiya, 2011. -186 p.
7. Vaxabov A.V. Social funds in the system of market relations. - T. : Sharq, 2003.-320 p.
8. Rasulova D. V. Theoretical foundations of the development of labor migration / Monograph. - Tashkent, "Finance" publishing house, 2010. -271 p.
9. Danilov A.N. Perexodnoe obshchestvo: problems of sistemnoy transformatsii. - Minsk: Universitetskoe, 2007.-432 p.



Nasiba ABDULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrası prof. v.b.,
falsafa fanlari doktori
E-mail:nasiba.abdullayeva.1969@mail.ru

O'zMU professori, fal.fan.dok N.Shermuhamedova taqrizi asosida

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE HERITAGES OF MAHMUDHOJA BEHBUDI

Annotation

The article analyzes the contribution to the development of spiritual culture of the educator Mahmudhoja Behbudi, who was one of the outstanding leaders of the national revival movement that emerged in Turkestan in the XX century, who played an important role in awakening the public consciousness of the Uzbek people at that time. Possessing a broad outlook and deep knowledge, he has always opposed conservatism and ignorance and in his works called for the correct understanding and interpretation of the Islamic religion. His goal was to enlighten the people and bring them to the level of highly developed peoples of the world, to build an advanced society in all respects, a state based on the unshakable principles of humanism and democracy. In the legacy of Mahmudhoja Behbudi, attention is paid to highlighting the issues of science, morality, the influence of art on the spiritual culture of youth, on the understanding of national identity. In satya, the modern meaning of Behbudi's work is investigated.

Keywords: jadidism, spiritual culture, science, religion, enlightenment, morality, politics, art, spiritual perfection.

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Аннотация

В статье анализируется вклад в развитие духовной культуры просветителя Махмудходжи Бехбуди, который был одним из выдающихся лидеров движения национального возрождения, возникшего в Туркестане в XX веке, сыгравшего важную роль в пробуждении общественного сознания узбекского народа в тот период. Обладая широким кругозором и глубокими знаниями, он всегда выступал против консерватизма и невежества и в своих произведениях призывал к правильному пониманию и толкованию исламской религии. Он ставил перед собой цель просветить народ и вывести его на уровень высокоразвитых народов мира, построить передовое во всех отношениях общество, государство основанное на незыблемых принципах гуманизма и демократии. В наследии Махмудходжа Бехбуди уделяется внимание освещению вопросов науки, морали, влияния искусства на духовную культуру молодежи, на понимание национальной идентичности. В статье исследована современное значение произведения Бехбуди.

Ключевые слова: джадидизм, духовная культура, наука, религия, просвещения, мораль, политика, искусство, духовное совершенство.

MAHMUDHOJA BEHBUDIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada XX asrda Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo'lgan, o'sha davrda o'zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg'onishida muhim rol o'ynagan ajdodimiz jadid ma'rifparvari Mahmudxo'ja Behbudiying ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan.

Keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan Behbudi o'z asarlarida islom dinini noto'g'ri talqin etilmasligi, ma'rifiy jihatlariga e'tibor qaratishga chaqirgan. Behbudiying maqsadi xalqni ma'rifatli qilish va ularni dunyoning yuksak rivojlangan xalqlari darajasiga olib chiqish, har tomonlama rivojlangan jamiyat, insonparvarlik va demokratiyaning mustahkam tamoyillariga asoslangan davlat qurish edi.

Maqolada Behbudi merosida ilm-ma'rifat, axloq, san'atning yoshlar ma'naviy madaniyati, milliy o'zlikni anglashga ta'siri masalalarining yoritilishiga e'tibor qaratilgan, asarlarining zamonaviy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'naviy madaniyat, ilm, ma'rifat, din, axloq, san'at, siyosat, ma'naviy barkamollik.

Kirish. XX asrda yashab faoliyat olib borgan jadid-ma'rifatparvarlar merosi tarixchi, adabiyotshunos, filolog, faylasuf, pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan, ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudi publitsistikasi, ma'rifiy--pedagogik qarashlari yurtimiz olimlari tomonidan keng o'rganilgan bo'lsada, ma'naviy merosi va uning ma'naviy madaniyatga ta'siri yetarlida tadqiq etilmagan. «Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak», – deb ta'kidlab

o'tgan O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev [1] yoki Shu nuqtai nazardan Behbudi asarlarining ma'naviy madaniyatga ta'sirini tadqiq etish, ilm-ma'rifat tafakkurni uyg'otishning asosiy yo'llaridan biri ekanligiga oid qarashlarini zamonaviy jihatdan asoslash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jadidlar chor Rossiyasi davrida ham, sovet hokimiyati davrida ham qoralanib kelindi. Faqat xalqimiz mustaqillikka erishganidan keyin jadid ma'rifatparvarlari faoliyatini keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Turkiston jadidchilik harakati va uning ma'naviy-ma'rifiy asoslarining mohiyati, jadidlarning xalq tafakkurini o'stirish, ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borgan kurashlari, jadidchilik

g'oyalarining Turkistonga tarqalishida milliy matbuot, badiiy adabiyot va teatrning ahamiyati masalalariga doir ko'plab tadqiqotlar olib borildi.

Amerikalik olim E.Olvort "Padarkush" dramasi haqida "Dramada ilchasi surilgan jiddiy muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o'z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to'g'ri yo'ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta'sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to'g'ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko'rib yig'laydilar, mamlakat yoshlarini o'qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar [2] deb ta'kidlaydi.

Olmoniyadagi Humboldt universiteti professori atqoli turkshunos Ingeborg Baldauf - mashhur jadid adibi va ma'rifatchi Mahmudxo'ja Behbudiyning haj safari kundaliklarini o'rgangan hamda olmon tiliga o'g'irgan. Mutafakkir ilmiy merosini tadqiq qilganida ma'rifatparvarligi bilan birgalikda Behbudiyning buyuk tarbiyachi ustoz ekanini his qilganman. Zero, islohot va ma'rifat tarbiyadan boshlanadi. Behbudiy xotin-qizlarning tarbiyada tutgan yuksak o'rmini o'zining asarlarida muntazam qayd etadi. "Oyina" jurnaliga tarbiya mavzusida yozgan maqolalarida ham Behbudiy ayol va onaning jamiyat rivojidadagi mavqei baland ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi. [3]

Adibning maqolalari va «Padarkush» dramasi haqida g'oyalar filologiya fanlari doktori Begali Qosimov tomonidan tadqiq etilgan. Alloma merosini o'rganish, asarlarini to'plash va nashr etishda olimning xizmatlari katta. Begali Qosimov «Behbudiy faqat dramaturgiyamiz emas, publitsistikamizga ham poydevor qo'ygan, umuman, yangi adabiyotni boshlab bergan alloma ekanligini ta'kidlaydi. [4]

Adabiyotshunos olim Naim Karimov "Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atqoli rahbarlaridan biri bo'lib, shu davrda o'zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg'onishida muhim rol o'ynaganligini ta'kidlaydi. [5]

Tarix fanlari doktori Dilorom Alimova Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri masalalarini o'rgangan. Alloma tarix fanini insonning kamol topishi, jamiyatni boshqarishda bu fanning o'rni beqiyosligini ta'kidlaydi. Behbudiyning jamiyat rivoji va taraqqiyotida tarix fani qanday o'rin tutishi kerak degan qarashga bo'lgan munosabati ilmiy maqolalarida o'z aksini topadi. [6]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik asoslari, ularda milliy g'oya masalalari, jadid matbuotining shakllanishi, jadid adabiyoti va san'ati, jadid maktabi va maorifi, axloqiy va estetik tarbiya masalalari tarixiy, filologik, falsafiy, pedagogik jihatlarini o'rganildi. Behbudiyning deyarli barcha maqola va asarlari nashr etilib, xalqqa taqdim etildi. Yangi usul maktabi, milliy matbuot, adabiyot va teatr tarixini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar maydonga keldi.

Filologiya fanlari doktori Halim Saidov Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyatini tadqiq etar ekan "Oyina" jurnali, "Samarqanda", "Xurshid", "Tujjor" gazetalari tashkil etilishi va nashr etilishidagi xizmatlarini alohida ta'kidlaydi [7]. Filologiya fanlari nomzodi Normurodov Avazov Behbudiyning ijodiy faoliyati, "Padarkush" dramasi va undagi ma'rifiy-tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratadi [8].

Pedagogika fanlari nomzodi Zebo Axrorova Behbudiyning milliy uyg'onish davri pedagogikasi va voqeligida

tutgan o'rini tadqiq etar ekan, sharq tamaddunining ilg'or g'oyalari jadid pedagogikasida aks etirilishi va ushbu g'oyalarining Behbudiy tomonidan rivojlanirilganini ta'kidlab o'tadi. [9]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jadid mutafakkirlarimizning merosi, aynan jadidlar karvonboshisi, asoschisi sifatida tarixda nom qoldirgan Behbudiy XX asr boshlarida amalga oshirgan ishlar katta ahamiyatga ega. U diniy va dunyoviy ilmlarni, tarixni chuqur bilgan, yozgan maqola va asarlari ijtimoiy ahamiyatga ega. Jadid ma'rifatparvarlarining madaniyat o'zagi bo'lgan ma'naviy madaniyatning rivojiga qo'shgan benazir hissasi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa sharq mutafakkirlariga xos bo'lgan qomusiylik Behbudiy faoliyatida ham o'z in'ikosini topgan deyish mumkin. Buni vatanparvar ziyolimizning faoliyati tasdiqlaydi. Bilim, axloq, din, san'at, siyosat kabi masalalariga doir maqolalari, "Padarkush" dramasi, "Kitobat-ul atvol" kabi maktab o'quvchilari uchun yozilgan darsliklarini keltirish mumkin.

Jadid ma'rifatparvarlari ilm-ma'rifatni xalqni jaholatdan qutqarish, tafakkurini uyg'otish, taraqqiyotga erishishning birdan-bir yo'li deb qarashdi. "Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur." [10] deydi Behbudiy.

M.Behbudiyning "Muhtaram yoshlarga murojaat" maqolasida ta'limni rivojlantirishning ahamiyati asoslangan. Jahonda bilim asosiy intellektual resurs, ta'lim milliy farovonlikni yaratish manbai sifatida qadrlanayotgan bugungi kunda ham mutafakkirning bu boradagi qarashlari g'oyat dolzarbdur. Zero, ta'lim insonning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlardagi ishtirokining chuqurlashuviga, jamiyat rivojiga samarali hissa qo'shish imkonini berishadi.

Behbudiy merosida ta'lim va tarbiya uzviyiligi masalalariga e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Behbudiyning keng bilimga ega bo'lganligi, eng murakkab dunyo hodisalarini ham tafakkur qudrati bilan yechish, tushuntirish, ifodalash yuksak iqtidori borligini ham uning maqolalari orqali ham ko'rish mumkin. Ma'rifatparvar alloma yoshlarni chet ellarda o'qitish, yangi g'oya va bilim bilan qurollantirish lozimligini ko'p bora ta'kidlaydi. "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbul'ga va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlariga yuborilib diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoq'ga sa'y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to'yu ma'raka'ga sarf qilinatur'on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O'runburg va Qozong'a usuli ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. [11] O'zbekistonda zamonaviy ta'limda ham yoshlarni chet ellarda ta'lim olishiga katta e'tibor qaratilmoqda, maxsus dasturlar asosida talabalar dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlarida tahsil olib kelishmoqda. Jadidlarimizning ushbu g'oyalari bugun ham dolzarb ekanligini ko'rish mumkin.

Ayniqsa, til masalalari Behbudiyning hamisha diqqat markazida bo'lgan, millatning taraqqiyosi uchun bir necha til bilishni shart hisoblagan. Yoshlarni til o'rganishga, bilim olishga chaqirdi. "Oyina" jurnalning 1913 yil 20 avgust, birinchi — nishona sonidayoq, «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi. [12] Ayni paytda tilning muhofazasiga doir ("Har millat o'z tili ila faxr etar" — 1914, № 35), ("Til masalasi" — 1915, № 11,12) maqolalar yozdi. "Bizg'a lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o'quylik. Davlat mansablariga kirayluk. Vatanimizga va o'z dinimizga xidmat etayluk. Musulmon

bulub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xidmat ilmsiz bo'lmaydur. [13] Bugun chet tillarni o'rganish va milliy tilni asrashga doir Behbudiy maqolalari o'z ahamiyatini yo'qotmadi, balki yanada dolzarblashdi deyish mumkin. Shu bilan birgalikda, "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya" darsligida, ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Kitobat ulatfol" ("Bolalar xati", 1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblar va Turkistonning tabiiy xaritasini chop etdi. Ko'plab o'quv materiallari, o'qish kitobi va diniy kitoblar, maktub yozish qo'llanmasini yaratdi.

"Oyina" jurnalida Behbudiy va uning zamondoshlari hamda xorij sharqshunoslarining (xususan, Vyatkin)ning tarix, geografiya, tilshunoslik, astronomiya, anatomiya, arxeologiyaga doir kuzatishlari e'lon qilib borilgan: "Sherdor madrasasi" (1913.№1.-B.), "Tutun yoinki tamaki" (1913.№1.-B.), "Ulug'bek rasadxonasida" (1913.№2.-B.), "Jug'rofiyo chist?" (1913.№2.), "Yer" (1913.№10.), "Tarixi ixtiroi bashar - odamlarning chiqargan nimarsalari" (1914.№28), "Hayvonotning umri" (1914.№11), "Oftob" (1914.№49), "Qamar -oy" (1914.№57), "Qahva = kofe" (1914.№56) [14]. Bu esa o'sha davrda madaniyat, ma'rifat, zamonaviy ilmiy bilimlarni tarqatishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Behbudiy "Padarkush" dramasida ilmsizlik, ma'rifatsizlikning millat va millatning har bir a'zosi hayotiga ko'rsatajok fojiali zararini tasvirlab bergan. Asarning "Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi" deb nomlanishi ham tasodifiy emas. "Padarkush" asari hayotda ro'y bergan real hodisa ta'sirida yozilgani xususida zamondoshlari ta'kidlab o'tishgan. Bu fikrning haqiqatga qanchalik mos yoki qanchalik zid ekanidan qat'iy nazar, hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Behbudiy "Padarkush"da nafaqat jaholat botqog'iga botgan ota balki farzandlarining hayoti ham fojia bilan tugashi mumkinligini ko'rsatib, ularning har ikkalasini va umuman, XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatini ogohlantirishga intilgan. Jadidchilik tub mohiyatini ochuvchi ma'rifatparvarlik g'oyasi asarning katta ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ekanidan beradi hamda uning o'sha davrning eng muhim va dolzarb mavzusiga bag'ishlangan. Asarda ilgari surilgan jiddiy muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan.

Behbudiy Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa, Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said, Shom shaharlarida bo'ladi. Ushbu sayohat asosida rivojlangan davlatlarda madaniyat, ma'rifat, texnika taraqqiyoti, o'lkamizni ham rivojlantirishga oid ko'plab maqolalari «Oyna» jurnalida bosilib turadi. "A'molimiz yoinki murodimiz" sarlavhali maqolasida turli tadbir, to'ylardan tortib milliy o'yinlarigacha bo'lgan har kunlik turmush tarzini tahlil qilar ekan, xalqni ko'zini ochib yon-tevarigidagi millatlar ishlariga va qanday yashayotganlariga qarashga chaqiradi. Mahalliy aholining taraqqiyotga to'siq bo'luvchi eski urf-odatlarini, eskicha qarashlardan voz kecha olmayotgani, qoloqlashib ketgani, musulmonlar ham taraqqiyotni, farovonlikni, ma'rifatni istashi, yangilikka intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish lozimligi, endi o'tmishimiz buyuk deb yuravermasdan, xatolarimizdan to'g'ri hulosalari chiqarishimiz, rivojlanish yo'llarini izlashimiz, boshqalar ham bizni hurmat qilishi, ular bilan teng mavqeda muloqotga kirishishimiz, musulmonlar manfaatlarini himoyasi uchun nimalar qilishimiz zarurligi haqida bosh qotirish vaqti keldi

degan g'oyalarni ilgari surdi. U xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag'ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida davlat ta'lim muassasalarida bolalarni o'qishi uchun yo'naltirishga da'vat etadi. "Bizni kemirguvchi illatlar" maqolasida "bizni inqirozga va tahlikaga va jahannamga yumalaturgon to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman" [15] deya ta'kidlaydi.

Din masalasi xususida ham Behbudiyning qator maqolalari, "Muxtasari islom" asari e'lon qilingan. Shuni ta'kidlash lozimki, Behbudiy Samarqanddagi ma'rifatparvar sulolalardan biriga mansub bo'lgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja Ahmad Yassaviyning avlodidan, bobosi va otasi qori va imom-xatib bo'lgan, tog'asi mufti mulla Odil Muhammad Siddiq mufti bo'lgan. Behbudiy bolalikdan diniy bilimlarga ega bo'lib borgan keyinchalik tog'asi huzurida mirzolik vazifasini bajaradi, kozilik ishlari bilan ham tanishib, muftilik uchun zarur bo'lgan narsalarni o'rganib oladi. "Sobiq Turkistonning har bir kent va dahasida qozixonalarning, ularda xizmat qilgan qozi va muftilarning son-sanog'i bo'lmagan. Biroq Behbudiydek barkamol shaxs – faqat diniy bilimlarga emas, shu bilan birga zamonaviy ilmlarning zo'r bilimdoni, xalqni ma'rifatli qilish uchun kurash yo'lida o'z moddiy boyliklarini, hatto jonini ayamagan shaxsning misli nihoyatda siyrakdir, hatto yaktodir. Fayzulla Xo'jayevning so'zlari bilan aytganda, "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng kiladigan kishi bo'lmas kerak". [16]

Fiqh kitoblari ustida tinimsiz ishlagani bois u tez fursatda "mufti" unvoniga erishgan. Mahmudxo'ja umrining oxirigacha Jomboyda muftilik qildi. Odatda shamba kunlari haftada bir marta Jomboyga borib, qozilar bilan birgalikda bahsli munozarali masalarni ijobiy tomonga xayrli hal bo'lishini ta'minlaganligi xususida ko'plab misollar bor. U mufti va imom xatiblarining bilimdan, zamonaviy ilmlardan ham xabardor bo'lishini ta'kidlagan. "Zotan islomiyat shunday bir diniy matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmiy zamoniy ko'b o'qusa, insonni yana diniy islomga shuncha aqidasi mustahkam bo'lur. Chunonchi, ilmiy zamoniy ko'b o'qug'on Ovrupo ulamolarini (ng) eng nomdor va davlatliklaridan musulmon bo'lub turgonlari jaridaxonlarga ma'lumdur. Bas, sabab bo'ldiki, ilmiy zamoniy islomiyatga zarar qilmoq nari tursun, foyda etar, endi matlag'a kelayluk "Xalqning jismoniy va ruhoni tarbiyati ichin murabbiylarning, ya'ni ulamoning diniy va zamoniy ulum va fununni darajai kamolda bilmalari, albatta lozimdir" [17]. Behbudiy muftilik vazifasini oqilona, halol bajargan "...zamonasidagi faqihlar – diniy bilimdonlaridan hech biri fiqh ilmining kengligi jihatidan Behbudiyga teng kelolmas edi." [18] Behbudiy fiqhning biror qoidasi yoki yo'l-yo'rig'ini xalq manfaatlarini va ijtimoiy taraqqiyotga zarar keltiradigan tarzda talqin qilmagan. Oyat va hadislarga tayangan holda mehnatkashlar manfaatini himoya qilgan, ilm-ma'rifatga chorlagan yevropaliklar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishga chorlovchi fatvolar bergan. Behbudiy iqtisodiy nizolarda kambag'allar manfaatini himoya qilgan, kambag'allar foydasiga hal qilinishiga erishgan. "Favqulodda takfir", "Bizni hollar va ishlar" maqolalarida ham Turkiston o'lkasida ilmiy, bilimli ulamolar kerakligi, "Ikki milyo'n turkistoniyalar madrasasiga Xudodan boshqa nozir yo'q. Bir raisi diniy va mumayizi ilmiy yo'q. O'zimizda esa insof va xavfi haq yo'q, aslo yo'q. Va Olloh, na uchun savodsiz qozi, ilmsiz mudarris, insofdan xabarsiz muftiy, qiroatsiz iomlar olamni bosdi. Bunga sabab biror raisi diniy va mumayizni ilmiga moli ko'lmag'animiz emasmu? deydi. U ziyoli va taraqqiyparvarlarni birlashib, diniy millat va Vatanning rivoji uchun xizmat qilsak deb orzu qildi. Rossiya, Turkiya, Misr kabi bir qancha mamlakatlarga sayohati va haj safari davomida ularning hayoti, turmush tarzi, urf-odatlarini,

madaniyatini o'rgandi va Turkiston o'lkasi hayoti bilan solishtirdi. "To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniyalar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovropoyilardak taraqqiy etarmiz va o'zimizda, dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur. [20]

Behbudiy yoshlarni zamonaviy ilmlarni o'rganishga da'vat etadi." Agarda jug'rofiya o'qumasak, dunyog'a taraqqiy qilolmaymiz. Dunyog'a taraqqiy qilmasak, din ishlarimizni barjov keltirolmaymiz. Maafihi, jug'rofiya o'qugonlar og'iz ila, kitob va gazit ila bahs qilib, jug'rofiya vajhidin bizni dalil aqli ila mulzam qilib, oxiri dinimizg'a ta'na beradur. Ilmi dinni kam bilaturgonlarimizni bo'shatadur. [21]

O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ta'lim yoshlar tarbiyasining asosiy resurslaridan biriga

aylandi. Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish"deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida ham ta'lim masalasiga alohida urg'u berilgan, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlar bilim va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Behbudiyning ma'naviy merosi xorij va yurtimizda keng o'rganilgan bo'lib turlicha konsepsiya va yondashishlar asoslangan xolda tadqiq etilgan. Behbudiyning diniy ma'rifatga oid qarashlarini o'rganish turli diniy konfessiyalar mavjud bo'lgan polietnik mamlakatda fuqarolar hamjihatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sharq va G'arb ta'limining maqsadli, qadriyatli, axloqiy va metodologik jihatlariga ko'ra uyg'un usullarini joriy etishga doir qarashlari milliy ta'lim tizimida qo'llanishi zamonaviy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 1-oktyabr 2020 yil
2. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009 yil, 9-son.
3. Ingeborg Baldauf XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. –B.42.
4. Qosimov B. Behbudiy, Maslakdoshlar, T., 1994 B.Qosimovning «Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik»
5. Karimov N.Mahmudxo'ja Behbudiy. https://docs.yandex.ru/docs/Ziyo_uz_kutubxonasi
6. D.Alimova.Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri".Akademiya nashriyoti.T.1999
7. Saidov H. Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyati. Fil.fan.nom.diss. T.:1999 B.170
8. Avazov N.Behbudiyning ijodiy faoliyati. Fil.fan.nom.diss. T.:1995 170 B
9. Ahrorova Z.Mahmudxo'ja Behbudiyning pdeogik qarashlari va ma'rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997. 157
10. Behbudiy M.Tanlangan asarlar // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. -T.: «Ma'naviyat», 2006, – B. 200
11. Behbudiy M. Tanlangan asarlar //To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, – (Istiqlol qahramonlari) -B.160
12. Behbudiy M. Tanlangan asarlar // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, – (Istiqlol qahramonlari) -B.160
13. Behbudiy.Tanlangan asarlar. T an lan gan a s a r l a r // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, – (Istiqlol qahramonlari) -B.160
14. Abdirashidov, Zaynabidin.Mahmudxo'ja Behbudiy va uning «Oyin» jurnali [Matn]: / Z.Abdirashidov, N.Egamqulova. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019. – 38 bet.
15. Behbudiy. Tanlangan asarlar. // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, 2006, – (Istiqlol qahramonlari) -B.160
16. Solih Qosimov. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 1990 yil 19 yanvar
17. Behbudiy tanlangan asarlar. Behbudiy. Tanlangan asarlar. // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, 2006, – (Istiqlol qahramonlari) -B.160
18. Halim Saidov. Ma'rifat libosidagi ozodlik. – Toshkent: Sharq, 2000. - B. 149
19. Behbudiy tanlangan asarlar. Behbudiy. Tanlangan asarlar. // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, B.148.
20. Behbudiy tanlangan asarlar. Behbudiy. Tanlangan asarlar. // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, B.1931asarlar. Behbudiy. Tanlangan asarlar. // To'plovchi , so'zboshi va izohlar: B.Qosimov, 3-nashri . tuzatilgan va to'ldirilgan. - T.: «Ma'naviyat», 2006, B.231



UDK:377.36.016:316.454.5:004

Xabiba AGALIYEVA,

Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktranti

E-mail: agaliyevahabiba@gmail.com

TDTU dotsenti, p.f.f.d. O.O.Daminov taqrizi asosida

TECHNOLOGY OF FORMATION OF STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation

This article highlights communication and its content in the formation of communicative competence among students and the technology of formation of communicative competencies. It also talked about the goals and levels of formation of communicative competencies among teachers.

Key words: Competence, communication, communicative competence, educational, professional competence, educational process, level of communication, communication goals, communication technology.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье освещается коммуникация и ее содержание в формировании коммуникативной компетентности у студентов и технологии формирования коммуникативных компетенций. В нем также говорилось о целях и уровнях формирования коммуникативных компетенций у педагогов.

Ключевые слова: Компетентность, коммуникация, коммуникативная компетентность, образовательная, профессиональная компетентность, образовательный процесс, уровень коммуникации, коммуникационные цели, коммуникационные технологии.

TA'LIM OLUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda kommunikatsiya va uning mazmuni hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari yoritib berilgan. Shuningdek, ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish maqsadlari va darajalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kommunikatsiya, kommunikativ kompetensiya, ta'lim oluvchi, kasbiy kompetensiya, ta'lim jarayoni, kommunikatsiya darajalari, kommunikatsiya maqsadlari, kommunikatsiya texnologiyasi.

Kirish. Hozirgi zamon talablariga mos keladigan kadr zamonaviy ilm va bilimlar bilan ta'minlashi kerak. Shu bilan birgalikda mazkur zamonaviy ilm va bilimlarni shaxsiy sifatleri orqali namoyon etadigan kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda o'quvchi kommunikativ kompetentli bo'lishi kerakligi talab etiladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni har bir kasb uchun malaka talabida keltirib o'tilgan. Bir tomondan, Boloniya jarayoni va YUNESKO hujjatlarining mutaxassislariga bo'lgan talablariga muvofiq, kommunikativ kompetensiya umumiy kompetensiyalar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, boshqa tomondan, turli darajadagi kasblar uchun bu kasbiy kompetensiyalarda xam ko'rsatib o'tilgan. Shu munosabat bilan ta'limni rivojlantirishning hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyati-bu turli xil ta'lim muassasalari bitiruvchilarining zamonaviy axborot jamiyatining mehnat bozori sharoitiga moslashishi va o'zini o'zi anglashga tayyorligini ta'minlaydigan "umumiy va kasbiy kompetensiyalarga" ega bo'lishi uchun ta'lim maqsadlarining turli tarkibiy qismlarini birlashtirishni talab etadi. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan kadr kommunikativ aloqa maqsadini shakllantirishga, kommunikativ o'zaro ta'sir taktikasini yaratishga, ushbu kommunikatsiya vaziyatining ishtirokchilarini pozitsiyasini va aloqa ta'sirida o'z pozitsiyasini aniqlashga, natijani to'g'ri yo'naltirishga va natijaviylikka xarakat qiladi. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda to'g'ri aloqa usullarini tanlashga ko'maklashadi va ularga jarayon amaliyotini joriy etish uchun kompetensiyaviy yondoshuvlarni

taklif etadi. Kommunikativ kompetensiya fenomenining murakkabligi, birinchi navbatda, "aloqa" tushunchasining mazmuni bilan bog'liq bo'lib, u nafaqat "axborot almashinuvi sodir bo'ladigan va shaxslararo aloqalar o'rnatiladigan subyektlarning o'zaro ta'siri" deb, balki o'zaro hamkorlik sifatida ham talqin etiladi. Demak, ushbu ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan kommunikativ harakatlar aloqa pozitsiyasini hisobga olishga, shuningdek umumiy maqsadga erishish uchun o'zaro birgalikdagi faoliyat harakatlarini muvofiqshtirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiya shakllanish jarayoni va ularni ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatiga yo'naltirish nazariyalari bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan.

U.Mingboyev o'z ilmiy ishlarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jihatlari ko'rib chiqilgan. Ularning fikriga ko'ra, kompetensiya aniq bir soxadagi mahsuldor faoliyat uchun zarur bo'lgan subyektning o'zaro bir biri bilan bog'langan sifatleri (kasbiy va umumadaniy) majmuasini o'z ichiga oladi [3].

MDH olimlari tomonidan Teslenko va Latinsev kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning to'rt darajasini ajratib ko'rsatadilar:

1) vazifalarning reproduktiv darajasi eng yuqori darajani egallagan asosiy daraja;

2) maqbul adaptiv, talabalar kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlariga talab darajasida yega bo'lmaganda, lekin shu bilan birga uning namoyon bo'lishiga

tayyorligini ko'rsatsa (tartibsiz bo'lsa ham) va sezilarli salohiyatga yega bo'lsa;

3) ijodiy-izlanish-talabalar kommunikativ kompetensiyaning yetarli darajada rivojlanganligini namoyish yetadilar, muammoli vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qiladilar, axborot muhitiga moslashishga tayyor;

4) reflektiv-baholovchi – talabalar o'zlarini qiziqtirgan muammolarni mustaqil ravishda aniqlaydilar va ularni hal qilish uchun kommunikativ vaziyatlarni tashkil qiladilar.

Kommunikativ kompetensiyaning eng yuqori darajasi insoni qiziqtirgan muammoli vaziyatlarni hal qilish va axborot muhitini tashkil qilish uchun shakllantirilgan bilim, ko'nikma va faoliyat usullaridan foydalanishga tayyorgarligidir. Buning uchun quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

1) gumanistik yo'nalishning muayyan fazilatlarini;

2) nutqiy bilim, ko'nikma va malakalar va nutq texnikasi (kognitiv, ta'sirchan, tartibga soluvchi);

3) kasbiy faoliyat sohasida kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarni amalga oshirishga tayyorgarlik va ushbu tayyorgarlikni amalga oshirishga intilish.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda shaxsning kommunikativ kompetensiyasi ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, bular – umummadaniy va kasbiy kompetensiyalardir [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Umummadaniy kommunikativ kompetensiya insonning turli vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyatini tavsiflaydi va kundalik aloqa amaliyoti darajasida amalga oshiriladi. Shaxsning kasbiy faoliyatida maxsus kommunikativ kompetensiya zarur va o'ziga xos tarkib bilan ajralib turadi. Shunday qilib, kadrlar uchun, kommunikativ kompetensiya zarur bo'lib, u kommunikativ o'zaro ta'sir strategiyasi, maqsadga erishish usullari va aloqada olingan natijani birlashtirish texnologiyasi bilan tavsiflanadi. Tashkiliy va boshqaruv faoliyati kontekstida shakllangan kommunikativ kompetensiya kadrga samarali aloqa usullari orqali ish beruvchi tashkilotning tashkiliy tizimining maqbulligiga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Zamonaviy boshqaruv sharoitida kommunikativ kompetensiya ish beruvchilar talabining birinchi pog'onalaridan joy egallagan kompetensiyalardan biri xisoblanadi. Ta'limni rivojlantirish nafaqat kadrlar rivoji balki iqtisodiyot va siyosat uchun xam ajralmas bir bo'lak xisoblanadi. Jaxon bozori talablariga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda, o'quvchi yoki talabalarning kommunikativ kompetensiyasi rivojlanganlik darajasi muhim vazifani bajaradi. Zamonaviy ta'lim shaxsiy resursni boshqarish bilan birga kasbiy faoliyatni xam nazarda tutadi. Umumiy kompetensiyalar kasbiy kompetensiyalar bilan chambarchas bog'liq, ularni uyg'unlashtirish va kasbiy faoliyat jarayoniga tadbiiq etishning ustuvor yo'nalishlarini tarkib toptiradi. Kelajakda jahon bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash maqsadida, ta'lim muassasi o'qituvchilari kompetentli yondashuv asosida kerakli metodlardan foydalanilgan holda dars jarayonini tashkil etishi va uni ta'lim oluvchilar o'rtasida qizg'in muxokama qilinishini targ'ib etishi kerak.

Kommunikativ kompetensiya quyidagi ko'rinishlarda aks etadi: kasbiy va o'quv vaziyatlarda muloqotga ishonch bilan kirish, fikrlarini aniq yetkazish, harakatlarini aniq tasvirlash qobiliyati; guruhda samarali ishlash, guruh rahbari va a'zosi rollarini bajarish, shuningdek, vazifani aniqlashtirish, umumiy vazifani hal qilish uchun boshqa guruh a'zolarining ko'nikmalarini aniqlash va ulardan foydalanish, ziddiyatli vaziyatlarni samarali hal qilish, o'zlarini rag'batlantirish va boshqalar.

Xorijlik olimlar M.Canale va M.Swain asarlarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish muammosi kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishning oqilona mexanizmini yaratish asosida kadrlarning

shaxsiy va kasbiy resurslarini takomillashtirish zarurati va imkoniyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqqanlar.

Tahlillar va natijalar. Hozirgi vaqtda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga yondashuvlar orasida modellashtirish eng samarali texnologiya hisoblanadi. Bunda kommunikativ kompetensiya ta'lim oluvchilarning o'quv natijalarida o'z aksini topadigan va o'qitish jarayoniga osongina mos keladigan va uni loyixalashga imkon beradigan model hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadi, avvalo:

ta'lim oluvchilarning zamon talablariga javob berishi

ta'lim oluvchilarda umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish

ta'lim oluvchilarning olgan bilimlaridan yutuqlari

O'quv jarayonini maqsadlarni belgilash, rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, uni takomillashtirish va natijalar ko'rinishidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradigan ta'lim muhitidagi o'zgarishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish asosini tashkil etadi. Maqsadlar kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bo'yicha o'quv faoliyatini loyihalashni maqsadini belgilashdan boshlaymiz, chunki o'quv jarayoni modeli doirasida aniq belgilangan maqsadlar o'qituvchiga yakuniy natijaga erishishdan oldin ularni amalga oshirishdan qochishga imkon bermaydi va ushbu natijani boshqarish usulini aniqlashga imkon beradi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun o'quv faoliyati modelining har bir elementini batafsil ko'rib chiqamiz:

Birinchi darajadagi maqsad kommunikativ kompetensiya shakllantirishning milliy va global darajadagi kasbiy aloqa sharoitida kommunikatsiya ko'nikmalarini samarali qo'llay oladigan kadr, doimiy kasbiy rivojlanishga tayyor bo'lgan malakali mutaxassis bo'lishi kerak Ikkinchi darajadagi maqsadlar ta'lim oluvchilarning ma'lum bir maqsadli guruhning ehtiyojlarini, shu jumladan ularning shaxsiy va kasbiy manfaatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Uchinchi darajali maqsad esa kommunikatsiya ko'nikmalarini diagnostikalashi va muhitga to'g'ri yondashishi va tablarni xisobga olishini nazarda tutadi.

Texnologiya sifatida ilmiy, yaxlitlik, izchillik va murakkablik tamoyillari nuqtai nazaridan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish orqali biz ta'limni tashkil etishda interaktiv faoliyat sifatida ko'rib chiqdik.

Kasbiy amaliyot davrida samarali kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'yish va boyitib borish, unga ta'sir etuvchi omillarni imkoniyatlarini o'rganish lozim. Shakllantiruvchi bosqichda ta'sir dinamikasini yaratish uchun o'quv jarayonini tashkil etishni turli shakllari va uning samaradorli darajasi o'rganiladi va baxolanadi. Bu jarayonda interfaol o'qitish usullarini qo'llash eng texnologik va samarali xisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya shakllanish jarayonida, guruh yoki juftlik ishlarida simulyatsion o'yinlar va professional kontekstlarni ko'rib chiqish jarayoni ijobiy natija beradi. Shu bilan birga, mavjud kasbiy tajriba va rivojlanayotgan kommunikativ kompetensiya kelajakdagi mutaxassisga samarali kasbiy faoliyatni ijtimoiy mas'uliyat bilan birlashtirishga imkon beradigan birlikni tashkil etishga va shu bilan raqobatbardoshligini oshirishga va uning potensial ish beruvchiga tavsiya etilishiga muxim turtki bo'ladi. Faol va interaktiv o'qitish usullari, shu jumladan dialogli seminarlar, psixologik o'yinlar seminarlar, guruh muhokamalari, rolli o'yinlar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga va umuman ta'lim jarayonida o'qitish uchun foydalanilganda bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, ushbu jarayon shaxsiy va korporativ maqsadlarga erishish uchun kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'lgan malakali mutaxassisga aylantirish uchun qulay muhit yaratishga imkon beradi. Ikkinchidan, interfaol texnologiyalardan foydalanish ta'lim

oluvchining nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-biri bilan samarali kommunikativ aloqasini o'rnatish uchun samarali hisoblanadi. Modellashtirilgan kundalik va kasbiy vaziyatlarining turli rollarini sinab ko'rish orqali talabalar bir vaqtning o'zida hayot va ish uchun avtonomiya va muloqot qobiliyatlarini shakllantiradilar Bundan tashqari, interfaol topshiriqlarni bajarayotganda ta'lim oluvchi nafaqat tengdoshlari bilan, balki o'rganilayotgan material bilan, shuningdek, o'rtoqlari bilan baham ko'rgan o'z g'oyalari bilan bo'lishadi va shuningdek kasbiy faoliyatiga bo'lgan qiziqishni saqlab qoladi, o'zini va boshqalarni muammosini ijobiy hal qilishga undaydi. Interfaol texnologiyalarning muhim afzalligi shundaki, ular ta'lim oluvchida mavjud bo'lgan kommunikativ tajribani hisobga

olish va undan foydalanishga imkon beradi, simulatsion o'yinlar esa kasbiy faoliyatda kommunikativ kompetentligini boyitibgina qolmay, uni o'z trayektoriyasini tuzishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim texnologiyalarini ko'llash va ulardan samarali foydalanish, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning xar qanday bosqichlarida o'z ta'sir kuchini ko'rsatadi va ta'limga kompetentli yondashuvni talab etadi. Ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondoshuvlardan foydalanish orqali e'tibor kasbiy va umumiy kompetensiyalarga e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi PF 5812-son Qarori "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son Qarori "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"
3. Mingboyev U.X. "O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi":Diss.... p.f.n.-T.:2019.-29-56b.
4. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi". Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013 128b 26-27b.
5. Столяренко Л.Д. Педагогика. - Ростов н/Д: Феникс. 2013.
6. Raximov Z.T. "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi": Diss....p.f.n.-T.:2019. 32-44 b.



Нилуфар АГЗАМОВА,

К.ф.н., и.о. профессор Национального университета Узбекистана

E-mail.: nilufar_agzamova@mail.ru

На основе рецензии доцента ТДИУ доктора философии PhD Х.Обломуродовой

SOCIAL AND ETHICAL RESILIENCE IN A POST-COVID-19 WORLD

Annotation

Changes in the geopolitical world order, economic, social and ethical consequences of the COVID pandemic make it possible to assess the current period of development as an extraordinary instability. Various ideologies and currents emerge. The most controversial manifestation of the post-COVID world is the phenomenon of the anti-vaccine movement. Anti-vaccinationism has become widespread in many countries. The question of whether to be vaccinated or not to be vaccinated has acquired the status of an ethical dilemma. Paradoxically, a situation has arisen where the global overcoming of the pandemic all over the world depends on the individual solution of this dilemma by each citizen.

Key words: Personal autonomy, antivaxer, vaccination, COVID-19, moral dilemma, pandemic, social skills.

COVID-19 DAN KEYINGI DUNYODA IJTIMOY VA AXLOQIY BARQARORLIK

Annatsiya

Dunyoning geosiyosiy tartibidagi o‘zgarishlar, COVID pandemiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini hozirgi rivojlanish davrini favqulodda beqarorlik sifatida baholash imkonini beradi. Turli mafkura va oqimlar mavjud. Post-COVID dunyosining eng munozarali ko‘rinishi bu vaksinalarga qarshi harakat fenomenidir. Ko‘pgina mamlakatlarda anti-vaksinatsiya keng tarqalgan. Emlash yoki emlamaslik masalasi axloqiy dilemmaga aylandi. Ajablanarli shundaki, butun dunyo bo‘ylab pandemiyani global yengib o‘tish har bir fuqaroning ushbu dilemmani individual hal etishiga bog‘liq bo‘lgan vaziyat yuzaga keldi. **Kalit so‘zlar:** Shaxsiy avtonomiya, antivaxer, emlash, COVID-19, axloqiy dilemma, pandemiya, ijtimoiy ko‘nikmalar.

СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ В МИРЕ ПОСЛЕ COVID-19

Аннотация

Перемены геополитического мирового порядка, экономические, социальные и этические последствия КОВИДной пандемии позволяют оценить современный период развития как экстраординарной нестабильности. Возникают различные идеологии и течения. Наиболее неоднозначным проявлением постковидного мира является феномен антипрививочного движения. Антивакцинаторство получило широкое распространение во многих странах. Вопрос, вакцинироваться или не вакцинироваться, приобрел статус этической дилеммы. Парадоксальным образом сложилась ситуация, когда от индивидуального решения данной дилеммы каждым гражданином зависит глобальное преодоление пандемии во всем мире.

Ключевые слова: Автономия личности, антиваксер, вакцинация, КОВИД-19, моральная дилемма, пандемия, социальные навыки.

Введение. Пандемия, вызванная вирусом КОВИД-19, возникла внезапно, но не неожиданно. Как пишут эксперты, скученность и урбанизированный образ жизни современной цивилизации; скорость глобальной миграции населения Земли, – «на мертвые пятна бетона по всей планете»[1] – вот причина разгула в биосфере. Еще в 1965 обнаружили респираторную инфекцию 229Е. КОВИД-19 не первый коронавирусы, который проявился в начале 21 века. До него были вспышки птичьего, свиного гриппа, (SARS-CoV, 2002; Эбола, H1N1, 2009; MERS 2015). Наконец КОВИД-19 – SARS-CoV-2, возникший в самом конце 2019. Негативно ощущаемый вирусный ответ природы за нарушения баланса в биосфере является закономерным, и возможно, справедливым.

Вирус по своей природе двойное образование. С одной стороны это неживая структура. Но стоит ему попасть в подходящие условия (влага, тепло), он превращается в прожорливого живого паразита, живущего за счет организма-хозяина, в который попал. Оживший вирус губит хозяина, если чрезмерно размножается в его теле и если не успеет переселиться в нового хозяина.

Стало общим мнением утверждать, главный паразит природы – человек, потребительски относящийся к окружающей сфере. Умеренность – золотое правило и

паразитов, и человеческой морали: ничего слишком. Мы забываем истину от Авиценны, что «материя – мы можем под материей подразумевать природу – не является онтологически подчиненной», то есть материя по происхождению сама по себе есть, существует, и эта материя (природа) в своем происхождении не подчинена человеку.

В разгар пандемии, как обозначение «вакцины», стали пользоваться кратким «vax». Соответственно противники вакцинации (vax) именуется «anti-vaxer»[2]. Оно было названо главным словом 2021 г.

Пандемия изменила образ жизни людей. Усилилось социальное дистанцирование, принявшее размеры пандемии[3]. Требование соблюдать самоизоляцию, социальную дистанцию, носить маски, – эти запретительные меры (самоизоляция, социальное дистанцирование, маски) вызвали неоднозначную реакцию общества. Наибольшую негативную реакцию населения спровоцировала начавшаяся массовая вакцинация от КОВИД-19 – SARS-CoV-2. Наряду с санитарно-гигиеническими мерами массовое вакцинирование – необходимость наших дней. Некоторые страны демонстрировали элементы принуждения к массовым прививкам.

Фактически одновременно с вакцинацией появилось противопрививочное движение со своей идеологией, аргументацией. Где-то это движение приняло форму стихийного недовольства. В некоторых государствах оно имеет организационную структуру. Основным путем распространения антипрививочной аргументации являются соц сети и традиционные СМИ. Масштаб антипрививочного движения приобрел в некоторых сообществах скорость и размер эпидемии, настолько им массово «заразились» адепты антипрививочной идеологии.

Аргументы антиваксеров носят не столько научный характер, сколько социально-этический. Вакцинация воспринимается как социальное зло, ограничение свободы воли и прав личности. Из вопроса чисто рационального выбора согласие или отказ от вакцины превратился в трудную моральную дилемму.

Родилось множество мифов, которые преподносят пандемию Ковид-19 как плод злых намерений исследовательских центров по разработке биологического оружия, а вакцину как способ чипирования с целью тоталитарного контроля населения, как путь сократить численность социально поддерживаемого групп (пожилые, персоны с ограниченными возможностями здоровья), происки врагов.

Пандемия вызвала спад экономики во всём мире, а экономический спад, в свою очередь, ведёт к политической нестабильности. В совокупности эти факторы повышают привлекательность конспирологических мифов в обыденном общественном сознании. Возродился интерес к пресловутой теории народонаселения Мальтуса, а пандемия трактуется как применение массового биологического оружия.

Литературный обзор. В подготовке данного материала использовались соответствующие документы ООН, ВОЗ, ЮНЕСКО. (Coronavirus (COVID-19) Vaccinations. Our World in Data; Global Immunization Vision and Strategy, etc). Привлекались материалы по истории медицины, точнее, история преодоления оспы, полиомелита, эболы. В частности, работа Richard Preston интересна тем, что в ней представлена не только хроника возникновения и борьбы против эболы, но и дана этическая оценка «вклада» человечества» в возникновение и развитие эпидемий.

Что касается проблематики этических дилемм, то изучался подход к теме Л. Колберга, Ж-П. Сарта, А. Макинтера, Э. Донона, Ю. Кубарь, А. Разина. Изучались также работы вирусологов, упомянем работы I. Ushah [4], L Khan[5] и их коллег, а также российских ученых А. Борейко, Е. Кунина, Т. Ильичевой[6], которые помогли разобраться в сущности антивакционерства.

Материалы и методы. В процессе исследования изучались тексты философских источников (Авиценны, Тайер Де Шардена, М. Фуко, П. Сингера, Ю. Кубарь[7]). При этом применялись методы критического и сравнительного анализов. Исследования философов, экспертов сопоставлялись сквозь призму универсальных моральных ценностей, положений классической теории мораль и современной биоэтики.

Выводам автора способствовали результаты глубинных интервью с антиваксерами, анализ статистики по теме.

Результаты. Пандемия, вызванная вирусом SARS-CoV-2, разрасталась со стремительной скоростью и высокой смертностью. Очень скоро стало очевидно, что санитарных мер, социального дистанцирования, ношения масок и дезинфекции недостаточно. Двухлетняя жизнь в условиях пандемии КОВИД-19 показывает, что для её

преодоления медицинских и гигиенических мер, дополненных политическими мерами, например, объявление локдауна в стране, не решило проблему.

Проверенным средством преодоления эпидемий является вакцинирование. Человечество таким путем преодолело оспу, полиомиелит, другие инфекционные заболевания.

Однако вакцина от КОВИД-19 встретило стойкое сопротивление населения во многих государствах, в том числе, европейских, в Российской Федерации, где имеются серьезные научные школы вирусологии и успешный опыт вакцинирования. Среди населения курсировало множество слухов и мифов.

Вакцина это контролируемая провокация роста антител для блокировки болезнетворного воздействия живого вируса, в случае, если он проникнет в организм. Сложность борьбы с этим вирусом не только в том, что он легко распространяется воздушно-капельным путем, но и в его продвинутых антителозависимых свойствах – в трудностях выработать на него антитела из-за постоянной мутации.

Причинами роста числа антиваксеров от коронавируса можно назвать следующие:

изначальный скепсис по отношению к новому шагу научного прогресса (история вакцинации свидетельствует об отчаянном сопротивлении не образованного населения)[8];

боязнь осложнений после прививки; широкое распространение слухов и мифов;

цейтнот, объективная нехватка времени для полноценного завершения разработок вакцины от КОВИД-19, пандемия разгоралась стремительно;

не был также строго обозначен перечень заболеваний, про которых вакцина противопоказана.

На наш взгляд, в качестве причин обоснованно назвать и следующие:

это форма протеста, вызванным ухудшением качества жизни общества (закрылись рабочие места, снизилось экономическое благосостояние население, недостойное поведение лидеров государств, к примеру, вечеринка Б. Джонсона в период карантина);

выражение недовольства ограничением привычных прав и свобод, поспание моральных норм (принуждение к вакцинации через угрозу потерять работу, ограничение передвижения, социальная изоляция).

Индивидуальное отношение к вакцинированию приобрело статус шекспировской дилеммы «to be or not to be». В истории философии широко распространена моральная дилемма про трамвай с 10 пассажирами и одним человеком на рельсе[9]. Морально ли, если стрелочник ради спасения 10 пожертвует одним человеком? Что значит быть толерантным к любой позиции человека.

Мы солидарны с мнением М. Б. Хомякова, что «необходимо говорить о толерантности как об уважении при моральном несогласии с другим»[10], когда требуется известная норма, сформулированная Вольтером: «Я не согласен ни с одним словом, которое вы говорите, но готов умереть за ваше право это говорить». Казалось бы, толерантность должна быть безграничной.

Уважение – это признание чужого мнения равным по ценности нашего собственного. Однако в экстремальной ситуации, или при м ассовом заблуждении либеральная толерантность, как всякая абсолютизация, несет в себе зёрна морального зла. По данным Associated Press, власти Китая молчали об эпидемии коронавируса шесть дней. За это время в стране заразились три тысячи человек. Эпидемия пошла гулять по планете:

узокорпоративный интерес (утаивание начала эпидемии) пришло в противоречие с общечеловеческими интересами. В то время как любое религиозное или светское этическое учение гласит о приоритете общечеловеческих интересов над национальными, корпоративными интересами.

Дальше – больше: КОВИД-19 перевернул ситуацию: один антиваксер может привести к гибели 10 человек. Приемлемо ли ради спасения большинства прибегнуть к элементам принуждения к вакцинации? Пандемия – экстраординарный период в развитии страны, он послужил индикатором морального сознания того или иного общества и конкретного гражданина, степень их готовности к общественно значимым поступкам.

Право выбора предполагает ответственность за свой выбор. Как быть, если личный выбор касается жизни и здоровья другого. Единого универсального ответа на сложные моральные вопросы нет. Трудно соблюсти баланс польза-риск. В индивидуальном масштабе этот баланс не только эмоционально окрашивается, но и легко политизируется, превращаясь в протестный лозунг.

Одно утешает, можно прогнозировать сокращение числа антиваксеров в ближайшем будущем. Многие люди убедились в относительной безопасности вакцин от коронавирусов. Они воочию видят спад заражения им после того, как началась прививочная кампания. Однако, даже при спаде ковидной пандемии, проблема противников вакцинации не исчезает. Существуют множество заболеваний, лучшей профилактикой которых является вакцинация. Это и банальный грипп, и полиомиелит, и туберкулез, мн. др., которые не снимают с повестки актуальность дилеммы: право выбора личности и общечеловеческие ценности.

Главный недруг человека не вирус, а носитель инфекции, то есть зараженный человек. Носитель вируса, пусть без внешних проявлений заболевания, представляет опасность для следующего человека. Нежелание соблюдать самоизоляцию, вакцинироваться, когда нет прямых противопоказаний – аморально. Драматическая ситуация обостряет моральные дилеммы общества, когда ответственность за себя преобразуется в ответственность за другого. Мораль – это солидарность: «лучше заботиться, чем умыть руки, лучше быть солидарным с несчастьем другого, чем безразличным» [11].

Пандемия Ковид-19 обострила проблемы футурологических прогнозов. Прогнозы, каким будет цивилизация, можно сгруппировать так:

человечество не станет более нравственным, станет хуже (М.Уэльбек);

вернется к коммунизму (С. Жижек);

вернутся прежние недостатки (Д. Де Мази).

Какой прогноз даете вы? Несмотря на различие позиций, их объединяет общая мысль – пандемия была предвосхищена нарушением баланса в биосфере. Предыдущие эпидемии вирусов птичьего, свиного гриппа, Эбола были подготовкой к пандемии КОВИД-19, и подтверждают закономерность её вспышки. В любом случае, несмотря на разницу прогнозов, наступает пересмотр отношения человека к биосфере и к другой личности.

На наш взгляд, практика преодоления Ковид-19 наглядно показало, что в экстремальной ситуации уповать лишь на моральное сознание сообщества недостаточно. Без комплекса правовых норм, иногда усиление надзорных функций, не обойтись.

Эмпирические данные

30 антиваксеров, жители столицы Узбекистана Ташкента, старше 18 лет, 15 женщин, 15 мужчин, исследование проводилось с мая по июнь 2022. В результате глубоких интервью были выделены причины, почему они стали сторонниками этого движения: 11 респондентов боятся осложнений; 5 недовольны стратегией государства в прививочной кампании; моральное основание в качестве приоритетного выдвинули 5 респондентов. Остальные не смогли назвать приоритетную причину их отказа от вакцинации

Заключения. Нами выдвигаются следующие заключения. Некоторые из них:

Нарушение человечеством баланса в биосфере способствовало пандемии.

Одно из главных причин скепсиса – медицинская: боязнь осложнений, массовые слухи о серьезных последствиях

Неприятие вакцинации протекает на фоне общего недовольства социально-экономическим состоянием общества и существенными ограничениями

Элементарный эгоизм, незрелость социальной и нравственной ответственности личности

Не велось работы по духовно-нравственному просвещению населения относительно необходимости вакцинации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Richard Preston. Hot Zone: The Terrifying True Story of the Origins of the Ebola Virus. 1999. 352 p.
2. Oxford English Dictionary, OED.
3. Khullar Khruv. How Social Isolation Is Killing Us // <https://www.psychologicalscience.org/news/how-social-isolation-is-killing-us.html>.
4. Ullah. Myths and conspiracy theories on vaccines and COVID-19: Potential effect on global vaccine refusals. *Vacunas* 2021; 2(22):93-97 // <https://www.elsevier.es/en-revista-vacunas-english-edition--259-estadisticas-S2445146021000315>
5. Khan L. Covid-19 pandemic: mechanistic approaches and gender vulnerabilities <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1319016420302759>
6. Plyicheva T.N. Two pandemics of the 21st century: COVID-19 and «swine flu» of 2009. *Medical Immunology (Russia)*. 2020;22(6):1035-1044. (In Russ.) <https://doi.org/10.15789/1563-0625-TPO-2048>
7. Кубарь О. И. Этика вакцинации // https://www.pasteurorg.ru/files/materials/news/Etika_Vakcinacii.pdf
8. <https://www.who.int/news-room/spotlight/history-of-vaccination>
9. Разин А. В. Моральные дилеммы // <https://cyberleninka.ru/article/n/moralnyedilemmy/viewer>
10. Хомяков М.Б. Толерантность и ее границы: размышления по поводу современной англоамериканской теории, - М., 2005. – С.27-28.
11. Bauman Z. Special Essay. Am I My Brother's Keeper? // *European Journal of Social Work*. 2000. Vol. 3. No. 1.



Gulparshin ALIMBETOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: alimbetovagulparshin@mail.com

NDPI dotsenti, f.f.n Z.Seytova taqrizi asosida

SIYOSATSHUNOSLIKDA SIYOSIY G‘OYA VA MAFKURALARGA OID ILMIY NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada Siyosiy mafkura – siyosiy voqelik va ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi ma’naviy shakllanish, ijtimoiy ong sohasidagi g‘oyalar majmuasi ekanligi, siyosiy mafkura ilmiy bilimga ega bo‘lgan mafkurachi – ishlab chiquvchilarning aqliy faoliyati natijasi bo‘lib, u asosan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan ta’limot va tushunchalarni ijtimoiy munosabatlar amaliyotiga kiritilganligi haqidagi ma’lumotlar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mafkura, g‘oya, siyosiy mafkura.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОЛИТИЧЕСКИМ ИДЕЯМ И ИДЕОЛОГИЯМ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ НАУКЕ

Аннотация

В статье утверждается, что Политическая идеология – это духовная идеология является результатом мыслительной деятельности идеологов образование, отражающее политическую действительность и общественную жизнь, совокупность представлений в сфере общественного сознания. Политическая -разработчиков, обладающих научными знаниями, и объясняется она главным образом сведениями о внедрении в практику общественных отношений учений и концепций, служащих развитию общества.

Ключевые слова: Идеология, идея, политическая идеология.

SCIENTIFIC THEORETICAL APPROACHES TO POLITICAL IDEAS AND IDEOLOGIES IN POLITICAL SCIENCE

Annotation

The article states that the Political ideology is a spiritual formation that reflects political reality and social life, a set of ideas in the sphere of public consciousness. Political ideology is the result of the mental activity of ideologists-developers with scientific knowledge, and it is explained mainly by information.

Key words: Ideology, idea, political ideology.

Kirish. O‘zbekiston 2016-yildan keyin global siyosiy tartibot, xalqaro taraqqiyot mezonlarining shakli shamoyili inobatga olingan holda milliy va tarixiy xususiyatlarimizdan kelib chiqib, muayyan muddatga mo‘ljallangan strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Rivojlanishning turli jabhalarini o‘zida mujassamlashtirgan bu dasturlar davlatning kelajak besh yildagi rejalarini aniq ko‘rsatib bermoqda. Bu esa xalq bilan maslahatlashuv asosida amalga oshirilmoqda. Bu haqda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida batafsil to‘xtalib o‘tgan. Unda, jumladan, shunday deyiladi: “Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat kurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mafkura atamasining intellektual samarasizlik, amaliy qobiliyatsizlik va ayniqsa xavfli siyosiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan ta’limot ekanligi haqidagi qarashlar 1829- yilda Treysi asari qayta nashr etilgandan keyin yanada keng tarqaldi. Ammo bularning barchasiga qaramay, mafkuraga bo‘lgan qiziqish bu guruhning tarqalishi bilan tugamadi. Treysi o‘z g‘oyalarining tarixiy rivojlanishini ochib berishga intilgan. Shu bilan birga, u inson tabiati haqida universal va haqiqiy bilim berishni xohladi. Boshqacha aytganda, Treysi XIX asrda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan Yevropa jamiyatlarining o‘rnini “fikrlar” darajasida tushuntirish va qonuniylashtirmoqchi edi. Ideal zamonaviy jamiyatni qanday barpo etish haqidagi g‘oyalarga

parallel ravishda u ideal zamonaviy "indivud" qanday qilib to‘g‘ri fikrlashi mumkinligining aniq formulasini taqdim etishga harakat qildi[2].

Ingliz olimi Styuart Xoll Britaniya va Amerika ijtimoiy-siyosiy nazariyasining mafkura tushunchasidan uzoqlashgani haqidagi qarashlarini ilgari suradi. Britaniya siyosiy nazariyasi mafkura atamasini asosan tavsiflovchi, “tizimli fikrlash to‘plami” ma’nosida qo‘llanilsada, olim anglo-sakson ijtimoiy nazariyasida mafkura konsepsiyasi "hech qachon to‘liq o‘zlashtirilmaydi" degan xulosaga keladi[3]. Mafkura nazariyasini ishlab chiqishga birinchi urinishlardan biri yana bir ingliz olimi Karl Manngeymga tegishli. Mangeym o‘zining “Mafkura va utopiya” (1929) asarida mafkuralarga ma’lum bir ijtimoiy tuzumni himoya qilishga xizmat qiluvchi tafakkur tizimi deb ta’riflagan[4]. Mafkura tushunchasidan konservativ asosda foydalanish Maykl Oakeshott kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan. An’aning muhimligini ta’kidlagan va XX asrning eng muhim konservativ mutafakkirlaridan biri sifatida e’tirof etilgan Maykl Oakeshott ta’kidlaganidek, “inson siyosiy faoliyatda cheksiz va tubsiz dengizga suzib ketdi”[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mafkura G‘arb sivilizatsiyasi davlat va fuqarolik jamiyati dualizmini amalga oshirgan zamonaviy davrda paydo bo‘ldi. Jamiyatdagi manfaatlar plyuralizmi, hokimiyat, ta’sir va kuch manbalarining ko‘pligi mafkuraviy konstruksiyalarda o‘z ifodasini topadi. Dunyo tartibining bipolyar modeli tugashi va Sobiq Ittifoq parchalanishidan so‘ng, mafkuralarning tugashi g‘oyasi yana faol qo‘llanila boshlandi. Uning eng faol jarchisi Frensis

Fukuyama edi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, G'arb liberalizmi, G'arb liberal demokratiyasi to'liq va yakuniy g'alabaga erishdi, shuning uchun kelajakda zamonaviy dunyoning butun rivojlanishi liberalizmga asoslangan jamiyatga aylanish yo'lida yotadi[6]. Bunga parallel ravishda Samuel Xantington tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy dunyoning muqobil konsepsiyasi ham jadal rivojlanmoqda. Uning asosiy tezisi "G'arb – dunyoning qolgan qismiga qarshi" formulasi edi. Xantington mafkuralar to'qnashuvi davrining tugashini va sivilizatsiyalar to'qnashuvi davrining boshlanishini e'lon qildi[7]. Mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish uchun ahamiyatli nomlar qatorida mashhur ingliz faylasufi J. Grey nomini ham aytib o'tish joiz. 2011- yil dekabr oyining oxirida uning "Bajarilmagan narsalarga cheksiz bog'liqlik" maqolasi nashr etildi. Maqolaning asosiy tezisi J. Grey tomonidan "dunyoviy ong afsonasi" (secular myth) deb atalgan taraqqiyot g'oyasini inkor etish edi[8].

Bu davrda bugunga qadar xalqimizning ma'naviy dunyosining yirik namoyondalari, nafaqat O'zbekiston, balki jahon ilm fani rivojiga katta hissa qo'shgan ko'plab allomalar, faylasuflar yetishib chiqqan. Ularning bebaho ilmiy merosi davlatchiligimiz tarixi uchun, milliy g'oya va mafkuramizning takomili uchun ham qimmatlidir. Misol tariqasida, Al-Xorazmiy "Aljabr" asarida, xususan, algebra, yangi geometrik kashfiyotlar, geometrik munosabatlar bilan algebraik munosabatlar orasidagi bog'lanish, algoritmlar nazariyasi va bularni kelajak avlodga qanday yetkazishga doir bunyodkor g'oyalarni asoslab berdi[9]. Xalqimiz tarixida yorqin iz qoldirgan yana bir olim – Abu Ali ibn Sino tibbiyot faniga asos solish bilan bir qatorda, jamiyat taraqqiyotiga doir g'oyalarni ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'lagan holda ko'rsatib bergan. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir", deb ta'kidlaydi[10]. Aynan shu vaqtga kelib, turkiy tilda ham bir qator yuksak saviyali asarlar yaratildi. Yusuf xos Hojib tomonidan 1069-yilda yozib tugallangan "Qutadg'u bilig" dostoni bunga yorqin misol bo'la oladi. Asarda turkiy xalqlarning birlashishi, yakdil bo'lishi xususida fikr bildirilgan bo'lib, "Ey turklar elati, baxt-qut bugun kulib boqdi, endi buning uchun ming bor shukronalar aytish kerak", deyilgan[11]. Xalqimiz tarixida yorqin iz qoldirgan ulug' sarkarda Amir Temur nomi ham davlatchiligimiz va milliy siyosiy g'oyalar shakllanishida o'ziga xos ahamiyatga ega. Amir Temur doimo ezgu g'oyalar bilan, jumladan, qay joydan bir g'isht olsin, o'rniga o'n g'isht qo'yish kerak, bir daraxt kestirilsa, o'rniga o'nta ko'chat ekish lozim, degan bunyodkor g'oyaga tayanib ish ko'rdi[12]. Ayni

paytda, respublikamizning keng ilmiy jamoatchiligi, siyosatshunos olimlari N.Jo'rayev, R.Jumayev, I.Ergashev, S.Jo'rayev, M.Qirg'izboyev, J.Mavlonov, B.Omonov va boshqalarning asarlari va monografiyalari siyosiy mafkura sohasini tadqiq etishda muhim hissa qo'shgan.

Tahlil va natijalar. Mavjud manbalardan tahlilidan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida siyosiy mafkura muammosi siyosiy fanlar doirasida alohida mavzu sifatida maxsus va chuqur o'rganilmagan. Global miqyosda jadallashayotgan siyosiy jarayonlarda siyosiy mafkuralarning o'rni va roli ortib bormoqda. Davlatlar ichki va tashqi siyosatda siyosiy mafkuralardan samarali foydalanmoqda, bu esa jamiyatlardagi siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu boisdan bugungi kunda zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosiy mafkuraning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar. Siyosiy mafkura – siyosiy voqealik va ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi ma'naviy shakllanish, ijtimoiy ong sohasidagi g'oyalar majmuasidir. Siyosiy imkoniyatlar, mobilizatsiya tuzilmalari, shakllantirish jarayonlari, norozilik davrlari va bahsli repertuarlar zamonaviy siyosiy jarayonlar nazariyalariga oid tadqiqotlarining asosini tashkil qiladi. Bu elementlar jamoat harakatlarining yuksalishi yoki pasayishi dinamikasini tushuntirishdan tashqari, ijtimoiy va siyosiy noroziliklarning mohiyatini hamda ularning natijalarini anglash, izohlash uchun ham qo'llaniladi;

Ijtimoiy nizolar uyushgan partiyalar o'rtasidagi doimiy ravishda kristallanadigan to'qnashuvlarga moyil bo'lgan jamiyatlar tuzilishidan kelib chiqadi;

Zamonaviylik va ratsionallikning inson ongiga mutlaq egalikka asoslangan yondashuvi aql bilan qurilgan buyuk mafkuralarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Inson ongining postmodern tanqidlari kelgusi asrlarda odamlarni mafkuralarning buzg'unchi ta'siridan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin;

Mafkuralar, shuningdek, inson tabiati, tarixiy voqealar, hozirgi voqealiklar va kelajak imkoniyatlari haqida da'volar yoki taxminlar qilish orqali dunyoni qanday bo'lsa, shunday tasvirlashga yoki talqin qilishga va dunyoni qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday tasavvur qilishga intiladi, ijtimoiy, iqtisodiy maqsadlar va siyosiy ideallarga erishishning maqbul usullarini aniqlaydi;

mafkura g'oyalar manbai tushunilsa, u ma'rifiy ta'lim sifatida insoniyatni jaholatdan saqlash va jamiyatning oqilona asosi sifatida foydalanishda katta foyda keltiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 7 bet.
2. Поддубный Н. В., Трунов А. А. Почему Идеология не стала наукой о рациональном мышлении? // Историческая психология и социология истории. 2016. Т. 9. № 2. С. 105-120.
3. Jeffries, Stuart. "Stuart Hall's Cultural Legacy: Britain Under the Microscope". The Guardian. London. Retrieved 10 October 2021.
4. Jeffries Stuart. "Stuart Hall's Cultural Legacy: Britain Under the Microscope". The Guardian. London. Retrieved 10 October 2021.
5. Oakeshott M., Review of E. H. Carr, The New Society, in Times Literary Supplement (12 October 1951); 'Mr Carr's First Volume', Cambridge Journal, vol. 4 (1950-1), pp. 344-52.
6. Fukuyama Francis. "Political Order and Political Decay: From the Industrial Revolution to the Globalization of Democracy". Stanford.edu. Retrieved December 29, 2016.
7. Samuel Huntington, 81, political scientist, scholar | Harvard Gazette". News.harvard.edu. February 5, 2009. Retrieved August 17, 2012.
8. "John Gray interview: how an English academic become the world's pre-eminent prophet of doom". The Telegraph. London. 28 February 2013. Retrieved 9 August 2013.
9. Muhammad ibn Muso Al Xorazmiy. Al-kitob al-muxtassar fi hisob al-jabr val-muqobala (Al-jabr almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob).
10. Ибн Сина. Избранные философские произведения. — М.: Наука, 1980.
11. Fitrat. Qutadg'u bilig. «Tanlangan asarlar». (nashrga tayyorl.H.Boltaboev). 2-jild. — T.: Ma'naviyat, 2000.



Shavkat ALIMUXAMEDOV,
O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

Taqrizchi sotsiologiya fanlari doktori, dotsent F.Ya.Parmonov,

XORIJIY DAVLATLARDAGI MAVJUD MUHITNING MEHNAT MIGRANTLARIGA TA'SIRI VA IJTIMOIIY OQIBATLARI

Аннотация

Maqolada migrantlarning boshqa madaniy muhitda ijtimoiy normalarga, qabul qiluvchi jamiyatning tarixan shakllangan an'analariga muvofiq xatti-harakatlari tahlili umumlashtirilgan. Qadriyatlar transformatsiyalashuvining ularning milliy mentalitetiga ta'siri, mamlakatlarda migrantlarning shakllanishi va shakllanishining geografik xususiyatlari, migrantlar kontingenti, chet davlatda uzoq muddat qolishining ijtimoiy oqibatlari va migratsiya jarayonlarining boshqa ijtimoiy xarakteristikalarini ko'rib chiqilgan. Materialda migrantni jamiyatning yot elementi sifatida o'zini his etishining ma'naviy xavfsizlikka ta'siri haqida nazariy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, migrant psixologiyasi, migrantofobiya, migrantksenofobiya, frustratsiya, resipient, etnomadaniy transformatsiya.

СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ И ВЛИЯНИЕ СКЛАДЫВАЮЩЕЙСЯ СРЕДЫ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ НА ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ

Аннотация

В статье обобщен анализ поведения мигрантов в иной культурной среде в соответствии с социальными нормами, исторически сложившимися традициями принимающего общества. Рассматривается влияние трансформации ценностей на их национальный менталитет, формирование и географические особенности становления мигрантов в странах, контингент мигрантов, социальные последствия долгого пребывания за рубежом и другие социальные характеристики процессов миграции. В материале содержатся теоретические выводы о влиянии фактора самоощущения мигранта как чужого элемента социума на духовную безопасность.

Ключевые слова: Миграционные процессы, социальное отчуждение, мигрантофобия, мигрантоксенофобия, фрустрация, реципиент, этнокультурная трансформация.

SOCIAL CONSEQUENCES AND IMPACT OF THE EMERGING ENVIRONMENT IN FOREIGN COUNTRIES ON MIGRANT WORKERS

Annotation

The article summarizes the analysis of the behavior of migrants in a different cultural environment in accordance with social norms, historically established traditions of the host society. The impact of the transformation of values on their national mentality, the formation and geographical characteristics of the formation of migrants in countries, the contingent of migrants, the social consequences of a long stay abroad and other social characteristics of migration processes are considered. The material contains theoretical conclusions about the influence of the migrant's sense of self as someone else's element of society on spiritual security.

Key words: migration processes, social alienation, migrantophobia, migrantxenophobia, frustration, recipient, ethnocultural transformation.

Kirish. Migratsiya jarayonida jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini dominant mezon sifatida qarash asosida shakllangan umumiy tasavvurlar barcha tarixiy davrlarga xos bo'lib, hozirgi globallashuv sharoitida migrantlar jamiyat iqtisodiy taraqqiyotiga, ijtimoiy va madaniy sohalarini rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya tufayli har xil millat vakillari, turli tillarda gapiradigan, rang-barang urf-odatlariga, dinlar va yashash tarziga ega kishilar bilan muloqotga kirishmoqda. Bu munosabatlar migrantlarni qabul qilgan jamiyat va migrantlar ongi stereotiplari, turmush tarzi standartlarini o'zgarishlariga olib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. MDH davlatlarining taniqli iqtisodchi, huquqshunos olimlari, siyosatshunoslari, sotsiologlari, demograflarining chop etgan ilmiy nashrlarda (maqolalari, monografiyalari, dissertatsiyalari, darslik va o'quv qo'llanmalari) "migratsiya", "mehnat migratsiyasi", "ishchi kuchi migratsiyasi"ning mazmun mohiyati, shakllari, migratsiyaga ta'sir etuvchi omillar, migratsiyaning ijobiy jihatlari va salbiy oqibatlari, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'siri va mazkur sohaga

tegishli turli masalalarning ayrim jihatlari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, ingliz iqtisodchi olimi J.M.Keyns[4], rossiyalik olimlar V.A.Ionsev, A.A.Subbotin[3], o'zbekistonlik olimlar Q.X.Abdyraxmonov[1], M.M.Muxammedov, N.U.Arabov[2] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida migratsiya nazariyasiga oid tadqiqotlarni o'rganish bo'yicha dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy tahlil, sotsiologik, statistik hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi globallashgan dunyoda har qanday davlatning moddiy ishlab chiqarishini rivojlantirish ehtiyoji mehnat bozorida migrantlar ishchi kuchiga muhtoj. Shu jumladan, mahalliy aholi kundalik hayotda migrant-muhojirlar bilan o'zaro aloqada bo'lishga majbur. Chunki muhojirlar ularning turli maishiy xizmatlarda asosiy ishchi kuchi hisoblanadi. Shuning uchun mahalliy aholi o'rtasida "Men kelgindi-muhojirlarni yoqtirmayman, ammo menga arzon narxda, yaxshi ish bajaruvchilar kerak. Mayli,

ular “kelgindi” bo‘la qolsin. Ammo men mablag‘imni tejab qolaman”[5], deb fikrlovchilar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Migrantofobiya, aksariyat hollarda, “etnik-millatchilik libosi”ga o‘ralgan bo‘ladi. Resipient (qabul qiluvchi) mamlakatlarning migrantlarga nisbatan intolerantligi (ya‘ni, bag‘rikeng bo‘lmasligi) mahalliy aholi va migrantlar o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarishida asosiy sabablardan biri bo‘lmoqda.

Maishiy hayot darajasida “migrantksenofobiya” har qanday davlatda bo‘lishi mumkin. Odamlarning kundalik ongida kishilarni “o‘ziniki” va “begonalar”ga bo‘lish, o‘zi va boshqalarning etnik, konfessional, sotsial va boshqa ijtimoiy guruhlariga mansubligiga oid belgilar, mental xususiyatlar migrantlarni noformal uyushmalarga jalb qilishga asos bo‘ladi. Bu belgilarga turli tarixiy davrlar va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda migrantlarning milliy tili va urf-odatlarini, tarixiy an‘ana va tasavvurlari, dini va maishiy madaniyati kabi xususiyatlari kirgan.

Agar biror davlatda migrantlarga qarshi radikal ksenofob yoki millatchi kuchlar bosh ko‘tarsa, ular tabiiyki, «begona» deb hisoblaydigan migrantlarning jamiyatdagi rolini, ijtimoiy mavqei, daromad darajasi va boshqa ko‘rsatkichlarini e‘tiborga olmaydi. Ayniqsa, ularda “olomon psixologiyasi” junbushga kelgan vaziyatlarda agressiv ehtiroslar yuqori darajada namoyon bo‘ladi va ziddiyatlarni keskinlashtiradi.

Tabiiy ravishda, ularga migrantlarning reaksiyasi (aksariyat holatlarda, ularga ijobiy munosabatda bo‘lgan mahalliy aholining himoya qilishi) noformal guruhlar shakllanishiga, nisbatan mukammal tashkillashgan diasporalar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda migrantlarga munosabatni ularning geografik o‘rni, milliy va diniy mansubligi nuqtai nazaridan baholash ustuvor.

Bundan tashqari, mahalliy kadrlar chet ellik hamkasblariga zimdan qarshilik qilishi mumkin. Ya‘ni, boshqa davlatdan kelgan muhojir-mutaxassislarining yaxshiroq ijtimoiy pozitsiyani egallashi, yuqori daromadga ega bo‘lishi ularning g‘ashiga tegishi mumkin.

Migrantlarning farzandlari ham e‘tiborga muhtoj. Xususan, ular o‘ziga tanish an‘anaviy hayotdan ajralib, tili va madaniyati mutlaqo begona jamiyatga tushib qolganidan kattalarga qaraganda ko‘proq jabr ko‘radi. Bu esa, o‘z navbatida, oilalarning yosh a‘zolari farovonligi va kelajak hayotini o‘zgarishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillarning migrantlar ijtimoiy hayotiga salbiy oqibatlarini nuqtai nazaridan qaralsa, quyidagi umumlashgan xulosalarga kelish mumkin, ya‘ni migrantlar a) o‘z yurtidan ixtiyoriy yoki g‘ayriixtiyoriy ayrilgan, aksariyati, vataniga qaytish imkoniyati chegaralanganligi yoki yo‘qligidan jabr ko‘radi; b) deyarli barchasi asosiy fuqarolik

huquqlaridan mahrum, ular garchi rasman “qora ishchi” deb yuritilmasa-da, ammo bajarayotgan ishlari, yashash sharoiti shundan dalolat beradi; v) majburiy askar – qotillar, muayyan siyosiy kuchlarning manfaatlarini yo‘lida aldov yo‘li bilan olib kelinib, ularning harbiy harakatlarda foydalaniladi; g) migratsiya qismatida oilalaridan ajratilishi natijasida ko‘plab oilalar parokanda bo‘ladi; d) arzoniga sotilgan ishchi kuchi bo‘lib, asosan, mehnati bilan manzil davlatlar iqtisodiyoti taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ushbu omillar migrantlar hayotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi, ularning noformal guruhlari paydo bo‘lishiga turtki beradi.

Xalqaro terrorchilik tashkilotlarining oddiy a‘zolari, marginallashgan kishilar hayotda o‘z o‘mini topa olmagan migrantlar ekanligini ta‘kidlash kerak. Ular sotsial-psixologik, fiziologik, demografik xususiyatlariga ko‘ra mafkuraviy jihatdan “ishlov berilishga”, kriminallikka moyil, deviant xulq-atvorli kishilardir.

O‘zbekistonlik fuqarolarning tashqi migratsiya faolligining o‘shishi va bunda asosiy ulush mehnat migratsiyasi ekanligini hamda ularning chet davlatlarda ishga joylashish va ishlash davrlarida duch kelayotgan qiyinchiliklarini inobatga olgan holda chet davlatlarda ish bilan ta‘minlashni boshqarish yangi mexanizmlar va yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli, mazkur sohaning hozirgi kundagi holatini o‘rganishga hamda muammoli, ziddiyatli nuqtalarni aniqlashga oid fundamental va empirik tadqiqotlar o‘tkazish masalasi o‘z dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Ma‘lum bo‘lishicha, bugungi kunda O‘zbekistonda 19 millionga yaqin fuqaro mehnatga layoqatli hisoblanadi. Tashqi mehnat migratsiya agentligi ma‘lumotiga ko‘ra, “2022-yil 1-mart holati bo‘yicha xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar soni 2 million 356 nafarni tashkil etadi. Xususan, ularning 1 million 450 nafari Rossiyada, 366 ming nafari Qozog‘istonda, 47 ming nafari Koreyada, 144 ming nafari Turkiyada va 329 ming nafari boshqa davlatlarda mehnat qilyapti”[8]. Shu bilan birga migrant – respondentlarning chet davlatga chiqish uchun tegishli hujjatlarni qonuniy rasmiylashtirishlari respublikada mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohatlarning va olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini ko‘rsatmoqda. Ushbu yo‘nalishda chiqib ketayotgan chet davlatning qonunlarini bilish va ularga rioya qilishni tushuntirish va ishontirish uslublarini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. “Chet davlatga ishga ketish uchun chegaradan o‘tish vaqtida qanday qiyinchiliklarga duch kelmoqdasiz?”, degan savolga respondentlarning 35,1%i xorijga chiqishda muammo va qiyinchiliklar yo‘q, hech qanday muammosiz chiqib ketish mumkin, deb javob berganlar (1-jadval).

1-jadval[9]

Migrantlarning chet mamlakatga ishga ketishlarida duch keladigan qiyinchiliklari	Soni	foiz
Hujjatlarni rasmiylashtirish murakkabligi (byurokratiya)	104	23,6
Hujjatlarni rasmiylashtirish vaqtida korrupsiya holatlari	72	16,3
Chegaradan o‘tish vaqtidagi muammolar (pora berish)	86	19,5
Xorijga chiqishda muammo va qiyinchiliklar yo‘q	155	35,1
Boshqa narsalar	28	6,3
Qo‘pol munosabat	2	0,5
Til bilmaslik	4	0,9
Bilmayman	12	2,7
Yashash uchun joy topish/yashash sharoitlarining qoniqarsizligi hamda xuquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tez-tez tekshiruvlar	3	0,7
Hujjatlarni rasmiylashtirish qimmatligi	2	0,5
Yashash joyida ro‘yxatdan o‘tishda qiyinchiliklar	1	0,2
Agar hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilgan bo‘lsa muammolar bo‘lmaydi	1	0,2
Yaqinlarini sog‘inish	2	0,5
Qiyinchiliklarga duch kelmadim	1	0,2
Javob yo‘q	21	4,8

Mehnat migranti uchun dolzarb masala bu borgan mamlakatda uning uchun ish joyining mavjudligi. Chunki, ularning taqdiri ayni shu vaziyat bilan belgilanadi. Migrant xorijda ish izlashga qancha ko'p vaqt sarflasa, shu darajada turli muammolarga duch kelishi mumkin. Tadqiqotlarda ushbu omilning ahamiyati quyidagicha o'z aksini topdi. 49%

respondent chet davlatga avvaldan tayyorlab qo'yilgan ish joylariga kelganligini bildirgan. 27% respondent chet davlatda ish qidirish uchun o'rtacha 3 oydan 6 oygacha muddatni va 5% respondent 6 oydan 1 yilgacha muddatni ko'rsatgan (2-jadval).

Javoblar	Soni	foiz
men chet elda ishlayotgan do'stlarim yoki qarindoshlarim oldindan topgan tayyor ish joyiga keldim	217	49
3 oygacha	118	27
3-6 oygacha	49	11
6 oydan - 1 yilgacha	24	5
1-2 yilgacha	10	2
3-5 yilgacha	39	8,8
Boshqa muddatlar:	10	2,3
1 oy ichida	4	0,9
milliy markazlar yordam berishdi	1	0,2
ishga qarab	4	0,9
shartnoma asosida borganman	1	0,2
Javob yo'q	13	2,9

Mutaxassis-psixologlarning fikricha, muhojir-migrantlarning, hatto, qisqa muddatga bo'lsa-da umidsizlikka tushishi, soddaligi tufayli aldanib qolishi, g'ayrat-shijoatini yo'qotishi, frustratsiya (ya'ni, aldanganlik, xohish-istaklarning real mavjud imkoniyatlarga mos kelmasligi), yolg'izligini his qilish holatlari ularni turli noformal guruhlariga, ayrim hollarda ekstremistik tashkilotlarga jalb etishda juda qo'l keladi [6].

Mutasaddi davlat tashkilotlari va MDH a'zo davlatlarining musulmonlar idoralari tomonidan ko'rilayotgan amaliy va tashkiliy chora-tadbirlar bu sohada vaziyatni yumshatayotgan bo'lsada, yoshlar va migrantlarni mazkur tashkilotlarga jalb etish holatlari hozir ham mavjudligini Rossiya Federatsiyasida 2018 yil mart oyiga qadar 19 ta ekstremistik, millatchilik va fashistik tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yilganligidan ham bilish mumkin [7].

Xususan, xorijda borgan mehnat migrantlarining 19%i tegishli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan yashayotganligi, ularda "odam savdosi" yoki boshqa jinoyatlar bilan bog'liq turli salbiy hodisalar natijasida deviant xulq-atvor shakllanishi uchun potensial imkoniyat yaratadi. Bular aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kengaytirish muhimligini ko'rsatadi.

Respondentlarning 40,4% mezbun mamlakat aholisining aksariyati migrantlarga yaxshi munosabatda ekanligini, 25% esa ularga nisbatan mehmondo'stligini ko'rsatishgan. 21,2% mahalliy aholining migrantlarga loqayd munosabatini, 8% ularni yoqtirmasligini qayd etishgan. 5,2% respondent mazkur savolga javob bermagan [11].

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, migrant-respondentlarning fikricha, eng dolzarb muammo –

ish beruvchi davlat tilini bilmaslik (35%), ikkinchi o'rinda, yashash joyi (30%), ish bilan ta'minlanish (28%) kabi muammolarni ko'rsatganlar. Bu muammolar migrantlar kontingenti-da noformal guruhlar shakllanishiga olib kelmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy himoyaga muhtoj migrantlar va ularning oila a'zolari bo'yicha, birinchi navbatda ularning bandligini ta'minlash, oilaviy va maishiy ziddiyatlarni oldini olish va xorij sharoitida uzoq muddat bo'lishning sotsial oqibatlarini xususidagi tahlillarni umumlashtirib, quyidagi nazariy xulosalarni aytish mumkin:

birinchidan, ma'muriy-hududiy, etnomadaniy chegara bilmaydigan yangi, nisbatan universal ijtimoiy munosabatlar tizimi, strukturaviy elementlarni funksional integratsiyalash-tirish hamda takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi;

ikkinchidan, migrantlar etnomadaniyatining yangi sotsial voqelikka moslashgan, modernizatsiyalashgan, integratsiyalashgan milliy madaniyatlar va sub'ektiv omillar tizimini faolligi, ularning o'zaro korrelyatsion aloqadorligini taqozo qiladi;

uchinchidan, migrantlar global ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlarga, mamlakatlar migratsiya siyosatiga "distansion" ta'sir o'tkazib, ularni qabul qiluvchi davlatlar etnomadaniy qadriyatlarini bilan subordinatsion munosabatda bo'ladi;

to'rtinchidan, davlatlarning migrantlar manzillari, turmush tarzi va ijtimoiy ongini o'zgartirishiga kompleks-tizimli ta'sirida nazariy-metodologik asoslari va xalqaro hamkorlik munosabatlari mukammalligi ularning samaradorligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. 3-nashr. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyot DK, 2019. - 592 b.
2. Muxammedov M.M., Arabov N.U. Tashqi mehnat migratsiyasi: muammo va yechimlar //Journal of marketing, business and management (JMBM.uz) <https://cyberleninka.ru/article/n/tash-i-me-nat-migratsiyasi-muammolar-va-echimlar/viewer>
3. Ионцев В.А., Субботин А.А. Современные сценарии демографического будущего мира (на примере России и Германии // Балтийский регион, издательство Изд-во БФУ им. И. Канта (Калининград), том 10, № 3, с.4-18, https://journals.kantiana.ru/baltic_region/4016/11454/.
4. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс.- М.: Гелиос, 1999. – 472 б.
5. Опрос Аналитического Центра Юрия Левады. 2021. Формулировка вопроса: «Как Вы относитесь в целом к приезжим (этническая группа)?» Варианты ответов: «С симпатией, интересом», «Спокойно, как к любым другим, без особых чувств», «С раздражением, неприязнью», «С недоверием, страхом», «Затрудняюсь ответить». Опрошено 2107 респондентов.

6. Романов А. В. Психологические причины вовлечения в деструктивные религиозные культы // Журнал практического психолога. 2000. No 1-2. С. 35-39.
7. Профилактика терроризма и экстремизма в молодежной среде. – М.: 2018. С. 5-30.
8. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlari 05.04.2022. <http://www.migration.uz/>.
9. Rossiya Federatsiyasida 1 yildan kam bo'lmagan migrant-respondentlar orasida 2021-yilda respublika hududida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari tahlili.
10. Rossiya Federatsiyasida 1 yildan kam bo'lmagan migrant-respondentlar orasida 2021-yilda respublika hududida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari tahlili.
11. Rossiya Federatsiyasida 1 yildan kam bo'lmagan migrant-respondentlar orasida 2021-yilda respublika hududida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari tahlili.



Nozimbek ALMATAYEV,
Andijan mashinasozlik instituti doktoranti
E-mail: nozim_almataev@mail.ru

Andijan mashinasozlik instituti dotsenti, (PhD) I.Sirojiddinova taqrizi asosida

FORMATION OF SKILLS FOR PRODUCING SPECIMENS FROM POLYMER MATERIALS

Annotation

The article explains to students the advantages of the injection molding method in the manufacture of experimental samples of composite polymer materials, how to familiarize them with the process and its stages and form their practical skills.

Key words: Pressure, form, skill, product, plastic, temperature, knowledge.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ИЗГОТОВЛЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ИЗ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация

В статье студентам разъясняются преимущества метода литья под давлением при изготовлении экспериментальных образцов композиционных полимерных материалов, как ознакомить их с процессом и его этапами и сформировать у них практические навыки.

Ключевые слова: Давление, форма, навык, продукт, пластик, температура, знание.

POLIMER MATERIALLARDAN NA'MUNA TAYYORLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada talabalarga kompozitsion polimer materiallardan tajriba na'munalarini tayyorlashda bosim ostida quyish usulining afzalliklari, jarayon va uning bosqichlari bilan tanishib ularda amaliy ko'nikmalar hosil qilishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Bosim, qolip, ko'nikma, mahsulot, plastmassa, xarorat, bilim.

Kirish. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20- apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli qaror qabul qilindi[1].

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish jarayonini tashkil etish vositalari talabalar va o'qituvchilar faoliyatlarining barcha komponentlari bilan aloqadordir. Ular qo'yilgan maqsad bilan, ifodalayotgan jarayonni tashkil etish metodlari va shakllariga bog'liq hamda shaxsning rivojlanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Aynan shuning uchun kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish vositalari sifatida uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan hayot faoliyatining omillari samarali hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish muayyan darajasi uchun dolzarb hisoblangan vazifalarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan o'rta muddatli maqsadlarni belgilash kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish jarayonining optimalligini ta'minlovchi vositalar majmuyini aniqlashtirishga imkon beradi[3].

Mavzuiga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini kompleks o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalari asosida berilgan xulosalarda oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta'minlanmaganligi, talabalarining malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazish samarali tashkil etilmagan oqibatida bitiruvchilarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga, ishga joylashgandan keyin qaytadan o'z kasbini, mutaxassisligini o'rganayotganligi, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamonaviy talablarga javob bermasligi kabi kamchiliklar qayd etilgan. Bu o'z navbatida ilmiy salohiyatining pasayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3151-sonli qarori milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganidir[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarga sifatli ta'lim berishda zamonaviy jihozlardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Bu talabalarining ishlab chiqarishdagi jarayonlardan ko'nikma hosil qilishida katta ahamiyatga ega.

Bosim ostida quyish avtomobil detallarini olishdagi eng keng tarqalgan usul bo'lib, unda suyuq plastmassa bosim ostida metall qolipga quyiladi, ustiga teng taqsimlanadi va qattiqlashadi. Bosim ostida quyish jarayoni murakkab uskunalar va jiddiy texnik tayyorgarlikni talab qiladi. Ushbu texnologiya yordamida qo'shimcha ishlov bermasdan har qanday plastik mahsulotlar olinadi.

Tahlil va natijalar. Detallarni bosim ostida quyish usulida ish unumi yuqori bo'lib, u quyidagi afzalliklarga ega[4]:

1. Tayyor mahsulotning yuqori aniqligi. Suyuq plastmassani bosim ostida quyish(yuborish) uning shakli bo'yicha teng ravishda taqsimlanishiga imkon beradi, hatto eng kichik teshiklarni ham to'ldiradi.

2. Har qanday murakkablikdagi qismlarni olish imkoniyati, shu jumladan, juda nozik devorlari bilan. Mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun metall qolip tayyorlanadi, konstruktsiya kelajakdagi mahsulotning barcha kichik detallarini hisobga oladi. Natijada oddiy va juda murakkab mahsulotni, ko'plab teshik va burmalar bilan olish mumkin.

3. Mahsulotni mexanik qayta ishlashga bo'lgan ehtiyoj minimal. Ko'pincha, tayyor mahsulot hech qanday ishlov berishni talab qilmaydi. Murakkab mahsulotlarni ham ishlab chiqarishda sarf-xarajatlar juda kichik.

4. Cheksiz tayyor mahsulotlar. Ishlab chiqarishdan oldin yaratilgan metall qolip juda uzoq vaqt xizmat qiladi, uning yordamida istalgan miqdordagi mahsulotni tayyorlashingiz mumkin;

5. Arzon narx-katta partiyani ishlab chiqarish sharti bilan. Qancha buyumlar tayyorlansa, bitta nusxaning narhi shuncha arzonlashadi. Chunki asosiy byudjet faqat bir marta amalga oshiriladigan tayyorgarlik ishlari bosqichiga sarflanadi.

Bosim ostida quyish usuli bilan plastik mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Tayyorgarlik ishlari;

To'g'ridan-to'g'ri quyish ;

Tayyorgarlik ishlari.

1. Mahsulotning 3D modelini yaratish. 3D - modelni chizmalar, tavsiflar yoki fotosuratlar holida yaratish mumkin. Uch o'lchovli modellash tirish tajribali mutaxassis tomonidan maxsus dasturda amalga oshiriladi.

2. Prototip tayyorlash. 3D model yaratilib tasdiqlangandan so'ng prototipni yaratish mumkin, ya'ni kelajakdagi mahsulot na'munasi. Bu ko'pincha 3D bosib chiqarish jihozi yordamida amalga oshiriladi. Kelajakdagi mahsulotni baholash va sinovdan o'tkazish uchun prototip kerak. Agar biron bir noaniqlik aniqlansa, birinchi bosqichga qaytiladi va 3D model yakunlanadi.

3. Qolipni loyihalashtirish. Ushbu jarayon kelajakdagi mahsulotning 3D modeli asosida amalga oshiriladi. Loyihalashda detalning barcha eng kichik tafsilot va nozik jihatlarni hisobga olish muhim.

4. Qolip tayyorlash. Tayyor 3D modeli bir nechta qismlarga bo'linadi. Har bir qism alohida-alohida tayyorlanadi, undan keyin ular qolipga yig'iladi.

5. Sinov o'tkazish. Keyin, tayyor qolipdan foydalanib mahsulotning birinchi nusxasi tayyorlanadi, u sinchkovlik bilan o'rganilib sinovdan o'tkaziladi. Agar noaniqliklar yoki kamchiliklar topilsa qolip tozalanadi.

Tayyorgarlik ishlari bir necha haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Biroq, bu shoshilmaslik kerak bo'lgan muhim bosqich. Kelajakdagi mahsulotlarning sifati bunga bog'liq.

Hozirgi kunda mahsulotning 3D modelini yaratish, prototip tayyorlash va qolipni loyihalashtirish ishlari Andijon mashinasozlik institutining "Avtomoblsozlik" kafedrasida qoshida tashkil etilgan "Reinjiningering va loyihalash"

innovatsion ilmiy tadqiqot laboratoriyasida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

To'g'ridan-to'g'ri quyish:

1. Plastmassani bosim ostida qolipga quyish. Suyultirilgan plastmassa yuqori bosim ostida qolipga quyiladi.

2. Plastmassani qolipga teng ravishda taqsimlash. Bosim tufayli plastmassa shakli bo'ylab teng ravishda taqsimlanadi, hatto kichik teshiklarni ham to'ldiradi.

3. Qolipni sovutish va plastik detalni qattiqlashishi. Sovutish vaqti bir nechta parametrlarga bog'liq: plastmassa turi, qolip xarorati va boshqalar. Kichik narsalar uchun odatda bir necha soniya kifoya.


4. Tayyor mahsulot. Qolip sovigandan so'ng, tayyor mahsulotni berish uchun ochiladi [4].

To'g'ridan-to'g'ri quyish jarayoni uchun quyish (termoplast avtomat) jihozi kerak bo'ladi. Bosim ostida quyish jihozi 1-rasmda keltirilgan. Bosim ostida quyish mashinasi shtok (1), porshen(2), silindr(3), soplo(4) va pressforma(5)dan iborat.

Quyish mashinasining solish bunkeriga (1) 600-650 g plastmassa kompozitsiyasi solinadi. Plastmassa kompozitsiyasi quyish mashinasining material silindriga (3) beriladi va unda 30-40 minut davomida 240-270 OC xaroratgacha qizdiriladi. 240 OC xaroratgacha qizdirilgan detal (4) dastlab 80-100 OC gacha qizdirilgan shakl beruvchi taxtakach (5) ga o'rnatiladi.

Quyish mashinasining porsheni (7) o'ngdan chapga xarakatlanganda, suyulgan plastmassa kompozitsiya (6) silindrdan siqib uchi chiqariladi va u shakllantirish sirti bilan yeyilgan detal sirti orasidagi tirqish to'ladi. Shunga suyuq kompozitsiyaning xarorati uning suyulish haroratidan 20 OC yuqori, quymaning solishtirma bosimi 30-35 MPa, bosim ostida turish vaqti 20 soat bo'lishi kerak. Shundan keyin bosim pasaytiriladi pressforma ajratiladi. Undan tiklangan detal chiqarib olinadi, choklar tozalanadi, materialning oqib qolgan ortiqcha bo'laklari olib tashlanadi, detalga moyda 120-130 OC xaroratda, 1,5-2 soat davomida termik ishlov beriladi. So'ng detal moy bilan birga 110 OC gacha sovutiladi va ochiqda uy haroratigacha sovutiladi. Plastmassalar bosim ostida quyganda uning o'lchamlarini 24 soat keyin tekshirish kerak[4].

Plastmassa materiallardan bosim ostida avtomobil detallarini tayyorlashda bosim kuchini ushlab turish vaqti va qolipni qizdirish xarorati katta ahamiyatga ega. Buni biz O'zbekistonda Sho'rtan, Muborak va Ustyurt gaz komplekslarida ishlab chiqarilayotgan maxalliy plastmassa xom ashyolari yuqori va past bosimli polietilen hamda polipropilen misolida ko'rib chiqamiz.




1- rasm. Detailarni bosim ostida quyish uskunasi sxemasi.

1-shtok, 2-porshen, 3-silindr, 4-soplo, 5-pressforma, 6-suyultirilgan plastmassa, 7- detal.

2-rasmda polietilen va polipropilenlarning bosim bilan quyishda yuklanishning ushlab turish vaqtiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Grafikni taxlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ushlab turish vaqti ortishi bilan bosim kuchi ham ortadi. Lekin uning miqdori 15-20 sekunddan oshgandan so'ng yuklanishning qiymati kamayib ketadi.

Yuklanishning eng yuqori qiymati polipropilenda kuzatilsa, eng kam miqdori esa past bosimli polietilenda kuzatildi. Bu plastmassalarining fizik-mexanik xossalari va ularning strukturaviy tuzilishiga bog'liqdir. Bundan xulosa shuki, plastmassalar orasida yuqori bosimli polietilening bosim ostida qolipga quyilishi boshqalarga nisbatan ravon va tez, buning uchun katta bosim kuch zarurati yo'q.



2- rasm. Plastmassa materiallarning bosim bilan quyishda yuklanishning ushlab turish vaqtiga bog'liqlik grafigi. polipropilen, 2-yuqori bosimli polietilen, 3- past bosimli polietilen.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqot natijalarini taxlil qilish va o'rganish asosida quyidagi xulosalar qilish mumkin:

talabalarining bilim ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi;

talabalarni ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash;

talabalarining ishga joylashgandan keyin o'z bilimini qayta oshirishga muhtoj bo'lmasligi.

Shu bilan talabalarining bilim darajasini bir necha barobar oshirib, mamlakat rivoji uchun zarur bo'lgan yetuk sifatli kadrlar yetishtirib berish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3171590>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-3151-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3286194>.
3. Sirojiddinova I. Innovatsion faollik jarayonida psixologik-pedagogik intefratsiya mexanizmini shakllantirish usullari. Andijon mashinasozlik instituti «Raqamli hayot va ijtimoiy fanlarning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi o'rni va ahamiyati: dolzarb muammolar va istiqbol» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 12-aprel. 2022. 20-23 betlar.
4. <https://klona.ua/blog/liteynoe-proizvodstvo/tehnologiya-litya-plastika-pod-davleniem-prosto-o-slojnom>.
5. To'raev Sh.A., Almataev N.T. Avtomobil plastmassa detallarini bosim ostida tayyorlashda fizikaviy holatini aniqlash. Innovatsion rivojlanish muammolari: ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi" mavzusidagi Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. AndMI, 24 noyabr. 2016 y. 44-46 betlar.
6. Алматаев Т.О., Алматаев Н.Т., Шарипов К.А. Исследование технологических свойств местных полимерных материалов машиностроительного назначения. Universum: Технические науки. № 11 (80). Москва-2020. 70-71 betlar.



Damegul ARAPBAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, psix.f.n.
O'zMU mustaqil izlanuvchisi (DSc).
E-mail: damegul.83@mail.ru

O'zMU professori, psixologiya fanlari doktori A.I.Rasulov taqrizi asosida

OILA PSIXOLOGIYASIDA AJRASHISHNING TADQIQ ETILISHI

Аннотация

Maqolada – “Ajrashish – er va xotinning hayot vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlari tomonidan yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan alohida holatlarda sud qarori bo'yicha nikohning bekor qilinishidir” –, deb ta'riflanadi.

Psixolog olimlar tomonidan oila psixologiyasi doirasida ajrashish muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida to'xtalib o'tilgan.

Ajrashishning so'ngi yillardagi asosiy omillari va bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, nikohning buzilishiga olib keladigan turli sabablar mavjudligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Nikoh, oila, ajrashish, ajrashish sabablari, ajrashish bosqichlari, muloqot, xulq-atvor.

ИЗУЧЕНИЕ РАЗВОДА В СЕМЕЙНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В статье определено, что “разводом является расторжение брака органами записи актов гражданского состояния при жизни мужа и жены или по решению суда в особых случаях, предусмотренных законом”.

Обсуждены исследования психологов по проблеме развода в рамках семейной психологии.

Выделены основные факторы и этапы разводов за последние годы. Также проанализировано, что существуют различные причины, которые приводят к распаду брака.

Ключевые слова: Брак, семья, развод, причины развода, этапы развода, общение, поведение.

THE STUDY OF DIVORCE IN FAMILY PSYCHOLOGY

Annotation

The article defines that “divorce is the dissolution of marriage by the civil registry authorities during the life of the husband and wife or by a court decision in special cases provided for by law”.

In this article the researches of psychologists on the problem of divorce within the framework of family psychology are discussed.

The main factors and stages of divorces in recent years are highlighted. It is also analyzed that there are various reasons that lead to the breakup of marriage.

Key words: Marriage, family, divorce, reasons for divorce, stages of divorce, communication, behavior.

Kirish. Nikoh – bir-birini sevgan va nikoh yoshiga yetgan erkak va ayolning umuminsoniy qadriyatlar va Sharq an'analariga asoslangan, oilada bolalarni tarbiyalashga yo'naltirilgan, o'zaro shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradigan, qonun asosida, oilani yaratish maqsadida o'zaro kelishilgan, butun umrga mo'ljallangan ittifoqidir. Nikohga birinchi navbatda ikki tomonning majburiyati va huquqlariga asoslangan shartnoma sifatida qaraladi.

Oila – jamiyatning asosidir. Nikohda bir erkak va bir ayol o'rtasida doimiy va uyg'un yashash, ular o'rtasida murakkab ijtimoiy, axloqiy, biologik va huquqiy munosabatlar bo'lishi kerak. Ushbu munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, tugatish faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oila psixologiyasida ajrashishlar muammosi dolzarb hisoblanadi. Ajrashish – er va xotinning hayot vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlari tomonidan yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan alohida holatlarda sud qarori bo'yicha nikohning bekor qilinishidir. Nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohni bekor qilish yo'li bilan, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq tugatilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Olimlar tomonidan ajrashishning o'ziga xos shakllari, bosqichlari, sabablari va oqibatlarini tadqiq etilgan. Ajrashish yuzaga kelganda insonning o'zi atrofida qilargana sezilarli salbiy ta'sir o'tkazadi. Xususan, ajrashish oqibatida oila a'zolari psixologiyasida quyidagilar namoyon bo'ladi:

oiladagi bola ruhiyatida tiklab bo'lmaydigan chuqur o'zgarishlar ro'y beradi;

oilaning har bir a'zosi psixologiyasida ishonchsizlik, g'azab, qahr, o'ch olish, agressivlik kabi bir qator salbiy xislatlar vujudga keladi;

erkaklarda yolg'izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar, ayollarda esa yolg'izlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli xastaliklar, o'z joniga qasd qilish kabilar yuzaga keladi;

oilada tinchi bo'lmagan, ajrashishga yo'liqqan odamning mehnati, o'qishi, faoliyatining samaradorligi pasayib ketadi;

salomatligiga, hayotdagi qiziqishlariga putur yetadi [8].

Oilaviy munosabatlarga ta'sir etuvchi omillardan biri bu oiladagi ajrashish sabablaridir.

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimovaning "Oila psixologiyasi" nomli darsligida nikoh ajrimlarining sabablari va omillari xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Professor V.M.Karimova nikoh ajrimlari bo'yicha quyidagilarni ta'kidlaydi: nikoh ajrimlariga kelsak, bunday holat Sharq xalqlarida ham, bizda ham sodir bo'lgan. Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo'lgan omillar sifatida, avvalo, er yoki xotinda to'ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko'p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan "til" topishib ketishi, baabro' va mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo'rlik bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepustligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, iqtisodiy nochor, yosh oilaning o'z ro'zg'orini yurita olmaganligidan ayolning boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo'lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan. Muhimi shundaki, nikohning barbod bo'lishidagi tashabbus, asosan, erkak kishining qo'lida bo'lgan. Agar u xohlasagina nikoh barbod bo'lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko'rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki, tosh bo'ron qilinganligi to'g'risida qadimgi tarixdan, eski kinofilmlardan ma'lum [3].

T.B.Norimbetov tomonidan "O'zbekistonda yashovchi qozoq oilalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" (2008) nomli nomzodlik dissertatsiyasi tadqiqotida O'zbekistonda istiqomat qilayotgan qozoq oilalarida ajrashish muammosini "sof" va "aralash" madaniyatlarga ajratgan holda o'rganadi.

Olingan natijalarga ko'ra, O'zbekistonda yashovchi qozoq oilalarida ajrashishlar soni ancha past (butun respublika bo'yicha umumiy ajrashishlar sonining 4-7% ni tashkil etgan. 2008-yil holati bo'yicha). "Sof" va "aralash" madaniyatlar sharoitlarida ajrashishlar ko'rsatkichi bir-biridan farq qilishi kuzatilgan. AM sharoitida ajrashishlar, asosan, birinchi 3 yillikda sodir etilgan. Ulardan 70% ining farzandlari yo'q, 23% ining 1 ta farzandi, faqat 7% ining ikki yoki undan ortiq farzandlari bor. Tadqiqotda 7-10 yildan so'ng ajrashgan er-xotinlar ham bor bo'lib, ularning ajrashishiga asosiy sabab qilib farzand yo'qligi va boshqa sabablar (turmush o'rtog'ining xiyonati, ichkilikka ruju qo'yishi, do'pposlash va boshqalar) ko'rsatilgan [4].

T.B.Norimbetov [4] tomonidan xalq sudlarida, mahalliy o'z-o'zini boshqarish yig'inlaridagi ajrashish ishlari o'rganib chiqiladi. O'rganilgan hujjatlardan ma'lum bo'ladiki, ajrashishning asosiy sababchilari 81% erlar, 16,5% ayollar va 2,5% er-xotinning ota-onalari hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar, asosan, SM sharoitlariga to'g'ri keladi. AM sharoitlarida esa yuqoridagi holatga to'g'ri kelsada, ammo qisman o'zgarishlar mavjudligi kuzatildi: ajrashishning 40%, asosan, 1-3 yillariga to'g'ri keladi, 30% ining farzandlari yo'q, 30% ining 1 ta farzandi, 30% ining 2 ta va undan ortiq farzandi bor, ajrashish tashkilotchisi sifatida 49% erkaklar, 41% ayollar ko'rsatiladi [4].

M.A.Utepbergenovning "Qoraqalpoq oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik muammolari" (2019) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ishida Qoraqalpog'istondagi ajrashishlar muammosi tadqiq etiladi.

Tadqiqotchi ushbu masalani o'rganish jarayonida ajrashishlar quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlaydi: noto'liq oilalar, yolg'iz onalar, ota-onalar deprivatsiyali bolalar, voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning o'sishi, erkak shaxsida feminizatsiya va ayollarda maskulinizatsiya tendensiyasining kuchayishi, nikoh mustahkamligining kuchsizlanishi, oilada psixologik keskinlikning oshishi [7]. Tadqiqotchi fikricha, bular o'z navbatida oilaviy qadriyatlarining kelajakda qadrsizlanishi (devalvatsiya), o'spirinlar va yosh yigitlar e'tiborida ota-ona obro'sining pasayishi, ma'naviy negizlar va milliy an'analarning kuchsizlanishi, bolalar va ayollar orasida suitsid

hodisalarining, jamiyatda ichkilikbozlik, giyohvandlikning o'sishiga, aholini psixologik salomatlik holatining yanada yomonlashishiga, jamiyatda har xil turdagi jinsiy zo'ravonlikning, ayniqsa pedofiliyaning ko'payishiga, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklarning ko'payishiga, OITS statistikasining o'sishiga sharoit yaratilishi ta'kidlanadi [7].

M.A.Utepbergenov tomonidan Qoraqalpog'istonda o'tkazilgan tadqiqotlarda, yuqorida bayon etilgan sabablar tahlili shartli ravishda ikki guruhga ajratiladi: ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik.

Natijalarga ko'ra, sabablar ichida asosiylari ijtimoiy-iqtisodiy sabablar deb aniqlangan [7]. Ijtimoiy-psixologik omillarning muhimligi va dolzarbligini, ko'pincha, kuchaytiradigan, ya'ni jamiyatda ajrashishlarning asosini ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tashkil etadigan sharoitlar o'ziga e'tibor tortishini ta'kidlab o'tgan [7].

F.A.Akramovanning "O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari" (2022) nomli doktorlik dissertatsiyasida ajrashish muammosida psixologik xizmatning olib borilishi bayon etilgan. Hujjatlarni o'rganish jarayonida ma'lum bo'lishicha, ajrashishga ariza berish tashabbusi ko'proq erkak tomonidan beriladi, ularning 52,7% i oilaviy hayotda 10 yil va undan ortiq muddat yashagan 30-39 yoshlilar toifasiga to'g'ri keladi. Ayollar esa, agar keskin sabablar bo'lmasa, oilasidan ajrashishdan ko'ra, farzandlari uchun oilaviy turmushni davom ettirishni ma'qul ko'rishadi [1].

Shuningdek, adabiyotlar tahliliga ko'ra, ajrashish va oilaga tashqi hamda ichki omillar katta ta'sir ko'rsatadi, ularni munosabatlarda qandaydir viruslarni keltirib chiqaradigan omillar deb tushunish mumkin [8].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). So'nggi o'n yillikda ajrashishning asosiy sabablari quyidagi omillar hisoblanadi [8]:

- umumiy qiziqishlarning yetishmasligi;
- juftlikdan birining nikohdan tashqari munosabatlari;
- bo'sh vaqtga turlicha qarashlar;
- juftlikdan birining xorijiy ishi va u bilan bog'liq yolg'izlik;

• mablag' yetishmasligi;

• ikki juft o'rtasida yetarlicha bag'rikenlik va ishonchning yo'qligi;

- bolalarni tarbiyalashda turlicha fikrlar;
- ruhiy va jismoniy zo'ravonlik;
- juftini rashk qilish;
- juftlarning birida alkogol yoki giyohvandlikka ruju qo'yilishi;
- juftlikdan birining bepustligi.

Yuqoridagi ajrashish sabablari bo'yicha Z.Budayeva o'z monografiyasida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Muhim savol shundaki, nima uchun yuqoridagi sabablar ko'tariladi? Nima uchun turmush o'rtoqlar xiyonat va boshqa turli xil noto'g'ri ishlarni qilishadi? Nega ular oila davrasidagi vaziyatni hal qila olmaydilar yoki ularning xavfsizligini birgalikda baham ko'rishni xohlamaydilar? Nega ular butun oilani saqlab qolishni xohlamaydilar? Mumkin bo'lgan javob, shuningdek, turmushda asosiy rol o'z shaxsini tasdiqlash va isbotlash ekanligini hisobga olish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, agar bir turmush o'rtoqning shaxsiyati o'zgarsa, ikkinchisi vaziyatga xatti-harakatini o'zgartirish orqali javob berishi kerak. Boshqasi rollarni o'zgartirishi kerak. Afsuski, hatto bunday oddiy xatti-harakatlar namunasi ham ko'p hollarda mumkin emas. Shuning uchun turmush o'rtog'iga sodiqlik ko'pincha o'z-o'ziga sodiqlikka yo'l ochib beradi [8].

Nikohning buzilishiga olib keladigan turli sabablar mavjud. Muammo turmush o'rtoqlar o'rtasidagi o'zaro his-tuyg'ularni ifodalashda ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, juftliklardan birining o'ziga bo'lgan ishonchi pastligi

va u muloqot bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nikohning to'g'ri ishlashi uchun o'zaro muloqot juda muhimdir. Chunki, muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

Muloqot ko'nikmasi shakllanmaganligidan tashqari, sheriklardan birining rashkidan kelib chiqadigan keskinlik turmushda muammolar manbai bo'lishi mumkin. Bunday hollarda oiladagi muvozanat buziladi.

Agar nikoh buzilishining sabablari haqida gapiradigan bo'lsak, biz jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik haqida, shuningdek, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar yoki qimor o'yinlari bo'ladimi, har xil turdagi giyohvandlik haqida unutmaymiz. Nikoh buzilishining jiddiy sabablaridan biri bu u yoki bu juftning xiyonatidir [8].

Tahlil va natijalar. Ajrashishning sabablari va oqibatlarini bilan bir qatorda bosqichlari ham mavjud. Quyida ajrashish bosqichlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Ajrashish bosqichlari: Ajrashishdan oldingi bosqich bir qator hal etilmagan muammolar, munosabatlarning rasmiyligi, juftlarning begonlashishi, ziddiyatli vaziyatlarni hal qila olmaslik, keyinchalik disfunktsional birgalikda yashash bilan tavsiflanadi. Juftlardan birining noroziligi kuchayadi, keyingi davr turmushning buzilishiga o'tadi, unda "birgalikda yashashning instrumental sohalarida (uy ishlari, xarid qilish, moliyaviy, tozalash, bolalarni tarbiyalash) hamkorlik yo'q va yaqin aloqalarning sifati tez-tez bo'lib turishligi kamayadi [8]."

Aytishimiz mumkinki, bu ajrashish potentsiali o'sib borayotgan oilaviy inqirozdir. Qisman turmush disfunktsiyasi umumiy holatga o'zgaradi. Turmush o'rtoqlarning birgalikda yashashning instrumental tarkibiy qismlarida hamkorligi, ayniqsa, moliya va uy xo'jaligini birgalikda boshqarishda kamayadi va umuman kuzatilmaydi. Turmush o'rtoqlar o'rtasida yaqinlik minimal darajaga tushiriladi va oilaviy janjal yoki dushmanlik sukunati kundalik haqiqatga aylanadi. Birgalikda yashash muvozanati tobora salbiy ko'rinadi. Agar turmush o'rtoqlar inqirozning jiddiyligini anglab yetsa va ularning har biri munosabatlarning buzilishida o'z ulushini ko'rsa, bu ajrashish qarori va xatti-harakatlariga olib keladi yoki bo'lmasligi ham mumkin.

Ushbu bosqichning turli xil ssenariylari oilalarda paydo bo'ladi, odatdagi tajovuzkor yondashuvdan xulq-atvorga befarq yoki statik xatti-harakatlarga qadar. Ushbu bosqichda turmush o'rtoqlar yoki bitta sherik odatda er-xotinning birgalikda yashashini saqlab qolish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ushbu bosqichda odatda oilaviy inqiroz avjiga chiqadi. Ko'pgina hollarda, ajrashishdan oldingi bosqichdagi turmush o'rtoqlar hali ham umumiy uy xo'jaligida bo'lishadi.

Yosh turmush o'rtoqlar uchun ajrashish haqida o'ylashdan qaror qabul qilishgacha bo'lgan yo'l eng qisqa va tezkor hisoblanadi. Ajrashishga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish oilalar tomonidan amalga oshiriladi, ular uchun ajrashish an'anasi odatiy emas va bu yerda turmush o'rtoqlar ham o'z oilalari va atrofidagi munosabatlarni hisobga olishadi.

Ajrashishdan oldingi bosqich bir necha oydan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Muammo ajrashishdan oldingi surunkali bosqich bo'lib, unda hech bir juft oilaviy muammolarni qanday hal qilishga harakat qilmaydi. Turmush o'rtoqlar muammolarni yanada tubdan hal qilishdan bosh tortishining eng keng tarqalgan sabablaridan biri bu bolalardir. Biroq ko'pincha bolalar birgalikda yashash uchun jasorat va ikkilanishning yetishmasligi uchun bahona bo'ladi [8].

Er-xotin ajrashganda, ko'pincha, ularidan biri ajrashishni boshlaydi, ikkinchisi esa o'zini tashlab ketilgandek his qiladi. Shuning uchun ajrashish jarayoni sheriklardan biri bilan biroq oldinroq boshlanadi. U munosabatlarda o'zini noqulay his qiladi va uning noroziligi vaqtinchalik g'azab, pushaymonlik yoki umidsizlikdan sezilarli darajada oshadi. U kelajakdagi hayoti uchun alohida rejalar tuzadi va ajrashishga tayyorgarlik ko'radi. Kerakli vaqtda, u boshqa sherikni o'z rejalarini bilan yoki tugallangan qaror bilan tanishtiradi, yoki unga ma'lum vaqt davomida ajrashishga olib keladigan ko'rsatmalar beradi. Ko'pincha shunday bo'ladi, narigi juft vaziyatning jiddiyligini tushunganda, odatda juda kech bo'ladi [8].

Agar turmush o'rtoqlardan biri yoki ikkalasi ham turmushdagi inqiroz bilan bog'liq munosabatlarni va boshqa muammolarni maqbul tarzda hal qila olmasliklarini anglay boshlasalar, ular ajrashishning keyingi bosqichiga o'tadilar. Bu ajrim qarori deb ataladi.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, ajrashish sabablari o'ziga xos shakllarga va etnik xususiyatlarga ega. Oilaviy qadriyatlarining qadrsizlanishi oila muhitiga ta'sir o'tkazadi. Ajrashishlar tufayli noto'liq oilalar soni ko'payadi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, shaxsning ijtimoiy faolligi susayishiga olib keladi.

Shuningdek, er uchun yolg'izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish ehtimolini orttiradi, ayollar uchun nevrozlar, stresslar, turli xastaliklarga chalinish holatlari kuzatilishi mumkin.

Ikkinchidan, oiladagi oila funksiyalarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlanmaganligi. Yosh yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda sharoitga qarab xulq-atvor shakllarini o'zgartira olish malakalarini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2022. – 67 b.
2. Arapbayeva D.K., Arapbayeva D.K. Yoshlarning oilaviy hayotga moslashuvda ma'naviy-ahloqiy masalalar. "Zamonaviy ta'lim" jurnali №5 – Toshkent, 2016. – B. 36-41. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarning-oilaviy-ayotga-moslashuvda-manaviy-ahlo-iy-masalalar/viewer>.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 170 b.
4. Нормбетов Т.Б. Социально-психологические особенности казахских семей проживающих в Узбекистане. Дис. ...канд. психол. наук. – Ташкент: 2008. – 227 с.
5. Oila ensiklopediyasi [Matn] / Tuzuvchilar: Akramova F.A., Bilolova Z.B., Jovliyev I.S. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – B. 240.
6. Shoumarov G' B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008. – 296 b.
7. Uteperganov M.A. Qoraqalpoq oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik muammolari. Psixol.fan.dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Toshkent, 2019. – 70 b.
8. Budayova Z. Family problems of today. The scientific monograph. ISBCRTI, Dublin, Ireland, 2020. 104 p. DOI: 10.13140/RG.2.2.27685.01764.



Dilshod ARZIKULOV,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, psixol.f.n.,

E-mail: arzikulov.70.02@mail.ru

O'zMU professori, psix.f.d D.G. Muxammedova taqrizi asosida

MILLIY Gvardiya Harbiy Xizmatchi (Xodimlari) Kasbiy Madaniyati Tushunchasining Ijtimoiy – Psixologik Jihatlarini

Аннотация

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodimlari) kasbiy madaniyati tushunchasining ijtimoiy – psixologik jihatlarini o'rganishda zarur bo'ladigan psixologik bilimlarni zarurati nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, kasb, faoliyati, kasbiy faoliyat kasbiy madaniyati, kasbiy qadriyatlar, kasbiy odatlari, kasbiy xulq-atvor, kasbiy meyorlar, ijtimoiy-psixologik fazilat.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КОНЦЕПЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

Аннотация

В данной статье теоретически анализируется потребность в психологических знаниях, необходимых для изучения социально-психологических аспектов концепции профессиональной культуры военнослужащих (сотрудников) Национальной гвардии в обеспечении общественной безопасности.

Ключевые слова: Культура, профессия, деятельность, профессиональная деятельность, профессиональная культура, профессиональные ценности, профессиональные привычки, профессиональное поведение, профессиональные нормы, социально-психологические качества.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE CONCEPT OF THE PROFESSIONAL CULTURE OF MILITARY SERVANTS OF THE NATIONAL GUARD

Annotation

This article theoretically analyzes the need for psychological knowledge, which is necessary for studying social-psychological aspects of the concept of professional culture of National Guard servicemen (employees) in ensuring public safety.

Key words: Culture, profession, activity, professional activity, professional culture, professional values, professional habits, professional behavior, professional norms, social-psychological quality.

Kirish. Madaniyatning yuzaga kelishi va taraqqiyotida inson faoliyati muhim omil hisoblanadi, shu bois inson madaniyat o'rganadigan predmet sohasining markazida turadi. Bu omilning bir necha ko'rinishlari mavjud: birinchidan, «madaniyat» tushunchasi insonning butun faoliyatini qamrab oladi yoki har qanday insoniy faoliyat madaniy faoliyatdir; ikkinchidan, «madaniyat» tushunchasi inson faoliyatining barcha sohasini emas, balki faqat ijodiy sohasini, ya'ni qandaydir yangi, mo'jizakor, takrorlanmas narsalarni yaratadigan faoliyatini ifodalaydi; uchinchidan, «madaniyat» tushunchasiga faoliyatning o'zi emas, balki faoliyat usullari kiradi.

Hozirgi vaqtda matbuotda va rasmiy hujjatlarda huquqni muhofaza qilish idoralarining qoniqarsiz faoliyati sabablari sifatida ushbu soha xodimlarining kasbiy madaniyat darajasi pastligi nazarda tutilayotganligini tez-tez uchratish mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, ba'zan bunday fikr-mulohazalar kasbiy madaniyat tushunchasidan ajratilgan holda bildirilgandek taassurot uyg'otadi. Jumladan, tizimga hali hanz tasodifan kirib qolgan ma'naviy-axloqiy nopok, kasbiy madaniyati past kimsalarning borligi ta'kidlab o'tilgan. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa xodimlarni huquqiy tarbiyalash barobarida ularning kasbiy madaniyat darajasini ham ko'tarish zarur. Buning uchun esa har bir xodim o'z xizmat vazifasini sidqidildan bajarishi, kasbiy madaniyati darajasini doimo o'stirib borishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. «O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi shaxsiy tarkibining odob-axloq qoidalari» O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2022-yil 31- oktabrdagi 329-son buyrug'ida:

«.... o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obro'siga yoki davlat organining nufuziga zarar yetkazishga qodir bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik»[1],– deyilgan. Bu talablarni bajarish har bir xodimning burchi va kasbiy madaniyatining asosi ekanligini unutmash lozim.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: Umuman olganda, milliy gvardiya harbiy xizmatchi xodimlarining kasbiy madaniyati sifatidagi fenomenning o'zi mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, uning tarkibiy tuzilishi va shakllantirish imkoniyatlari qanday? Ushbu savollarga mazkur maqola orqali javob izlashga harakat qilamiz.

Darhaqiqat, milliy gvardiya harbiy xizmatchi xodimlarining kasbiy madaniyati tushunchasi va uni ijtimoiy-psixologik tahlil qilish uchun, birinchi navbatda, «kasb», «madaniyat», «faoliyat» kabi tushunchalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tushunchalar orasida «madaniyat» tushunchasi muhim o'rin tutadi. Chunki madaniyat ulkan hodisotlar olamini qamrab olgan va mavhumotning yuksak darajasidagi eng umumiy falsafiy-ijtimoiy tushunchalardan biri hamda madaniyat nazariyasi tahlilini to'g'ri yo'naltira olishi ijtimoiy jarayonlarga xolis baho berishga yaqinlashishni va ijtimoiy hodisalarga munosib ta'sir ko'rsatish yo'llarini topishni anglatadi.

«Kasb» va «faoliyat» tushunchalarini ko'rib chiqayotganda qisqacha tahlil va umum e'tirof etgan tushunchalar

bilan cheklanamiz, chunki ular muayyan muammolar ko'rib chiqilayotgandagina qiziqish uyg'otadi.

«Kasb» tushunchasi lotinchada *professio*, ya'ni maxsus nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni taqozo etuvchi hamda hayot kechirishning oddiy manbai hisoblanuvchi mehnat faoliyati, mashg'ulot turi degan ma'noni anglatadi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Faoliyat nazariyasi masalalarini ishlab chiqishga bag'ishlangan adabiyotlarda «faoliyat» tushunchasiga turli xil yondashuvlar kuzatiladi. Jumladan, u kishilarning yo'naltirilgan faolligi tariqasida; inson hayot kechirishining yo'llari sifatida; xatti-harakatlar yig'indisidan hosil bo'ladigan real jarayon sifatida; ijtimoiy voqelikni o'zgartirish yo'llari va shunga o'xshash kabilar sifatida ko'rib chiqiladi. Ko'rinib turibdiki, har bir yondashuv ham yashab qolishga haqlidir.

Shu o'rinda «madaniyat» tushunchasining ta'rifiga to'xtalsak, ularning soni yildan-yilga tobora oshib bormoqda. Masalan, amerikalik madaniyatshunoslar Alfred Kreber va Klayd Klakxonning hisoblashicha, 1950-yillarda 164 tani tashkil etgan bo'lgan bo'lsa[3], 1970-yillarning o'rtalariga kelib, fransuz olimi A. Mol bergan ma'lumotga ko'ra, ularning soni 250 tadan oshgan[4. L. P. Kertmanning fikricha, 1987 yillarga kelib, ularning soni ikki barobar oshdi[5].

Eng avvalo, madaniyat hodisasini anglash jarayoni o'z ildizlari bilan antik falsafaga borib taqalishini ta'kidlash joiz. Biroq, biz mazkur tushuncha rivojlanishining alohida tarixiy bosqichlariga to'xtalib o'tamiz. «Madaniyat» so'zining etimologiyasiga murojaat etadigan bo'lsak, uning o'zagini Qadimgi Rim qo'lyozma yodgorliklarida uchratish mumkin.

Cultio – so'zi ishlov berish, qayta ishlash ma'nosini bildirgan...[6]. Lekin ba'zi tilshunoslar «madaniyat» atamasi lotin tilidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar[7]. Bunda nemis olimi V. Vundtning farazi qiziqish uyg'otadi, chunonchi u lotincha *colore fe'lini* asos sifatida oladi. Bu so'z o'z navbatida yerga ishlov berish, qayta ishlash degan ma'noni bildiradi. Shundan *cullus agri* yoki *cultura agri* – yerga ishlov berish tushunchalari kelib chiqqan[8]. Shunday qilib, avvalo bu atama yerga ishlov berish tushunchasini, to'g'rirog'i, hozirgi zamon tilida aytganda, uni madaniylashtirish ma'nosini bildirgan.

Keyinchalik tabiat yaratgan narsadan farqli ravishda, inson qo'li bilan yaratilgan barcha narsalar madaniyat deb ataladigan bo'ldi. Bora-bora «madaniyat» tushunchasi antik falsafada tafakkur qilish predmeti, inson bilim va ko'nikmalarining majmuasi, shuningdek faoliyatning natijasi sifatida tushunila boshlandi. O'zining boshlang'ich ma'nosida til uning muhim xususiyatini ochib berdi, ya'ni – madaniyat inson va uning faoliyati birligidir. Shundan kelib chiqib, madaniyat tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, «Madaniyat insonning faoliyat jarayoni, uning natijasida yaratilgan ma'naviy qadriyatlar bo'lib, o'z navbatida shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim omil hisoblangan ijtimoiy hodisadir»[9].

Mazkur muammo bilan shug'ullanayotgan ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, madaniyat atamasi zamonaviy ma'noga XVII asrda ega bo'ldi. Mustaqil tushuncha sifatida u nemis huquqshunosi va tarixchisi S. Pufendorf (1632–1694) asarlarida paydo bo'ldi[10].

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, «madaniyat» tushunchasi mustaqil leksik tushuncha sifatida XVIII asrdan, ya'ni Uyg'onish davridan buyon mavjud. Ilk bor «madaniyat» tushunchasiga ingliz tarixchisi va etnograf olimi E. B. Teylorning 187-yilda nashr etilgan «Ibtidoiy madaniyat kitobi»da ta'rif berilgan.

Rus tilida «madaniyat» so'zi XIX asrning 30-yillari o'rtalaridan beri mavjud. Shu o'rinda E. A. Ballerning «madaniyat» tushunchasiga bergan ta'rifiga qo'shilmaslikning

iloji yo'q. YA'ni «madaniyat tarixiy hodisa bo'lib, insoniyat paydo bo'lganda yuzaga kelib, kishilik jamiyati o'zgarishi jarayonida o'zgarib boradi va yangi-yangi ko'rinish kasb etadi»[11].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, madaniyat inson mehnati va tafakkurining mahsuli sifatida bilim va mehnat qurollari va hokazolarda o'z aksini topish xususiyatiga ega. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisiylik jihatini o'z ichiga olib, qadriyatlarini jamlash, ularni kelajak avlodlarga yetkazishga bevosita xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hozirgi vaqtgacha madaniyat hodisasi umum qabul qilingan tushuncha bo'lmasda, u atroflicha o'rganilgan desa bo'ladi.

Madaniyat – ko'pqirrali, serma'no tushuncha bo'lgani bois, mazkur hodisa ustida ilm-fanning turli sohalarida izlanish olib borayotgan olimlar (faylasuflar, madaniyatshunoslar, psixologlar, sotsiologlar, tarixchilar, siyosatshunoslar, boshqaruvchilar, pedagoglar) bosh qotirganlari sababli uni o'rganishga nisbatan turli yondashuv va yo'nalishlar yuzaga keladi.

Masalan, tarixiy yondashuvda ijtimoiy merosga; psixologik yondashuvda – insonlarning tabiiy muhitga moslashuviga urg'u berilsa, ideologik yondashuvda – madaniyat g'oyalar natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Va nihoyat, meyoriy yondashuvda – shaxs tomonidan ijtimoiy meyorlarni anglash tushuniladi va h. k. [12].

Madaniyat nazariyasining aksiologik (qadriyatli) nazariyasi e'tiborga molik nazariya hisoblanib, uning tarafdorlari madaniyatni inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmuasi sifatida talqin qiladilar. Oxirgi paytlarda tarixchilar hamda madaniyatshunoslar orasida madaniyatni tadqiq qilishning sivilizatsiya tamoyili tarqalmoqda. Sivilizatsiya deganda, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar bilan doim ham mos kelavermaydigan ijtimoiy taraqqiyot, moddiy va ma'naviy madaniyatning bosqichini o'z ichiga olgan yirik ijtimoiy madaniy tizimlar tushuniladi[13].

Madaniyatni tushunishda yondashuvlar, nazariya va tamoyillarning turli-tumanligi ularning muqobilligi va tafovutiligini emas, aksincha, bir-birini to'ldirishi, bir-biridan kelib chiqqanligi va o'zaro bog'liqligini bildiradi. Ushbu tushunchani aynan shu nuqtai nazardan talqin qilish, uning faoliyatli talqiniga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Chunonchi, mazkur talqinga ko'ra, «madaniyatni tushunishda insonning faol tarixiy ijodkorlik faoliyati asos qilib olinadi, ya'ni ushbu faoliyat subyekti sifatida insonning o'z taraqqiyoti tushuniladi»[14]. Binobarin, inson faoliyatining barcha sohasida ikki asosiy madaniyat turi: moddiy va ma'naviy madaniyat tushunchasi mavjud.

Biroq madaniyat tarixi bo'yicha izlanish olib borgan olimlar, sotsiologlar bunday bo'linishning nisbiyligiga ishonch hosil qilmoqdalar. Bunda E. A. Ballerning talqini diqqatga sazovor bo'lib, unga ko'ra, «madaniyat – insonning borliq va tafakkurning barcha sohalaridagi ijodiy faoliyati bo'lib, u o'tmishda u yoki bu madaniy qadriyatlarda moddiylash-tirilgan, shuningdek hozirgi kun va kelajakda avval orttirilgan tajribani o'rganish va kelgusida tabiat, jamiyat va insonning o'zini o'zgartirishga yo'naltirilgandir»[15].

O'z navbatida, har qanday sohadagi «kasbiy madaniyat» deganda, mazkur faoliyatning sifat ko'rsatkichi va taraqqiyoti tushunilib, u bilim, mahorat, ko'nikma va tajribani o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, faoliyat subyekti muayyan kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan sifatlarini qamrab oladi.

Kasbiy madaniyat muammosi bilan bog'liq qarashlarni o'rganish va umumlashtirish kasbiy madaniyat abstrakt holda emas, balki kasbiy faoliyatning muayyan turi bilan bog'liq degan xulosaga kelishga imkon beradi. Bu o'z navbatida, kasbiy madaniyatning muayyan turlari va shakllarini tadqiq

etishni taqozo etadi. Kasbiy madaniyat hodisasini milliy gvardiya tizimida faoliyat yuritayotgan xodim asosida ko'rib chiqish jarayonida ikkita bir-biriga bog'liq va bir-biridan kelib chiquvchi mezonlarni ko'rish mumkin:

birinchidan, harbiy xizmatchi va xodimning kasbiy madaniyati ijtimoiy hayot voqeligi hamda kasbiy alomatiga ko'ra;

ikkinchidan, bir-biriga aloqador bo'lgan kishilar katta ijtimoiy guruhining submadaniyati.

Umuman olganda, kasbiy madaniyat subyekti kasbiy guruh bo'lib, uning shakllanishi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

a) mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarining o'xshashligi; b) ular mehnatining bir-biriga mosligi; v) kasbiy faoliyat uchun muhim maxsus bilimlar mazmuni va hajmining mavjudligi; g) amaliyotda mazkur faoliyatga tegishli umumiy uslub va vositalarning qo'llanishi; d) guruh a'zolari mentalitetining umumiyiligi.

Shuningdek, bunga milliy gvardiya tizimiga kadrlar tayyorlashning umumijtimoiy tizimining mavjudligi ham kiradi.

Mazkur holatda maqsad va vazifalarning o'ziga xos xususiyatga egaligi, manfaatlar va mehnat sharoitlarining umumiyiligi, o'z qadriyatlar va odatlari, xulq-atvor meyorlari, standartlari va kasbiy til mezonlarini misol qilish mumkin.

Kasbiy madaniyat subyekti sifatida soha tizimi xodimlarining kasbiy guruhini tadqiq etishda, mazkur kasbiy guruhni boshqa ijtimoiy tuzilmalar, shuningdek kasbiy guruh va faoliyatlardan ajratib turadigan o'ziga xos alomatlarini aniqlab olish maqsadga muvofiq.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchi xodimlarining kasbiy an'analari va urf-odatlarini, xizmat xususiyatlarini, meyoriy hujjatlar va jamoatchilik fikri ular kasbiy madaniyatining asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bularning hammasi milliy gvardiya harbiy xizmatchi xodimlari mentaliteti, xulq-atvor qoidalari, qadriyatlar va an'analarning shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Boshqa tarafdin, milliy gvardiya harbiy xizmatchi xodimlarining kasbiy madaniyati shaxs umumiy madaniyati unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bunda quyidagi mezonlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi:

– umumiy va maxsus ma'lumot, shuningdek milliy gvardiya tizimidagi muayyan ish tajribasi;

– kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatning muayyan tizimiga ega bo'lish (milliy gvardiya harbiy xizmatchi

xodimlari uchun umumiy bo'lgan, muayyan kasbiy faoliyat uchun zaruriy bo'lgan o'ziga xos sifatlar – tezkorlik, kuzatuvchanlik, tartiblilik, nazorat qilish, ishlab chiqarish va h.k.).

Bular, o'z navbatida harbiy xizmatchi va xodimga xizmat majburiyatlarini samarali amalga oshirish, milliy gvardiya tizimida to'plangan kasbiy xorijiy tajribaga ega bo'lish, ularni xizmat faoliyatida ijobiy qo'llash imkonini beradi.

Shunga ko'ra, milliy gvardiya harbiy xizmatchi xodimlarining kasbiy madaniyatini quyidagi sohalarga ajratib ko'rsatish mumkin:

- maxsus vazifalarni bajarish qo'shinlarining qo'mondonlik-taktik faoliyati; - xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash; - xavfsizlikni huquqiy ta'minlash; - xalqaro harbiy hamkorlikni huquqiy ta'minlash; - iqtisodiy xavfsizlik; - aniqlash va qo'riqlash tizimlardan foydalanish bo'yicha qo'mondonlik-muhandislik faoliyati; - qo'riqlash bo'linmalarining qo'mondonlik-taktik faoliyati; - yo'l patrul xizmatining qo'mondonlik-taktik faoliyati; - patrul-post xizmatining qo'mondonlik-taktik faoliyati; - pasport tizimini huquqiy ta'minlash va h.k.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan xodimlar kasbiy madaniyatining umumiy hamda maxsus meyor va talablari mavjuddir.

Xulosa va takliflar. Milliy gvardiya tizimi kasbiy madaniyati kasbiy xizmat faoliyatida xodimning umumiy va nazariy tayyorgarlikka asoslangan yuqori kasbiy tayyorgarligi, milliy gvardiya tizimlarida xizmatni olib borishni kasbiy mahorati va tajribasining mahsuli bo'lib, xodimning shaxs umumiy madaniyati negizida o'z ustida ishlash va malakasini oshirish ko'nikmasi, shuningdek kundalik kasbiy faoliyat jarayonida mavjud bo'lgan kasbiy sifatlar zaxirasini qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Milliy gvardiya tizimining funksional faoliyati ko'pqirrali bo'lganligi sababli turli malakaga ega mutaxassislariga ehtiyoj sezadi. Bu ham huquqshunoslik, ham psixolog, ham boshqaruv, ham pedagogik, ham texnik-muhandislik, iqtisod va tibbiyot sohalarida bo'lishi mumkin. Shu bois milliy gvardiya tizimi doirasida tergovga qadar tekshiruv organi xodimi surishtiruvchi, tergovchi jamoat tartibini bo'zgan shaxslarni yoxud jinoyat qilgan, guvohlar va jabrlanuvchilarni aniqlash maqsadida boshqa shaxslar bilan muloqotda bo'ladi. Bu soha xodimlari kasbiy madaniyatining o'ziga xosligi uning kasbiy faoliyati mazmuni bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. «O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi shaxsiy tarkibining odob-axloq qoidalari» O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2022-yil 31-oktabrdagi 329-son buyrug'i.
2. Соколов Э. В. Культура и личность. – Л., 1972. – С. 498.
3. Wung W/ Volkerpsychologie B.10. Kultur und Geschichte. – Leipzig, 1920. – P. 14.
4. Моль А. Социодинамика культуры / Пер. с франц. – М., 1973. – С. 35.
5. Кертман Л. Е. История культуры стран Европы и Америки. – М., 1997. – С. 14.
6. Гришин А. А. Нравственная культура руководителя органа внутренних дел и пути её формирования // Нравственные и эстетические основы совершенствования профессиональной культуры руководителей органов внутренних дел: Труды Академии МВД СССР. – М., 1990.
7. Черных П. Я. Историко-этимологический словарь современного русского языка. – М., 1993. – С. 293.
8. Тейлор Э. Первобытная культура. – М., 1989. – С. 3–36.
9. Abdullayev M., Umarov E. Madaniyatshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T., 2006. – 17-6.
10. Гуревич П. С. Культурология: Учебник. – М., 1996. – С. 18.
11. Тейлор Э. Первобытная культура. – М., 1989. – С. 18.
12. Философский энциклопедический словарь. – М., 1989. – С. 332–333.
13. Эйхельберг Е. Л. Профессиональная культура инженера в современном обществе: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Томск, 1989. – С. 6.
14. Злобин Н. С. и др. Культура. Человек. Философия: к проблеме интеграции и развития // Вопросы философии. – 1982. – № 1. – С. 36.
15. Баллер Э. А. Коммунизм. Культура. Человек. – М., 1979. – С. 32.



Guljamol BAXROMOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti
E-mail: guljamolxoldorova@gmail.com

JDPI dotsenti X.S.Akramova taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF THE TECHNOLOGY OF TEACHING DECIMALS TO STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS

Annotation

This article highlights the importance of the technology of teaching decimals to students with hearing problems. Also, the peculiarity of teaching students with hearing problems to perform operations on decimal fractions and solve examples related to decimal fractions in mathematics lessons is reflected.

Key words: Decimal place, mathematical operations, students with hearing problems, incorrect fraction, an integer, technology, education system, methodology.

ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ДЕСЯТИЧНЫМ ЗНАЧЕНИЯМ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С ПРОБЛЕМАМИ СЛУХА

Аннотация

В данной статье подчеркивается важность технологии обучения десятичным числам учащихся с нарушениями слуха. Также отражена особенность обучения школьников с нарушениями слуха выполнять действия над десятичными дробями и решать примеры, связанные с десятичными дробями, на уроках математики.

Ключевые слова: Десятичная дробь, математические действия, учащиеся с нарушениями слуха, неправильная дробь, целое число, технология, образовательная система, методика.

ESHITISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN O'QUVCHILARGA O'NLI KASRLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga o'nli kasrlarni o'qitish texnologiyasining ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar matematika darslarida o'nli kasrlar ustida amallar bajarish, o'nli kasrlarga oid misollarni yechishga o'qitishning o'ziga xosligi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: O'nli kasr, matematik amallar, eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar, noto'g'ri kasr, butun son, texnologiya, ta'lim tizimi, metodika.

Kirish. Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni ma'nan yetuk, jismonan sog'lom va aqlan barkamol qilib voyaga yetkazishdir. Xususan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1]. Ushbu so'zlarning yaqqol isbotini mamlakatimizda yosh avlodga qaratilayotgan e'tiborda, ta'lim-tarbiya sohasining tubdan isloh qilinishiga, yoshlarga o'z imkoniyatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning ham samarali uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, bunday tizim eshitishida muammolari bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasining zaruriy sharti hisoblangan birlamchi muammo hamda oqibatlarini bartaraf etishga hamda jamiyatning barcha sog'lom a'zolari bilan teng darajada ma'lumot olishiga imkoniyat beradi. Eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilar hayotida ta'lim tizimining ahamiyati shundaki, ta'lim tizimi ularning ongli dunyoqarashini shakllantirishga, mehnat faoliyati hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish ehtiyojini qondirilishiga, kasb tanlashi, olgan bilimlari asosida faoliyat olib borishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim jarayoni eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchi shaxsining

barcha jihatlarini shakllantirishga, ya'ni uning komil inson bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan. Ta'lim jarayonida bola uchun eng ahamiyatli bo'lgan psixik funksiyalar, ularning sifatleri va xususiyatlari shakllanadi hamda korreksiyalanadi. Maxsus ta'lim natijasida eshitishida muammolari bo'lgan bolalarda tafakkur va nutq, so'zlar xotirasi shakllanadi, nuqsonning o'rnini bosish imkoniyatlarini, maxsus ta'lim natijasida rivojlanib boradigan esitish idrokini rivojlantirish va foydalanish hisobiga ham, shu bilan birga, boshqa saqlangan analizatorlar va kompensator imkoniyatlar hisobiga ham kengaytirish uchun sharoitlar yaratiladi [2].

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar uchun matematikani o'rganish ularning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrlarini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta olish malakalarini o'zlashtirilishiga, matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga, hayotda yuz beradigan eng soda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Bu degan so'z eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatini shakllantirish demakdir.

Matematika eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, matematika eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirish, ularning o'z fikrlarini

aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi, ularning ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantiradi. Matematika o'qitishning dastlabki kunlaridanoq eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular dastlab kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Matematikaga o'qitish eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar nutq xususiyatlarining shakllanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Matematikaga o'qitish eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar nutqi boyishini ta'minlaydi. Matematikaga o'qitish jarayonida albatta matematikaga oid so'z va iboralar qo'llaniladi. Bu so'zlarning ma'nosini eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar ular bilan bog'liq tushunchalarni egallash jarayonida anglab borishadi. Misol uchun, ko'p-kam, shuncha, og'ir-yengil, baland-past, ustida-ostida, o'ngda-chapda kabi matematik tushunchalarni hamda tushunchalarning ma'nosini anglab borishadi. Bu esa eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning lug'at zaxirasini oshib borishiga xizmati qiladi.

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga matematik nutqni o'qitish metodikasining asosiy vazifasi quyidagilar:

1. Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning lug'at zaxirasini boyitish. Birinchi navbatda o'quvchilarning maktab matematika kursining terminologik leksikasini va maxsus frazeologiyasini egallashlarini ta'minlash.

2. Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning og'zaki shaklda berilgan topshiriq va savollarini anglash ko'nikmasini shakllantirish.

3. O'z fikrlarini bayon qilishda tilning grammatik, fikrlarini imloviy qurilishidan to'g'ri foydalana olgan holda ifoda etish ko'nikmasini hosil qilish va rivojlantirish[3].

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning so'zlashuv nutqining rivojlanish darajasi past bo'ladi. Bu ularning nutqiy materialni ifodalamoqchi bo'lgan tushuncha va munosabatlarni aniq va to'g'ri anglamaslik (tushunmaslik)lariga yoki teskari tushunishlariga sabab bo'ladi. Nutqiy so'zlashuv materiali esa ta'lim jarayonining tarkibiy qismi, mazmunini tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, nutqiy kommunikatsiya (bog'lanish) qiyinchiliklari o'quv materialini egallash jarayonini murakkablashtiradi. Shuning uchun eshitishida muammolari bo'lgan bolalarda so'zlashuv nutqini rivojlantirish matematika darslarining samaradorligini oshirish uchun zaruriy vosita hisoblanadi.

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga o'nli kasrlarni o'qitish ularni amaliy faoliyatda ongli ravishda ishtirok etishga, butun, butunni bo'laklarga (qismlarga) taqsimlay bilish, ulush ajratish, taqqoslay olish borasidagi bilim, ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi, ularning matematik qobiliyatlarini o'stiradi.

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarni o'nli kasrlarga o'qitishda ularning bilish jarayonlarini hisobga olish zarur. Chunki ularning sezgi, diqqat, xotira, xayol, tafakkur, tasavvur jarayonlari sog'lom tengdoshlaridan farq qiladi. Eshitish nuqsoniga ega bolada eshituv sezgisi va idrokining yo'qolishi sababli ko'ruv sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Kar bolaning ko'ruv analizatori atrofda olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiyatlari va nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv sezgisiga qaraganda ko'ruv sezgisining ustunligi, harakat sezgisining, teritaktik sezgilarning faolligi kuzatiladi. Bundan kelib chiqqan holatda eshitishida nusoni bo'lgan o'quvchilarga matematika o'qitishda, xususan, o'nli kasrlar

haqida ma'lumotlar berishda ko'rgazmali qurollardan, qoidalar aks etgan rasmlardan, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilarning diqqat xususiyatlarini inobatga olish ularga samarali ta'lim-tarbiya berishdagi asosiy me'zonlardan biri sanaladi. Eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilarning diqqat xususiyatlari ham o'ziga xosdir. Inson tomonidan sezgilar orqali qabul qilinayotgan barcha narsalarni idrok etish diqqatsiz amalga oshmaydi. Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning o'quv fanlarini to'la, keng o'zlashtirishlarida, ma'lumotlarni tushunishlarida diqqat jarayoni o'ta muhimdir. Diqqat asosan o'quv faoliyat asosida amalga oshib boradi. Normal eshituvchi shaxslarda ham, eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarda ham ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi diqqatni tarbiyalashdir. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar diqqatida ko'rish taassurotlari yetakchilik qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir vatqning o'zida ham ko'rgazma materiallarni idrok qilish, ham o'qituvchining labidan uqib olishi amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu bolalar diqqatini to'plash, yig'ish, tarbiyalashda turli-tuman ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Og'zaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan muloqot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan bo'ladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni o'stirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilar normal eshituvchi bolalardan ko'ra tezroq, ko'proq charchaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengillashib, o'quvmateriallarini egallashlari osonlashadi.

Tahlil va natijalar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'nli kasrga o'qitishdan avval oddiy kasrlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Teng bo'laklarga bo'lingan narsalar, shakllar va miqdorlar matematikada kasr sonlar ko'rinishida ifodalanadi.


Kasr sondagi maxraj – butun narsa, shakl yoki miqdor nechta teng bo'lakka (qismga) bo'linganligini ko'rsatuvchi son. Maxraj – kasr chizig'ining tagiga yoziladi.

Kasr sondagi surat – teng bo'laklarga (qismlarga) bo'lingan bo'laklarning (qismlarning) nechtasi olinganligini ko'rsatuvchi son. Surat – kasr chizig'ining ustiga yoziladi.

surat

Kasr 1 kasr chizig'i

2 maxraj



Kasrlarning to'g'ri, noto'g'ri va o'nli kasr kabi turlari mavjud.

Surati maxrajidan kichik kasr to'g'ri kasr deyiladi. $\frac{1}{2}$; $\frac{2}{3}$; $\frac{1}{5}$; $\frac{4}{10}$; $\frac{15}{32}$; $\frac{5}{12}$.

Surati maxrajiga teng yoki maxrajidan katta bo'lgan kasr noto'g'ri kasr deyiladi. $\frac{3}{3}$; $\frac{5}{5}$; $\frac{14}{10}$; $\frac{18}{10}$; $\frac{5}{2}$; $\frac{1}{1}$.

$\frac{1}{2}$ – aralash son deb nomlanadi. Aralash son butun va kasr qismdan tashkil topadi.

Maxraji 10, 100, 1000, 10000 bo'lgan $\frac{1}{10}$; $\frac{9}{10}$; $\frac{1}{100}$; $\frac{10}{100}$; $\frac{33}{100}$ kabi kasrlarni maxrajsiz yozish mumkin. $\frac{1}{10}$ to'g'ri kasrni o'nli kasr ko'rinishida yozish uchun butun qismi nol deb olinadi va vergul yordamida kasr qismi ajratib yoziladi: $\frac{1}{10} = 0,1$;

$\frac{1}{100} = 0,01$. Bunda kasr qismi maxrajida nechta nol bo'lsa, o'nli kasrda verguldan keyin ham shuncha raqam bo'lishi kerak.

$\frac{2^3}{10}$ kabi aralash sonni o'nli kasr ko'rinishida yozish uchun aralash sonning butun qismi va vergul yordamida kasr qismi ajratib yoziladi: $2\frac{3}{10} = 2,3$.

0,1; 0,9; 0,01; 0,10; 0,33 – o'nli kasrlar.


Kasr qismi Kasr qismi

$$\frac{1}{10} = 0,1 \quad \frac{2^3}{10} = 2,3$$

Butun qismi Butun qismi



Quyidagi misol eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilarning o'nli kasr yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga yordam beradi. Misol shartiga ko'ra o'nli kasrlarni o'ziga mos bo'lgan miqdordagi chizmalar bilan birlashtirish zarur.



Xulosa va takliflar. Eshitishda muammolari bo'lgan bolalar maktablarida matematika darslarida o'nli kasrlarni o'rgatishda foydalanilgan texnologiya hamda metodikalar avvalo ularning matematik lug'at boyliklarining o'sishiga, ularning eshituv idrokini rivojlantirishga, o'nli kasrlarga oid tushunchalarni to'g'ri anglay bilishiga hamda bu tushuncha-

Eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilarga matematika darslarida o'nli kasrlarni o'qitish jarayonida ularning lug'at boyligini oshirish bilan bir qatorda eshituv idroki ham rivojlantirib boriladi. Eshituv idrokini rivojlantirishda quyidagi topshiriqdan foydalanishimiz mumkin:

O'quvchilar avvalo diqqat bilan tinglang, so'ngra eshitgan sonlaringizni raqamlar bilan daftaringizga yozing.

Namuna:

- nol butun o'ndan besh; 0,5;

- bir butun o'ndan yeti;

- ikki butun yuzdan to'qqiz;

- nol butun yuzdan yigirma uch;

- uch butun o'ndan olti.

lardan o'rinli ravishda foydalana olishiga xizmat qilishi lozim. Bolalar kasrlar, o'nli kasrlar haqidagi bilimlarni egallashlari orqali hayotda taqsimlash, belgilay olish, ulush, qism, bo'laklarga ajratish, ulardan o'z o'rnida foydalangan holda faoliyat yuritish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. TOSHKENT. "O'zbekiston"-2016. 14-bet.
2. Fayziyeva U, Nazarova D, Qodirova F. "Surdopedagogika" O'quv qo'llanma. Toshkent. "Sano-standart". 2012-yil.
3. Yakubjanova D.B., Hamidova M.U. Matematika o'qitish maxsus metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Istiqlol" 2012-yil.
4. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi.(OO'Y uchun darslik). Toshkent.Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011-yil.
5. D. Yakubjanova, H. Kalbayeva, D. Rahimova, M. Muhamedova. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining 5-sinf darsligi. TOSHKENT. "NISO POLIGRAPH", 2020-yil.
6. Jumaev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005-yil.
7. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun) Toshkent. "O'qituvchi" 2004-yil.
8. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
9. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivno'e texnologii obucheniya. - M.: izdvo Inst.prof.obr.Min obrazovaniya Rossii, 1995.
10. M.Axmedov, R.Ibragimov, N.Abduraxmonova, M.Jumaev. Birinchi sinf matematika darsligi.)Toshkent. "Uzinkomtsentr" 2003 yil.
11. Bikboeva.N.U, Axmadjonov I.G, Yangiboeva E.Ya, Adambekova G.A. Ikkinchi sinf matematika darsligi.)Toshkent. "O'qituvchi" 1997-yil.



UDK: 311.085:15:373,95(037)

Sirojjon BERDIKULOV,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professori, f.f.d
E-mail: siroj-berdikulov@rambler.ru

Siyos.fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sh.Otaqulov taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARI MAFKURALARINING ZAMONAVIY PARADIGMADAGI KONSEPTUAL ASOSLARI

Аннотация

Maqolada Yangi O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mafkurasiga e'tibor qaratilgan. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida O'zbekiston siyosiy partiyalari tayanadigan mafkuralar nuqta nazaridan qisqacha tarixiy ekskurs amalga oshirilgan. Siyosiy partiyalarning ustavlari va dasturlarida mafkuralarning ifodalanishi ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Siyosiy partiya, g'oya, mafkura, fuqarolik jamiyati, mafkura partiyasi, liberalizm, konservatizm, sotsial demokratiya, elektorat, siyosiy plyuralizm

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ИДЕОЛОГИЙ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННОЙ ПАРАДИГМЕ

Аннотация

Основное внимание в статье уделено идеологии политических партий осуществляющих деятельность в Новом Узбекистане. Сделан краткий исторический экскурс с точки зрения тех идеологий на которые опираются политические партии Узбекистана в процессе дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества. Также проанализировано освящение идеологий в уставах и программах политических партий.

Ключевые слова: Политическая партия, идея, идеология, гражданское общество, идеология партии, либерализм, консерватизм, социал-демократия, электорат, политический плюрализм

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE IDEOLOGY OF POLITICAL PARTIES OF THE NEW UZBEKISTAN IN THE MODERN PARADIGM

Annotation

The article focuses on the ideology of political parties operating in the New Uzbekistan. The author makes a short historical excursus from the viewpoint of the ideologies that the political parties of Uzbekistan guided by in the process of further deepening democratic reforms and forming a civil society. He also analyses the reflection of ideologies in the political parties' charters.

Key words: Political parties, conception, ideology, civil society, ideology of parties, liberalism, conservatism, social democracy, electorate, political pluralism

Kirish. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining muhim instituti hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirishda siyosiy partiyalar faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, siyosiy "ko'ppartiyaviylikni mustahkamlash, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini oshirish, hokimiyatning vakillik organlari faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi" [6].

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati siyosiy partiyalarsiz mavjud bo'la olmaydi, chunki partiyalar jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi demokratik institut bo'lib, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar hamda o'z elektoratining turli siyosiy ehtiyoj va qonuniy manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Siyosiy partiyalar, aynan, elektorati manfaatidan kelib chiqqan holda muayyan mafkurani targ'ib qiluvchi va unga tayanuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. «Siyosiy partiyalar, aynan, elektorati manfaatidan kelib chiqqan holda muayyan mafkurani targ'ib qiluvchi va unga tayanuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi» [4]. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kun siyosiy partiyalari sotsial-demokratik, liberal, konservativ, sotsialistik va boshqa g'oya hamda mafkuralarga tayanishini kuzatish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda O'zbekistonda fikrlar xilma-xilligi va siyosiy partiyalarning

mafkuralari ustida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'ppartiyaviylik tizimida plyuralizmning mantiqiy rivoji, uning nazariyasi hamda mafkuraviy platformasini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Sh. Mamadaliyev «partiyaning nomi, albatta, uning sa'y-harakatlariga mos bo'lishi kerak. Ayrim partiyalar o'zining haqiqiy maqsadini yashirish uchun o'ziga zamonabop nom qo'yib olishi ham mumkin» [3], degan fikrni bildiradi. Shu sababdan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o'rni dasturlarida qaysi g'oya va mafkuralarni ilgari surishi va himoya qilishiga qarab baholanadi. Ayrim mualliflar, jumladan, liberalizm ta'limotini ma'naviy qadriyatlar va oilaning axloqiy asoslariga putur yetkazishda ayblayotgan bo'lsa, boshqalari uning jahonda ro'y berayotgan voqeahodisalarga xolisona baho bera olmayotgani, mazkur jarayonlarga ikki xil andoza bilan yondoshayotganini ta'kidlashmoqda [10]. Shu sababli ham liberalizm g'oyasi zamonaviy neoliberalizm g'oyasiga qarab rivojlanmoqda. Bunga «M. Tetcher boshchilik qilgan Buyuk Britaniya konservativ partiyasi va R. Reygan rahbarlik qilgan AQSH Respublikachilar partiyalariga neoliberalizm g'oyalari kuchli ta'sir» [11] qilganligini misol tariqasida keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy mafkuralar jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlam, guruh, tabaqalar birligini ifodalashga xizmat qilgan ekan, u qanday namoyon bo'ladi, degan savol tug'iladi. Ba'zi olimlarning fikricha, siyosiy

mafura uch xil darajada namoyon bo'ladi: nazariy-konseptual; dasturiy-siyosiy; dolzarblashgan [7].

Nazariy-konseptual darajadagi siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlar va oliy maqsadini ochib beruvchi asosiy nazariy holatlar shakllantirilishini;

dasturiy-siyosiy darajada siyosiy qarorlar qabul qilish, g'oyaviy asosni ko'rsatish maqsadida ijtimoiy-falsafiy tamoyillar, oliy maqsadlar, dasturlar, shiorlar siyosat subyektlarining talablariga aylantirilishini (bu darajada siyosat subyektlari sifatida siyosiy partiyalar maydonga chiqadilar);

dolzarblashgan darajada mazkur mafkuraning maqsad va tamoyillari hamda ular siyosiy ishtirokining u yoki bu shaklda amalga oshirilishini ta'kidlab o'tamiz.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, siyosiy partiyalar muayyan siyosiy mafkura tayanib faoliyat yuritadi. M. Qirg'izboev ta'kidlaganidek, siyosiy mafkuralar siyosiy tizim shakllanishida ishtirok etib, turli ijtimoiy qatlamlar birligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, liberalizm o'rta sinfning, konservativ yerga egalik qiluvchi aristokratlarning, sotsializm esa ishchilar qatlamining mafkurasini hisobladi [12]. Ko'pchilik olimlarning fikricha, siyosiy partiyalar mafkurasining nazariy konsepsiyalarida zamonaviy mafkuralarning quyidagi turlari farqlanadi: liberal, sotsial-demokratik, konservativ va boshqa mafkuralar. Liberalizmning eng yirik vakillari — Lokk, Monteskye, Russo, Kant, Jefferson, Smit, Mill, Bentam va boshqalar aslini olganda inson huquqlarini hozirgidek tushunishning asosini yaratdilar [7].

Ma'lumki, O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq liberalizm (liberal demokratiya) g'oyalari ilgari suruvchi siyosiy partiyalar shakllangan. Shulardan biri O'zLiDeP tadbirkorlar, fermerlar va o'rta sinf vakillariga kuchliroq ta'sir ko'rsata oldi. Buni 2014 va 2019-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan saylov natijalari hamda o'z elektorati manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi qizg'in faoliyati ham yaqqol tasdiqlashi mumkin. Saylovlardan so'ng ushbu partiya Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida 2014 yil 52 ta, 2019 yil 53 ta deputatlik o'rinlarini band etdi.

O'zLiDeP mulkdorlar qatlami, kichik biznes vakillari, tadbirkor va ishbiarmonlar, fermerlar, jamoat tashkilotlari vakillari, ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislar hamda o'z tadbirkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirish evaziga xalq farovonligiga erishishga harakat qilayotgan ijodkor, olimlar va barcha fuqarolarning manfaatlarini va siyosiy irodalarini ifodalovchi siyosiy tashkilot hisoblanadi.

Partiyaning tashkiliy-huquqiy shakli jamoat birlashmasi bo'lib, mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi, shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan demokratik huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotining shakllanishida ongli va mas'uliyat bilan ishtirok etishni istovchi barcha O'zbekiston fuqarolari uchun ochiqdir [9]. Partiyaning nashri — «XXI asr» gazetasi.

Ko'ppartiyaviy tizimda keng tarqalgan mafkuralarning yana bir yo'nalishi bu sotsial-demokratiya mafkurasidir. O'zbekistonda sotsial-demokratik mafkura tayanadigan partiyalar ham mavjud.

Sotsial-demokratik harakat XIX asrning o'rtalarida shakllana boshlagan. Sotsial-demokratlar dastlab matbuot va kasaba uyushmalari orqali, keyinchalik esa siyosiy partiyalar orqali yollanma ishchilarga demokratik shart-sharoitlar yaratib, ularning ijtimoiy huquqi himoyasini ta'minlash maqsad qildi. Shu sababli ham bunday partiyalar sotsial-demokratik partiyalar deb atalgan.

O'zbekistonning siyosiy partiyalari orasidan ikkita partiya sotsial-demokratlar mafkurasiga mansub: O'zXDP va «Adolat» SDP (sotsial-demokratik partiyasi). Shuni eslatish joizki, O'zXDP Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2014yilgi

saylov natijalari bo'yicha 27 ta, 2019-yilgi saylov natijalari bo'yicha 22 ta deputatlik o'rinlarini egallab, avvalgi yillardagi "pozitsiyasini berib qo'rganligi" kuzatiladi. «Adolat» SDP esa mamlakatning siyosiy sektoridagi deputatlari soni bo'yicha avvalgi chaqiriqlardagi deputatlari soniga nisbatan ancha ilgari oldi va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida 2014-yilgi saylov natijalari bo'yicha 20 nafar va 2019-yilgi saylov natijalari bo'yicha 24 nafar deputatiga ega.

O'zXDP Dasturidagi g'oyaviy tamoyillarda: «O'zbekiston XDP mamlakatning tobora yuksalayotgan iqtisodiy salohiyati aholining kam ta'minlangan qatlamlari turmush darajasi va hayot sifatini oshirish uchun xizmat qilish kerak, deb hisoblaydi» [14]. O'zXDPning markaziy nashrlari «O'zbekiston ovozi» va «Golos Uzbekistana» gazetalaridir.

«Adolat» SDPning ustavida mafkuraviy tamoyillar (2019y.) quyidagicha ifodalangan: «Partiyaning asosiy maqsadi — huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jiplashgan jamiyatni taraqqiy toptirishda faol ishtirok etishdir» [15]. Aholini haddan tashqari kambag'al va boylarga bo'linib, tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik, aholi turmush sifati ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashga qaratilgan aniq sa'y-harakatlarni amalga oshirish, an'anaviy sotsial-demokratiyaning ijtimoiy adolat tamoyili va keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni amalga oshiradigan kuchli davlat g'oyalarini qo'llab-quvvatlash partiyaning asosiy vazifasi ekanligi ta'kidlanadi. Partiyaning g'oyaviy poydevorini sotsial-demokratiyaning uchta asosi — Erkinlik, Adolatlilik, Birdamlik tashkil etadi. Bu esa jahon sotsial-demokratik harakatining eng muhim qadriyatlar bilan hamohangdir. Partiyaning markaziy nashri «Adolat» ijtimoiy-siyosiy gazetasi hisoblanadi.

O'zbekistonda konservativ mafkurasiga tayanadigan partiya ham faoliyat olib bormoqda. Ma'lumki, partiyaviy siyosiy turmushdagi qudratli mafkuraviy yo'nalishlardan biri konservativ g'oyalardir. Konservativizm g'oyalari XVIII asr oxirlarida maorif va Buyuk Fransuz inqilobiga e'tiroz reaksiyasi sifatida paydo bo'lgan. Faylasuflar Y.Irxin, V.Zotov va L.Zotovalar «Politologiya» asarida: «Konservativizmning asosiy tamoyillari: Ilohiy iroda yaratgan olamni o'zgartirish uchun inson idrokining cheklanganligini va kishilarning amal qilishi shart bo'lgan oliy ma'naviy qonunlarning mavjudligini nazarda tutadi; bundan esa insonning davlat hokimiyatiga bo'ysunishi kerakligi kelib chiqadi; hukmronlik tabiatning izmidagi, ehtiroslarini jilovlash talab qilinuvchi insonning gunoh qilishga moyil tabiati; jamiyatda sinflar va guruhlarning paydo bo'lishiga olib keluvchi kishilar o'rtasidagi tabiiy notenglik; insonning jamoa tuzilmasidan tashqarida bo'lmasligi bilan bir qatorda uning ajdodlar an'alarini hurmat qilishi (bo'ysunishi)dir» [2]. Xullas, an'analar konservativizmning ma'naviy qiyofasidir. Konservativizm saqlanib qolgan tartib-qoidalarni himoyalashni aks ettiradi.

XX asrda konservativizm liberal qadriyatlar bilan birlashish natijasida neokonservativizm paydo bo'ladi. K.Mannxeymning fikriga ko'ra: «agar liberal uchun kelajak — hamma narsa, o'tmish esa hech narsa bo'lsa, vaqtni konservatorlarcha idrok etish, bu barcha mavjudlik bilan o'zaro aloqadorlikning muhim isboti bo'lgan o'tmish va qadriyatlar yaratuvchi davr ahamiyatini teran anglashdir» [17]. Neokonservativizm oila va dinning ma'naviy ustunligi, fuqaro va davlatning o'zaro mas'uliyati va ko'magi, qonun ustuvorligi, jamiyatni haddan ortiq demokratlashuviga

ishonchsizlik, qattiq davlat tartibi va ijtimoiy muvozanatni yoqlab chiqdi.

O'zbekistonda fuqarolarning milliy ruh, dunyoqarash, milliy o'z-o'zini anglash va vatanparvarlikka asoslangan manfaatlarini himoyalovchi «Milliy tiklanish» DP konservativ pozitsiyaga tayanuvchi partiya hisoblanadi [1]. K.Rabbimovning fikricha, «Milliy tiklanish» DP bu o'z mafkurasi jihatidan noyobdir – bu etnik qadriyatlar va oilaning an'anaviy qadriyatlarini saqlash va oshirishga qaratilgan yagona partiya va shuning uchun uni konservativ deb atash mumkin [8].

Partiya dasturida «Milliy tiklanish» DP ziyolilar, shu jumladan, ilm-fan va ta'lim, madaniyat, san'at va axborot sohasi vakillari, kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlar, shuningdek, olimlar, tarbiyachi va o'qituvchilar, ijodkor va san'atkorlar, sportchilar, turizm, hunarmandchilik va xalq tabobati sohasi vakillarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini, shuningdek, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!” degan ustuvor shiorni qo'llab-quvvatlovchi vatanparvar va bunyodkor xalqimiz vakillarini o'z elektorati, deb hisoblaydi [16]. Partiyaning markaziy nashri – «Milliy tiklanish» gazetasidir.

«Milliy tiklanish» DPning asosiy mafkuraviy tamoyillari saylovoldi Platformasi (harakat dasturi)da quyidagicha bayon qilinadi: Biz O'zbekistonni boy ma'naviy-ma'rifiy merosga ega, iqtisodiy rivojlangan, barqaror fuqarolik jamiyatiga tayangan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlangan, siyosiy nufuzli mamlakat sifatida ko'ramiz. Partiya bu maqsadlarga erishishda asosiy manba bo'lgan xalqimizning ma'naviy va moddiy kamolotini hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisoblaydi [5]. Hozirgi kunda mazkur partiya o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda ko'plab tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi

asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas» [13]ligi belgilab qo'yilgan. Bunda demokratiya va mafkura o'rtasidagi o'zaro munosabat plyuralizm asosiga qurilganligini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilganda hozirda O'zbekistondagi siyosiy partiyalar o'z mafkuraviy platformasiga ega bo'lib, faoliyatlarini ushbu doirada amalga oshirmoqdalar. O'zXDP va Adolat SDP sotsial-demokratik mafkuraga tayanib faoliyat yuritir ekan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini, O'zLiDeP esa liberal-demokratik mafkuraga asoslanib, mamlakatda ishbilarmonlar va tadbirkorlar qatlamini, Milliy tiklanish DP esa konservativ mafkurasi tayangan holda ziyolilar qatlamini o'z elektorati, deb hisoblaydi hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashini e'tirof etadi.

Yuqorida qayd etilgan sa'y-harakatlar samaradorligini oshirish uchun siyosiy partiyalar o'z mafkuralari bilan milliy g'oya va mustaqillik mafkurasining o'zaro munosabatini ko'rib chiqishlari ham lozim, deb hisoblaymiz. Bu munosabatlar, birinchidan, juda murakkab, ikkinchidan, metodologik nuqtai nazardan juda zarur, uchinchidan, ushbu munosabatlarning muayyan yo'nalishlarini aniqlash metodologik va siyosiy jihatdan, Yangi O'zbekistonda partiya qurilishining taraqqiyoti nuqtai nazardan nihoyatda dolzarbdur.

Albatta, siyosiy partiyalar o'z mafkuralari doirasida faoliyat olib borar ekan, o'z oldiga jamiyat a'zolarini turli guruhlar, tabaqalarga bo'lib yuborishni emas, balki fuqarolar farovonligini ta'minlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston siyosiy partiyalari oldida o'z dasturlarini yanada takomillashtirish, butun aholi va elektorati oldida o'zligini topishdek nihoyatda muhim vazifa turibdi. Shubhasiz, bunda partiyalar bir-biridan farq qiluvchi maqsad hamda vazifalar bilan birga xalq va millatni jipslashtiruvchi umumiy g'oyalarga ega bo'lmog'i ham darkor.

ADABIYOTLAR

1. Jurayev S.A. Fuqarolik jamiyati va amaliyot / Ilmiy-tahliliy maqolalar to'plami. – Toshkent: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2003. – B.77.
2. Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология: Учебник. – М.: Юристъ, 2000. – С.353-354.
3. Mamadaliyev Sh.O. O'zbekiston siyosiy partiyalari: shakllanish jarayonlari va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. – B.9.
4. Мейтс В., Мейтс Вл. Политическая партия: стратегия и управление. – Киев: Эльга, Ника-Центр, 2004. – С.85.
5. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari! O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturi // URL – <https://mt.uz/storage/oldisaylovs/September2021/7yPoc8uoKsyKt8mcv9P1.pdf>
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 80.
7. Пугачёв В.П., А.И.Соловьёв. Сиёсатшуносликка кириш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б.87; – Б. 299.
8. Раббимов К. Политические партии Узбекистана: между правительством и обществом //Россия и мусульманский мир: Бюллетень реф.-аналит.информ./РАН ИНИОН. Центр гуманитар.науч.-информ.исслед. – М., 2007. - №6 (180). – С. 69.
9. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi ustavi //URL – <https://uzlidep.uz/charter-of-the-party>.
10. Umarov B. Globalashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B.70.
11. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: Siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. – Toshkent: Sharq, 1998. – B.69.
12. Qirg'izboev M. Partologiya. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B.86-87.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.5.
14. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturi // URL – <https://xdp.uz/party-program>.
15. O'zbekiston «Adolat» SDPning ustavi // URL – <https://adolat.uz/partya-ustavi>.
16. O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining dasturi //URL – <https://mt.uz/storage/dasturs/September2021/-TYtHc51wGwgKGF3 r5HNO.pdf>.
17. Mannheim K. Ideologie und Utopie. Verlag von Friedrich Cohen in Bonn, 1929. S.32-33.



Saodat BOYBO'RIYEVA,

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

E-mail: ssaodatboy78@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor X.Xudoyqulov taqrizi asosida

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH

Аннотация

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ifodalovchi ijtimoiy, kommunikativ va nutqni rivojlantirishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida muloqot madaniyatini tarbiyalashning dolzarbligi va zarurligi asoslangan. Og'zaki muloqotning xususiyatlarini aniqlash uchun muallif bolalarni kuzatish, muloqot madaniyatini tarbiyalash ishlari mazmunini, uni amalga oshirishning tizimlilikini tahlil qilish, "Oilaviy rasn" proyektiv texnikasi, ota-onalar bilan suhbat kabi diagnostika usullari majmuasidan foydalanishni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Nutqiy muloqot, nutqiy muloqot madaniyati, nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, nutqiy muloqot jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧЕВОГО ОБЩЕНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье акцентируется внимание на актуальности и необходимости воспитания культуры общения как одного из компонентов социально-коммуникативного и речевого развития, представляющего основные направления развития дошкольников. Для определения особенностей устного общения автор предлагает использовать комплекс диагностических методов, таких как наблюдение за детьми, анализ содержания воспитания культуры общения, системность его проведения, проективную методику «Семейная картинка», говорение, родителей.

Ключевые слова: Речевое общение, культура речевого общения, развитие культуры речевого общения, педагогическое сопровождение процесса речевого общения.

PEDAGOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF DEVELOPING THE CULTURE OF SPEECH COMMUNICATION IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article focuses on the relevance and necessity of educating communication culture as one of the components of social, communicative and speech development, which represents the main directions of development of preschool children. In order to determine the characteristics of oral communication, the author suggests using a set of diagnostic methods, such as observing children, analyzing the content of communication culture education, the systematicity of its implementation, the projective technique of "Family Picture", and talking to parents.

Key words: Speech communication, speech communication culture, development of speech communication culture, pedagogical support of speech communication process.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqoti madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega, chunki hayotning ushbu davrida ijtimoiy kommunikativ, kognitiv va nutq rivojlanishining asoslari shakllanadi. Kun davomida u turli yoshdagi, xarakteri, xulq-atvori, kayfiyati, qobiliyatlari, qiziqishlari, istaklari va ehtiyojlari bo'lgan bolalar va kattalar bilan aloqada bo'lishi kerak. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar, muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribalarini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning amalda tadbiqini esa insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina yetkazish mumkindir. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim–tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilida so'zlashni o'rgatish, ularning nutqini rivojlantirish va ularni nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim–tarbiya berishda pedagogik va axborot kommunikatsiya, texnologiyalarini joriy etish, tarbiyalanuvchilarda nutq o'stirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish tizimini rivojlantirishning falsafiy, pedagogic-

psixologik masalalari bo'yicha malakatimiz olimlaridan N.Alavutdinova, M.Zayniddinova, V.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova, K.Kenjabayeva, J.Musayev, Sh.Nurullayeva, Q.Husanboyeva va boshqalar[2], MDH olimlaridan, E.V.Sokolov, B.V.Busheleva, O.S. Bogdanova, L.I. Durandina, M.T. Evgrafova, L.V. Lidak, T.V. Panchenko, T.V. Purtova, L.V. Chepikova[3] izlanishlar olib borganlar.

E.V.Sokolovning ta'kidlashicha, "muloqot madaniyati" – bu "belgilar orqali ma'lumot almashishni ifodalaydigan kommunikativ faoliyat bo'lib, unda ma'lumot maqsadli ravishda uzatiladi va tanlab olinadi, o'zaro ta'sir ma'lum qoidalar va meyorlarga muvofiq amalga oshiriladi. Muloqot madaniyati – bu muloqot faoliyati sifatiga ta'sir ko'rsatadigan va unda shaxsning tizimli ishtiroki tufayli shakllanadigan umrbd shaxsiy ta'lildir" [4].

B.V.Busheleva, O.S. Bogdanova, L.I. Durandina, M.T. Evgrafova, L.V. Lidak, T.V. Panchenko, T.V. Purtova, L.V. Chepikova va boshqalarning fikriga ko'ra, muloqot madaniyati umumiy xulq-atvor madaniyatining ajralmas qismi va shaxsning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishining zarur sharti sifatida qaraladi. Xulq-atvor madaniyati esa "odam va inson o'rtasidagi tabiiy va oqilona xulq-atvorga, beparvo

e'tiborga, xushmuomalalikka, axloq qoidalariga rioya qilishga intilish asosidagi aloqa turi" [3] sifatida taqdim etiladi.

Tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolaning ko'p qirrali rivojlanishi uchun muloqot madaniyati muhim, degan xulosaga kelishadi:

A.L. Myasnikov muloqot madaniyatining inson salomatligiga ta'sirini ko'rsatdi[5];

B.D.Furst "yurak-qon tomir kasalliklari, nevrozlar, psixonevrozlarning sabablaridan biri oilada, jamoada, jamoat joylarida muloqot madaniyatining yo'qligi" [5] ekanligini isbotladi;

M.I.Lisin fikricha, "faqat do'stona, xotirjam muloqot bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, bu esa, bolaning sog'lig'iga ijobiy ta'sir qiladi" [6];

M.Zufarovaning ta'kidlashicha, ijobiy muloqot maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shadi[7];

K.Ibragimova muloqot madaniyatini tarbiyalash jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining umumiy darajasiga ta'sir qiluvchi ijobiy shaxsiy fazilatlar rivojlanishini ta'kidlaydi[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlashga mavzusiga oid mavjud adabiyotlarni shrganish, tahlil qilish, qiyosiy o'rganish.

Tahlil va natijalar. Ota-onalarning bolalarga murojaat qilish shakli ularda muloqotga nisbatan hissiy ijobiy yoki hissiy salbiy reaksiyalarning paydo bo'lishiga yordam beradi va bolaning boshqalar bilan muomala qilish meyorini, shuningdek, quvonch, qoniqish yoki og'zaki muloqotdan qo'rqish hissini shakllantiradi[9]. Shunday qilib, oiladagi muloqot oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga va bir-biriga murojaat qilish shakliga bog'liq. Oilaviy hayot jarayonidagi turli hodisalar, munosabat va murojaatlar ta'sirida yosh bolalarga muloqotning tegishli turi shakllanadi.

In exercises where it is necessary to add one or another phraseological unit, the following are practiced: say 'Boo' to a goose, little bird told, mouth water, eat one's cake and have it, play cat and mouse, easy as pie, room to swing a cat, cat on a hot tin roof, frog in my mouth, cloud has a silver lining, of a feather, bear with a sore head, high flyer, Jack of all trades, Know-all/Smart aleck, lame luck, tear ways

3. Exercises for speech practice:
- selection of Uzbek equivalents for English phraseological units;
 - restoration of a phraseological unit based on a keyword;
 - completion of the idiom started by the teacher;
 - compiling a dialogue that includes English idioms;
 - students explain phraseological units in English to each other.

4. Audio exercises:

- listening to a phraseological unit on a sound recording and its consecutive translation into Russian;
- listening to the audio text and identifying phraseological units in it.

Watching a video material devoted to a particular phraseological unit, discussing other situations in which any phraseological unit can be used.

5. Interactive types of exercises with the inclusion of phraseological units:

- interactive conversation: students are divided into groups, get acquainted with the given situations and implement them using the required phraseological unit;

- role-playing game "Museum": students are divided into groups, where one of them will play the role of a guide in the museum and talk about some historical things, choosing the appropriate phraseological unit. The rest listen carefully and ask questions. This happens in turn with each group. The presented phraseological exercises, with the systematic use of them in English classes, will be of great benefit. When studying phraseological units, it is important to use visual aids, for example, cards with a literal image of a phraseological unit.

Conclusion and recommendations. Summing up, we concluded that the introduction of English phraseological units

takes place only in textbooks for in-depth study of the English language and in special manuals. In this regard, the task of including phraseological units in teaching English in higher education remains very relevant. The study of phraseological units stimulates the formation of motivation in students to study foreign languages. Knowledge of phraseology can help students in forming an idea of the similarities and differences in the traditions of their country and the country of the language being studied. In the process of learning, oral and written speech is enriched, imagery of thinking in the target language is formed, the ability to recognize and use corresponding phraseological units in oral and written speech develops. Phraseologisms play an important role in the assimilation of lexical material, stimulate independent work with the language, and increase the internal motivation of students. In addition, the inclusion of phraseological units in English lessons will help improve the level of teaching in higher education.

REFERENCES

1. Alefirenko N.F. Phraseological meaning in the light of frame semantics / N.F. Alefirenko // Scientific notes of the Transbaikal State University. Series: Philology, history, oriental studies. - 2011. - P. 11-17.
2. Arsentieva E.F. Comparative analysis of phraseological units (comparison of phraseological units semantically oriented to a person in and English Russian languages) / E.F. Arsentiev. - Kazan: Kazan Publishing House. 2006.
3. Kopzhasarova U.I., Beisenbaeva, B.A., Kikimova, A.T. Phraseological fund of the language as a means of expressing the mentality of the people / U.I. Kopzhasarova, B.A. Beisenbaeva, A.T. Kikimova // Bulletin of RUDN University. Series: Russian and foreign languages and methods of their teaching. - 2013. - No. 1. - P. 90-97.
4. Kunin A.V. Phraseology course of modern English / A.V. Kunin. - Moscow: Higher School, 1997.
5. Shansky N.M. Phraseology of the modern Russian language / N.M. Shansky. - St. Petersburg: Special Literature, 1996.
6. Smith L.P. Phraseology of the English language / L.P. Smith. - Moscow: Uchpedgiz, 1959.
7. Teliya V.N. Russian phraseology. Semantic, pragmatic and linguoculturological aspects / V.N. Teliya. - Moscow: Shk. Russian languages. culture, 1996.
8. Zykova I.V. The role of the concept sphere of culture in the formation of phraseological units as cultural and linguistic signs: dis. ... Dr. med. Nauk / I.V. Zykova. - Moscow, 2014.



UDK: 81(65.2)

Nargiza QODIROVA,
Yangi asr universiteti o'qituvchisi
E-mail: qodirova@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Raximov taqrizi asosida

AS A FACTOR IN IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF HISTORICAL SCIENCE

Annotation

In this article serves to increase the level of efficiency of further consolidation of basic, important knowledge, theoretical knowledge in general and special subjects in the process of training in improving professional training in teachers of Future History in pedagogical higher educational institutions.

Key words: Knowledge, training, transfer to the profession, skills, history, qualifications, scientific, specialist.

КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК

Аннотация

Данная статья служит повышению уровня эффективности дальнейшего закрепления базовых, важных знаний, теоретических знаний по общим и специальным предметам в процессе обучения по совершенствованию профессиональной подготовки будущих учителей истории в педагогических вузах.

Ключевые слова: Знания, обучение, переход в профессию, навыки, история, квалификация, научный, специалист.

BO'LAJAK TARIX FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH OMILI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqola pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda o'quv mashg'ulotlari jarayonida asosiy, muhim bilimlar, umumkasbiy va maxsus fanlardan olingan nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashning samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Bilim, o'quv mashg'uloti, kasbga yo'llash, ko'nikma, tarix, malaka, ilmiy, mutaxassis.

Kirish. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda o'quv mashg'ulotlarining asosiy vazifalaridan biri insoniyat tomonidan hozirgacha erishilgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini qurollantirishdir. Ularda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda o'quv mashg'ulotini bo'lajak tarix fani o'qituvchilarga berilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarning yechimini topish ustida ilmiy ishlar olib borilmoqda. O'quv mashg'ulotlari jarayonida asosiy, muhim bilimlar, umumkasbiy va maxsus fanlardan olingan nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashning asoslari o'rganiladi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos o'rnatiladigan mazkur munosabatlar o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va uni takomillashtirishda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda unumli mehnat jarayonida kasbga yo'llash ishlarini olib borishga tayyorlash maqsadida quyidagilarni tahlil qilib chiqdik. V.P.Bespalko mutaxassis tayyorlash maqsadini uchta darajaga ajratadi [3].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida maqsadi (ijtimoiy buyurtma – mutaxassisning ishlab chiqilgan modeli). Bunda mutaxassisning quyidagi xususiyatlarini tasvirlagandek:

a) uning muayyan sohadagi faoliyati bo'yicha bilim va malakalari darajasi;

b) uning psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarining rivojlanish darajasi;

v) undagi shakllangan motivning xususiyati, uning atrof-muhitga munosabati va jamiyatning mutaxassisga talablari [3].

Kasbga yo'llash ishlarini amalga oshirishda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning to'liq mazmuni esa u yashaydigan va ishlaydigan aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, bu sohadagi uning pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ta'lim maqsadi (mutaxassis modeli)ni ifodalashda uning tub mohiyati bilan tipik masalalar tizimi yoki ularga adekvat bo'lgan bilim va ko'nikmalar (faoliyat turlari)ni taqdim etilishini bildiradi.

Yu.A.Lavrikovning fikricha, mutaxassis modeli - bu mutaxassis tayyorlash jarayonini ifodalovchi va aniq belgilab qo'yuvchi o'quv-reja, dastur va boshqa normativ hujjatlarni pedagogika oliy ta'lim muassasalarida aks ettirilishidir [6].

Tadqiqotlarga asoslanib, mutaxassis tayyorlash modeli bir butun manzarani ifodalash uchun ko'rsatilgan tomonlar yagona maqsadga yuqori malakali mutaxassisni hamda kasbiy tayyorgarligi takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy hamda umumkasbiy fanlarni uzviy aloqada o'rganishlari talabalarning bevosita kasbiy ko'nikma hamda malakalarining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, har bir mutaxassislik fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonida mutaxassislik tushunchalarining o'rni, uni bayon qilish zaruriyati, ketma-

ketligi, boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi hamda bu aloqadorlikni reflektiv (refleks, beixtiyor), simmetrik yoki tranzitivlik (dars jarayonida olingan bilimlar majmuini amalda o'z o'rnida qo'llay olishi) kabi boshqa xossalarga bo'ysunishiga qarab, har bir tushunchalarning o'zini qanday salohiyati bilan qatnashayotganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Qadimgi dunyo tarixi darolarida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishida pedagogik texnologiyalarning o'rnini aniqlashdan oldin bilim, ko'nikma va malakaning o'zi nima ekanligiga javob bersak.

Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushincha, muloxaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, emperik, nazariy bilimlarga ajraladi. Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi, insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning hatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashish [1].

Ta'lim tarbiyani uyushtirishda nazariy, emperik va ilmiy bilimlar roli va o'rnini beqiyos. Ilmiy bilim ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolari yechimlarini topishda qo'l kelib, tizimli, asosli va narsa-xodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U emperik va nazariy darajada bo'ladi.

Bilim – emperik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi. Nazariy bilim – emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va xodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishda nazarda tutadi. Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoning bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, Fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Bilim – Obyektiv mavjudod haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumot majmui.

Ma'lumki pedagogik tizimning samaradorligi uning maqsad vazifalarini to'liq amalga oshirishga bog'liq. O'quvchilarni faollashtirish orqali o'z mehnati evaziga bilim olish, ijodli fikrlashga «o'zgaralar fikrini eshitish va o'z fikrlarini mantiqiy jihatdan bayon etishga yo'naltiriladi.

Modulli ta'lim texnologiyalari asosida moduli dastur turadi. Modul dasturlari o'zida mavzuning ilmiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan didaktik maqsadni, o'quvchilar dars davomida bajaradigan topshiriqlarni, mazkur topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalarni mujassamlashtiradi. Modulli dasturlar o'qituvchi tomonidan tuzilib, unda modulning didaktik maqsadlari, mavzuni o'rganish bosqichlari, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati elementlari, o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish yo'llari ketma-ket yoziladi [5].

An'anaviy ta'limda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning har bir o'quv fani boshqa o'quv fanlariga bog'liq holda olib borilishi bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida bilimlarning integrativ tarzda yuzaga kelishiga o'zining ta'sirini ko'rsatib keladi. Bu esa bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida ijodiy fikrlash jarayoni imkoniyatining sustlashishiga sababchi bo'lishi tajribada kuzatilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida beriladigan barcha mutaxassisliklar fanlari o'zida asosan faqat ma'lumot beruvchi, o'rgatuvchilik funksiyasi bilan chegaralanib qolmasdan fikrni rivojlantiruvchi, integrallashtiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalariga ham egadir. Bundan ko'rinib

O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari quyidagi jadvalda keltirilgan:

turibdiki, har bir fan o'qituvchisiga talabalarni nafaqat shu fan tuzilmasida mavjud bo'lgan ilmiy ma'lumotlar bilan qurollantirish, balki ular egallagan ilmiy tushunchalarni rivojlantirish va boshqa tushunchalar bilan integrallashtirishni ta'minlash hamda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari ham qo'yilgan. Shuning uchun ham har bir professor-o'qituvchi navbatdagi o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishida o'quv materialini yuqorida sanab o'tilgan talablar va tamoyillarga rioya qilgan holda tanlashi va uni bo'lajak tarix fani o'qituvchilar e'tiboriga havola qilishida tegishli tushunchalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishining uning jamiyatdagi o'rnini, pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari (fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi va boshqalar)ning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari qarama-qarshiligini his qilish, ularning yechimini topish uchun esa o'ziga xoslik va maqsadga muvofiqlik kabi kasbiy xislatlarning tarkib topishida namoyon bo'ladi.

Kelajakda o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanuvchi bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida psixologik-pedagogik komponentlardan biri, bu "esda saqlash" shaxsiy sifatining ma'lum darajada yuqori bo'lishi taqozo etiladi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan ishlar tuzilishiga ko'ra bir nechta bilimlarning integratsiyasi, o'zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o'z ichiga oladi. Professor T.R.Tolaganov o'z tadqiqotlarida, - "Talaba har doim o'quv materialini nazariy va amaliy o'zaro bog'liq bo'lgan dialogda qatnashadi, chunki o'quv materialiga muvofiq xulosa chiqarishi uchun u o'zining bilimlar blokiga tez-tez murojaat qilib turadi", - deb ta'kidlagan [7].

Har bir talaba imkoniyatiga, asosan bilimga bo'lgan intilishiga ko'ra o'zining bilimlar blokiga ega bo'ladi. Bu bilimlar tuzilmasiga ko'ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik-pedagogik, ijtimoiy-gumanitar, falsafiy, fizik-matematik hamda boshqa ko'rinishdagi bilimlar to'plami bo'lib, talaba qaysi yo'nalishga mos bilimlar kerakligiga tayangan holda, shu mazmundagi bilimlarni bankdan ajratadi. Bu bilimlarni chuqurlashtirib talab qilingan maqsadda foydalanishga harakat qiladi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim vazifalar quyidagilardan iborat: yangi tashkiliy tuzilmasini shakllantirib, faoliyat ko'rsatishni yo'lga qo'yish; o'quv mashg'ulotlarini o'tkazuvchi pedagogika oliy ta'lim muassasalar ishini muvofiqlashtirish va ular orasida raqobat muhitini yaratish; o'quv mashg'ulotlariga qo'yilgan davlat talablarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning chora-tadbirlarini ko'rish; talabalarning xohishi, taklifi va ehtiyojlari asosida o'quv mashg'ulotlar mazmunini muntazam o'zgartirib borish, invariant modulli dasturlardan foydalanish; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotga targ'ib etish; o'quv mashg'ulotlarida internet tarmoqlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish.

1-жадвал

Ўқув машғулотларни ташкил этишнинг ташкилий-педагогик асослари

Асосий тушунчалар	Асосий тушунчаларнинг моҳияти ва мазмуни
Мақсадлар	Касбий кўникма ва малакаларни шакллантириш. Ўқув машғулотларида интеграцияни таъминлаш ва юқори сифат ҳамда самарадорликка эришиш.
Вазифалар	Касбий bilim, кўникма ва малакалар, иш-ҳаракат усулларини, умумий билим савиясини ва тажрибасини ошириш.
Тамойиллар	Умумдидактик ва касбий таълимнинг хусусий тамойиллари: илмийлик, ғоявий йўналганлик, назарияни амалиёт билан алоқадорлиги, талабаларнинг ёши ҳамда индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш, тизимлилик, мунтазамлик, талабаларнинг оғирлик ва фаоллиги, изчиллик, касбий йўналганлик, узвийлик, ўзлуksизлик, ажратилган вақтда мослик, ўқув материалининг барқарорлиги ва динамик ўзгарувчанлик, ўзаро алоқадорлик, кўрсатмадлик, тушунарлик, мантикий тугаллик, яхлитлик, материалнинг ўқув муассасаси турини ва мақсадига уйғунлиги қабиладар.
Шакллар	Ишлаб чиқаришдан ажралган ва ажралмаган, қисқа муддатли, гуруҳ, яққа тартибда мақсадли (муаммоли), шахсий режа асосида, стажировка, экстернат, масофада туриб ўқитиш, мустақил қабиладар.
Методлар	Кўрсатмади, амалий индуктив, дедуктив мақсулди, мақсулсиз, ўйин, мунозара, лоийҳалаштириш, ишлаб чиқариш мазмунидagi масалалар ечиш, ишонтириш, талаб кўйиш, машқ тренинг, рағбатлантириш.
Воситалар	Реал объектлар, техник қурилмалар ва ёзма манбалар.
Ташкил этиш жойлари	Ўқув машғулоти ва тренинг марказлари, педагогика амалиёт, услубий бирлашмалар, анжуманларда катнашиш, мустақил методик ва жамоавий мустақил ишлар, тажриба алмашиш, стажировкада бўлиш қабиладар.

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda maxsus fanlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularga aniq bir soha bo'yicha texnologik jarayonlar bo'yicha bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar asosini tashkil etuvchi bilimlar kiradi. Tadqiqotlarda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida kasbiy-ijtimoiy-gumanitar tushunchalarni takomillashtirish uchun ularning mazmunini ishlab chiqish va o'quv maqsadini belgilashda kasbiy-ijtimoiy-gumanitar tamoyillarga, ya'ni, ma'lum bir tarix fani sohasi bo'yicha jihozlar va vositalarning ishlash tartiblari, o'quv mashg'ulotlarini o'tishda texnologiyalarining bajarilish ketma-ketligi, kasbiy faoliyatni tashkil etishning ilmiy asoslari, soha bo'yicha mehnat faoliyatining tarixiy tamoyillariga amal qilish lozim degan fikrlar bildirildi[2].

Tadqiqotlarimizda pedagogika oliy ta'lim muassalarida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarning ma'lum bir muammoli topshiriqni mustaqil ravishda bajarishlari uchun ularning darsliklar, turli texnologiyalar, adabiyotlar, uslubiy ko'rsatmalar, chizmalar, sxemalar, mahsulotlar, maketlar, jihozlar ro'yxatini o'zida qamrab olgan o'quv mashg'ulotini tashkil etilishini faollashtiradi hamda ijodiy yondoshuvli ta'limni shakllantiradi[4].

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish bo'lajak tarix fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga, nazariy bilim olish va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishlarini faollashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Adekvat – lotincha (adequatus) tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash.
2. Ватышев С.Я. Professionalnaya pedagogika. “Professionalnaya obrazovaniye”. M.: 1997. – 671 s., Professionalnaya pedagogika (pod redak. akad. S.Ya. Vatyshva) –M.: Professionalnoye obrazovaniye, 1999. – 903 s.
3. Bepalko V.P. Основы теории педагогической систем. Voronej: izd. Voronej GU, 1977. S – 304.
4. Jukov G.N. Master proizvodstvennogo obucheniya v sovremennoy sisteme NPO // J. Professionalnoye obrazovaniye. -M., 2001. -№9. - S.23-24.
5. Qo'shmanova L. O'zbekiston tarixi fanidan ta'lim mazmunini mantiqiy o'zlashtirishda blok modul darsining roli. // Ta'lim texnologiyalari, 2008. № 6, 20-21-betlar.
6. Lavrikov Yu.A. O modeli professionalnoy podgotovki ekonomista. Uluchsheniye podgotovki ekonomistov i ekonomicheskoy podgotovki injenerov. L., 1973 g.
7. Tolaganov T.R. Professionalnaya napravlenost matematicheskoy podgotovki budущих uchiteley. Dis. ... dok. ped. nauk. – T.: 1990 g. 398 s., -47 b.
8. Uralov T. Pedagogik texnologiyalar tushinchasi va uning turlicha talqinlari // Ta'lim texnologiyalari, 2007, 12-13-betlar.
9. Hasanboyev J., To'raqulova X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-T.: Fan va texnologiya, 2008 y.



Sayyora ZUPAROVA,
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti o'qituvchisi
E-mail: sayyora_z@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi akademiyasi katta o'qituvchisi PhD O.B. Mallayeva taqrizi asosida

CORRELATION BETWEEN WALDORF AND MONTESSORI EDUCATION: USING PUPILS' IMAGINATION

Annotation

The method of Montessori and Waldorf education is clearly distinguished by its relevance and importance in forming the ability to think and expanding the scope of imagination in school-aged children. According to the results of the research, these educational methods serve as a basis for children to show their abilities and gain great results.

Key words: Montessori education, Steiner education, imagination, independent school, academic subjects, traditional subjects, thinking, feeling, doing.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ВАЛЬДОРФСКИМ И МОНТЕССОРИ ОБРАЗОВАНИЕМ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Методика Монтеessori и Вальдорфского воспитания ярко выделяется своей актуальностью и значимостью в формировании способности мыслить и расширении кругозора воображения у детей школьного возраста. Согласно результатам исследования, эти образовательные методы служат основой для проявления детьми своих способностей и достижения, больших успехов.

Ключевые слова: Образование Монтеessori, образование Штайнера, воображение, независимая школа, академические предметы, традиционные предметы, мышление, чувство, действие.

MONTESSORI VA VALDORF TA'LIMINING O'QUVCHILAR TASAVVURINI ISHLATISHDAGI BOG'LIQLIGI

Annotatsiya

Maktab yoshidagi bolalarda ilk davrlardanoq fikrlash qobiliyatini shakllantirish va tasavvur doirasini kengaytirishda Montessori va Valdorf maktablari ta'limi yo'lga qo'ygan uslub o'zining dolzarbligi va ahamiyatligi bilan yaqqol ajralib turadi. Tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, ushbu ta'lim uslublari bolalarning o'z qobiliyatlarini namoyon etishlari hamda yuksak cho'qqilarni zabt etishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Montessori ta'limi, Shtayner ta'limi, tasavvur, mustaqil maktab, akademik fanlar, an'anaviy o'quv fanlar, fikrlash, his qilish, bajarish.

Kirish. Montessori ta'limining paydo bo'lganiga qariyb bir asr o'tgan bo'lishiga qaramay, ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar hamon uning samaradorligini isbotlashda davom etmoqda. Montessori ta'limining asoschisi italyalik o'qituvchi, shifokor Mariya Montessori hisoblanadi [1]. Kuchli nazariy struktura, o'qitish materiallariga boyligi, bolaga qaratilgan o'qitish va kuzatuvga mo'ljallangan taraqqiyotni o'zida mujassam qilgan Montessori yondoshuvi bolaga erta ta'lim berishda ildam metod hisoblanadi.

Valdorf ta'limining asoschisi avstriyalik faylasuf, ijtimoiy islohotchi Rudolf Shtayner hisoblanadi. Ba'zi manbalarda esa, Valdorf ta'limi Shtayner ta'limi deb ham yuritiladi. Rudolf Shtaynerning "yaxlit" ta'lim falsafasi Valdorf maktablarining o'quv dasturida aniq namoyon bo'lib, u "guruh" emas, balki "individual" ya'ni alohida har bir o'quvchiga e'tibor qaratishni ta'kidlaydi. Ushbu maktablar ichidagi darslar uch-to'rt hafta davomida muayyan ta'lim yo'nalishlariga qaratilgan noyob "blok" tizimida tuzilgan. Ushbu "blok" tizimining tarafdorlari, bu individual bolaning rivojlanayotgan ehtiyojlarini hal qilishning yanada samarali usuli deb hisoblashadi. Ularning ta'kidlashicha, bolalar o'z qobiliyatlarini rivojlantirar ekan, ularning tushunish qobiliyati o'zgaradi. Ta'lim mazmuni ushbu o'zgarishlarga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Misol uchun, oldingi yillarda (birinchi sinfdan to'rtinchi sinfgacha) bolalarga ko'pincha hikoyalar va afsonalar orqali tarix, fan, til san'ati va matematika o'rgatiladi. Bolalar o'sib ulg'aygan sari ushbu fanlarning aniq va texnik sohaları kiritiladi. Bu usul orqali rivojlanayotgan bolaning

nafaqat ehtiyojlari, balki qiziqishlari ham qondiriladi. Natijada, bolalar ko'pincha o'z o'qishlari bilan faol shug'ullanishadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Montessori o'qituvchisi ishonch munosabatlariga asoslanib, bolalarning bir-biri bilan munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi, o'quvchilarga o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi va faqat o'quvchilar kelishmovchiligida yordam berish uchun yordam beradi. Montessori o'qituvchisi har qanday tartibsizlik yoki qo'pol xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi va muammoli xatti-harakatlarni bolaga nima ruhsat etilganligini va muammoli xatti-harakatlarni qanday tuzatishni o'rgatgan holda hal qiladi [3]. Montessori ta'limining ushbu o'zaro bog'liq maqsadini shunday ifodalaydi: "O'qituvchining maqsadi bolalarga yordam berish va rag'batlantirishdir, bu ularga ishonch va ichki intizomni rivojlantirishga imkon beradi, shunda bolaning rivojlanishiga aralashish yana ham kamroq bo'ladi". U tengdoshlar bilan yaxshi munosabatlar va kuchli tengdoshlar madaniyatining muhimligini tan oladi [4], bu yerda o'qituvchi bolalarga yaxshi do'stlikdan zavqlanish uchun joy beradi. Montessori yondashuvidagi o'qituvchilar ushbu rolga qo'llanma sifatida puxta tayyorgarlik ko'rishadi. Kerakli ta'lim intensiv va o'ziga xos bo'lib, "texnikani o'zlashtirishga" qaratilgan [5].

Valdorf tizimidagi o'qituvchilar ushbu rivojlanayotgan bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatadilar, har doim ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydilar va yaxshilik, go'zallik va

haqiqat tushunchalarini san'at orqali o'rganishadi. Valdorf sinfida bolaning xatti-harakatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish ko'pincha faoliyatni o'zgartirish, yangi hikoyani kiritish yoki bolaga badiiy loyihani taqdim etish orqali yondoshiladi [6]. Hikoya faoliyati o'qituvchilarning o'zlari tomonidan boshqariladigan Valdorf ta'limining muhim qismidir. "Valdorf sinf o'qituvchilari rassomlar va ijrochilar; ular tasviriy va sahna san'ati bo'yicha o'qitiladi va darslar haqida innovatsion fikrlashga chaqiriladi" [7].

Deluca va Hughes (2014) ma'lumotlariga ko'ra, odatiy Valdorf sinflari bolalardan va hamkasblaridan o'rganayotgan ikkita o'qituvchini o'z ichiga oladi [8]. Valdorf maktabidagi o'qituvchilar muntazam ravishda hamkorlik qilish uchun yig'ilishadi (o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchilar kolleji deb ataladi), bir-birlarini qo'llab-quvvatlash va maktab taraqqiyoti rejalarini ma'muriy jihatdan aniqlash uchun ishlaydi. Har bir o'qituvchi an'anaviy o'qituvchilar ta'limi va to'g'ridan-to'g'ri Valdorf kolleji sertifikatini kombinatsiyasi bilan tayyorlanadi.

O'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar sinfda o'qitish yoki faoliyatning aniq tartiblarini o'rgatishdan iborat. O'qituvchi juda ko'p sonli maxsus atamalarini, ssenariy bosqichlarini va materiallarning tushuntira olishlarini, shuningdek, "inson salohiyatini ro'yobga chiqarishning axloqiy va ma'naviy maqsadiga qaratilgan katta va murakkab texnik repertuari o'zlashtirishi" kerak. O'qituvchilarga bolalarni materiallardan foydalanishga o'rgatish uchun deyarli aniq ko'rsatma va qo'llanmalar taqdim etiladi. Ushbu namoyish usullari Montessorining qo'llab-quvvatlovchi, kuzatuvchi rahbar tomonidan ehtiyotkorlik bilan, takroriy o'qitish qobiliyatli, rivojlanayotgan bolaning barqarorligini ta'minlaydi, degan ishonchiga ko'ra aniq o'rgatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Montessori va Valdorf maktablari bolalarning atrof-muhit bilan aloqaga ehtiyoj kattaligi muhim o'rin tutadi. Biroq, Montessori ta'limi haqiqiy hayotiy tajribalarga e'tibor qaratishi, Valdorf ta'limi esa bolaning tasavvur va fantaziyasiga urg'u berishi bilan farq qiladi. Valdorf maktablariga avstriyalik olim va faylasuf Rudolf Shtayner asos solgan. Valdorf ta'limi, o'z navbatida Shtayner ta'limi sifatida ham tanilgan, antroposofiya asoschisi Rudolf Shtaynerning ta'lim falsafasiga asoslanadi.

Valdorf ta'limi - Yevropada qariyb 100 yil oldin avstriyalik faylasuf, ijtimoiy islohotchi va vizyoner Rudolf Shtayner tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu ta'lim tizimi butun dunyo bo'ylab mustaqil maktab harakatini ko'zda tutadi. Bugungi kunda Valdorf ta'limi butun dunyo bo'ylab taqdim etilgan bo'lib, 60 dan ortiq mamlakatlarda 1000 ga yaqin maktab va 2000 ga yaqin erta bolalik ta'lim dasturlari mavjud. Valdorf ta'limida o'quv jarayoni asosan uch tomonlama bo'lib, bosh, yurak va qo'llarni jalb qiladi - yoki fikrlash, his qilish va bajarish. Bu Valdorf o'qituvchilarining akademik, san'at va amaliy ko'nikmalarni birlashtiradigan o'quv dasturi va metodologiyasi orqali har bir bolani tarbiyalash va jalb qilish uchun ishlayotgan asosdir.

Har ikkala talim tizimi ham bolani erta rivojlantirishga, uning qiziqishlariga yo'naltirilgan. Bu jarayon bolaning o'zigagina fanlarni tanlash imkonini beruvchi ta'limga asoslanadi. Shu bilan bir qatorda Montessori va Valdorf ta'limi bir qancha farqli jihatlarga ham egadir.

Montessori maktablari bolaga ergashtirishga tayanadi. Ushbu ta'lim jarayonida, bola o'rganmoqchi bo'lgan narsani o'zi tanlaydi va o'qituvchi o'rganishga rahbarlik qiladi. Bu yondashuv juda amaliy va o'quvchiga yo'naltirilgan.

Valdorf ta'limida esa, sinfda o'qituvchi tomonidan boshqariladigan yondashuvdan foydalanadi. Bolalarga akademik fanlar Montessori maktablaridagi o'quvchilarnikidan ko'ra kechroq tanishtiriladi. An'anaviy o'quv fanlari -

matematika, o'qish va yozish - bolalar uchun eng yoqimli o'rganish tajribasi sifatida qaralmaydi va ular yetti yoshga to'lgunga qadar kechiktiriladi. Buning o'rniga, bolalar o'z kunlarini xayoliy mashg'ulotlar bilan to'ldirishga da'vat etiladi, masalan, uydirmalar to'qish, san'at va musiqa bilan shug'ullanish [9].

Tahlil va natijalar. Montessori va Valdorf maktablari o'rtasidagi asosiy o'xshashliklar haqida so'z yuritilganda, ularning har ikkisida ham moslashuvchan o'quv rejasiga mavjud. Ya'ni, moslashuvchan o'quv rejasiga ko'ra, Montessori ham, Valdorf maktablarida ham buyurtma asosida tuzilgan o'quv dasturi mavjud emas. O'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmasi bilan o'z faoliyati va vazifalarini tanlashlari mumkin. Shuningdek, ular asosan o'z tezligida ishlashlari mumkin [10].

Markazlashtirilmagan ta'lim: Montessori va Valdorf o'qituvchilari kamdan-kam hollarda butun sinf uchun ma'ruzalar o'qiydilar. Talabalar sinfda erkin harakatlanishlari, mustaqil yoki guruhlarda ishlashlari va o'z qiziqishlarini amalga oshirishlari mumkin.

Yaxlit ta'lim: Montessori va Valdorf maktablari yaxlit holda bolani tarbiyalashga qaratilgan. Asosiy o'quv jarayonlaridan tashqari, ular amaliy ko'nikmalarni o'rganishga, to'g'ri xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga va muhim qadriyatlarini o'rganishga katta e'tibor berishadi.

Aniq o'rganish: Montessori ham, Valdorf ham aniq o'rganishga urg'u beradi. Bolalar ko'plab amaliy materiallar bilan ishlaydi va muhim amaliy ko'nikmalarni o'rganadi. Montessori, ayniqsa, hech bo'lmaganda maktabgacha va boshlang'ich maktabda aniq o'rganishga qaratilgan.

Cheklangan texnologiya: Montessori va Valdorf maktablari zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni cheklaydi. Ayniqsa, Valdorf maktablari bu borada qattiqqo'iroq bo'lishi mumkin [11].

Montessori va Valdorf maktablari o'rtasidagi asosiy farqli jihatlardan iborat:

Ta'lim jarayoni: Montessori maktablari ko'proq asosiy o'quv jarayoniga, hech bo'lmaganda maktabgacha ta'lim muassasalariga e'tibor beradi. Valdorf maktablari odatda 1 yoki 2-sinfgacha asosiy ta'lim tamoyillarini hech bo'lmaganda rasmiy ravishda kiritmaydi.

Ish va o'yin: Montessori maktablari o'yindan ko'ra ishlashni afzal ko'radi. Hatto maktabgacha ta'lim muassasalarida ham Montessori o'qituvchilari go'yo o'yin o'ynashni rad etishadi (yoki hech bo'lmaganda uni rag'batlantirmaydilar). Valdorf maktablari esa, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida go'yoki o'yin va xayoliy faoliyatni asosiy yo'nalishga aylantiradi [12].

San'at: Valdorf maktablari o'quv dasturi davomida san'at va musiqani ta'minlaydi. Musiqa, drama, raqs, tasviriy san'at va boshqa badiiy vositalar ko'plab darslarga kiritilgan. Ko'pgina Montessori maktablari esa san'at, musiqa va xayoliy faoliyatga kamroq e'tibor berishadi [13].

Tabiat: Valdorf va Montessori maktablari bolalarga tabiat haqida o'rgatadi va aksariyat hollarda darslar ham ochiq havoda, tabiat bag'rida o'tkaziladi. Valdorf maktablarida ham bunga ko'proq e'tibor berishadi.

Xulosa va takliflar. Montessori va Valdorf ta'lim tizimlari erta ta'limni rivojlantirishda bolaning tasavvur doirasini kengaytirish, uning fikrlash qobiliyatini yana ham rivojlantirishda noan'anaviy uslublar hisoblanadi. Bunda o'quvchi tabiat bilan uyg'un holda, olamni va ilm-fanni uzviy bog'liqlikda tushunishni boshlaydi. Har ikki uslub ko'proq amaliy tarzda amalga oshiriladi. Shuningdek, san'at va musiqa, ijodkorlik mahorati, yaratuvchanlik, raqs, kuy qo'shiq, o'yinlar orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat beriladi. Montessorining fikri texnologiyani rad etish emas, balki yog'och bloklar kabi tabiiy ravishda yaratilgan narsalarni qadrlashdir. Shu yol orqali bolani tabiat bilan o'zaro

hamohang qilishni koʻzda tutadi. Valdorf maktablari esa, otionalarni bolalar taʼsir qiladigan ommaviy axborot vositalari miqdorini cheklashga undaydi. Ikkalasi ham oʻquv dasturlarida bolaning butun rivojlanishini - maʼnaviy, aqliy va

jismoniy rivojlanishiga eʼtibor qaratgan boʻlsa-da, ularning bu maqsadga erishish yoʻllari keskin farq qiladi. Va har bir maktab oʻz avtonomiyasiga ega ekanligini unutmash kerak.

ADABIYOTLAR

1. Lillard Paula Polk. Montessori: A Modern Approach New York: Schocken Books* 1973.
2. Hyubner Teodor, "Rudolf Shtayner maktablari", Amerika-Germaniya sharhi. 1952 yil fevral, 2-bet.
3. Edwards Carolyn Pope. "Three Approaches from Europe: Waldorf, Montessori, and Reggio Emilia." Research Gate, 2002.
4. Lash M. (2008). Classroom community and peer culture in kindergarten. *Early Childhood Education. Journal*, 36(1), 33–38.
5. Cossentino, J. (2009). Culture, craft, & coherence: The unexpected vitality of Montessori teacher training. *Journal of Teacher Education*, 60(5), 520-527.
6. Edmunds, F., & Barton, M. (2004). An introduction to Steiner education: The Waldorf school. Forest Row [UK]: Sophia Books.
7. Nordlund C. N. (2013). Waldorf education: Breathing creativity. *Art Education*, 66(2), 13–19.
8. Clouder C., & Rawson, M. (1998). Waldorf education. Hudson, NY: Anthroposophic Press. Cossentino, J. (2009).
9. Cornelius Elizabeth M., *Early Childhood Education and die Waldorf School Plan*.
10. Spring Valley, N.Y.: Waldorf School Monographs 1983.
11. Gitter Lena L., *The Montessori Way Seattle: Special Child Publications, inc.* 1970.
12. Torrens I. Pol, "Ijodkorlikdagi sarguzashtlar", "Bolalik taʼlimi", 19 - jild. 1963-yil oktabr, 79-80-betlar.
13. Shtayner Rudolf, *Taʼlim va zamonaviy maʼnaviy hayot*, Antroposofik nashriyot Co. 1923, 123-125-betlar.



Aydos IBADULLAEV,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi
Nukus konchilik instituti kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: aydos1972@mail.ru

Nukus DPI, Fizika o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD) N.S.Matjanov taqrizi asosida

FIZIKA O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

Annotatsiya

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimining rivojlanish kontseptsiyasini amalga oshirish hamda uning samaradorligini ta'minlash maqsadida ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada fizika o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini interfaol metodlar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mezonlari va modeli haqida ma'lumotlar yoritib berilgan. Shuning bilan birga, talabalarning fizika faniga oid tayanch va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'qituvchi, talaba, fizika, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, shakllantirish, rivojlantirish, interfaol metodlar, model.

О РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

Аннотация

Научные исследования, проводимые в нашей стране в последние годы, показывают, что для реализации концепции развития системы высшего образования и обеспечения ее эффективности необходимо совершенствование содержания образования на основе современных требований. В данной статье освещены сведения о педагогических условиях, критериях и модели развития профессиональных компетенций студентов на основе интерактивных методов в процессе обучения физике. При этом обсуждаются методы формирования и развития базовых и профессиональных компетенций студентов, связанных с физикой.

Ключевые слова: Обучение, преподаватель, студент, физика, компетенция, профессиональная компетенция, формирование, развитие, интерактивные методы, модель.

ON THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICS

Annotation

Scientific research conducted in our country in recent years shows that in order to implement the concept of developing the higher education system and ensure its effectiveness, it is necessary to improve the content of education based on modern requirements. This article highlights information about the pedagogical conditions, criteria and models for the development of students' professional competencies based on interactive methods in the process of teaching physics. At the same time, methods for the formation and development of basic and professional competencies of students related to physics are discussed.

Key words: Teaching, teacher, student, physics, competence, professional competence, formation, development, interactive methods, model.

Kirish. Mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimining fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonlarida rahbar va pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarini qanoatlantirish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali rahbar va pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish». [1] vazifalari belgilangan. Bunda rahbar va pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, pedagogik mexanizmlarini hamda kasbiy ta'lim sifatini oshirish borasidagi izlanishlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga kelib zamonaviy ta'lim tamoyillari o'zgarimoqda. Endi bitiruvchiga ko'p miqdordagi bilim yoki

kompetensiyalar to'plamini berishdan ko'ra tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda ishlash tayyorgarligiga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni mazmunli idrok etish va tanqidiy baholashga, ularning rivojlanishini bashorat qilishga, ularga moslashish qobiliyatini ta'minlaydigan jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash ustuvorlik kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XXI asr ko'nikmalari globallashtirish davridagi yangi texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu esa ijodkorlik, innovatsiya va aksariyat hollarda tadbirkorlik; tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kommunikatsiya ko'nikmalari, kompetentlikning keng jihatlarini bilan bog'liq [5].

N.A.Muslimov, Q.M.Abdullaeva, O.A.Qo'ysinov, N.S.Gaipova, N.N.Karimov, M.Qodirovlarning ta'kidlashicha «Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalga bo'lgan ta'lim mazmunini bevosita o'rganish shuni, ko'rsatadiki, G'arb mamlakatlarida asosiy o'rinni mutaxassisning kompetentlik malaka darajasi

egallaydi. Respublikamizning milliy ta'lim tizimi mohiyatiga ko'ra, ta'lim mazmunining minimal talablari bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanadi» [3].

V.V.Nesterov, A.S.Belkinlar «Kompetensiya ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funktsiyalar, kompetentlikni esa kompetensiyani samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi», - deb ta'riflagan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimi uchun kompetensiyaviy yondashuv mutlaqo yangi tushuncha emas.

Ushbu yondashuv elementlari doimo ta'lim sifatini boshqarish va ta'limdagi kadrlar tayyorlashning mazmunida bo'lib kelgan. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun biz O'zbekiston an'analari va ehtiyojlariga zaruriy moslashuvni ta'minlay oladigan ilg'or xorijiy tajribalarga tayanishimiz kerak.

Tadqiqotimiz maqsadiga mos ravishda interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llashda pedagogik shart-sharoitlar va uning mezonlarini tanlab oldik (1-jadval).

1-jadval


Interfaol metodlar asosida talabalar tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va mezonlari

Pedagogik shart-sharoitlar	Mezonlar
1. O'quv-me'yoriy shart-sharoitlar	
Tayanch kompetensiyalarning o'quv-me'yoriy hujjatlarda shakllanganligi va tatbiq etish shart-sharoitlari	- fizikadan tayanch kompetensiyalarning davlat ta'lim standartlari va malaka talabalarida aks etganligi; - fizikadan tayanch kompetensiyalarning o'quv jarayoniga tatbiq etish yuzasidan metodik ta'minotning mavjudligi.
Tayanch kompetensiyalarning shakllanish jarayonining samaradorligi	- tayanch kompetensiyalarni rivojlanib borishini talabalar kompetensiyalari reestri orqali kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishi; - davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi va dasturlari bilan talabalarda tayanch kompetensiyalar shakllanishining muvofiqligi va samaradorligini tahlil qilish.
2. Tashkiliy shart-sharoitlar	
Interfaol metodlarning samarali tatbiq etilishi	- o'qituvchining yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi shaxs vazifasini bajarishi, talabalar faoliyati va faolligini ta'minlash; - auditoriyada talabalarining o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyasini shakllantirish; - o'quv jarayonini interfaol boshqarish; - talabalarining hamkorlikda o'rganish va o'zaro hamkorlik qilishga shart-sharoitlar hisobga olinganligi.
O'quv jarayonining tayanch kompetensiyalarning rivojlanishiga yo'naltirilganligi	- talabalarining o'zini mustaqil va o'zini o'zi boshqaruvchi sub'ekt sifatida his etishi, erkin so'zlashi va faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash; - talabalarining o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonlarida yetakchi rolni egallashi, o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi; - talabalarining muhim hayotiy muammolarni hal etish amaliyotini o'rganishi; - talabalarining o'z faoliyati natijalari va imkoniyatlari darajasini ob'ektiv baholash, refleksiv tafakkurini rivojlantirish; - talabalar dars mashg'ulotini tashkiliy jihati bo'yicha mustaqil fikrni bildira olishligi; - talabalar mashg'ulotning tashkiliy jihati bo'yicha mustaqil fikrni bildira olishligi; - talabalarining kundalik hayoti, kuzatishlariga bog'liq muammoli vaziyatlar bilan to'ldirilganligi; - talabalar o'quv mashg'uloti maqsadi, mazmuni va metodlarini aniqlashtirishda ishtirok eta olishligi; - o'qituvchi tomonidan talabalarining turli o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi.
3. Didaktik shart-sharoitlar	
Tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda o'quv topshiriqlaridan foydalanish	- talabalarining faolligi va mustaqilligini oshiruvchi topshiriqlardan foydalanish; - o'quv topshiriqlari orqali erishish lozim bo'lgan natijalarning shaffof bayon etilishi; - talabalar bilan topshiriqlarning mazmuni, tuzilishi, topshiriq qismlarining bir-biri bilan bog'liqligi xususida doimiy fikr almashish; - topshiriq negizida ma'lum fan yoki fanlararo tushunchalarning mavjudligini ta'minlash; - topshiriqda «didaktik tarmoq»ni aks ettirilganligini ta'minlash; - topshiriqlarni oddiydan murakkablikka yo'naltirilganligini ta'minlash; - talabalarining «kognitiv mustaqilligini»ni ta'minlovchi topshiriqlar ishlab chiqish; - topshiriqlarda «to'liq faoliyat» qamrab olingan bo'lishi (topshiriqni bajarish uchun zaruriy ma'lumotlarni izlash, topshiriqni bajarish bosqichlari va zaruriy vositalarni rejalashtirish, masalalarni yechish, o'z natijalarini baholash).
Tayanch kompetensiyalarni rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarining qo'llanilishi	- muloqat orqali o'rganish imkoniyati; - talabalarining o'zlashtirishga muvofiq differentsiallash; - hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratish; - «kashfiyot qilib o'rganish» tamoyilini tatbiq etish.
Kognitiv mustaqillikni qo'llab-quvvatlash	- talabalarining fan va undagi mavzularning o'z hayotiga, qiziqishlariga bog'liqligini tushunishi va anglashi; - auditoriyada o'qib-o'rganish, mustaqil ta'limga bog'liq savollar, muammolar bo'yicha tizimli suhbatlarning tashkil qilinishi;

	<p>- talabalarning o'quv mashg'ulotining maqsadi, mazmuni va metodlarini aniqlashtirishdagi ishtirokini ta'minlash;</p> <p>- nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqliq, o'quv fanlararo bog'liqlikning ta'minlanganligi, ta'lim mazmunining turli vaziyatlarga moslanganligini ta'minlash.</p>
--	--

Tahlil va natijalar. Fizika o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish modeli 1-rasmda keltirilgan. Modelning metodik komponenti sifatida talabalarga fizika o'qitishda keys-texnologiyalari tavsiya

etildi. Maqsad fizikani o'qitishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasini hal qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ochishdan iborat.



1-rasm. Fizika o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish modeli

Fizika o'qitish texnologiyasi ham maqsadga yo'naltirilganlik; mazmun; ilmiy g'oyalari; professor-o'qituvchi va talabalarning harakatlar tizimi; natijabaholash mezonlari; tashhishlash natijalarini o'z ichiga oladi.

Keys texnologiyasida aniq yoki yashirin fizikaviy muammo bilan kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muayyan kasbiy vaziyatni tavsiflovchi muammoli – vaziyatli topshiriqni hal qilishda majmuaviy yondashuvga asoslanadi hamda o'qituvchining talabalarga voqealarni tushunarli tilda bayon

qilishi, ta'lim jarayonining muayyan maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan pedagogik vosita sifatida foydalaniladi [2].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bugungi kun o'qituvchidan yuqoridagi jarayonlar davomida innovatsion asos, ya'ni yangi bilim, g'oyalarni ijodkorlik bilan o'rganib, o'zlashtirish, loyihalash, modellashtirish, innovatsion kuch – amaliyotga tatbiq eta bilish, hamda innovatsion imkoniyatlar – fikr va tafakkur o'tkirligini talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi 797-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 09/19/797/3793-son].
2. Abduqodirov A.A. Ta'lim va tarbiyada «Case-study» texnologiyalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2017. – 344 b.
3. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2013. –B.8-9.
4. Нестеров В.В. Белкин А.С. Педагогическая компетентность. – Екатеринбург: Учебная книга, 2003. –С. 186.
5. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and digital technologies (Big issues and critical questions). Cambridge University Press. 2015. – p. 143-144.



UDK: 141.1:316.7:323/327(575.1)

Sarvar IBROXIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sarvar-ibroximov@inbox.ru

F.f.d.(PhD) dotsent D.B.O'rinboyev taqrizi asosida

EVOLUTIONARY THEORIES OF THE CONCEPT OF CIVIL SOCIETY

Annotation

The article analyzes theories and concepts of civil society. The evolution of the views, theories and concepts of civil society among scientists who lived in the ancient period is deeply analyzed. Historically and philosophically, the classical ideas about civil society of the later periods of Western scientists are analyzed. In the studies of domestic scientists, many ideas about civil society are discussed. Conceptual reflections on the concepts of modern civil society are discussed. In the article, the author made suggestions and conclusions about the transformation of civil society.

Key words: Society, civil society, theories of civil society, evolution, evolutionary development, conceptual ideas of classical and modern civil society.

ЭВОЛЮЦИОННЫЕ ТЕОРИИ КОНЦЕПЦИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье анализируются теории и концепции гражданского общества. Глубоко проанализирована эволюция взглядов, теорий и концепций гражданского общества у ученых, живших в античный период. Исторически и философски анализируются классические представления о гражданском обществе более поздних периодов западных ученых. В исследованиях отечественных ученых обсуждается множество представлений о гражданском обществе. Обсуждаются концептуальные размышления о концепциях современного гражданского общества. В статье автором сделаны предложения и выводы о трансформации гражданского общества.

Ключевые слова: Общество, гражданское общество, теории гражданского общества, эволюция, эволюционное развитие, концептуальные идеи классического и современного гражданского общества.

FUQAROLIK JAMIYATI KONSEPSIYASINING EVOLYUTSION NAZARIYALARI

Annotatsiya

Maqolada fuqarolik jamiyatiga oid nazariyalar va konsepsiyalar tahlil qilinadi. Antik davrda yashab o'tgan olimlarning fuqarolik jamiyat haqidagi qarashlar evolyutsiyasi, nazariyalari, konsepsiyalari haqida chuqur analiz qilingan. Keyingi davrlardagi fuqarolik jamiyati g'arb olimlarining klassik g'oyalari tarixiy, falsafiy tahlil etilgan. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham fuqarolik jamiyati borasida ko'plab g'oyalari borasida ham fikr yuritiladi. Zamonaviy fuqarolik jamiyati konsepsiyalariga oid konseptual fikrlar haqida so'z boradi. Muallif tomonidan maqolada fuqarolik jamiyatining transformatsiyasiga oid taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati nazariyalari, evolyutsiya, evolyutsion taraqqiyot, klassik va zamonaviy fuqarolik jamiyati konseptual g'oyalari.

Kirish. Insoniyat rivojida "fuqarolik jamiyati" termini borasidagi ilmiy nazariyalar va qarashlar xilma-xil shu boisdan mazkur mavzuga ilmiy nazariy fikrlarni tahlil etgan xolda o'z qarashlarimizni ilmiy asoslashga harakat qilamiz. Demak, "fuqarolik jamiyati" tushunchasi umuminsoniy g'oyalari asosida shakllanadi. U rus tilida "graždanskoye obshestvo", inglizchada "Civil Society" deb yuritiladi. Jahonda bunday jamiyatni tadqiq etuvchi ko'plab ilmiy nazariya asoslar va konsepsiyalar mavjud bo'lib, ular Centre for Civil Society Studius of John Hopkins University, University of Colifomia, Harvard University, Centre for Civil Society of London School of Economics and Political Sciences, University of Glasgow, fuqarolik jamiyatini o'rganish markazi, Seoul of National University bular mazkur jamiyatni rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.

Har qanday huquqiy-demokratik davlatni jamiyatda fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan fuqarolik jamiyatini jamiyat rivojining bugungi kun nazari bilan qaraganda asosiy omil deb hisoblash mumkin. Huquqiy-demokratik davlatchilikni shakllantirish har qaysi davlat o'z oldiga qo'ygan oliy maqsad ekanligini inobatga olib, ushbu jarayon ancha uzoq muddat talab qilishini aytish mumkin. Mamlakatda adolatli va odilona siyosatning

shakllanishi ham fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fuqarolik jamiyatiga doir dastlabki qarashlar, tasavvurlar va nazariyalar juda ko'plab manbalarda ilk bor qadimgi G'arb, ya'ni Yunonistonda va Rim hamda Qadimgi Sharq, ya'ni Xitoyda ilk paradigmalarini paydo bo'lganligini ta'kidlash joiz. Fuqarolik jamiyatining antik konseptual ta'limotida jamiyat va davlat fenomenlarining uzviyligi Suqrot, Aflotun, Arastu, Sitseron kabi qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining qarashlarida aksini topganligini aytish o'rinli.

Fuqarolik jamiyatiga oid antik nazariya va konsepsiyalarni olimlarimizdan A.Utamurodov, J.Mavlonov, M.Qirg'izboyev, M. Sharifxo'jayev, N. Shodiyev, S.Husanov, T.Do'stonovlar ham qadimgi yunon olimlaridan boshlab o'rganadilar.

Antik davrdagi konseptual xususiyatlarga ega bo'lgan mutafakkirlardan Aflotunning nazariyalarini siyosatshunos olim J.Mavlonov xususan shunday izoxlaydi. Qadimgi yunon dunyoqarashining xarakterli xususiyati jamiyat va davlat hodisalarining uyg'unligidir. Aflotunning (mil. avv 427-347-yy.) "Davlat" dialogida (taxminan miloddan avvalgi 387-366 yillar) fuqarolarning shaxsiy va jamoat hayoti o'rtasidagi

farqni topish mumkin, ammo ikkinchisi zamonaviy ma'noda siyosiy hayot sifatida talqin qilinadi. Siyosiy jamiyatning siyosiy tashkiloti parametrlari aynan shu fuqarolik jamiyatining muhim belgilari sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, davlatning ko'pgina prinsiplari belgilari va xususiyatlari, albatta, fuqarolik jamiyatiga taalluqlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusining konseptual metodologiyasi asoslarini mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»[1] va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari asosida tahlil qilish mumkin.

Mustaqillikning ikkinchi davri ya'ni 2016 yildan boshlab fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratdi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil martda qabul qilgan Farmoni bilan tasdiqlangan «2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»[3], «2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» kabilar. Ana shu qabul qilingan huquqiy asoslarni amalga qo'llash natijasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanish islohotlari Yangi O'zbekistonda va uchinchi Rennesansi poydevorini qurish jarayonlariga uzviy bog'liq holda avj olib bormoqda. Shu boisdan yuqoridagi asoslar mavzu uchun metodologik namuna sifatida ko'rish mumkin.

Tahlil va natijalar. Antik davrdagi konseptual xususiyatlarga ega bo'lgan mutafakkirlardan Aflotunning nazariyalarini siyosatshunos olim J.Mavlonov xususan shunday izoxlaydi. Qadimgi yunon dunyoqarashining xarakterli xususiyati jamiyat va davlat hodisalarining uyg'unligidir. Aflotunning (mil. avv 427-347-yy.) «Davlat» dialogida (taxminan miloddan avvalgi 387-366 yillar) fuqarolarning shaxsiy va jamoat hayoti o'rtasidagi farqni topish mumkin, ammo ikkinchisi zamonaviy ma'noda siyosiy hayot sifatida talqin qilinadi. Siyosiy jamiyatning siyosiy tashkiloti parametrlari aynan shu fuqarolik jamiyatining muhim belgilari sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, davlatning ko'pgina prinsiplari belgilari va xususiyatlari, albatta, fuqarolik jamiyatiga taalluqlidir.

Birinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, bu jamiyat mulkdor bo'lgan erkin, shaxsan mustaqil fuqarolardan iborat.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati mehnat taqsimotiga asoslanadigan va vujudga keladigan jamiyat bo'lib, bu jamiyatni avtarkizmga aylantiradi.

Aflotun fikricha, fuqarolik jamiyati faqat «siyosiy uyushgan jamiyat» sifatida vujudga keladi va mavjuddir. Tarixan fuqarolik jamiyati davlat bilan birga paydo bo'ladi, na biri, na boshqasi alohida mavjud emas. Ular, albatta, bir-birini to'ldirib, bir vaqtning o'zida juda ziddiyatli yaxlitlikni tashkil qiladi.

Platonik nazariyani umuman tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyatining barcha muammolarini hal qilish Aflotun tomonidan nazariy jihatdan davlatning fuqarolik hayotining barcha sohalariga kirib borishi va umumiy davlat nazoratini amalga oshirish, fuqarolarning hayotini tartibga solish orqali amalga oshiriladi[4]. Olim bundan tashqari Arastu xaqida ham o'z ilmiy ishlarida xususan quyidagicha izohlagan. Fuqarolik jamiyati g'oyasini shakllantirishning keyingi bosqichi Aflotunning shogirdi Arastu (miloddan avvalgi 384-322 yillar) nomi bilan bog'liq. U Aflotun singari yeng yaxshi ijtimoiy tartibni topish muammosiga katta yetibor beradi, lekin bu muammo uning uchun boshqa nazariy kontekstni oladi.

Birinchidan, Arastu eng ko'p davlat tizimini o'zgartirishga qiziqadi, ya'ni. Aflotunda bo'lgani kabi ijtimoiy o'zgarishlar yemas, balki davlatlar.

Ikkinchidan, Arastu o'zining nazariy konsepsiyalarida Aflotun singari ezgu tilaklar va umuman davlat haqidagi mavhum g'oyalardan yemas, balki real hayot holatlarini qiyosiy tahlil qilishdan kelib chiqishga intiladi, bu esa uning muammosi bo'yicha pozitsiyasini yanada pragmatik siyosiy hayotni tashkil yetish qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Arastuning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida u katta ahamiyat bergan «polis» tushunchasi davlatga yaqin bo'lgan sinkretik xususiyatini deyarli yo'qotib, fuqarolik jamiyatini kattaroq jamiyatga tegishli darajada belgilay boshlaydi. Ma'noga qarab, siyosat u yoki bu ma'noni oladi va shu bilan Arastu qidirgan nazariy aniqlik va izchillikka erishishga to'sqinlik qiladi[5].

Xususan, A.Utamurodov ta'kidlashicha «fuqarolik jamiyati» tushunchasining ildizlari asosan Arastu qarashlariga borib taqaladi Bu jamiyatni, Arastu «politike koinonia», ya'ni «siyosiy birlik / xamjamiyat» deb atagan edi. Bu tushunchaning lotin tilidagi ifodasi «societas civilis» («fuqarolik jamiyati») qabilida qabul qilindi. Bu tushuncha polisni aniqlash uchun xizmat qilib, uning zamirida «zoon politikon» – «siyosiy mavjudot» sifatidagi inson «telo'si, ya'ni maqsadi (yunoncha) ma'nosi tushunilgan[6].

Fikrlardan ko'rinadiki fuqarolik jamiyatining antik konsepsiyasini bugungi kunga tabdiiq etish albatta o'rinli bo'ladi. Yana bir olimlarimizdan, M.Sharifxo'jayev «Arastu davlat — bu fuqarolarning, fuqarolik jamiyatining umumiyushmasidan bo'lak, narsa emas, deb ta'kidlagan edi» deb yozadi[7]. T.Do'stjonov va S.Hasanovlar esa «Qadimgi dunyo mutafakkirlari Suqrot, Demokrit, Aflotun, Polibiy, Sitseron huquqiy davlat xususiyatlari va nazariy asoslarini birinchi bo'lib ochib berishga urinishgan. Binobarin, huquqiy tan olinadigan va ayni paytda cheklangan davlat hokimiyati, qadimgi mutafakkirlar fikricha, adolatli huquqiy davlat hisoblanadi. Xullas, qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining g'oyalari ulardan keyingi taraqqiyparvar siyosiy huquqiy ta'limotlarning[8] yuzaga kelishi va rivoj topishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi».

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasini ilk bor ilmiy muomalada qadimgi yunon olimi Arastu (miloddan avval 384-322-yillar) qo'llagan bo'lib, uni o'z siyosiy tafakkuri markaziga qo'yadi. Olim «fuqaro» deganda jamiyatning har qanday a'zosini emas, balki erkin va ozod kishilarni nazarda tutgan. Uning mulohazalariga ko'ra, davlat — bu fuqarolar yig'indisi, ya'ni fuqarolar jamiyatidir. Ko'rinib turibdiki, Arastu «davlat» va «fuqarolar jamiyati» tushunchalarini aynan bir xil ma'noda ishlatadi[9]. O'rta asrlarda fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyalar, ayniqsa Sharq allomalari tomonidan keng targ'ib etildi. Ular o'z asarlarida «fuqarolik jamiyati» tushunchasini «fozil shahar», «saodatli jamiyat» tushunchalari orqali ifodalaganlar. Xususan, faylasuf Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar) Sharq falsafasida ilk bor fuqarolik jamiyati (fozil shahar) barpo etish uchun mamlakatda adolatli boshqaruvni joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Keyinchalik bu konsepsiyalar XVII asrga kelib ilk uyg'onish davri G'arb mutafakkirlarining jamiyatga oid qarashlarida yanada rivojlandi.

XVI-XVII asrlarda Yevropaning bir qator davlatlaridagi jamiyat fuqarolari mulk egalari sifatida bir-biriga teng bo'lgan, erkin hamjamiyatga aylanishi natijasida pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi, ish kuchlarining tovarga, individning esa o'z kuchi va qobiliyatining egasiga aylanishi, bozor munosabatlarining tartiblashtirilishuvining qo'llab-quvvatlanishi va hususiyashtirishni himoyalash uchun, keyinchalik, fuqarolik jamiyatiga aylangan asoslar va elementlarni belgilab berdi. Ushbu yangilanishlar G'arb

falsafiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlarga olib keldi. Shu boisdan ham siyosatshunos olim J.Mavlonov «Fuqarolik jamiyatining dastlabki tarixiy ilmiy paradigmasi sifatida antik davrdagi tasavvurlarni keltirish mumkin. Fuqarolik jamiyatini Sharqda axloqiy-ma'naviy, G'arbda esa ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy xususiyatga ega deb qarash shakllangan. Bu esa fuqarolik jamiyatining sharqona va g'arbone antik paradigmalari shakllanishiga zamin hozirlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki:

Birinchi, fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli sifatida inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasiga tavsif berish, uning mohiyatini va mazmunini yanada yaqqol gavdalandiradi;

Ikkinchidan, serqirra va murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan fuqarolik jamiyatining quyidagi muhim xususiyat va jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi «fuqarolik jamiyati», bir tomondan, shaxs bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar maydonini anglatadi; ikkinchi holatda-ideal jamiyat, ko'zlanayotgan maqsad tarzida ta'riflanadi; uchinchi holatda o'z maqsadiga erishish uchun davlat amaldorlari yollagan soliq to'lovchilar hamjamiyati sifatida izoxlash mumkin.

Uchinchi, fuqarolik jamiyati-insonlarning shunday birligidirki, u ijtimoiy turmushning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy sohalarida asosiy nodavlat tuzilma (uyushma, partiya)larni vujudga keltirgan jamiyat; mazkur jamiyat o'z faoliyatida davlatdan, uning idoralaridan xoli bo'lgan xususiy shaxslar, guruhlar va institutlarning manfaatlari mujassamlashgan mushtarak tizimdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatining 2010-yil 12-noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisidagi «mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzuidagi ma'ruzasi, <https://lex.uz/ru/docs/2947919>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-mayda qabul qilgan “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni// <https://lex.uz/docs/3721649>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martda qabul qilingan “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi farmoni// <https://lex.uz/docs/5319756>
4. Мавлонов Ж. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ). Ташкент:Адабиёт учқунлари,2014, 19-20-бет.
5. Mavlonov J.Y. Fuqarolik jamiyatiga oid zamonaviy konseptual diskursning asosiy yo'nalishlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Avtoreferat. Toshkent: 2017.- 18 b.
6. Utamurodov A. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasi-Toshkent:Adabiyot uchqunlari,2018, 12-bet.
7. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi - Toshkent: Sharq. 2003,9-bet.
8. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik tarakqiyot yo'lida. — Toshkent: Moliya instiuti, 2004. 8-bet.
9. Аристотель. Политика. Власть. Искусство править миром. - Москва: АСТ. 2018. 320 с.



Ulug'bek KARIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: uzmu.ukarimov@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Z.Yusupov taqrizi ostida

EXTERNAL PRE-COMPETITION AND TRAINING FACTORS IN THE PREPARATION OF STUDENT-ATHLETES FOR COMPETITIONS OF TAEKWONDO STUDENTS AND SPORTS ACTIVITIES

Annotation

This article highlights the peculiarities of the preparation for competitions of student-athletes at the Taekwondo Faculty and sports activities of the National University of Uzbekistan in the process of training and practice. In addition, the methods that are used in the process of preparation for competitions and training with student-athletes are indicated.

Key words: Physical education, training, sports, university, faculty, training, competition.

ВНЕШНИЕ ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНЫЕ И УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫЕ ФАКТОРЫ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ К СОРЕВНОВАНИЯМ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ФАКУЛЬТЕТЕ ТАЭКВОНДО И СПОРТИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация

В данной статье освещены особенности подготовки к соревнованиям студентов-спортсменов на факультете Таэквондо и спортивная деятельность Национального университета Узбекистана в процессе учебно-практических занятий. Кроме того, указаны методы которые применяются в процессе подготовки к соревнованиям и тренировки со студентами-спортсменами.

Ключевые слова: Физическое воспитание, тренировка, спорт, университет, факультет, обучение, соревнования.

TAEKWONDO VA SPORT FAOLIYATI FAKULTETIDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABA-SPORTCHILARNI MUSOBAQALARGA TAYYORLASHDA O'QUV-MASHG'ULOT VA MUSOBAQADAN TASHQARI OMILLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston milliy universiteti Taekwondo va sport faoliyati fakultetida sport turlari bo'yicha taxsil olayotgan talaba-sportchilar bilan o'quv, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari yoritilgan. Bundan tashqari talaba-sportchilarni musobaqaga tayyorlash uslublari hamda mashg'ulotlar jarayoni haqida bayon qilingan..

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, mashg'ulot, sport, universitet, fakultet, ta'lim, musobaqa.

Kirish. Mamlakatimizda aholini jismoniy rivojlantirish va jismoniy tarbiyalash davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sanaladi, ayniqsa, aholining sog'ligini saklash va mustakamlashga ilmiy asoslangan yondoshuv hamda uni amalga oshirish usullarini yanada takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Respublikada milliy sport turlari bo'yicha iqtidorli talaba-sportchilarni yetishtirish muntazam ravishda raqobatning keskinlashib borishiga, mashg'ulotlar jarayoni shiddatini talab darajasida kuchaytirishga olib kelmokda. Bu esa malakali talaba-sportchilarni tayyorlash uslubini takomillashtirish borasida yangi uslublarni shakllantirish va izlanishlarga chorlamokda.

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda ko'pgina sport turlarida yuklamalarni maqsadli ravishda maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlari mikrotsikllari doirasida taqsimlash dolzarb masala hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida mashqlar turlarini, ularning yuklamasini, mashg'ulotdan so'ng dam olish tavsifi, mashg'ulotlar sonini, turli kattalik va yo'nalishdagi yuklamalarni uyg'unlashtirish hamda mikrotsikl jarayoni qaytarilishi meyorini, yo'nalishini o'zgartirish imkoniyatlari mavjud.

Sport turlari bo'yicha bo'yicha yuqori mahoratli talaba-sportchilarni tayyorlash amaliyotidagi ko'p yillik tajribada va mamlakatimiz terma jamoalarining xalqaro musobaqalardagi doimiy ishtiroki jarayonlarida ushbu sport turi bo'yicha yukori sport natijalariga erishish vazifalarini yechishda sport turlari bo'yicha bo'yicha talaba-sportchilarni-mizning jismoniy, texnik - taktik tayyorgarligini takomillashtirish

uslublarining talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi bugungi kunda talaba-sportchilarning musobaqalarga tayyorgarlik jarayonlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra sport turlari bo'yicha turi bo'yicha mahoratli talaba-sportchilar tayyorlash jarayonining samarali uslubini ishlab chiqish va talaba-sportchilarning tayyorgarlik tizimiga tatbiq qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu masalada - sport turlari bo'yicha talaba-sportchilarning musobaqa oldi taktik tayyorgarligini rivojlantirish borasida bir qancha uslubiy kamchiliklar mavjud. Shu nuqtai nazardan kamchiliklarni bartaraf etishga ilmiy-uslubiy yondashish orqali talaba-sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishlari va yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlashda sport tayyorgarligi mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Sport turlari bo'yicha turlari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik mikrotsikllari yuklamalari kattaligi va yo'nalishi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan mashg'ulotlarga bo'lgan ehtiyoj sezilmoqda.

Sport turlari bo'yicha bo'yicha adabiyotlar taxlili shuni ko'rsatadiki, maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlarida haftalik mikrotsillarda yuklamalarning kattaligi va yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlarni almashlashning ilmiy asoslangan holda olib borilishi tushunchalari bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan malakali sport turlari bo'yicha bo'yicha talaba-sportchilar tayyorlash borasida maxsus va musobaqaoldi taktik tayyorgarligi bosqichlarining dasturiy

tuzilishi asosiy uslublari va qonuniyatlari bo'yicha birlamchi fikrlar mavjud emas.

Sport turlari bo'yicha maxsus va musobaqaoldi taktik tayyorgarlik bosqichlari mashg'ulotlarida talaba-sportchilar organizmiga turli kattalikdagi va yo'nalishdagi yuklamalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar ta'siriga yetarli darajada e'tibor berilmagan bo'lib, kuniga bir yoki ikki marta o'tkaziladigan mashg'ulotlar mikrotsikllari asosiy uslubiy tamoyillarini rejalashtirish usullari va tuzilishi yetarlicha aniqlanmagan.

Sport amaliyotida musobaqa va mashg'ulot yuklamalaridan keyin organizmni tiklanish jarayonini tezlashtirilishiga ta'sir ko'rsatuvchi har xil qo'shimcha vositalardan keng qo'llaniladi. Mashg'ulot ishlarini bajarish umumiy va maxsus ish qobiliyatini ko'tarish funksional zahiralarni to'liq ishga tushurishni ta'minlash sportchi organizmini samarali moslashishga yordamlashadi.

Sport turlari bilan shug'ullanuvchilar ish qobiliyatni oshirish, tiklash va sport mashg'ulotida qo'llaniladigan vositalarni shartli ravishda uchta: pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik guruhga ajratish mumkin.

Pedagogik tiklash vositalari - sport turlari bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarni ish qobiliyati va tiklanish jarayonini mushak faoliyati bajaradigan ishini maqsadiga muvofiq ravishda tashkil etiladi. Pedagogik vositalarni juda ko'p qirralaridir. Bu yerda shuni ko'rsatish kerakki, mashg'ulotlar davomida uslub va vositalarni tanlash, o'zgaruvchanlik xususiyatlariga qarab har xil yuklamalarni mikrotsikl ichida qo'shib olib borish va boshqalar.

Psixologik uslublari va vositalari - (autagen va psixologiyani boshqaruvchi mashg'ulot, ishontiruvchi uyqu dam olish (gipnoz), o'z-o'zini ishontirish va boshqalar) keyingi yillarda keng tarqaldi.

Psixologik ta'sir ko'rsatish yo'li bilan, asab-psixologik kuchlanishni, psixik ruhiy ezilganlikni sarflangan asab energiyasini tez tiklash, mashg'ulot va musobaqa dasturini aniq bajarish uchun aniq ko'rsatma individual kuchlanish imkoniyatlarini chegarasiga olib borish.

Tibbiy - biologik vositalar - organizmning yuklamaga bo'lgan rezistentlik qobiliyatni oshirish mumkin. Umumiy va joylardagi charchashni tez tushurishi, energiya resurslarini samarali to'ldirish, moslashishi, jarayonlarining tezlatishi, ish qobiliyatini oshirish, maxsus bo'lmagan stress ta'siriga chidamli bo'lishiga yordam ko'rsatishi mumkin.

Tiklanish muolajalari har xil guruhlarga ta'luqli bo'lib. O'z navbatida tanlab olingan va umumiy ta'sir ko'rsatadi.

Keng ma'noda ta'sir ko'rsatuvchi vositalar o'zining ta'siri bilan sportchilarning organizm tizimini hamma asosiy funksiyalarini qamrab oladi. Bularga quruq havo va bug' hammomlari, umumiy qo'l bilan uqalash va boshqalar kiradi.

Tanlab ta'sir ko'rsatuvchi vositalarga alohida funksiyalar tizimi yoki bo'limlar ta'sir ko'rsatadi.

Umumiy tiklanish tadbirlariga keng ravishda ta'sir ko'rsatuvchi, sportchi organizmiga chuqur ta'sir ko'rsatmaydigan (ultrafimetli nurlanish, ayrim elektr muolajalarini ratsionlashtirish).

Mashg'ulot uchun ahamiyatlaridan biri tanlab ta'sir ko'rsatuvchi vositalari hisoblanadi. Ularni har xil sharoitda har xil mashg'ulot yuklamasi bilan qo'shib olib borish mikrotsikl ichida mashg'ulotdan mashg'ulotga o'tgan sari sportchining ish qobiliyatining boshqarishiga yordam beradi.

Qayta tiklash, vositalarni ishlatishning optimal shakli bo'lib, ketma-ket yoki parallel ravishda birinchisi yoki majmua muolajasi sifatida qabul qilishdir, bunday yondashish birinchi vosita bilan umumiy ta'sir ko'rsatishning samaradorligini oshiradi va yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatadi.

Qayta tiklash majmualarining vositalari. Shuni ta'kidlash kerakki, qayta tiklash va ish qobiliyatini

kuchaytirish vositalari faqat charchashni yo'qotishga qaratilgan bo'lib, organizmga ta'sir ko'rsatmaydi.

Sport bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilar ish qobiliyatini kuchaytirish va qayta tiklash vositalarni ishlatishni boshqarishda yuklamadan keyin charchash ko'rinishlarini tezroq yo'qotishdir.

Mikrotsikllarda mashg'ulotni umumiy hajmini oshirish, hamda ayrim mashqlarning shiddatini ko'tarish, katta yuklamali mashg'ulotlar sonini oshirish bilan bog'liq.

Sport turlari bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarni mashg'ulot yuklamasi oldidan dastlabki ish qobiliyatini kuchaytirish ham ish qobiliyatini boshqarish vositasi bo'lib hisoblanadi. Mashg'ulotni hajm va shiddatini oshirib borish funksional zahiralarni kuchayishini, bu esa qonda energiya tashish va nafas olishlarini tezlashtirib, shu jarayonga moslashishi samaradorligini oshiradi.

Oldingi va keyingi mashg'ulotlarni yo'nalishini hisobga olgan holda qayta tiklash muolajalarini rejalashtirish.

Sport bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarni musobaqalarga taktik - texnik tayyorlash jarayonida ish qobiliyatini kuchaytirish va tiklash vositalarini rejalashtirishda tayyorlash jarayoni hisobga olgan holda aniq vazifa bilan bog'lash zarur.

Ko'rsatilgan vositalarni shartli ravishda uch: joriy, oraliq va bosqichli darajada qabul qilinishi mumkin.

Joriy ish qobiliyatini kuchaytirish va qayta tiklash jarayonining vazifasi, bitta mashg'ulotni dasturini to'liq bajarish maqsadida tez ish qobiliyatini kuchaytirish hisoblanadi. Oraliq darajadagi tadbirlar bilan mezo va mikrotsikllarda ayrim musobaqalarda sportchi organizmini optimalashtirishga qaratiladi.

Bosqichlardagi darajada mashg'ulot makrotsikllaridan keyin sportchilarni funksional holatini meyoriga tushirish, ularni jismoniy va psixologik tomondan qayta tiklash masalasi qo'yiladi.

Sport bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilar musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichlaridagi mashg'ulotlar jarayonida sport bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilar organizmiga katta yuklamali va mikdoriy yo'nalishdagi mashg'ulotlarning ta'sirini farq qilish zarur. Talaba-sportchilar amaliyotida katta, katta va kichik yuklamali mashg'ulotlar ko'p qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, ko'proq yuklamalarni yo'nalishi bo'yicha maxsus chidamlilikni (uzoq va qisqa muddatli shiddatli ishlarni bajarish imkoniyati), tezkorlik va kuch - qobiliyatini oshiruvchi mashg'ulotlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

Sport mashg'ulotlari jarayonida katta yuklamali mashg'ulotlardan samarali foydalanish, ayni vaqtda shu mashg'ulotda mumkin bo'lgan u yoki bu sifatlarning rivojlanishini takomillashirish mazkur mashg'ulot vazifasiga o'rtilmagan.

Musobaqa oldidan dastlabki o'rganish talaba-sportchining musobaqa qoidalari, uning maqsadi, miqyosi, xususiyati (turnir yoki match musobaqasi), o'tkazilish usullari, sinov xususiyatlari, o'tkazish joyi va vaqtini bilishni nazarda tutadi. Muayyan raqib tayyorgarligi: uning texnik-taktik tayyorgarligi, yaxshi ko'rgan usullari, qay holatda sportshni afzal ko'rishi, qaysi usullar bilan yutishi va qaysilari bilan yutqazib qo'yishi to'g'risida oldindan ma'lumotlar olish kerak. Bu ma'lumotlarni sportchi va trener matbuot, kinolavhalar, videoyozuvlari, shu raqib bilan avval uchrashgan o'zbek jang san'ati sport turi bilan shug'ullanuvchilarning ma'lumotlari orqali olishi mumkin. Uchrashish ko'zda tutilayotgan raqiblarga imkon boricha alohida tayyorlash va unga uning jismoniy hamda texnik tayyorgarligi, ularning rivojlanish dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd qilish lozim. Raqibning boshqa sportchilar bilan bo'lgan bellashuvlardagi hatti-harakatlarini kuzatish ko'p foydalidir.

Bir kunda o'tkazilgan turli yo'nalishdagi ikkita mashg'ulotning talaba-sportchilar organizmiga ta'sir darajasini inobatga olish va, shu bilan galikda, o'rtacha yuklamali mashg'ulotlardan organizmning qayta tiklanish jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu katta yuklamali mashg'ulotlardan so'ng organizmning kayta tiklanish jarayonlarini samaradorlik vositasi sifatida o'rtacha va kichik yuklamali mashg'ulotlarning muvaffaqiyat bilan qo'llanilishidan dalolat beradi.

Malakali talaba-sportchilarni tayyorlashda bir kunda har necha mashg'ulotda doimiy ravishda yuklamalar kattaligini oshirib borish tan bog'liq ishlarga amal qilib kelimmokda va bir xil toifaga bog'liq ulgan mikrotsikllarda mashg'ulot vositalari va ularni almashtirib o'tkazish ortibi tavsifiga mansub emasligi tahliliy taqqoslansa, bu holda maqsadli natijalarni ko'rish mumkin emasligi aniq.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda yuqori malakali talaba-sportchilarni tyorlash amaliyotida maxsus va

musobaqaoldi tayyorgarligi bosqichlarida roli kattalikdagi va yo'nalishdagi mashg'ulotlarni almashlab o'tish tizimini takomillashtirish talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, organizm ish biliyatining tiklanish jarayonlari xususiyatlariga ko'ra, yuklamalarning yo'nalishlarini talab darajasida o'zgartirish holatini nazorat qilishda pedagogik va tibbiy nazoratning roli muhim.

Sport amaliyotidagi sport turlari bo'yicha musobaqa oldi mashg'ulotlarini rejalashtirishda kompleks ta'sir qiluvchi mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishi sifatida uzoq davom etadigan va qisqa davomiylikdagi shiddatli, jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, bir vaqtda yoki birin-ketin bajariladigan va davomiylik jihatidan o'zoq cho'ziluvchi, aerob ish qobiliyatida jismoniy sifatini, musobaqaoldi taktik tayyorgarlikni oshirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar turlarini kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PQ-3196-sonli Qarori.
3. Atayev A.K. "O'zbekiston jismoniy madaniyat institutlari va jismoniy tarbiya fakultetlari uchun o'zbek milliy kurashi dasturi", T., 1992 y.
4. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Toshkent-2005,
5. Absattorov A.A., Istomin A.A. "Dzyudo kurashi". Fizkultura institutlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. -T. : Ibn Sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi 1993-yil.
6. Керимов Ф.А. Скоростно-силовая подготовка дзюдоистов и борцов вольного стиля/Методические рекомендации. -Т, 1990, 20 с.
7. Керимов Ф.А. "Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti", Toshkent-2005-y.
8. Керимов Ф.А и др. Система планирования и контроля учебно-тренировочных нагрузок в вольной борьбе/ "Olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpiya ta'limotini joriy etish va Sidneyda o'tkaziladigan XXVII Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan III-Respublika ilmiy-amaliy anjumani makolalar to'plami.- T, 1999, 27-aprel, 113-116 b.
9. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. – Киев: Олимпийская литература, 1999. – 318 с.
10. Керимов Ф.А. "Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti" Toshkent, 2005 y.
11. Пилоян Р.А., Суханов А.Д. Многолетняя подготовка спортсменов-единоборцев: учеб, пособие. - Малаховка, 1999. - 99 с.
12. Подливаев Б. А., Сукоколов Н.И. Пути совершенствования учебно-тренировочного процесса по спортивной борьбе: метод, пособие - М.: ФОН, 1997.-39с.
13. Полиевский С.А., Подливаев Б.А., Григорьева О.В. Регулирование массы тела в единоборствах и биологически активные добавки (БАД): метод, пособие. - М.: Принт-Центр, 2002. - 56 с.
14. Савенков Г.И. Психолого-педагогическое воздействие на чело-века в системе спортивной тренировки (психологическая подготовка спортсмена): учеб, пособие для препод. ИФК. - М., 2001. - 114 с.
15. www.olympic.uz
16. www.minsport.uz



UDK:796.6:613(575.1)

Nargiza KARIMOVA,
O'zMU Taekvondo va sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: nargiza.karimova87@mail.ru

I.B.Aliyev taqrizi asosida

SOG'LOM TURMUSH TARZI – SALOMATLIK ASOSI

Аннотация

Mazkur maqolada sog'lom turmush tarzining jamiyatdagi o'rni beqiyosdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo'lgan hamda maqsad bilan yashaydigan yuksak ma'naviyatli barkamol inson etib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar turibdi.

Kalit so'zlar: Sport, jismoniy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, psixogigiena, yuksak axloqiy sifatlar, inson psixologiyasi, barkamol avlod tarbiyalash.

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ – ОСНОВА ЗДОРОВЬЯ

Аннотация

В данной статье несравнима роль здорового образа жизни в жизни общества. Приоритетными являются такие задачи, как формирование здорового образа жизни, воспитание человека высокой нравственности, обладающего независимым мышлением и живущего целеустремленно.

Ключевые слова: Спорт, физическая культура, здоровый образ жизни, психогигиена, высокие нравственные качества, психология человека, воспитание хорошего поколения.

A HEALTHY LIFESTYLE IS THE BASIS OF HEALTH

Аннотация

In this article, the role of a healthy lifestyle in society is incomparable. Keeping a healthy lifestyle, raising a highly moral and well-rounded person who has an independent mind and lives with a purpose works stably.

Key words: Sport, physical culture, healthy lifestyle, psychohygiene, high moral qualities, human psychology, raising a good generation.

Kirish. Bizga ma'lumki inson doimiy harakatda bo'lishi yoki sport bilan muntazam shug'ullanish davomida organizmida juda ko'p fiziologik jarayonlar amalga oshiriladi. Eng muhimi yoshlar va yosh avlod vakillarimizning sog'lom qarashlarini shakllantiradi va irodasini mustahkamlaydi, sport bilan muntazam shug'ullangan inson zararli oqimlarga qo'shilib ketmaydi. Chunki bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda kun tartibini to'g'ri yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi. Xayotimiz o'zgarimoqda, ongimiz, dunyoqarashimiz o'zgarimoqda, o'zimizga, o'z sog'ligimizga, kelajagimizga munosabatimiz o'zgarimoqda va bu jarayonda boshqa ko'pgina ijobiy omillar qatori avvalo sport katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Maqsad: Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning o'rni ilmiy asoslab berish, barkamol avlodni tarbiyalashda turmushga oid tibbiy va gigienik bilimlar berish, yoshlarda sog'lom turmush tarziga oid maxsus nazariy bilim va amaliy malakalarni yuzaga keltirish, yoshlarga sog'lom turmush tarzi va uning asosiy qismlari to'g'risida bilim berish bugungi kundagi muhim vazifalarimizdan biridir. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablarga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2010 yil "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilindi. Bu dasturda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik, Giyohvandlik illatlaridan, "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoyalashga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilangan. "Sog'lom turmush tarzini shakllantirish" loyihasi asosida talaba

yoshlarning sog'lom turmush tarziga ongli ravishda amal qilib, o'z hayot faoliyatlarida qo'llashlari uchun o'quv-tarbiyaviy kurslari yaratildi. Ana shu o'quv-tarbiyaviy kurslarni yaratish maqsadida talaba yoshlarda shakllantirilishi kerak bo'lgan fazilatlar ishlab chikildi. Quyida Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy majmui, maxsus kurs va sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi fazilatlar taqdim etiladi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarziga e'tiborni kuchaytirish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish ko'pgina mamlakatlarda yurak qon-tomir xastaliklari bilan kasallanishlarni ancha pasaytiradi. Amerika olim Kennet Kuper tomonidan ishlab chiqilgan jismoniy mashqlar to'plami ya'ni sog'lomlashtirish dasturlaridagi aerobika ko'p mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib, yurak xastaliklari kasalliklarining oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qilyapti. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish har - xil yo'nalishlari mavjuddir. Bu, bir tomondan, talabalarga sog'lom turmushga oid ma'lum tibbiy va gigienik bilimlarni berishga, ularda sog'lom turmush tarzining organizm rivojlanishiga qanday ta'sir etishi tasavvurlarning uyg'otishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiyada gigaenik qoidalarga amal qilish, o'zining va atrofdagilarning sog'lig'yu, yashashini kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish vazifalari - shaxs hayoti va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish; nazariy bilim va amaliy ko'rsatmalarni o'zlashtirishga erishish;

- kun tartibiga rioya qilish;
- muntazam ravishda faol jismoniy harakat hamda sport bilan shug'ullanishni amalga oshirish;

- to'g'ri ovqatlanish mohiyati va ahamiyatiga e'tibor berish;

- shaxsiy salomatlikni saqlashga nisbatan mas'uliyatni qaror toptirish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik madaniyat qoidalariga rioya etish;

- salbiy odatlarni oldini olish;

- tamaki chekish, narkotik moddalar va spirtli ichimliklarni ise'mol qilishning rag'batini yuzaga kelmasligini ta'minlash;

- o'zida yuksak axloqiy sifatlar, kuchli va mustahkam irodani hosil qilishga erishish, shuningdek, psixologiya talablariga amal qilish;

Turmush tarzining o'zi inson yashashi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirish demak. Faol xarakter bilan bog'liq hayot kechirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish sog'lom turmush tarzining muhim omillaridandir. Insonning sog'lom turmush kechirishida faol harakat, ya'ni chiniquish asosiy o'rinni egallaydi. Faol harakatning organizmga ko'rsatadigan ta'sirini quyidagicha ifodalash mumkin:

- yurak qon tomir tizimini faollashtiradi;

- nafas olish tizimini yaxshilaydi;

- suyaklar tizimini mustahkamlab, muskullar kuchini oshiradi bunda bo'g'inlar harakatchanligi ortadi;

- ovqatning yaxshi hazm bo'lishi ta'minlanadi;

- ayirish organlarining faoliyati yaxshilanishi;

- asab tizimi mustahkamlanadi, markaziy nerv tizimida bo'ladigan qo'zg'alish jarayonlarining muvozanatini bir me'yorida ishlashiga katta ahamiyat qaratadi;

- inson psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- tayanch harakat tizimini to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

Sog'lom turmush tarzining jamiyatdagi o'rni beqiyosdir. Aynan shuning uchun ham mamlakatimiz ta'lim tizimining oldida yosh avlodga zamonaviy bilim, mustahkam ta'lim berish bilan birga, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo'lgan hamda maqsad bilan yashaydigan yuksak ma'naviyatli barkamol inson etib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar turibdi.

“Salomatlik, sog'lom turmush madaniyati” - shaxsiy va ijtimoiy salomatligini yaratish, asrab-avaylash va rivojlantirish, inson ijobiy qadriyatlarini shakllantirish tizimini rivojlantirish darajasini tavsiflovchi bir murakkab, ko'p o'lchovli ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Kontseptual shakllanish va sog'liqni mustahkamlash yaxlitligi va sog'liqni mustahkamlash madaniyatini shakllantirish tizimli jarayonining shakllanishi uchun ta'lim jarayoniga qaratilgan bo'lib, sog'liqni mustahkamlashni shakllantirish va uning imkoniyatlaridan foydalanishni va sog'lomlashtirish tamoyillarida biologik, aqliy va ijtimoiy salomatlikni aniqlashda aniqlanadi.

Insonning biologik salomatligi barcha ichki organlarning funksional muvozanatiga, atrof muhitning ta'siriga mos javob berishga bog'liq.

Fiziologik darajadagi salomatlik ikki qismga ega:

Jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi - morfologik va funksional zaxiralarga asoslangan va adaptiv javoblarni ta'minlaydigan tananing organlari va tizimlarining o'sishi va rivojlanish darajasidir.

Somatik komponent inson tanasining organlari va tizimlarining hozirgi ahvoli bo'lib, uning asoslari individual rivojlanishning biologik dasturi hisoblanadi.

Ruhiy salomatlik jismoniy shaxs bilan bog'liq va shaxsning o'z salomatligi uchun o'z-o'zini anglash va qadriyatlar tushuncha rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi bo'yicha, shaxsiy hissiy va ehtiyoj-motivatsion sohasini rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi. Ruhiiy sog'lomlik tarkibiy

qismlari intellektual, psixologik va ma'naviy-axloqiy komponentlarni o'z ichiga oladi. murakkab sabablari va ehtiyojlarni, hissiy va irodali shaxs xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Qadimgi yunonlar “Sog'lom tanada - sog'lom aql” deb aytadilar. Ijtimoiy salomatlik - bu ijtimoiy faoliyatning birinchi navbatda mehnat qobiliyatining o'lchovidir. Bu faol munosabat shaklidir. Sog'liqni mustahkamlashning ijtimoiy jihati ota-onalar, do'stlar, hamkasblar, qo'shnilar va boshqalar ta'sirida shakllanadi.

Bu ijtimoiy aloqalarni, shaxslararo aloqalarni aks ettiradi ijtimoiy va ruhiy salomatligini birlashtiradi. Sog'liqni mustahkamlash ijodiy tarkibiy qism hisoblanadi. Ishda ijodkorlik mavjudligi salomatlik manbai sifatida ko'riladi. Bu kishining ish faoliyatida insonning funksional faoliyatining ikkita asosiy turiga ya'ni - jismoniy, aqliy va ularning oraliq tarkibi mavjudligiga asoslanadi.

Jismoniy ish - inson faoliyatining bir xil, ayniqsa, bu skelet mushaklarni qay darajada aniqlash va fiziologik xarajatlar asosan amalga aks ettiradi.

Ruhiy ish - insonning faoliyati, natijasi - ilmiy va ma'naviy qadriyatlar yoki qarorlar, ya'ni jamoat yoki shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar orqali nazorat qilish.

Intellektual bilim va ijodiy faoliyatda o'zini namoyon qiladi, bilim, tajriba va amaliyotda ulardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Samarali faoliyat jarayonida ijro parametrlarini ko'p tadqiqotlar ruhiy ishlash parametrlarini umumiy va maxsus jismoniy fitness darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Eng yaxshi vosita - bu harakat. Zamonaviy hayot sharoitlari inson salomatligi va intellektual salohiyatiga yuqori talablar qo'yadi. Bu 50-55% hayot yo'li, inson salomatligi holatini belgilaydi va optimal rejimda turmush tarzini shakllantirishda eng muhim omil hisoblanadi. Insonning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy mashqlar ta'sirida, yomon odatlardan voz kechish, ish va dam olish rejimiga rioya qilish, turli tiklash chora-tadbirlaridan foydalanishdan iborat. Shuningdek bilan, asosan, aholining barcha qatlamlari salomatligini shakllantirish sog'lig'ini saqlash va fitness texnologiyalari qiymatini oshirishdan iborat.

Sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar natijasi quyidagi holatlarda ro'y beradi:

Salomatlikni yuqori darajasiga doimiy erishish, hayotni maksimal samaralarini kengaytirish;

tananing asosiy hayotiy vazifalari va tizimlarini takomillashtirish;

atrof-muhitni ko'plab zararli oqibatlariga organismning qarshiligini oshirish;

psixofizik holatini yaxshilash;

jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishish;

amaliy mashg'ulotlardan savarali foydalanish;

faol dam olishni taminlash;

tananing tuzilishi va tanani tuzatish.

Shunday qilib, texnologiyalarni takomillashtirish - insonning jismoniy holatini optimallashtirishda qaratilgan jismoniy tarbiya va sport vositalarini muayyan dasturi va kuch to'plash dam olish faoliyatini tashkil etish va salbiy ekologik omillar organizmning qarshiligini oshirish.

Jismoniy tiklanish:

Jismoniy faoliyatda yoshi va jinsidan qat'iy nazar tashkil etilgan imkoniyat va shart- sharoitlarga amal qilish hamda rioya etish rejimi;

yoshi, jinsi, individual xususiyatlariga va gigiyenik talablariga muvofiq kun tartibini oqilona tashkil etish rejimi

xissiy va psixologik iqlim yaratish stress holatlari yo'qligi;

sog‘liqni saqlash faoliyatini oshirishga va samaradorlikka erishishda turli hil uslublardan foydalanish.

Jismoniy tiklanish faol hatti harakat va sog‘liqni saqlash faoliyati va jismoniy madaniyat sog‘lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Jismoniy tiklanishni amalga oshirishda sport, dam olish muhim o‘rinni egallaydi.

Sport va dam olish texnologiyasi hamda ushbu faoliyat bir qator amalga oshirish uchun eng muhim yo‘ldir.

Sog‘lomlashtirish texnologiyasida dam olish muhim hisoblanadi. Sport va dam olish texnologiyalarini turli sohalar-da amalga oshirish mumkin: sport, aerobika, bodibilding, yugurish, turizm, suzish va x.k.

Jismoniy faoliyat- inson faoliyatining muhim shakllaridan biridir. U sportda salomatlikni yaxshilash va uni shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir. Jismoniy faoliyat ish va o‘qish kabi muhimdir. Jismoniy madaniyatda sog‘lomlashtirish faoliyati o‘z salomatligini va ehtiyoat munosabatini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha yo‘naltirilgan faoliyatda tartibga solinadi. Jismoniy faoliyat hamda dam olish faoliyatini amalga oshirishda sog‘lom turmush tarzi muhim o‘rinni egallaydi.

Jismoniy dam olish yashash faoliyatining barcha turlarida muhim hisoblanadi. Uning asosiy hususiyatlaridan biri mashg‘ulotlarga qiziqish uyg‘otish hisoblanadi.

Jismoniy sog‘lomlashtirish bir necha vazifalarni o‘z ichiga oladi: farmativ, diagnostika, adaptiv, axborot – kommunikativ, sog‘liqni saqlash, oila va texnologiyalar vazifalari asosiy vazifa yo‘nalishlari etib belgilangan.

Farmativ vazifasi shaxsni shakllantirish, irsiyat, ijtimoiy omillar, oilaviy muhit, salomatligini mustahkamlash va biologik ijtimoiy omillarga asoslanganligi;

Axborot - kommunikativ vazifasi esa, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy salomatlik va har bir insonning hayot qiymati va munosabat shaklida bo‘lgan urf - odatlar, qadriyatlar uzluksizligi bn ta‘minlanganligi:

diagnostika vazifasi tabiiy imkoniyatlar bilan insonning say harakatlari, ijtimoiy va tibbiy rivojlanishini kuzatib borish funksiyasidir:

Asosiy sog‘lomlashtirish texnologiyalarida muhim vazifalar quyidagicha:

Tabiiy ovqatlanish, tabiiy energiya yuritish balansi. keraksiz metabolit va energiya degradatsiyasi mahsulotlari, toksinlardan saqlanish

dam olish

sog‘lom turmush muhit

ruhiy salomatlik

organizmni chiniqtirishning nazariy asoslari

Jismoniy tarbiya so‘zining ma‘nosini anglaydigan bo‘lsak - bu odam organizmi “mustahkamligining zaxirasini” saqlashlikning fiziologik usulidir. Boshqacha qilib aytganda insonning etarli darajada - me‘yorida va muntazam ravishda doimo harakatda bo‘lishligidir. Shuning uchun ham jismoniy faollik - har qanday odamning yashash sharoitida uning ajralmas zaruriyati bo‘lmog‘i darkor. Aks holda yashashlik “Sivilizatsiya kasalliklari” - semirishlik, stenokardiya, infarkt, oshqozon yarasi kasalligi, teroskleroz, xafaqon kasalligi (gipertoniya) va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarib, oqibatda umrning qisqarishiga sababchi bo‘ladi.

Jismoniy harakatda bo‘lishlik organizmdagi moddalar almashinuvi jarayonining barcha turlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va targ‘ib qilish, turli hastaliklarni olish, qizlar salomatligini mustahkamlash, sog‘lom avlod tarbiyalash borasidagi keng ko‘lamli ishlar barcha yo‘nalishlarda faol amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa davlatimiz rahbari mamlakatimiz aholisi o‘rtasida salomatlik darajasini oshirish va mustahkamlash borasida olib borayotgan doimiy g‘amho‘rliklarining samarasidir. Chunki sog‘lom, barkamol avlod kelajagi – buyukdir!.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son «Sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni.
3. Salomov R.S., Mirjamolov M.X.- Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sport mashg‘ulotlariga moslashishi o‘quv uslubiy qo‘llanma.T-2014.
4. Safarova D.D. G‘ulomov N.G. “Voleologiya o‘quv uslubiy qo‘llanma” Toshkent-2013.
5. Arziqulov R.”Sog‘lom turmush tarsi asoslari” T-2005.



Rahmon QODIROV,

Surxondaryo viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

E-mail: rkqodirov70@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori U.Qodirov taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING NEYROPEDAGOGIK ASOSLARI

Аннотация

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning neyropedagogik asoslari bayon etilgan. Darslarda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasida ro'yobga chiqadigan fiziologik jarayon tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, o'quvchi faoliyati, neyrofiziologiya, miya, o'qitish shakl, metodlari, o'quv-idrok faoliyat.

НЕЙРОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье описаны нейропедагогические основы развития навыков критического мышления учащихся начальной школы. На уроках анализировался физиологический процесс, реализуемый в результате деятельности учителя и ученика, с целью развития у учащихся навыков критического мышления.

Ключевые слова: Критическое мышление, деятельность учащихся, нейрофизиология, мозг, форма обучения, методика, учебно-познавательная деятельность.

NEUROPHYSIOLOGY BASIS OF CRITICAL THINKING DEVELOPMENT IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

The article describes the neuropedagogical basis of developing critical thinking skills of elementary school students. In the lessons, the physiological process realized as a result of the activity of the teacher and the student was analyzed in order to develop students' critical thinking skills.

Key words: Critical thinking, student activity, neurophysiology, brain, teaching form, methods, educational-cognitive activity.

Kirish. Ma'lumki, insoniyatga yangi ta'lim mafkurasi, yangicha uslubdagi fanlararo aloqadorlik va inson rivojlanishining innovatsion dasturlarini ishlab chiqish zarur. Neyropedagogika fani nuqtai nazaridan bir qator hodisalar o'zining odatiy murakkabliklar, individual kamchiliklar, salbiy va g'ayritabiiy xususiyatlari maqomidan ajralib muhim va tipik qonuniyatlar ko'rinishiga ega bo'ladi va ularning kelib chiqish mohiyati o'quvchi xarakterining o'ziga xosliklariga emas, bosh miya fiziologiyasining turli tiplari-ga tegishli hisoblanadi.

O'quvchi shaxsiga neyropedagogik nuqtai nazardan yondashgan holda ta'lim berish boshqa pedagogik voqealardan qator o'ziga xos afzalliklariga ega bo'lib, tarixiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat o'quvchining intellektual rivojlanish darajasi, balki, uning individual imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida bolaga rivojlanish uchun mavjud salohiyatdan to'laqonli foydalanish imkoniyatini beradi hamda uning ijtimoiylashuvi yo'lidagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etadi[1].

Fikrlash erkinligi uning ijodiy va konstruktiv faoliyatga yo'naltirilgan tanqidiy yo'nalishini anglatadi, shuning uchun erkin shaxs tafakkurining sifat xususiyati tanqidiy fikrlashdir. O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish zamonaviy axborot makoniga moslashish imkonini beradi va ma'lumotni tushunish va tahlil qilish qobiliyati bizga ushbu maqsadga erishish imkonini beradi. Ushbu o'qitish usullarini amalga tatbiq etishdan asosiy maqsad esa, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasi (critical thinking skills)ni shakllantirishdir.

Boshlang'iya sinf o'quvchilarning yangi faktlar va qiziqarli hodisalarga to'g'ridan-to'g'ri qiziqishi obyektlar va

hodisalarning muhim xususiyatlarini o'rganishga, sabab-oqibat munosabatlarini, qonuniyatlarini o'rnatishga qiziqish ortib boradi. Kognitiv jarayonlarda o'quvchi asta-sekin fikrlashni nazorat qilishni o'rganadi. Bundan tashqari, ular bolalar obyektlar va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlariga e'tibor bermaydilar, lekin ular o'z harakatlarining ma'nosi, o'z faoliyati bilan qiziqishadi [2].

Tanqidiy fikrlash individual va mustaqil fikrlash sifatida munozaralar va muzokaralarda, ommaviy nutqda muammoni tushunishdagi muloqot qobiliyatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi hamda miya faoliyati bilan zich bog'lanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy tadqiqotlarda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashning miya faoliyati bilan zich bog'liqligi hamda uning munozaralarda, muloqotda hal qiluvchi roli haqida ayrim yondashuvlar mavjud.

Amerikalik dramaturglardan Pirson, Xansen va Gordonlar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi go'ya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi[3]. Binobarin, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash, o'zaro tanqidiy fikrlar almashish, o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish, fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish muhim hisoblanadi.

Amerikalik neyro-pedagoglar miya faoliyatining neyrofiziologik naqshlari asosida bir qator o'rganish tamoyillarini ishlab chiqdilar, ularning buzilishi maktab o'quvchilari miyasining tabiiy mexanizmlarini zaiflashishi yoki buzilishiga olib kelishi mumkin[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning neyrofiziologik va lingvistik asoslari mavzusiga oid mavjud adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, qiyosiy o'rganish.

Tahlil va natijalar. O'z-o'zini tartibga solish, aks ettiruvchi komponentning bir qismi sifatida, fikrlar yoki natijalarni tasdiqlash, asoslash yoki tuzatish uchun o'z mulohazalarini tahlil qilish va baholash qobiliyatidan foydalangan holda kognitiv faoliyatni, uning elementlarini va olingan natijalarni o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini tartibga solish qobiliyati, ehtimol, tanqidiy fikrlashning eng muhim qobiliyatidir, chunki u tanqidiy fikrlash jarayoni ishtirokchilariga fikrlash jarayonini yaxshilashga imkon beradi.

O'z-o'zini tahlil qilish - bu o'z fikr-mulohazalarini baholash, olingan natijalarni tekshirish va kognitiv ko'nikmalarni to'g'ri qo'llash, o'z fikrini va uning sabablarini ob'ektiv kognitiv baholash, stereotiplar, noto'g'ri qarashlar ta'siri darajasini baholash. his-tuyg'ular yoki hukmning ob'ektivligi yoki mantiqiyligini cheklaydigan boshqa omillar; tahlil, talqin, baholash, xulosa yoki mulohazalarni adolatli, to'liq, oqilona, xolis, asosli baholash uchun o'z motivatsiyasi, qadriyatlarini, munosabati va manfaatlarini baholash. Xatolar yoki kamchiliklarni aniqlash uchun o'z-o'zini tuzatishdan foydalanish va xatolarni tuzatish tartibini ishlab chiqish o'z-o'zini tartibga solishning bir qismidir.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;

turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;

o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

o'quvchilarni kulgiga qolmasliklariga ishonirish;

har bir o'quvchining tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar:

• o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;

• o'quv jarayonida faol ishtirok etish;

• turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;

• o'z hukmlarini, shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonida miya faoliyatiga bilan bog'liq jarayonni tahlil etgan S.Turn[4]. ning ilmiy ishlaridan foydalanib, quyidagi tamoyillarni taqdim etamiz:

1. Miya parallel protsessor sifatida. Inson miyasi bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyalarni bajarishga qodir. Fikrlash, his-tuyg'ular, tasavvurlar va boshqa murakkab jarayonlar miya tomonidan bir vaqtning o'zida axborotni qayta ishlash va boshqa odamlar bilan ijtimoiy-madaniy aloqa (muloqot) bilan amalga oshirilishi mumkin.

O'qituvchi ana shu tamoyildan kelib chiqib, o'quvchilarga o'quv-idrok faoliyatining turli mazmun va shakllari uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi kerak. Shuning uchun o'qitishning turli usullari va usullaridan foydalanish juda muhimdir. Miyaning kam yuklanishi, shuningdek, ortiqcha yuk uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yodda tutish kerak. Dunyoning

obyektiv ko'rinishidan tashqari, dunyoni inson dunyosi, individual shaxs sifatida subyektiv tushunish va idrok etish ham mavjud. Shu sababli, ta'lim jarayonida nafaqat ma'lumotni o'zlashtirish, balki shaxsiy va qimmatli munosabatlar, his-tuyg'ular, tajribalar, o'zaro ta'sirlarni ham ta'minlash kerak. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda, o'quvchilarga tanqidiy fikrlashga o'rgatishda interfaol ta'lim shakllari ayniqsa muhimdir, chunki o'zaro ta'sir miyaning "parallel protsessor" sifatida ishlashi uchun eng qulay sharoitlarni yaratadi.

2. O'rganish va bilish miya rivojlanishining tabiiy mexanizmlari sifatida. O'rganish organizm uchun, xususan, miya uchun nafas olish jarayoni kabi tabiiy jarayondir. Tabiat insonga o'rganishga qodir bo'lgan miyani berdi, shuning uchun qiziquvchanlik va bilimga intilish - miyaning tabiiy ehtiyoji. Pedagogika fan sifatida ana shu ehtiyojlarni qondirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashi kerak. Qiziqishni uyg'otishning eng kuchli vositasi bu muammoli vaziyatlarni yaratish, paradokslarni qo'llash va kutilmagan analogiyalar qilishdir.

3. O'tmish tajribasiga tayanish va miyaning tug'ma sifatlaridan ma'no izlash. Inson miyasi eski tajribani yangi vaziyat bilan bog'lash rejimida ishlaydi. Yangi vaziyatni tushunish va tushunish, miya oldingi bilim va g'oyalarda qo'llab-quvvatlanganda sodir bo'ladi. Shuning uchun o'quv jarayonida yangi bilimlarni olish uchun o'tmish tajribasini doimiy ravishda yangilab turish muhimdir.

4. Miya naqshlarni o'rnatish orqali ma'no izlaydi. Tartibsizlik va tartibsizlik miyaning ishlab chiqarish faoliyatini murakkablashtiradi. Har qanday chalkash vaziyatda, miya naqshlarni o'rnatish orqali ma'no topishga harakat qiladi. Shunday qilib, shaxs naqshlarni o'rnatish orqali ma'noni topish nuqtai nazaridan intellektual qiyinchiliklarni yengsa, o'rganish samarali bo'ladi.

5. Hissiyotlar miyaning mahsuldor faoliyatining zaruriy omili sifatida. Ajablanish, g'azab, ilhom, go'zallik tuyg'usi va hatto hazil tuyg'usi to'liq intellektual faoliyatning doimiy "hamrohlari" dir. Qulay hissiy muhitda o'rganilgan o'quv materiali yaxshiroq esda qoladi. Emotsional omil o'quvchilarning fikrlash va ijodkorligini rag'batlantiradi.

6. Miya bir vaqtning o'zida ma'lumotni tahlil qilish va sintez qilish, butun va qisman ishlashga qodir. O'quv jarayonida material yaxlit va alohida, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, muammolarni hal qilishning to'g'ridan-to'g'ri va teskari usullari va isbotlash, konkretlashtirish, umumlashtirish va boshqalarning o'zaro ta'siri rejimida taqdim etilishi kerak.

7. Miya diqqatni jamlagan va periferik idrok etish sharoitida bir vaqtda axborotni idrok eta oladi.

O'rganishda konstruktiv omil sifatida bolaning periferik idrokining xususiyatlaridan foydalanishingiz mumkin.

8. O'quvchi miyasida ong va ong osti jarayonlari bir vaqtda sodir bo'ladi. O'rganish jarayonida biz tasavvur qilganimizdan ham ko'proq ma'lumot olamiz. O'quvchiga nafaqat o'qituvchining aytganlari, balki butun ichki majmui (o'tmish tajribasi, hissiy holati, motivatsiya darajasi, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish) va tashqi (sinfidagi umumiy muhit, tovush, yorug'lik) o'quv muhitining omillari ta'sir qiladi.

9. Miya kamida ikkita xotira tizimi bilan ishlaydi: vizual-mekansal va "esda saqlash" tizimi. Birinchi tizim o'quvchi miyasining ishlashi uchun tabiiyroqdir. Ikkinchisi ko'proq sun'iy va vaqt talab qiladi. Shunday qilib, insonning o'tmishdagi bilimlari va tajribasidan, ma'lum bir kontekstdan qanchalik ko'p ajratilgan ma'lumot elementlari, miya bu ma'lumotni eslab qolish uchun shunchalik ko'p harakat qilishi kerak.

Bilim va ko'nikmalar vizual-fazoviy xotira tizimida (vizualizatsiya prinsipi) "aks" bo'lganda, odam yaxshiroq tushunadi va eslaydi. Materialdagi murakkab aloqalarni tushunish va eslab qolishning eng yaxshi usuli ularni grafik tarzda taqdim etishdir.

10. Miyaning rivojlanishi ijod erkinligi sharoitida rag'batlantiriladi va bosim, majburlash va tahdid holatida bloklanadi (ijodkorlik erkinligi prinsipi). O'quv jarayonida ijodkorlik muammosini hal qilish, tabiiyki, sinfdagi tartib-intizom muammosini olib tashlaydi.

11. Har bir insonning miyasi o'ziga xosdir (o'ziga xoslik prinsipi). Har birimizning miyamiz axborotni qayta ishlash hajmi va tezligi, xotira tizimining ustunligi, aqliy jarayonlarning moslashuvchanligi va boshqalar bo'yicha o'ziga xos individual xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham har birimizning o'ziga xos ta'lim uslubi, o'z atrofidagi dunyoni o'z tushunishi, o'ziga xos fikrlash uslubi mavjud.

Bu yoshdagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda nutqiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, nutq faoliyati psixologiyistikada til tizimining qonuniyatlari haqidagi bilim manbai sifatida qaraladi [5]. Shu sababli, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirish nutq faoliyatida amalga oshiriladi, deb ta'kidlash mumkin. Nutq xabarini idrok etish, nafaqat nutq faoliyatini, balki til orqali amalga oshiriladigan o'quv va kognitiv faoliyatning o'zaro bog'liq ikkita tarkibiy qismidir. YA'ni boshlang'ich ta'lim o'quvchilari faqat tinglash, gapirish, o'qish yoki yozish emas, balki o'qituvchi bilan jonli va faol muloqot o'quv faoliyatning asosini tashkil etadi.

Matn o'zining murakkab tashkil etilishi tufayli til birliklarining tizimli tahlilini ishlab chiqishda alohida o'rin tutadi [6].

O'quv faoliyatdan hayotiy faoliyatga o'tish prinsipi mustaqil faoliyat sharoitida ilgari shakllangan ko'nikmalar va olingan bilimlardan amaliy muammolarni hal qilishda foydalanishni, atrofidagi voqelikni tahlil qilish va o'zgartirishni nazarda tutadi [7].

Shuning uchun darsdagi asosiy faoliyat dialog yoki polilog shaklida muloqot bo'lishi kerak. Muammoni muloqotsiz hal qilish mumkin emasligi sababli, munozara butun o'quv jarayonini qamrab oladi. Guruhda ishlash jarayonida har bir o'quvchining individualligi namoyon bo'ladi, birgalikdagi faoliyat tajribasi rivojlanadi. Guruhda

ishlash jarayonida kommunikativ madaniyatni shakllantirish imkonini beruvchi tanqidiy fikrlash texnikasi - munozara usuli.

Munozara usuli, E.V. Kovalevskeya [8], boshqa muammoli usullardan oldin bo'lishi kerak, chunki faqat bahslashish, fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirgandan so'ng, rolli o'yinlar yoki loyiha faoliyati usulidan foydalanishga o'tish tavsiya etiladi.

Fikrimizcha, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda faol kommunikativ usullardan hisoblangan munozara, loyiha usullarining uslubiy imkoniyatlari kengdir. Zero, munozara usulidan foydalanish kommunikativlik va matn markazlilik tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi [9].

Aqliy hujum esa, toifalarga ajratish, ma'noni tushuntirish, ma'noni tushunish, g'oyalarni ko'rib chiqish, dalillarni aniqlash, o'quvchilarning o'z tajribalari asosida o'zaro munosabatlari orqali qo'yilgan muammoning dalillarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi [9].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan asosiy kommunikativ harakatlar quyidagilardir:

1. Savol berish qobiliyati, qiziqish.
2. Muammoning to'g'ri ta'rifi.
3. Faktlar va fikrlar o'rtasidagi farq.
4. Fikrlar, takliflar tahlili.
5. Tushuntirishlarda hissiyotlarni nazorat qilish.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasida savollar bilan ishlash qobiliyatini shakllantiruvchi texnikalar katta ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash texnologiyasining rivojlanishi savollarga fikrlashning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. O'quvchilar o'zlarining intellektual energiyasiga rag'batlantirilishi kerak. Javoblar ko'proq savollarni uyg'otsagina fikr yashaydi. Shunchaki savol so'ragan yoki so'ragan O'quvchilar haqiqatan ham o'ylaydi va bilimga intiladi. Savollar darajasi fikrlash darajasini belgilaydi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi o'quvchi va o'qituvchining ijodiy hamkorligiga, har qanday materialga analitik yondashuvni rivojlantirishga asoslanadi. U materialni yodlash uchun emas, balki muammoni qo'yish va yechim topish uchun mo'ljallangan. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarda muqot ko'nikmalarini rivojlantirishni bevosita va bilvosita taqozo etadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Xodjajev B. O'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning neyropedagogik asoslari. Qoraqalpoq davlat universiteti xabarnomasi. 2019-yil 19-iyun.
2. Hasanova A. O'quvchi yoshlar tarbiyasida rag'batlantirish va tanbeh mezonlari. – T.: «O'zbekiston», 1980.
3. Газиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов: автореферат дисс.доктора психологических наук : 19.00.07 / НИИ общей и пед. психологии. –Москва, 1992. –38 с.
4. Клемантович И.П., Чуйкина Е.В. Нейропедагогика как развитие педагогических идей Ушинского Г.Д. // Нейронауки и благополучие общества: технологические, экономические, биомедицинские и гуманитарные аспекты: Сб. материалов конференции / Отв. ред. О.Н. Ткаченко. М., 2015. С. 62–63.
5. Абдулханова - Славская К.А. Деятельность и психология личности.- М.: Наука, 1980. 335 с.
6. Абишев А., Хамидов А.А., Туманова Т.М. Категории мышления и индивидуальное развитие. Алма-Ата, 1991. – 215 с.
7. Baltayeva A.T. O'quvchilarda tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishda savollarning ahamiyati. //«Boshlang'ich ta'limni kompetensiyaviy tashkil etish: nazariya va amaliyot» mavzusida onlayn xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. – Nukus: – 2020. –B.300–302.
8. Xodjajeva F.O. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari. //“Zamonaviy ta'lim” jurnali/, 2017-yil, № 6, 43-47 b.
9. Berdimurodova M.M. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish - dolzarb pedagogik muammo sifatida. Moskva, “Internauka”, 47-3 (176) god: 2020.



Baxtiyor TURAYEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Islom QARSHIYEV,
Imom Buxoriy nomli xalqaro ilmiy markaz ilmiy maslahatchisi
E-mail: islomqarshiev0505@gmail.com

JDPI professori, fal.f.d.(DSc) A. Saitqosimov taqrizi asosida

XOJAMNAZAR HUVAYDO MEROSIDA FALSAFIY DIDAKTIK FIKRLAR TALQINI

Аннотация

Ushbu maqolada XVII-XVIII asrlarda yashab ijod etgan mutafakkir alloma Xojamnazar Huvaydoning falsafiy ruhdaagi axloqiy-didaktik qarashlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Alloh, din, payg'ambar, mutafakkir, ma'naviyat, tasavvuf, komil inson, meros, she'r, g'azal, didaktika, pir, murid, tariqat, dunyoqarash, Qur'on, hadis, shoir, g'azal, ishq, ma'rifat.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФИЛОСОФСКИХ ДИДАКТИЧЕСКИХ МЫСЛЕЙ В НАСЛЕДИИ ХОДЖАМНАЗАРА ХУВАЙДО

Аннотация

В данной статье изучены нравственно-дидактические воззрения мыслителя Ходжамназара Хувайдо, жившего и творившего в XVII-XVIII веках.

Ключевые слова: Аллах, религия, пророк, мыслитель, духовность, суфизм, совершенный человек, наследие, поэзия, газель, дидактика, пир, мюрид, секта, мировоззрение, Коран, хадис, поэт, газель, любовь, просветление.

INTERPRETATION OF PHILOSOPHICAL DIDACTIC THOUGHTS IN THE HERITAGE

Annotation

In this article, the moral and didactic views of the thinker Khojamnazar Huvaido, who lived and created in the 17th and 18th centuries, were studied. Today's importance of the educational tools covered in them is revealed

Key words: Allah, religion, prophet, thinker, spirituality, Sufism, perfect person, heritage, poetry, ghazal, didactics, pir, murid, sect, worldview, Quran, hadith, poet, ghazal, love, enlightenment.

Kirish. Mutafakkir Xojamnazar Huvaydo o'z asarlarida Qur'on oyatlari, hadis hikmatlari va shariat ahkomlarini badiiy vositalar va yorqin timsollar vositasida targ'ib qilishga intildi.

Xojamnazar Huvaydo tasavvufning boshqa vakillaridan, xususan, Boborahim Mashrabdan farqli ravishda zamona nosozliklari, charxning kajraftori (teskari aylanishi) va zolimlar zulmidan nolimadi, balki har qanday zulm, razolat va adolatsizlikni dunyoga keltiradigan illat jaholat, ma'naviy qashshoklik, ilmsizlik, nodonlik va iymon-e'tiqodning sustligida deb bildi.

Xojamnazar Huvaydo naqshbandiya tariqati atrofida tasavvufning avvaldan shakllangan ilg'or an'alarini uyg'unlashtirishga, ma'naviy kamolotga erishishning yangi qirralarini izlab topishga, shular orqali odamlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi.

Mutasavvif-shoir ijodida Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab singari mashhur mutasavviflarning g'oyalari yanada rivoj topdi. Ularning asarlariga xos insonparvarlik, yuksak badiiylik yangicha mazmun, ahamiyat va jozibadorlik kasb etdi. Tasavvufning tavhid ta'limotini asoslashda, Allohga vosil bo'lish yo'llarini belgilashda Xojamnazar Huvaydo o'z salafilaridan ilgarilab ketdi.

Xojamnazar Huvaydo ijodida shaxs ma'naviyati muammosi asosiy o'rinni egalladi:

Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,

Ani odam dema, de naqshi devor[9],-deb hisobladi.

Adabiyotshunos Nusratullo Jumaxo'janing Huvaydo haqidagi quyidagi fikrlarini keltirish lozim: «Xojamnazar

Huvaydoning har bir asaridan islom va tasavvuf ta'limotidagi ma'rifat nurlari ufurib turadi... Islom va tasavvuf ta'limotining har bir uzvi komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallalohi alayhi vasallamning hadisi shariflarida aytilishicha, «Din-nasihattan iborat»dir. Komil insonlik masalasi, so'fiylik tariqatidagi o'nta maqomdan biri nasihat tinglamoqdir. Huvaydo nazmining mazmuni ham insonni nasihat orqali kamol toptirishdir... Nasihat adabiyotining o'ziga xos jozibali ta'sir kuchi va uslubi bor. ...Huvaydoning pandu adabdan holi birorta asarini uchratish qiyin...»[3].

Zoye etma yaxshi so'zni fahmi yo'q, befahmga,

Na bilir shiru shakarning lazzatini sakmagas...

Huvaydoning ba'zi she'rlari boshidan oxirigacha tasavvufiy-falsafiy, didaktik mazmunga ega. Ularda insonxulq-atvori bilan bog'liq bo'lgan muhim bir tomon olinadi-da, shoir shunga o'z munosabatini, simpatiya va antipatiyasini bildiradi, ibratomuz o'g'itlar beradi:

Ey Huvaydo, bevafo yor deb berma ko'ngul,

Oqil ersang sen agar ushbu nasihat kam emas[4].

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida o'zbek shoirlarining asarlari Turkiyadagi bosmaxonalarda toshbosma usulda nashr ettirilgan. Jumladan Siddiq Xojai Xojandiy ehtimomi bilan 1898-1900-yillarda Istanbuldagi Mahmudbey bosmaxonasida Yassaviy, Navoiy, Mashrab kabi shoirlar katori Huvaydo devoni ham chop etgirdi. Istanbullik kitobfurushlardan biri Huvaydo devonini nemis olimiga sovg'a qilgan. U devondan, shoir badiiy ijodiy yo'nalishini belgilovchi 11 ta g'azalni tanlab olgan va ularni ilmiy tarjima qilgan. 1901-yil kuzida mutarjim tarjimalarni tugatib, ularni

sharqshunoslikka ixtisoslashgan «Westasiatische Studien» gazetasiga nashrga berdi[5].

Namanganlik shoir Mullo Yo'ldosh Xilvatiyning professor Ismatulloh Abdulloh tomonidan nashr etilgan devonida u Huvaydoni bobom deb atagan. Adabiyotshunos olim I. Abdullohning ta'kidlashicha, Xilvatiy ona tomonidan Huvaydoning evarasi, ya'ni to'rtinchi avlodi bo'lgan. Devonda shoir quyidagi muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan:

Xolmuhammad eshon bobom muhlari:
El tilida Xojamnazardur otim,
Xojama manzurligim nisbatim.
Xodiyi din Xolmuhammad avra'i sohib adab,
Validim Xoja Nazar budu Huvaydosi laqab.
Tarixi vafoti Huvaydo bobom
Xirad munshisi tarixi vafotin
Bitibdur «G'oyib o'ldi qutbi yodi»[2].

Bu ta'rix bo'yicha hisoblasak, vafot etgan yili hijriy 1200/milodiy 1785/yil bo'lib chiqadi. Bu ta'rixda oxirgi «hodiy» so'zi «yodiy» yozilgan, shuning uchun ham farq, qilyapti.

Huvaydo o'zining ma'naviy-intellektual salohiyati, badiiy mahorati va ilg'or falsafiy, didaktik qarashlari bilan XVIII asr o'zbek badiiy adabiyoti va tasavvuf falsafasiga yangicha mazmun va g'oya olib kirgan, uning ravnaqiga g'oyat barakali ta'sir ko'rsatgan[8].

Huvaydo tariqat yo'liga kirgan har bir solik pir suhbat, yo'l-yo'rig'i va nasihati asosida qadam tashlamog'i lozimligini qattiq ta'kidlaydi. Pirsiz solik yovvoyi daraxt singari o'sadi. Shoh-butog'i beo'xshov o'sib, oxiri bemaza meva beradi, yaxshi tarbiya ko'rgan solik esa ulama daraxt singari chiroyli, xushbichim o'sadi, shirin meva beradi, el undan bahra oladi, deya didaktik ta'lim bergan:

Muridni yo'ldan ozish, toyishdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi:

Gar qorong'uda qadam qo'ysang, yiqilgung chohga
Ey birodar, ol qulingga ilmi zohirdan chirog'.

Ayniqsa, komillik bosqichlarini bosib o'tishda darvesh turfa to'siqlarga duch kelishi mumkin, chunonchi dunyo molini sevish-ajdar, zebu ziynatga hirs qo'yish, hasad va baxillik qilish-yo'lbars, bid'at ishlarga muhtalo bo'lish bo'ri bo'lib unga xavf-xatar soladi. Inson vujudida Fir'avn va Xomon xulqi, yuz to'ngiz fe'li bor, ularni riyozat qilichi bilan qatl etmas ekan, darvish maqsadiga yetolmaydi. Bu yo'lda tirik yurib, nafsing itini o'ldirmasang Alloh visoliga yetisholmaysan, deydi shoir:

Talabgori visol o'lsang, dilu joning bila yig'lab
Tiriklay o'lmaguncha topmagaysan vaslin, ey solik.

Ma'lumki, tariqat bosqichining oltinchi maqami pining xizmatida bo'lishdir. Bu bosqichni bosib o'tishda soliq shunday xizmat qilishi kerakki, pining dil mulkiga podshoh bo'lsin, ya'ni piri undan xushnud bo'lib, ko'nglidan joy bersin.

Agar u murid o'z pirinigina emas, o'z zamondoshi bo'lgan boshqa do'sti Xudo xizmatini qilib, duosini olsa, u ulug' maqomga ega bo'ladi.

Shoir tariqat kishisi beozor bo'lmog'i kerak deb nasihat qiladi. Risolada Soqib «... suhbat nojins sufiyaga misli o'limdir, xususan pirini suymagan odam yoki piriga ixlosi yo'q odam birla o'ltirmog'lik» (ham) deb ogohlantirar ekan, o'z bobosining ikki baytini keltiradi:

Ahli g'aflat birla qilma bir dame hamrohlik,
Kuydurur o'tka hezini ham taqi hamrohni[6].

Huvaydoning ijodiy merosi XX asr boshlarida G'arb olimlarining e'tiborini jalb etgan va ana shu qiziqishning ilk samarasi sifatida nemis sharqshunosi Martin Xartmanning[7] rus sharqshunosi M.F.Gavrilovlarning[1] tadqiqotlari dunyoga keldi.

Mumtoz shoirlarimiz ijodida mol-dunyoga hirs qo'yish, boylik ortidan quvish qattiq qoralangan. Bunday kishilar go'ng yumalatadigan qora qo'ngiz-kalxamajga o'xshatilgan. Huvaydo shu g'oyani davom ettirib, yozadi:

Tunu kun aftonu xezon yugurib,
Kalxamajdek dunyoga ko'p urma hech[8].

Haftodu du millat-yetmish ikki millat xalqi bilan oshno bo'lishga chaqirish-chinakam umuminsoniy tuyg'u ifodasidir. Menga qolsa ushbu baytni Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarorgohi bo'lgan bino peshtoqiga oltin harflar bilan yozdirib qo'yan bo'lur edim. Ushbu bayt naqshbandiya tariqatining baynalmilal xususiyatlarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Ayni kunlarda bu tariqat Yer yuzining barcha go'shalarida joriy bo'lib bormoqda ekan, bu jahonshumul ishda barcha naqshbandiya pironlari qatori Xojamnazar Huvaydoning ham munosib hissasi bor[8].

Filologiya fanlari doktori Nusratullo Jumaxo'ja chiroyli qilib yozganidek: «Hayot tilsimlarini yechish, dunyoni mukammal qurish, haqiqatni chuqur anglash, insoniy kamolot pillapoyalaridan sobitqadam ko'tarilish uchun Huvaydo ijodini doimiy hamrohimizga aylantirmog'imiz kerak». Huvaydoning tariqat ahli vasfiga bag'ishlangan ajoyib g'azali bor. Soqibiy risolasida ham bu g'azal to'liq keltirilgan. XX asr poyonida uning bir avlodi (Abdulaziz Mansur) mazkur g'azalga muxammas bog'ladi[6].

Huvaydoning she'rilaridan ma'lum bo'lishicha, u arab va fors tillarini, o'zbek mumtoz adabiyotini, diniy adabiyotni, ayniqsa, Qur'on va hadislarni mukammal o'rgangan. Zamonasining yetuk olimi, mutasavvif shoiri sifatida shuhrat qozongan, xalq hurmatiga sazovor bo'lgan, eshon Huvaydo nomi bilan nafaqat Farg'ona vodiysi, balki turkiyzabon xalqlar orasida mashhur bo'lgan.

Huvaydo o'zining ma'naviy-intellektual salohiyati, badiiy mahorati va ilg'or falsafiy, didaktik qarashlari bilan XVIII asr o'zbek badiiy adabiyoti va tasavvuf falsafasiga yangicha mazmun va g'oya olib kirgan, uning ravnaqiga g'oyat barakali ta'sir ko'rsatgan[8].

ADABIYOTLAR

1. Gavrilov M.F. Sredneskiy poeti i sufiy Xuvaydo. Toshkent, 1927y.
2. Mullo Yo'ldosh Xilvatiy. Devon. –T.: FAN nashriyoti, 2001y.
3. Nusratullo Jumaxo'ja. «Sharq yulduzi» jurnali, 1998, 4-son.
4. Orzibekov Rahmonqul. Adabiy merosimiz sehri. –Samarqand: SamDU nashriyoti, 2006y.
5. Todjixodjayev Muso Muydinbayevich. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari Martin Xartmann tarjimasini va talqinida. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Namangan: 2021y.
6. To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Ikromiddin Ostonaqul. Avliyolar sultoni Turonlik valiyilar. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
7. Xartmann M. Huvaydoning chig'atoycha devoni / nemis tilida/. Berlin, 1902y.
8. Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.: Yangi asr avlodi, 2005y.
9. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham. –T.: Navro'z, 2011y.



Muyassar QODIROVA,

Uzbekistan state world languages university Department of English Applied Sciences 1

E-mail: munoj_80@mail.ru

Under the review of Gulyamova Mavluda Hatamovna PhD in pedagogy of UzSWLU

ENHANCING THE GRAMMAR COMPETENCE OF LANGUAGE LEARNERS

Annotation

In the article the stages of formation of grammatical skills in English language students across the different types of exercise. Exercises in oral language (in speaking) involve communication, communication that can be organized into speech and speech exercises, conditionally, as for the transfer of his skill needs to be formed under the conditions of approximate speech.

Key words: Grammar skills, skill formation, speech acts, speech exercises, grammar games.

ПОВЫШЕНИЕ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫКИ

Аннотация

В статье рассматриваются этапы формирования грамматических навыков у учеников английского языка через разные виды упражнений. Упражнения в устной речи (также в говорении) предполагают общение, коммуникацию, которая может быть организована в речевых и условно-речевых упражнениях, так как для обеспечения переноса навыка его нужно формировать в условиях, приближённых к речевых.

Ключевые слова: Грамматический навык, формирование навыка, речевые действия, речевые упражнения, грамматические игры.

ТИЛ ЎРГАНУВЧИЛАРНИНГ ГРАММАТИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация

Мақолада инглиз тили ўқувчиларида турли турдаги машқлар орқали грамматик кўникмаларни шакллантириш босқичлари кўриб чиқилади. Оғзаки нутқдаги машқлар нутқ ва шартли нутқ машқлари ёрдамида грамматик компетенцияни шаклланиш ва ривожланишини таъминлаш мумкинлиги яна бир бор ўз исботини топди.

Калит сўзлар: Грамматик маҳорат, малакани шакллантириш, нутқ ҳаракатлари, нутқ машқлари, грамматик ўйинлар.

Introduction. Grammar skill must have certain qualities. First of all, it is automation, which provides the process of skill formation with the necessary speed, integrity and smoothness, as well as the stability of the speech skill. It is not enough to automate any action, it must be made strong, stable, that is, if, for example, one aspect tense form of the verb is learned, then the second, then exercises are needed where these two forms “collide with each other”. You can achieve automation and stability, but this does not mean that a skill of the required quality has been created: it needs to be given flexibility, which is formed through the use of exercises of a certain nature. Flexibility is a vital quality to a skill. It is on this quality that the transfer is based, without which the skill remains a “thing in itself”, does not turn on in new situations.

Literature review. Any skill is based on a dynamic stereotype, that is, a thin and flexible system of temporary connections formed in the human brain. The formation of speech skills also occurs according to the laws of the formation of temporary connections. The physiology of higher nervous activity has accumulated enough data on the process of the formation of a dynamic stereotype. These data allow us to determine the conditions that make the formation of skills more successful. First, they include a pre-hearing. Its role in the formation of a dynamic stereotype is great. Perceiving foreign speech for the first time, a person “does not hear”, does not distinguish its properties, does not catch the grammatical form. He begins to hear when his attention is directed to something that corresponds to the instructions or is attracted by some way of presenting the material: intonation, pause, emphasis, emphasis. If the preliminary hearing is

organized correctly, then this contributes to the emergence of a dynamic stereotype.

The second condition for the formation of a skill is imitation in speech. Mastering speech begins with imitation of speech segments. Exercises like "Repeat after me" do not bring the desired results, as they are pronounced without any speech task. In the process of communication, such an imitation of grammatical patterns must necessarily have a speech orientation. For example:

- Is he a good person?

Yes, he is a good person...

But here the repetition is caused by reflection, the speaker, as it were, weighs this thought, and, perhaps, agrees with it, repeating in order to consider his “But”. So, the next condition for the formation of a skill is imitation in speech, imitation in the presence of a speech task.

The third condition is the same type of phrases. Mastering speech, a person usually encounters complexes of stimuli - with valuable phrases. The construction of phrases that are often repeated in speech causes a certain system in the work of the brain. When the brain perceives a signal of the same quality (a phrase of the same construction), the first impulses pass faster and are fixed more firmly. It follows that one of the conditions for successful automation should be the uniformity of phrases built on the basis of a speech sample.

The fourth condition is action by analogy in speech conditions. Speech actions can be performed by analogy with a model: visible, audible, abstractly invented and mentally representing. This sequence corresponds to the principle of increasing difficulties, and this must be taken into account when organizing exercises. So, the next condition for the

effective formation of skills is the use of actions by analogy in exercises for the assimilation of language forms.

The fifth condition is the infallibility of speech actions. It is known from psychology that it is especially important to avoid mistakes at the initial stage of mastering any action, where they turn out to be exceptionally persistent. Actions performed by the speaker himself, even those that distort the meaning, are fixed easily and firmly. Therefore, the true condition for the formation of a skill is the relative error-freeness in the performance of an action, provided by the prevention of errors. In this case, the brain receives positive reinforcement, and the dynamic stereotype of this action is established more successfully.

The sixth condition for the formation of a skill is the variety of "circumstances" of automation. "Circumstance" is the ability to transfer, which manifests itself in the fact that a student who has mastered, for example, the form of the perfect, will be able to generate phrases of the same type, but on a different material - this is the stereotype of the skill - and use them in different situational circumstances - this is its dynamism and flexibility. It is this ability that is the goal of the formation of grammatical skill.

The seventh condition is the speech nature of the exercises. Each type of speech activity should be mastered during exercises in the same type of activity. To teach speaking, the exercise must not only be oral, it must be an exercise in oral speech, in speaking. Oral can be considered any exercise performed orally (reproducing what has been memorized, reading a dialogue in pairs, transforming sentences). The student does not have a speech task, but has a formal learning task. Such speech actions can be called pronunciation, not speaking.

Research methodology. Exercises in oral speech (also in speaking) involve communication, communication, which can be organized in speech and conditional speech exercises, since in order to ensure the transfer of a skill, it must be formed in conditions close to speech.

Exercises, which are designed to be similar in nature to speech, should be based on the same principles as the process of speech communication itself.

The first principle of constructing conditional speech exercises is the principle of using the speaker's speech task. It is realized in the fact that in the exercise, when performing speech actions, the student uses those speech tasks that are characteristic of the real process of communication.

The second principle of constructing conditional speech exercises is the principle of analogy in the education and assimilation of grammatical forms. It means that the student, performing some kind of speech task, follows a certain pattern, usually presented in the teacher's remark. Giving his remarks, the student constructs them by analogy with the model, which gradually, as psychologists say, becomes the inner property of a person. This is how the so-called sense of form appears, on the basis of which a person instantly and accurately forms any similar form.

Consequently, the second principle of constructing conditional speech exercises ensures the assimilation of the grammatical form, that is, the design of a speech unit. The first principle - the principle of using the speaker's speech task - is designed to provide the functional side of speech, that is, the call of the model.

Therefore, the third principle of constructing conditional speech exercises is the principle of parallel assimilation of the grammatical form and its function in speech.

These principles allow the use of exercises that would create optimal conditions for the formation of grammatical skills. Grammar skill building exercises should:

1) be situational (this means phrases (the teacher's remarks and the student's reaction) are pronounced only when it corresponds to the situation, either natural or specially created);

2) to provide at least a conditional motivation for the student's reaction, to be pronounced not for the sake of any grammatical task, but in the presence of the speaker's speech task;

3) to ensure in each of the student's remarks the regular repetition of the same type of phrases with an automated form;

4) ensure that the student's voluntary attention is predominantly focused on the purpose and content of the statement, and not on its form;

5) to ensure the relative faultlessness of the student's actions, which can be achieved by the appropriate organization of exercises;

6) imitate the process of communication in each element (this means that only communicatively valuable phrases are used as replicas, that is, those that can be used in speech, and not generally grammatically correct construction);

7) be economical in time (this means that they must be performed at a normal speech pace, as a result of which a sufficient number of phrases is provided to automate the grammatical form).

Analysis and results

There is a system of conditional speech exercises. They can be classified according to three criteria: by composition, by installations, by the method of execution.

According to the classification of conditional speech exercises according to the way they are performed, four types of conditional speech exercises are distinguished:

Imitative conditional speech exercises are those in which the student, in order to express a certain thought, finds speech units in the necessary forms in the teacher's remark and uses them without changing.

Substitutional conditionally - speech exercises are characterized by the fact that in them there is a substitution of lexical units into the structure of any grammatical form.

Transformational conditionally - speech exercises involve a certain transformation of the cue.

Actually reproductive conditional - speech exercises involve completely independent reproduction in the students' remarks of the grammatical form that was learned in previous exercises.

Therefore, the primary classification for learning is the classification according to the method of execution, since the formation of a skill depends on the actions that the student performs with speech material, and on how he performs them.

Genuine speech refers to exercises in natural communication in various types of speech activity (speaking, listening, reading, and writing). Natural speech communication is the exchange of information motivated by the goals and conditions of learning. In artificial school conditions of mastering a foreign language, this type of exercise is the most creative and most difficult for students, therefore it completes the entire system of exercises and is used to develop speech skills (for example: "Describe the situation shown in the figure", "Listen to the text, comment on the actions of the acting persons", etc.).

The game belongs to speech exercises. It is one of the most effective means of developing grammatical skills.

According to psychologists, the motivation created by the game, that is, the game motivation should be presented in the educational process along with communicative, cognitive and aesthetic motivations.

In order to intensify the educational process, increase the level of language proficiency, teachers are actively looking

for means that increase and maintain interest in learning, allowing students to "show themselves", assert themselves, and experience a sense of success.

One way to solve these problems is to use language/speech games. The game is a teaching tool that activates the mental activity of students, makes the learning process attractive and interesting, and makes students worry and worry. This is a powerful incentive to master the language.

Conclusion and recommendations. There are a large number of games that contribute to the formation of grammatical skills.

Grammar games teach students to use samples that contain certain grammatical difficulties. They are used to create a natural situation for the use of a given speech pattern. Grammar games are designed to develop the speech activity and independence of students.

The most productive form of organizing this game is imaginary writing. Students make all sorts of assumptions and then compare with what is written in the letter. The winner is the one whose version matches the "original".

Thus, grammar games ensure the activity of students throughout the lesson, accustom them to systematic work, as a result of which grammatical skills are formed more effectively.

REFERENCE

1. Belyaev B.V. Essays on the psychology of teaching foreign languages. Methods of teaching foreign languages: "Formation of grammatical skills", set of manuals No. 9, Voronezh 2002, p. 5,
2. Starkov A.P. "Grammar Structures of the English Language". Methods of teaching foreign languages: "Formation of grammatical skills", set of manuals No. 9, Voronezh 2002, p. 17.
3. Solovova E.N. "Methods of teaching foreign languages. Basic course of lectures "M.: Education, 2005. P. 101.
4. Passov E.I., Zavesova E.G. Methods of teaching foreign languages: "Formation of grammatical skills", set of manuals No. 9, Voronezh 2002, p. 3.



Gulnaz MAMUTOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: gulnaz.mamutova88@mail.ru

dotsent, p.f.n. G.Izetaeva taqrizi asosida

THE PEDAGOGICAL NECESSITY OF PROVIDING MODERN EDUCATION WITH THE HELP OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation

Today, one of the main problems in the world is to provide modern education to young people and ensure the sustainable development of the country through it. It is the same fact that in the current period of rapid development, the study of Information Retrieval and its correct use has become the main goal for young people, and the advantages of digital technology are given to the understanding of the Internet of Things (Internet of Things, IoT), augmented reality (AR), virtual reality (Virtual reality, VR).
Key words: Digital technology, modernity, educational technology, modern education, educational institutions, augmented reality (AR), virtual reality (Virtual reality, VR).

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

Сегодня в мире одной из главных проблем стало предоставление молодежи современного образования и тем самым обеспечение устойчивого развития страны. Тот же факт, что получение информации и обучение ее правильному использованию стало основной целью молодых людей в нынешнюю эпоху бурного развития, и преимущества цифровых технологий дают понимание интернета вещей (Internet of Things, IoT), дополненной реальности (AR), виртуальной реальности (Виртуальная реальность, VR).

Ключевые слова: Цифровые технологии, современность, образовательные технологии, современное образование, образовательные учреждения, дополненная реальность (AR), виртуальная реальность (виртуальная реальность, VR).

ZAMONAVIY TA'LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BERISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Аннотация

Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lim berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish yoshlar oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat va raqamli texnologiyasini ustunliklari narsalar interneti (Internet of Things, IoT), kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR) haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, zamonaviylik, ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, ta'lim muassasalari, kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR).

Kirish. Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lim berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanib kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish yoshlar oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik hajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Endilikda zamonaviy ta'limni tashkil etishga to'sqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilayotgan bo'lsada quyidagilar xamon sohadagi ishlarni amalga oshirish jarayoniga salbiy ta'sir etib kelmoqda:

- o'qituvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsion vositalar haqida kam ma'lumotga ega ekanligi;
- ta'lim muassasalarining zamonaviy ta'lim berishga mo'ljallangan vositalar bilan ta'minlanish holatining talab darajasida emasligi;

- zamonaviy ta'limni tashkil etishga yordam beradigan internet tarmog'ining yetib

- bormaganligi yoki tezlikning pastligi;

- o'quvchilar yoki talabalarining ta'limni tashkil etishning zamonaviy vositalariga ega emasligi va xakazo [7].

Ta'kidlash joiz bugungi kunda ta'limni axborot kommunikatsion vositalarsiz

tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning katta qismi axborot

kommunikatsiya vositalaridan proyektordan unumli foydalanishni bilsada qolgan

zamonaviy texnologiyalar haqida kamroq bilimga egalar. Bu esa ta'limni tashkil etishda turli muammolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar haqida gapirganda internet orqali tashkil etiladigan mailing lists, telnets, yunesets, e-minbar kabilar yuqori samara berishi bilan ajralib turishini yodga olish mumkin. Ko'pchilikka ma'lumki o'qitishning odatdagi an'anaviy usulida o'qituvchi faol o'quvchi tinglovchiga aylanadi.

Bunday hollarda ta'lim olish quruq yodlash va esda olib qolish uchun yo'nalgan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Ta'lim tizimining hozirgi holati

noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi [6]. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Ushbu maqolani yozishda ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanish bosqichlarini o'rganish orqali zamonaviy ta'limning farqini va ahamiyatini tadqiq etish va bu tadqiqot natijalariga asosan xulosa chiqarishni maqsad qilganmiz.

Xavotirlanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni va ularga tegishli bo'lgan ishlar sarhisobi qaralganda ushbu mavzuga tegishli bo'lgan ilmiy maqola va ilmiy ishlar sezilarli darajada so'nggi yillarda ortib borayotganini ko'rish mumkin, shunday qilib, 1920-yilda psixologik adabiyot va jurnallarda abstraktda faqat 3 ta maqola, keyingi 1960-yilda – 222 ta va 1995-yilda esa – 600 dan ortiq maqolalar yozilgan bo'lib hozirgi kunga kelib ushbu maqola va ishlanmalarning soni mingdan ziyod bo'lgan bo'lsa ajab emas [7].

Xavotir muammosiga bo'lgan qiziqish turli yo'nalishdagi psixologlarning ishlarida aks ettirilgan. Ushbu ilmiy atamani ilk marotaba klassik psixozanaliz vakili - Z. Freyd fan olamiga olib kirgan. Bundan tashqari klassik psixozanaliz vakili V. Reich; individual psixologiya vakili - A. Adler; neopsixozanaliz maktabi vakili - K. Horney, G. Sullivan, E. Erikson; gumanitar va kognitiv psixologiya maktabi vakili - K. Rogers va D. Teylor, C. Spielberger, X. Eisenk, Kattel, K. Izard, N. Miller, A. Spens, Sirazon va boshqalar xavotirlanishlarning eksperimental tadqiqotlari bilan shug'ullanishgan. Rus psixologiyasi vakillari orasida ushbu mavzuga oid bilimlari bilan katta hissa qo'shgan olimlar - A. Prixojan, F. Berezin, Yu. Xanin, V. Stolin va boshqalar sanaladi. Ular shaxsiy xavotirlanish va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildilar: H. Hekhausen (1980), D. McClelland (1957), D. Atkinson (1957), K. Devidson (1960), S. Sarazon (1972), D. Naycholls (1976), R. Waite (1960) [8]. Bugungi kunga qadar xavotirlanishni na nazariy aniqlik, na motivatsiya fenomeniga qarashlilikini o'ziga xosligi muammosiga xali yetarli ma'lumotlar olishdagi natijalarga ijobiy tahlillariga erishishmagan, deb aytisak bo'ladi [9].

Tahlil va natijalar. Biz olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarining kasblari va bolalarining tanlashga moyil bo'lgan kasblari o'rtasida juda kuchli bog'liqlik borligi aniqlandi. O'g'il bolalar ko'pincha otalari izidan borishga moyil [10].


Tadqiqotimiz uchun akademik litseyning o'smir yoshidagi o'quvchilarining - xavotirlanish darajasini, ularning kasbiy o'zini o'zi belgilashiga ta'siri darajasini aniqlash uchun quyidagi obyektlar va metodikalar tanlab olingan Biz tadqiqotimiz davomida xavotirlanishning o'quvchilarning kasbiy o'zini-o'zi belgilashlari o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganish uchun Ch.D.Spilberger-Y.L.Xaninning "Xavotirlik darajasini o'rganish" so'rovnomasidan foydalandik, olingan natijalarni quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

Xavotirlanishni tekshirish bo'yicha jinslar tafovuti tahlili (n=106)

1-jadval

Ko'rsatkichlar	jinsi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajasi
Vaziyatli xavotir	Erkak	54	21,8148	7,16141	-2,240	,027*
	Ayol	52	25,2692	8,67070	-2,232	
Shaxsiy xavotir	Erkak	54	36,6296	8,39878	-3,366	,001***
	Ayol	52	42,3846	9,19965	-3,360	

Yuqoridagi holatlarni yaqqolroq ko'rish uchun quyidagi berilgan diagrammadan foydalandik. (1-diagramma) Xavotirlanishni tekshirish bo'yicha yigitlar va qizlardan olingan natijalar diagrammasi




1-diagramma

Ch.D.Spilberger Y.L.Xaninning “Xavotirlik darajasini o‘rganish” metodikasining jins tafovutlari asosida Styudentning – t mezoni bo‘yicha tahlil qilganimizda ikkala shkala bo‘yicha ham jinslararo farq kuzatilganligini aniqladik. Yani, vaziyatli xavotir shkalasi bo‘yicha o‘g‘il bolalarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 21,8148, standart og‘ish 7,16141, qiz bolalarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 25,2692; standart og‘ish 8,67070 ko‘rsatkichi olindi va jinslararo farq kuzatildi Xavotirlikni kasbiy o‘zlikni anglashga nisbatan ta’siri

($t=-2,240$; $p<0,05^*$). Shaxsiy xavotir shkalasi bo‘yicha o‘g‘il bolalarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 36,6296ni, standart og‘ish 8,39878ni tashkil etgan bo‘lsa, qiz bolalarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 42,3846ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 9,19965ni tashkil etdi. Ushbu shkala bo‘yicha ham jinslararo tafovut kuzatildi.

Tadqiqotimizda olingan natijalarning miqdor darajasini 1-rasmda xavola etdik.




1-rasm

Xavotirlanish darajasi yuqori bo‘lgan akademik litsey o‘quvchilari deyarli barcha kasb turlarini – “odam – tabiat” va “odam – texnika”, “odam-odam” va “odam-belgilar tizimi” hamda “odam – badiiy obraz” turlarini tanladilar. Ushbu turdagi kasblarning shaxsiy fazilatlarini xususiyatlarini tahlil qilib, ularni xavotirlanish darajasi yuqori bo‘lgan

odamlarning psixologik xususiyatlari bilan solishtirgandan so‘ng, biz yuqori darajadagi xavotirlanishli akademik litsey o‘quvchilari “odam – tabiat” va “odam – odam” kasblar turini o‘zini-o‘zi belgilashda tanlaydilar, degan xulosaga kelamiz.

Kasbiy o‘zligini anglash bo‘yicha korreksiyadan oldingi va keyingi holat tahlili

2-diagramma



Xulosa. Ishimiz maqsadiga erishish uchun 17-18 yoshli 106 iborat akademik litsey o‘quvchilari guruhida xavotirlanish darajasini Ch.D.Spilberger-Y.L.Xanin va G.Ayzenkning o‘zini ruhiy holatini baholash va kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash kasb tanlovini aniqlash uchun E.A.Klimovning “Men ma’qul ko‘raman” differensial diagnostic so‘rovnoma metodikasi va A.Golomshtokning kasbiy qiziqishlarini aniqlovchi “Qiziqishlar xaritasi” metodikalaridan foydlandik. Tadqiqotimizning yuqoridagi metodikalar yordamida kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashdagi xavotirlanish darajalarini o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqdik va shu metodikalar orqali tadqiqotimizni amalga oshirdik. Akademik litsey o‘quvchilari kasbiy tanloviga xavotirlanish darajasining ta’sirini o‘rganish uchun ushbu guruh sub’ektlarida kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash xususiyatlarini aniqlash kerak. Akademik litsey o‘quvchilari kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashini o‘rganish

uchun biz “Men afzal ko‘raman” differensial diagnostika so‘rovnomasidan (E.A.Klimov) va A.Golomshtokning “Qiziqishlar xaritasi” metodikasidan foydalandik.

Tadqiqotlarimiz natijasida biz quyidagi natijalarga erishdik:

Tadqiqotimizdan so‘ng ma’lum bo‘ldiki, xavotirlanish darajasi normal bo‘lgan akademik litsey o‘quvchilari guruhida past xavotirlanish darajasi jami siniluvchilarnikining ichida (15 nafar) 13 % bo‘lsa, 3 foiz qizlarning va o‘g‘il bolalarniki esa 10 foiz bo‘lib chiqdi. Ulardan “odam – belgilar tizimi” kasb turlarini 4 nafari, “odam – texnika” 7 nafari, “odam – odam” turini 3 nafari va “odam-tabiat” kasbini esa 1 nafari tanlashgan;

- jami siniluvchilarning (62 nafari) 60%ida: qiz bolalarda 24,5 % xavotirlanish darajasi odatiy ekanligi va o‘g‘il bolalardan 31 % ekanligi aniqlandi. Ulardan 27 nafari

“odam – odam”, 4 nafari “odam – tabiat” turini va 4 nafari “odam – badiiy obraz”, 11 nafari “odam – belgilar tizimi” hamda “odam-texnika” 16 nafari, kasblarini tanlashgan. “Odam-odam” turidagi kasblarni akademik litsey o‘quvchilarining 25,5 foizi tanlashdi, ularning xavotirlanish darajasi normada bo‘lgan;

- yuqori darajadagi xavotirlanish (29 nafar) 27% talabada aniqlangan, qiz bolalar (21 nafar) 72% va (8 nafar) o‘g‘il bolalar 28%ni tashkil qildi. Ulardan “odam – texnika”

turi – 1 nafarida; “odam – tabiat” turi – 13 nafari, “odam-odam” 11 nafarida va “odam – belgilar tizimi” 2 nafarida va “odam-badiiy obraz” esa 1 nafarida kasb turlarini o‘quvchilar tomonidan tanlangan.

Tadqiqot ma‘lumotlarini qo‘lga kiritib, biz yuqori darajadagi xavotirlanishga ega bo‘lgan akademik litsey o‘quvchilari asosan “odam – tabiat”, “odam – odam” kabi kasblarni tanlaydilar, degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR

1. Прихожан А.М. Диагностика личностного развития детей подросткового возраста. — М.: АНО «ПЭБ», 2007. — 56 с.
2. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. Kasbiy psixologiya. – T - 2018.
3. Muxamedova D.G., Salomova G.Sh. “Psixologik tadqiqotlar ma‘lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari” Darslik. – T – 2019.
4. G‘oziyev E.E. Umumiy psixologiya. – T- 2015.
5. PRO выбор. Учебник по профилактической программе. Взгляд в будущее, СПб, 2005.
6. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. T -2010.
7. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi?- T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.
8. Галецкая М.Е. Теории мотивации и стимулирования трудовой деятельности // Молодой ученый. 2016, 16-с.
9. Otamuratov R.U. Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari., Global dunyoda psixologiya fani: nazariya va amaliyot, chaqiruvlar va istiqbollar Professor Ergash G‘oziyevich G‘oziyev xotirasiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 16 fevral 2022 yil 2022 y., - 379 b.
10. Otamuratov R.U., O‘quvchilarda kasbiy motivatsiyalar shakllanishining psixologik omillari. O‘zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg‘unligi. 2021., - 282 b.



Sobir PARMANOV,
O‘zbekiston Milliy Universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: sobir_f@mail.ru

Siyosiy fanlar doktori (DSc) Bo‘tayev U.X. taqrizi asosida

SIYOSIY MADANIYATNING TARIXIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosiy madaniyatning rivojlanish xususiyatlar, siyosiy madaniyat etimologiyasining kelib chiqishi, siyosiy madaniyatning shakllanishi jarayoni bilan bog‘liq ilmiy va siyosiy qarashlar tahlil qilindi. Siyosiy madaniyatning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar, siyosiy ong, siyosiy tajriba, siyosiy xulq-atvor, siyosiy madaniyatning darajalari, modellari va turlari o‘rganildi. Siyosiy jarayonlardagi legitimlikning mazmun va mohiyati ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy madaniyat, etimologiya, siyosiy jarayon, siyosiy ong, siyosiy tajriba, siyosiy xulq-atvor, siyosiy madaniyat turlari, siyosiy madaniyat darajalari, siyosiy madaniyat modellari, legitimlik.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В данной статье были проанализированы особенности развития политической культуры, происхождение этимологии политической культуры, научные и политические взгляды, связанные с процессом ее формирования политической культуры. Исследованы факторы влияющие на развитие политической культуры, политическое сознание, политический опыт, политическое поведение, уровни, модели и типы политической культуры. Раскрывается понятие и сущность легитимности в политических процессах.

Ключевые слова: Политическая культура, этимология, политический процесс, политическое сознание, политический опыт, политическое поведение, политической уровни, политической модели, политической культуры, типы политической культуры, легитимность.

HISTORICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF POLITICAL CULTURE

Annotation

This article analyzes the features of the development of political culture, the origin of the etymology of political culture, scientific and political views related to the process of its formation of political culture. The factors influencing the development of political culture, political consciousness, political experience, political behavior, levels, models and types of political culture are investigated. The concept and essence of legitimacy in political processes are revealed.

Key words: Political culture, etymology, political process, political consciousness, political experience, political behavior, political levels, models of political culture, types of political culture, legitimacy.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik va erkin demokratik jamiyatni qurish jarayonida yoshlarning siyosiy madaniyatga bo‘lgan qiziqishi keskin ortib bormoqda. Shu bois, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy madaniyatning ahamiyati, siyosiy madaniyatning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar dolzarbligicha qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insonlarning bevosita ma‘naviy hayoti, qadriyatlar, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘luvchi siyosiy hodisa bo‘lgan siyosiy madaniyat omili xuddi siyosatning o‘zi kabi uzoq tarixga egadir avvalom bor, “Barchamizga ma‘lumki, har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi” [1]. Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda qadimgi mutafakkirlar tomonidan ham ma‘lum darajada talqin qilingan. Siyosat olamining buyuk donishmandlari bo‘lmish Konfutsiy, Arastu, Aflotun, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Makiavelli va boshqalarni bunga misol qilib keltirish mumkin. Mazkur ikki yirik ilmiy ish siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyasi shakllanishiga muhim turtki bo‘ldi, hamda siyosiy madaniyat nazariyasining kelajakdagi taraqqiyotiga ma‘lum darajada zamin tayyorlab berdi. Siyosiy madaniyatga oid mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, siyosiy madaniyat tushunchasini talqin

qilishda turlicha yondashuvlar mavjud. Bu tabiiy hol albatta, lekin ularning barchasini bir-biriga bog‘lab turuvchi umumiy jihat ham mavjud. Bu – siyosiy madaniyatning jamiyat siyosiy-ijtimoiy jarayonlari, siyosiy institutlari bilan bevosita uzviyligi holatidir. Bu o‘rinda siyosiy madaniyatning hozirgi vaqtda ilmiy muomalada mavjud bo‘lgan quyidagi talqinlarini keltirib o‘tish mumkin.

“Siyosiy madaniyat bu-fuqarolarning siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo‘lgan munosabatidir” [6] bizning fikrimizcha, bu munosabat fuqarolarning siyosiy hayotdagi faolligi bilan chegarlanib qolganday. “Siyosiy madaniyat-umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a‘zolari millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab mustaqil ravishda o‘z xatti-xarakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati” [5] ushbu berilgan ta‘rifda e‘tirozimiz shundaki, siyosiy ong insonda shakllanmasa siyosiy faoliyat bo‘lmasa ichki va tashqi siyosatni tahlil qilish darajasida oqsoqlik kuzatilishi mumkin. “Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, u insondagi siyosiy bilimlar, baholashlar, malakalar hamda xarakterlar darajasi xarakteri va mazmunini tashkil etadi” [7]. Amerikalik siyosatshunos D.Divaynning fikricha, siyosiy madaniyat ma‘lum bir ijtimoiy – siyosiy tizim a‘zolarini yoqlaydigan, “keng tarqayotgan, fundamental siyosiy qadriyatlarining tarixiy

tizimidir"[9]. Siyosiy madaniyat bu – o'ziga siyosiy ma'rifatni, siyosiy onglikni, hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir; Siyosiy madaniyat bu – o'z ichiga ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo'lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma'naviy madaniyatining bir qismidir; siyosiy madaniyat bu – konkret ijtimoiy birlik yoki shaxsга tegishli bo'lgan siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor stereotiplari yig'indisidir; Siyosiy madaniyat bu – tarixan qaror topgan siyosiy munosabatlar tizimida ijtimoiy subyektning (shaxsning, ijtimoiy guruhning, jamiyatning) o'z siyosiy bilimlarini, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos siyosiy xulq-atvorini namoyon qilishi, amalga oshirilishidir. Siyosiy madaniyatning yuqorida keltirilgan umumiy talqinlaridan kelib chiqqan holda unga quyidagi ta'rifni berish mumkin – "Siyosiy madaniyat bu – mustaqil dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini erkin namoyon qilishi va siyosiy institutlar bilan xamkorlikning shakllangan darajasidir. Siyosiy madaniyat o'ziga xos ichki tuzilishga (strukturaga) ega bo'lib, quyidagilar uning asosiy elementlari hisoblanadi: Siyosiy madaniyat o'z kelib chiqishiga ko'ra siyosiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liq. Ammo bu bog'liqlik siyosatdagi jamiki narsalarni "siyosiy madaniyat" deb atashga imkon bermaydi. Chunki madaniyat tashqarisidagi siyosat ba'zan zo'raonliklar va taz'yiqlarga sababchi bo'ladi. Shu jarayonda madaniyat va siyosatning aloqasi, kesishishi va to'qnashishida siyosiy hokimiyatning legitimligi hodisasida kuzatiladi. Legitimlikka ega bo'lish jarayoni esa bevosita yoki bilvosita siyosiy munosabatlar qadriyatlarga asoslanishini nazarda tutadi. Legitimlikka ega bo'lish jarayonida hokimiyat madaniylashadi, bu esa unga zo'raonliksiz va samarali tarzda ramziy vositachi vazifasini bajarish imkonini beradi. Siyosiy hokimiyatning hukumronligi fuqarolar tamonidan turlicha baholanishi mumkin. Aholining hokimiyatga ijobiy baho berishi, uning qonunga muvofiqligini, boshqarish huquqini tan olishi va ixtiyoriy tarzda bo'ysunishga roziligi hokimiyatni legitimligini bildiradi. "Legitimlik" atamasi (lot.leg, legetimus-"qonun") "qonuniylik", "qonunlashtirilganlik" ko'rinishida tarjima qilingan. Bunday tarjima unchalik aniq emas. Chunki, bunday tarjima ko'roq "legallik" atamasi mazmuniga mos keladi. Legitimlik va legallik aynan bir xil tushunchalar emas. Legallik – hokimiyatning huquqiy asoslanishi, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini, qonunga mos ravishda faoliyat ko'rsatishini aqlatadi. Shu ma'noda legallik nolegitim hokimiyatlarga ham xosdir. Legitimlik esa – bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qo'llab-quvvatlashdir. Shuning uchun ham hokimiyatning legitimligiga qarab jamiyat siyosiy madaniyatining xususiyati va darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin. Yuqoridagi jihatlariga ko'ra, siyosiy madaniyat jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustahkamlash hamda uni demokratlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. XX asrning 50-60-yillarida siyosiy madaniyat hodisasini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Chunki bu davrda mustamlakachilik zulmidan qutilgan mamlakatlar AQSH siyosiy institutlaridan andoza olishga intildilar, ammo bularning bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Buning sabablarini amerikalik siyosatchunoslarning siyosiy madaniyatga bag'ishlangan yirik tadqiqot ishlari chop etila boshlandi. 1956-yilda amerikalik nazariyotchi X.Fayerning "Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi", G.Almond va S.Verbaning AQSH, Angliya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan "Fuqarolik madaniyati. Besh millatning siyosiy munosabatlari va demokratik davlatlar", [10] 1965-yilda esa L.Pay va S.Verbaning o'nta mamlakat jamiyati siyosiy madaniyati tahliliga oid "Siyosiy madaniyat va siyosiy taraqqiyot" nomli

asarlari nashr qilindi [6]. Mazkur ilmiy ishlarda siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyasi yaratildi. Umumiy nuqtai nazarga ko'ra, siyosiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy jihatlaridan biri bo'lib, odamlarning o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashda ishtirok etish, hokimiyatga ta'sir ko'rsatish yoki uni egallash uchun boshqa tabaqalar va siyosiy kuchlar bilan tortishga moyilligi va tayyorligini ifodasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Insonlarning bevosita ma'naviy hayoti, qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'luvchi siyosiy hodisa bo'lgan siyosiy madaniyat bir joyda qotib turmaydi, u doimo o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Ayni paytda siyosiy madaniyat bo'sh joyda, o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Uning shakllanishida rol o'ynovchi ko'plab omillar mavjud. Siyosiy madaniyat o'ziga xos ichki tuzilishga ega bo'lib, siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Siyosiy tajriba - bu xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlari, mentaliteti, tarixiy xotirasi va analari, milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasidan kelib chiquvchi siyosiy maqsadlaridir. Siyosiy ong- shaxsning ongli ravishda siyosiy hokimiyatni boshqarishdagi ishtiroki va mafkuraviy, g'oyaviy, ruhiy emotsional komponentlaridir. Siyosiy xulq-atvor – bu turli xildagi siyosiy vaziyatlar va siyosiy jarayonlardagi xatti-xarakatlarda shaxs tamonidan o'zini namoyon qiluvchi xulq atvor xususiyatlaridir. Siyosiy madaniyatning asoslari har bir xalqda uzoq tarixiy davrni qamrab oluvchi jarayonlar asosida shakllanadi. Bunda har bir xalqda shakllangan madaniy va ma'naviy qadriyatlar, ulardagi o'ziga xos milliy fazilatlar hamda o'ziga xos tafakkur qilish uslubi hal qiluvchi fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, siyosiy madaniyatning shakllanishi faqatgina subyektiv holatning o'zi bilangina bog'liq bo'lmaydi. Siyosiy madaniyatning shakllanishida odamlarning jamiyatdagi siyosiy reallik bilan hamkorlik qilishi va ularning siyosiy jarayonlarga qo'shilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, jamiyatning siyosiy tizimi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalari hamkorlik qiladi. Ularning har biri o'z navbatida siyosiy madaniyatni shakllantirishda u yoki bu darajada ishtirok etadi hamda mazkur jarayonlarning yo'nalishini belgilab beradi. Bu o'rinda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV, fan va ta'lim tizimining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan siyosiy, tarbiyaviy, ma'rifiy, ma'naviy va mafkuraviy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bularning barchasi mamlakatda o'ziga xos siyosiy madaniyat modelini shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Barcha ijtimoiy hodisalar singari siyosiy madaniyatni ham turli mezon va asoslarga ko'ra turkumlash mumkin. Turkumlash asosida siyosiy madaniyatni quyidagi turlarga ajratiladi: Siyosat subyektiga ko'ra: umuminsoniy siyosiy madaniyati; xalq, etnos va svilizatsiyasiga ko'ra siyosiy madaniyati; milliy, mintaqaviy siyosiy madaniyat; ijtimoiy tabaqa (ishchilar, dehqonlar, elita, byurokatiya, ziyolilar, rahbarlar) siyosiy madaniyati; jins va yosh bilan bog'liq siyosiy madaniyat; ijtimoiy-demografik, kasbiy, diniy va boshqa guruhlar siyosiy madaniyati; Siyosiy jarayon sohalariga ko'ra: hokimiyat, boshqaruv siyosiy madaniyati; siyosiy ishtirok etish madaniyati; siyosiy muxolifat siyosiy madaniyati; Hokimiyatni amalga oshirish shakllari va usullariga ko'ra: demokratik siyosiy madaniyati; avtoritar siyosiy madaniyati; totalitar siyosiy madaniyati; siyosiy tizimdagi o'rniga ko'ra;

Siyosiy madaniyat – jamiyat va siyosiy tizimning o'zgarishiga qarab zamon talabiga javob berishi davr nuqta nazaridan baholanishi maqsadga muvofiqdir. Ammo siyosiy tizimdagi hokimiyatning manfaatlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasida 2010-yildan boshlab siyosatchunoshlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr va magistratura-da ta'limi bo'yicha barcha oliy ta'lim muassasalariga qabul

qilish to'xtatildi. Siyosiy madaniyatning o'zagi bo'lgan "Siyosatshunoslik" fanini o'qitish 2015-yilning avgust oyidan ta'qiqlandi. "Mazkur fanning ilmiy jihatdan metodologik asosi yo'q hamda uning predmeti va obyektini mavhum. "Siyosatshunoslik" fanining nazariy manba va ildizlari sobiq sho'rolar davridagi ijtimoiy-siyosiy fanlar metodologiyasidan chiqqanligi bois, bugungi zamon, fuqarolik jamiyat, rivojlangan demokratik jamiyat qurish, yoshlarning siyosiy ongi, dunyoqarashi, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fanning tarbiyaviy, ma'naviy – ma'rifiy ta'sirchanligini oshirish talablariga javob bermaydi" [11]. Ammo siyosiy madaniyat o'zining ayrim jihatlari bilan mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustahkamlash, jamiyatni demokratiyalashtirish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida, aholini ma'naviy jihatdan yuksaltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy madaniyat umummilliy madaniyatning o'ziga xos, shu bilan birgalikda ajralmas qismi hisoblanadi. Siyosiy madaniyat, avvalambor, katta va kichik ijtimoiy guruhlarning, umuman, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida olgan siyosiy tajribasidir, deb aytish mumkin. Siyosiy madaniyat bir joyda qotib turmaydi, u doimo o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Ayni bir paytda siyosiy madaniyat bo'sh joyda, o'z-o'zidan paydo bo'lib ham qolmaydi. Bunga avvalo siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy xulq-atvor me'yorlari zarur bo'ladi. Siyosiy tajriba: a) xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlar; b) mentaliteti; v) tarixiy xotirasi va an'analari; g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi, o'z milliy qadriyatlaridan kelib chiquvchi siyosiy mo'ljallari. Siyosiy ong: a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent; b) emotsional-psixologik komponentlardan iboratdir. Siyosiy xulq-atvor: a) siyosiy vaziyat, jarayondagi xatti-xarakat, faoliyat yo'nalishi; b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining, namunalari, turlari xususiyatlari. Demak, qisqa qilib aytadigan bo'lsak, siyosiy madaniyat o'z ichiga tarixiy tajriba asosida to'plangan siyosat haqidagi bilimlar va siyosiy tafakkur usulini, siyosiy hissiyot va an'analarni, maqsadlarni, tafakkurdan chuqur joy olgan siyosiy faoliyat usullarini qamrab oladi.

Tahlil va natijalar. Siyosiy madaniyat siyosiy axloq bilan ham bog'liq. Shuningdek, "siyosat axloqning davlat va jamiyat bilan bog'liq bir qismi bo'lib, xukumatning shaxs oldidagi ahloqiy-ma'naviy majburiyatlarini qamrab oladi" [8]. Siyosiy madaniyatning mazkur o'ziga xos tuzilishidan shunday mantiqiy xulosani keltirib chiqarish mumkin: Avvalambor, shuni alohida ta'kidlash lozimki, siyosiy madaniyatning asoslari har bir halqda uzoq tarixiy davrni o'zida qamrab oluvchi jarayonlar asosida shakllanadi. Bunda har bir xalqda shakllangan madaniy va ma'naviy qadriyatlar, ulardagi o'ziga xos milliy fazilatlar va o'ziga xos tafakkur qilish uslubi hal qiluvchi fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, siyosiy madaniyatning shakllanishi faqatgina subyektiv holatning o'zi bilan bog'liq bo'lmaydi. Siyosiy madaniyatning shakllanishida odamlarning jamiyatdagi siyosiy reallik bilan hamkorlik qilishi va ularning siyosiy jarayonlarga qo'shilishi muhim o'rin tutadi. Masalan, siyosiy jarayonlarda bir qator siyosiy institutlar ishtirok qiladi. Jumladan, jamiyat siyosiy tizimi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalari hamkorlik qiladi. Ularning har biri o'z navbatida siyosiy madaniyatni shakllantirishda u yoki bu darajada ishtirok qiladi, hamda mazkur jarayonning yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu o'rinda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fan va ta'lim tizimining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan siyosiy ta'lim-tarbiya, ma'rifat, ma'naviy va mafkuraviy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Bularning barchasi mamlakatda o'ziga xos siyosiy madaniyat modelini shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Siyosiy madaniyat o'z mohiyatidan kelib

chiqqan holda turli darajalardan iborat bo'lgan hodisadir. Ko'pchilik nazariyotchilari siyosiy madaniyatning uchta darajasi borligi haqidagi fikrni yoqlaydilar. Bular: a) tafakkur qilish, anglash darajasi; b) fuqarolik darajasi; v) siyosiy daraja. Quyida ushbu darajalarning har biri to'g'risida alohida to'xtalib o'tamiz: Tafakkur qilish, anglash darajasi –bu darajada shaxs tomonidan siyosat dunyosida o'z o'rnini aniqlab olish, u yoki bu yo'nalishdagi siyosiy mo'ljallarni va siyosiy xulq-atvor normalarini aniqlab olish holati yuz beradi. Mazkur daraja o'zidan keyingilari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik darajasi - bu darajada siyosiy madaniyatning asosiy o'zagi shakllanadi. Ushbu daraja odamlarning siyosiy hokimiyatga munosabatini belgilab beradi. Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, muqarrar ravishda unga, jamiyat siyosiy tizimiga nisbatan, siyosiy hokimiyat imkoniyatlari va vakolatlariga nisbatan o'z munosabatlarini shakllantiradi. Siyosiy hokimiyatning o'rni, rolini anglash natijasida, o'zining fuqarolik burchlari va majburiyatlarini ichki tuyg'usi bilan his qiladi. Siyosiy daraja - bu darajada insonning siyosat hodisasiga munosabatlari shakllangan qadriyat darajasiga yetib boshlaydi. Inson o'zini siyosiyat subyektini sifatida qabul qila boshlaydi. Bu darajada inson va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning barcha jihatlari oydinlashadi. Inson hayotida siyosatning o'rni aniq tasavvur qilingan bo'ladi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, siyosiy madaniyat darajalarining xususiyatlari siyosiy madaniyatning o'ziga xos modellari va turlariga qarab ma'lum darajada farqlanishi mumkin. Bugungi kunga kelib to'plangan ilmiy-nazariy bilimlar, empirik manbalarga tayangan holda siyosiy madaniyatning "totalitar-avtoritar", "liberal-demokratik" va «sharqona siyosiy madaniyat» modellarini misol keltirish mumkin. Bu har uchchala model qanday xususiyatlarga ega, ularning bir-birlaridan farqlariga to'xtalamiz: Siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli – avvalambor, shunisi bilan xarakterlidirki, unda shaxsning individual jihatlari sun'iy ravishda buziladi; ikkinchidan, jamiyatda siyosiy qadriyatlar va siyosiy ong markazlashgan tarzda davlat tomonidan shakllantiriladi va shuning asosida davlat manfaatlarini inson, ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan ustun qo'yiladi; uchinchidan, jamiyatni siyosiy axborot bilan ta'minlash ishi hokimiyat tomonidan belgilab berilgan, faqat bir yo'nalishda olib boriladi va davlat tomonidan monopoliyalashtiriladi, hamda faol ravishda siyosiy senzura amalga oshiriladi; to'rtinchidan, siyosiy hayot bir xil qolipda kechadi, jamiyatning siyosiy madaniyati hech qanday muqobilsiz yuqoridan turib shakllantiradi; beshinchidan, aholi aksariyat qismining siyosiy madaniyati nihoyatda past bo'ladi; oltinchidan, siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli tashqi dunyoga nisbatan sun'iy ajratib qo'yilganligi va «siyosiy-madaniy makon» sifatida biqliqligi bilan ajralib turadi. Siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli – fuqarolar siyosiy huquq va erkinliklarini huquq asosida yuqori darajada ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Birinchidan, jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari aksilmarkazlashtirilgan holda shakllantiriladi. Unga ko'ra davlat manfaatlarining ustivorlik darajasi, uning jamiyat, shaxs, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini bilan qanchalik hamohangligiga bog'liqdir; ikkinchidan, jamiyat keng qamrovli siyosiy axborot tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi; uchinchidan, jamiyatning siyosiy tizimi yetarli darajada yuqori bo'ladi, uning taraqqiyoti uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib beriladi; to'rtinchidan, siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli tashqi siyosiy-madaniyat makoniga nisbatan o'zining "ochiqligi" bilan ajralib turadi. Ba'zi holatlarda (masalan, tashqi tahdid, yoki ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va boshqa salbiy holatlar ro'y beradi) liberal-demokratik siyosiy madaniyat modeli doirasida avtoritar model elementlari jonlanishi mumkin. Buni biz masalan,

jamiyat hayotiga davlat aralashuvini kengayishida, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ma'lum darajada cheklanishi holatida ko'rishimiz mumkin. Sharqona siyosiy madaniyat modeli – siyosiy madaniyatning sharqona modeli, jumladan, o'zbek xalqining o'ziga xos siyosiy madaniyati asoslari ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan nihoyatda boy madaniy va ma'naviy makonda shakllangandir. «Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblari ko'p bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xo'ja Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shganlar Xalqimizning o'ziga xos sharqona dunyoqarashi natijasida shakllangan siyosiy madaniyatning mohiyatiga to'xtalganda alohida ta'kidlash lozimki, buyuk madaniyat va ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqimizning ajdodlari siyosatda sharqona ahloq masalasiga alohida e'tibor berganlar. Siyosatning yuksak axloq asosiga

qurilishi lozimligi to'g'risidagi mazkur g'oya inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi o'ziga xos tasavvurlar, qarashlarning shakllanishiga olib kelganki, biz ularni sharqona siyosiy madaniyatning o'ziga xos mezonlari deb qabul qilishimiz lozim bo'ladi. Shu o'rinda “Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan”[2].

Xulosa va takliflar. Davlatning rivojlanishi aynan siyosiy madaniyatning ahvoli bilan bog'liq bo'lib, siyosiy madaniyatning rivojlanganlik darajasiga qarab, jamiyat siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Ya'ni siyosiy madaniyat yoshlarning siyosiy va huquqiy layoqatini ifoda etuvchi, siyosiy institutlarning shakllanishiga, faoliyat ko'rsatishiga, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1-tom T.: “O'zbekiston”, 2017.-592 b. 132bet.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: “O'zbekiston”, 1995 y. 13-b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri”, T., “Abdulla Qodiriy”, 1993-y. 166-167-b.
4. Abdullayev.M., Abdullayeva M., Abdurazzoqova G. Mustaqillik: izohli, ilmiy, ommabop lug'at.- T.: Sharq. 191-b.
5. Politologiya. I.Ergashev muharrirligida.- T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002-y, 178-b.
6. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar.-T.: Sharq.1998-y. 83-b.
7. SHerzodxon Qudratxo'ja Tojiddin o'g'li. “Siyosatshunoslikni ta'qiqlagan va rag'batlantirgan davrlar, katta siyosatshunoslar va noto'g'ri tanlangan yo'l haqida”// Siyosat. Ijtimoiy-siyosiy jurnal №1 /19-oktabr 2021-yil./ 36-bet.
8. Devine. The Political Culture of the United States.–Boston, 1972, P.3-7.
9. Gabriel A. Almond, Sidney Verba. The Civic culture. Political attitudes and democracy in five nations. Princeton N. Y., 1963.
10. В Узбекистане отменена политология. 31 август 2015 г. <https://www.ridus.ru/news/196151>.



UDK: 37.091.39:81`36:34

Zulfiya PO‘LATOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti v.b.,(PhD)
E-mail: zulfiya-pulatova79@mail.ru

TIQXMMI” MTU dotsenti, p.f.b.f.d.(DSc) G.S.Sobirova taqrizi asosida

ANALYSIS AND RESULTS OF STUDENTS` ASSESSMENT IN TEACHING ENGLISH OF NON-LINGUISTIC EDUCATION

Annotation

The most important factor is that the fair implementation of pedagogical skills and assessment competence determine the effectiveness of the learner's activity. Thus, the skill of the educator is reflected in the qualifications and acquired knowledge of the future specialists. And the assessment of the skill requires from the teacher not only impartiality, but also a huge competence. Assessment of students, confident that they are mastering, in-depth study of their future professional activities, stimulation of their comprehensive knowledge, also requires a fairly large pedagogical competence. This article provides the analysis and results of the assessment of students in English. It is briefly described about the developed intensifying model of training and assessment of writing skill in foreign language education in an integrated form.

Key words: Pedagogical competence, pedagogical skills, inductive, receptive, reproductive, writing skill, assessment.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ ОЦЕНИВАНИЕ ПИСЬМО ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Эффективность деятельности педагога, является справедливой реализацией педагогических навыков и оценочной компетентности. Мастерство педагога отражается на квалификации и приобретенных знаниях подготовленных специалистов. А оценка знаний, полученных учащимися, требует от преподавателя не только беспристрастности, но и огромной компетентности. Оценка студентов требует довольно большой педагогической компетентности. Данная статья дает представление об анализе и результатах оценки контрольной работы студентов по английскому языку. Кратко рассказывается о разработанной интенсифицирующей модели обучения и оценки сформировавшихся навыков в иноязычном образовании в интегрированной форме.

Ключевые слова: Педагогическая компетентность, педагогические навыки, индуктивный, рецептивный, репродуктивный, навыки письма, оценка.

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA YOZUVNI BAHOLASH TAHLILI VA NATIJALARI

Annotatsiya

Pedagogning faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi eng muhim omil bu uning pedagogik mahorati va baholash kompetensiyasining odilona amalga oshirilishi ekanligini aslo unutmasligimiz lozim. Zero, pedagogning mahorati tayyorlanadigan mutaxassislarning malakasi va olgan bilimlarida aks etadi. Talabalarning o'zlashtirishi, bo'lajak professional faoliyatini chuqur o'rganayotganligiga amin bo'lgan holda baholash, ularning har tomonlama bilim olishlarini rag'batlantirish muhimdir. Ushbu maqolada talabalarning ingliz tilida nazorat ishlarini baholash tahlili va natijalari haqida fikr yuritiladi. Xorijiy til ta'limida belgilangan ko'nikmalarni integrativ shaklda o'qitish va baholashning ishlab chiqilgan intensivatsiyalashgan modeli haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, pedagogik kompetentia, pedagogik mahorat, produktiv, receptiv, reproduktiv, e'zuv malakasi, baholash, nazorat.

Kirish. Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi da 2023-yildagi ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib o'tildi. Ikkinchi yo'nalish haqida so'z ochib, quyidagi fikrni keltirib o'tdi. "Birinchil navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Maqola mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati haqida fikr yuritganimizda, mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi, professional ta'limning birmuncha yaxshilanishi, kelajak mutaxassislarni tayyorlash uchun olib borilgan islohotlar davlat siyosatining milliy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligini qayd etishimiz lozim. Shu munosabat bilan ta'limning bugungi kun

paradigmasi birinchi o'ringa shaxsiy sifatleri yuqori bo'lgan, professionalligi juda yuqori, pedagogik texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan, zamonaviy ta'lim tizimining barcha jabhalaridan xabardor bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashni birinchi o'ringa qo'yimoqda. O'qituvchilarning talabalar o'zlashtirishi, bilim olishini baholashlari bilan bog'liq professional kompetensiyalarini ularda professional faoliyatda o'z qadriyatleri tizimini yaratish yo'li bilan shakllantirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik mahorat – pedagogning o'qitish jarayonini tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi. "Pedagogik mahorat" tushunchasi o'tgan XX asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, O'zbekiston OTmlarida mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan. Pedagogik mahorat -

o'qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boruvchi har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi [1].

O'qish sifati ustidan nazorat o'quv rejalarini, dasturlar va alohida kurslarning mazmunini baholashni, shuningdek, ularni amalga oshirish hamda muntazam takomillashuvi monitoringini amalga oshirishni taqozo etadi. U ichki nazorat, tashqi audit, ekspertizaga ish beruvchilarni jalb qilish va talabalar fikrini hisobga olishni o'z ichiga oladi.

Pedagogning o'z oldidagi vazifalari, talabalar bilimini yuksaltirish va ularni baholash borasidagi ishlar ijrosini yuqori darajada ta'minlay olishi, ish sifatining yuksakligi; pedagogning ta'lim bilan bog'liq har qanday vaziyatda ham maqsadga muvofiq va pedagogik prinsiplarga mos ravishda harakat qilishi; talabalarning bilim olishlari, tarbiyasi, mustaqil ishlay olishida katta natijalarga erisha olishi; ularda mustaqil tarzda fikrlash va ishlay olish, bilim olish, ilmiy tadqiqotlarni o'zlaricha tashkil qila olishlari bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirish kabilarida namoyon bo'ladi [2]. Shuningdek, mazmunan ichki tomondan qaraydigan bo'lsak, pedagogik mahorat bu – pedagogik vazifalarning bajarilishini ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar, psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlarning amal qilish tizimidir. Shu munosabat bilan, aytishimiz mumkinki, pedagogik kompetensiya – o'qituvchiga mustaqil tarzda o'zining shaxsiy xususiyatlarini namoyon qila olish, imkoniyatlarini ko'rsata bilish, ijodiy jihatdan malakali tarzda pedagogik faoliyat bilan shug'ullana olish imkoniyatlaridir.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglar uchun zarur bo'lgan bilimlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

Ulardan biriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mafkuraviy va nazariy bilimlar.
2. O'zining kasbi va predmetiga doir bilimlar:

- psixologik bilimlar (talabalarda ruhiy jarayonlarni, shaxsiy sifatlarini, ijtimoiy-psixologik holatlarni, talabalar va pedagoglar faoliyatining psixologik xususiyatlarini shakllantirishning mohiyati va shartiga asoslangan bilimlar);

- pedagogik bilimlar (talabalar tarbiyasi va o'qishining maqsadlari, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, metodlarini qamrab oladigan, o'z predmeti bo'yicha o'qituvchining metodikasi to'g'risidagi bilimlar).

AQSH, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Isroil kabi davlatlarning zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan yutuqlari va jarayonlari sifatida ta'kidlash lozimki, fundamental ilmiy tayyorgarlik, boy ichki madaniyat, yuqori darajadagi pedagogik malakaga ega bo'lish, butun bir ijtimoiy faol pedagogik jamoaning shakllantirilishi kabi omillar muhimdir. Bu omil o'qituvchilarga qo'yilayotgan universal talablarda, ta'lim xizmatlarining sifati tobora oshib borishida, bilimlardan foydalanishning shaffofligida hamda ularning ta'lim jarayonining yuqori darajasi va doimiy rivojlanib borishiga ta'sir ko'rsatadigan holatlarning doimiy monitoring-da namoyon bo'lmoqda [3].

O'qituvchilarning baholash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida shunday xulosalarni qo'lga kiritish mumkinki, o'qituvchilarning professional kompetensiyasining umumiy fenomenologiyasi katta miqdordagi psixologik va pedagogik tadqiqotlarda o'z aksini topgan bo'lishiga qaramay, bu boradagi zamonaviy fanlarda pedagoglarning professional kompetensiyasi hanuzgacha doimiy va chuqur tadqiqotlarga muhtoj. Haqiqatda, ko'plab olimlar o'qituvchilarning professional kompetensiyasini «ta'lim faoliyatini amalga oshirishga nisbatan nazariyaning va amaliyotning birligi hamda o'qituvchining professionalizmini xarakterlovchi omil sifatida qaraydilar» [4].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ishimizning maqsadi modulli tizimda yuridik yo'nalish talabalariga ingliz tilini o'qitishda ularning yozuv malakasini baholash xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotimiz davomida tajriba-sinov maydonlarida talabalarga ingliz tilini o'qitish bo'yicha joriy dastur, o'quv materiallari hamda metodik ishlanmalar tahlil qilindi.

Bakalavr bosqichida yuridik yo'nalish talabalariga ingliz tili o'qitishda nazorat ishlari va ularni baholash quyidagicha taqsimlangan (1-jadvalga qarang):

1-jadval:

Nazorat ishlari va ularni baholash taqsimoti.

OTM va fan nomi	Nazorat turlari (100 ballik)					
	joriy	oraliq			yakuniy	
Toshkent davlat yuridik universiteti Yuristlar uchun ingliz tili fani	mavjud emas	40 b			60 b	
		Gapirish +Tinglas h 10	O'qish h 15	YOZUV 15	Lug'at+ O'qish +Grammatika 20	YOZUV 40(2 ta vazifa)
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti Asosiy chet tili fani	40 b	20 b			40 b	
	Barcha nutq faoliyat turlari	Tinglash + O'qish 10		YOZUV 10	Gapirish 15	O'qish h 10 YOZUV 15
Qoraqalpoq davlat universiteti, Tarix va huquq fakulteti Ingliz tili fani	mavjud emas	50 b			50 b	
		Gapirish O'qish Tinglash Lug'at			Gapirish O'qish Tinglash Lug'at	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Toshkent davlat yuridik universitetida "Yuristlar uchun ingliz tili" fani va Qoraqalpoq davlat universitetidagi "Ingliz tili" fani doirasida joriy nazorat uchun ball taqsimlanmagan. Ammo Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining "Asosiy chet tili" fani ball taqsimotida joriy nazorat 40 ballni tashkil etadi va bunda barcha nutq faoliyati turlari baholanadi. Oraliq nazorat ballar


taqsimotiga nazar soladigan bo'lsak, Toshkent davlat yuridik universitetida yozuv ko'nikmasiga 15 ball hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetida 10 ballni tashkil qiladi. Ko'p hollarda asosiy hamda hal qiluvchi rol bajaruvchi nazoratning yakuniy imtihonida tajriba-sinov maydonlari o'rtasidagi katta tafvutning guvohi bo'lishimiz mumkin. Birgina Toshkent davlat yuridik universiteti yakuniy nazorat

imtihoni o'z ichiga 60 ballni qamrab olsa, shundan aksariyat qismi, ya'ni 40 ball yozuv malakasini baholashni ko'zda tutadi. Ta'kidlash joizki, bu yerda yozuvning uch xil janri: tasviriy (descriptive), hikoyaviy (narrative) va analitik (analytical) turlari baholanadi va har biriga 20 balldan taqsimlangan. Shunisi e'tiborliki, Qoraqalpoq davlat universiteti joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarida yozuv malakasini baholash ko'zda tutilmagan.

Tajriba-sinov maydonlaridan Toshkent davlat yuridik universiteti ingliz tilini o'qitishda yozuv malakasini baholash umumiy miqdorining deyarli yarmini ko'zda tutsa, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti esa ushbu miqdorning atigi 25 foizini tashkil qiladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan tajriba-sinov maydonlarida o'rganilayotgan muammo bo'yicha umumiy ma'lumotga ega bo'lish maqsadida, tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichi tashkil etildi. Undan maqsad pedagogik diagnostika obyektlarida muammo darajasini aniqlash va uning asosida tajriba-sinov ilmiy farazi, maqsad hamda vazifalarini aniqlash va metodik ta'minotning mavzularini shakllantirish bo'ldi.

Umuman olganda, mazkur yo'nalishda chuqur tadqiqotlar olib borish, talabalar bilan bir qatorda, pedagog kadrlarni ham tayyorlash va qayta tayyorlashning inson muvaffaqiyatlarini ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy va maxsus umumkompetensiyaviy хусусиятларини ишлаб чиқиш bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, biz tomonimizdan ta'kidlab o'tilgan va maxsus kompetensiyalar professional faoliyatning aniq predmetli va mazmunli sohalarini o'zida aks ettiradi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, «pedagogik kompetentlik» pedagogika kategoriyasiga kiradi va pedagog-o'qituvchilarda muvaffaqiyatga erishish uchun bilimlarga ega bo'lishni, amaliyot uchun ularning mohiyatini tushunishni, professional vazifalarni yechish algoritmi ega bo'lishni, operatsion ko'nikmalar jamlanmasini hamda ijodiy (kreativ) faoliyat yuritish layoqatini aks ettiradi. Ba'zan esa, pedagogik kompetensiyalar o'qituvchining professionalizmi bilan ham tenglashtiriladi, qiyoslanadi va bu, o'z navbatida, ushbu tushuncha o'quv faoliyatida sodir bo'ladigan fiziologik, ruhiy va shaxsiy o'zgarishlarni aks ettiradigan xarakteristikalar majmuini qamrab oladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Pedagogik, psixologik va metodologik asoslarning intensivatsiyalashgan strategiyasi

Xulosa. O'qituvchilarning talabalar ta'lim sifatini baholash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalari shundan iboratki, kasbiy va hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda o'qituvchi-pedagog o'z muammolarini hal qilish, talabalarni o'qitish va bilimlarini oshirishning professional vazifalarini yecha bilish, talabalarining bilimlarini baholashning nostandart uslublarini o'ylab topish va kreativlik asosida joriy qilish kabilarini o'z ichiga oladi. Asosiy xususiyatlari sifatida esa, avvalo, xolislik, topqirlik, individuallik, malakalilik, professionallik va tajribaga egalik kabilarini keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. [https://ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/Pedagogik%20mahorat%20\(Xoliqov.A.\)](https://ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/Pedagogik%20mahorat%20(Xoliqov.A.))
2. Aisner L.Yu. Effective ways of learning a foreign language / Aisner L.Yu., Agapova T.V. // Материалы XIV международной научно-практической конференции: Наука и образование: опыт, проблемы, перспективы развития. – 2012. – С. 151-152.
3. Zimnya I.A. Key competences as the effective-target basis of competence approach in education. / Zimnya I.A., M., 2004.
4. Overko N. Professional competence and pedagogical skills of teacher at vocational school. <https://gisap.eu/ru/node/32517>
феноменом и источником формального знаково-символического образа текста как предмета философской герменевтики, становится источником, вбирающим в себя специфику построения неразрешимых на сегодняшний день философских вопросов. Являясь одновременно трансфером и безапелляционным лидером выражения теоретической повествовательной традиции, философская герменевтика обращает понимание в магистральную категорию интеллектуальной традиции, диаметральной альтернативой которой в аналитической философии языка является категория значения.

Понимание, таким образом, становится центром пересечения господствующей интеллектуальной парадигмы современности, подстраивая понятийно-терминологический аппарат гуманитарных наук под знаменатель герменевтической методологии. Механизм воздействия языковых средств на адекватное восприятие философских, художественных и научных текстов как особой формы отражения действительности, напрямую зависит от используемого инвентаря герменевтических техник и приёмов. Процесс реконструкции герменевтических методов, сопровождающейся рефлексией над исследованиями актуальных проблем интерпретации, позволяет экстраполировать герменевтику практически во все сферы действительности, где возникает необходимость соприкосновения со смыслом как ядра человеческого понимания.

В связи с представленными обобщениями можно сформулировать ряд рекомендаций, направленных на усиление внимания к вопросам герменевтического дискурса с позиции философии и лингвистики, заключающихся в тотальном пересмотре концептуальных положений, лежащих в основе классических герменевтических процедур. Реализация исследований в области герменевтической проблематики может быть осуществлена в условиях организации соответствующих научных мероприятий: международных научно-практических конференций, конгрессов, научных проектов и научно-исследовательских программ. Применение междисциплинарного подхода в исследованиях герменевтического корпуса социально-гуманитарных наук, позволит комплексно и универсально рассмотреть их внутреннюю специфику, выявив основополагающие детерминанты, определяющие стратегии герменевтических процедур.

ЛИТЕРАТУРА

1. Bergmann G. Meaning and existence. Madison, 1960. — 113-p.
2. Bergmann G. The metaphysics of logical positivism. Madison, 1954. — 24-p.
3. Айер А.Д. Язык, истина и логика (глава 6). — В кн.: Аналитическая философия. Избранные тексты. Москва: 1993. — 46-с.
4. Кулабухова Л.В. Актуальные проблемы духовности. // Кривой Рог, 2006. — 155-164-с.
5. Rudolf Carnap. On the Character of Philosophic Problems. // Philosophy of Science. — 5-19 p.
6. Витгенштейн Л. Философские исследования. — Москва: Издательство: «Гнозис», 1994. — 75-с.
7. Koopman C. Rorty's Linguistic Turn: Why (More Than) Language Matters to Philosophy // Contemporary Pragmatism. 2011. — P. 61-84-p.
8. Рорти Р. Случайность, ирония и солидарность. — Москва: Русское феноменологическое общество. 1996. — 26-с.
9. Рорти Р. Философия и зеркало природы. — Новосибирск: Издательство: Новосибирского университета. 1997. — 49-с.



Habib UMIROV,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Akademik litsey o'qituvchisi

E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti PhD. D.M.Ismoilov taqrizi asosida

METHODS OF USING PROGRAMMING LANGUAGES IN THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON MODELING OF PHYSICAL PROCESSES FOR FUTURE ENGINEERS

Annotation

This article discusses the preparation of students for design, construction, research and professional activities using software, as well as in addition to the types of software tools and their types, the direction of education is studied software engineering for the creation of pedagogical software products.

Key words: Software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ДЛЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается подготовка студентов к проектированию, конструированию, научно-исследовательские профессиональной деятельности с использованием программных средств, а также помимо видов программных средств и их видов, изучение направление образования программный инжиниринг для создания педагогических программных продуктов.

Ключевые слова: Программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

AKADEMIK LITSEY TALABALARI UCHUN FIZIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH ASOSIDA O'QUV JARAYONIDA DASTURLASH TILLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish orqali loyihalash, konstruksiyalash, ilmiy-tadqiqot kabi kasbiy faoliyat turlariga tayyorlash keltirib o'tilgan, bundan tashqari dasturiy vositalar va ularning turlari, texnika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik dasturiy mahsulotlar yaratishga o'rgatish amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Dasturiy vosita, elektron resurs, animatsiya, dasturiy paket, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, texnologiyalar, loyihalash, konstruktorlik.

Kirish. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi[1].

Ta'limda dasturlash tillaridan foydalanishning ahamiyati shundan iboratki, ular nafaqat ma'lum pedagogik vazifalarni hal qilish vositalari sifatida qo'llaniladi, balki didaktik hamda metodik rivojlanishga turtki beradi, ta'limning zamonaviy va yangi shakllarini yaratishga imkoniyat yaratadi. Ta'limda dasturlash tillaridan foydalanishning ahamiyati shundan iboratki, ular nafaqat ma'lum pedagogik vazifalarni hal qilish vositalari sifatida qo'llaniladi, balki didaktik hamda metodik rivojlanishga turtki beradi, ta'limning zamonaviy va yangi shakllarini yaratishga imkoniyat yaratadi. Ta'limning metodik va didaktik jihatdan rivojlanishida dasturlash tillari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning natijasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarni loyihalash,

konstruktorlik, yaratuvchanlik va ilmiy-tadqiqot kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishini ta'minlaydi.

Akademik litsey AKT, aniq fanlar ta'lim yo'nalishi malaka talabalarida talabalarining kasbiy faoliyat turlarining barchasida dasturiy ta'minot ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lishlari shart ekanligi keltirib o'tilgan. Shuni inobatga olib bo'lajak muhandislarni amaliy mashg'ulotlar jarayonida dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish hamda eng sodda masalalar yechimini topishda dasturlash tillaridan foydalanish metodikasini keltirib o'tamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dasturlash tillari asosan ikki guruhga bo'linadi: quyi darajali dasturlash tili va yuqori darajali dasturlash tili. Quyi darajali dasturlash tillari mikroprotsessorlarni dasturlashda ishlatilib ancha murakkabdir. Hozirgi kunda yuqori darajali C++, Delphi, Python, Java kabi dasturlash tillari, Maxmadiyev B.S., Xamidov V.S., Shoshtayeva YE.B. adabiyotlardan foydalanilmoqda. Bunga sabab dastur tuzishda soddaligi, vizual komponentalarga egaligi va interfeysining mukammalligidir[4].

Borland C++ builder6 dasturlash tili obyektga yo'naltirilgan vizual dasturlash tili bo'lib Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kungacha ishlatilib kelinmoqda. Borland C++ dasturlash tili C va C++ dasturlash tillarining uzviy davomi bo'lib yuqori imkoniyatlarga ega, ya'ni innovatsion muhiti mavjud. Borland C++ dasturlash tilini yaxshi o'rganish uchun avvalo matematik va tabiiy-ilmiy

fanlarga doir oddiy hodisa va jarayonlarni modellashtirish, vizual komponentalarini formaga joylashtirish va o'zaro bog'lash, xossalarni aniqlash zarur. Akademik litsey talabalarining dastur komponentalari tarkibiga dastur kodlarini kiritishi va mukammal dizaynga ega bo'lgan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishi ularni kasbiy faoliyatga yo'naltiradi. Turli kasb egalari uchun zarur bo'lgan dasturiy mahsulotlar yaratish va kompyuter texnologiyalari sohasida texnik xizmat ko'rsatish Akademik litsey AKT, aniq fanlar ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosi hisoblanadi. Istalgan turdagi dasturlash tilidan foydalanib dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish uchun oddiylikdan boshlash va aniq bir yo'nalishda reja asosida natijaga erishishga intilishi kerak bo'ladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Fizika fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarga S++ dasturlash tilida hodisa va jarayonlarni vizuallashtirishni o'rgatish metodikasini ko'rsatib o'tamiz.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarni hadisa va jarayonlarni dasturlash tillari yordamida vizuallashtirishga o'rgatishda FSMU metodidan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunda talabalar:

O'z fikrlarini bildiradilar;

Fikrlarini asoslovchi sabab ko'rsatadilar;

Misol keltiradilar;

Fikrlarini umumlashtiradilar.

Amaliy mashg'ulot darsi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Amaliyot o'qituvchi talabalarga dinamik jarayonga doir masalani analitik yechimini topish vazifasini beradi.

Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakatida uchish uzoqligi, ko'tarilish balandligi va uchish vaqtini aniqlash formulalari keltirilgan.

Amaliyot o'qituvchisi talabalar bergan fikrlarga asoslanib analitik yechilgan masalani dasturlash tili formasiga vizual komponentalarini joylashtiradi;

Borland C++ dasturlash tilida vizuallashtirish quyidagicha bo'ladi: Dasturlash tili ishga tushiriladi Borland C++->File->New->Application. Yangi formaga komponentalar palitrasidan kerakli komponentalarni formaga joylashtiriladi. Standard tarkibidan label va button tugmachalarni formaga ketma-ket joylashtiriladi. So'ngra System tarkibidan TPaintBox formaga joylashtiriladi. Funksiyaga doir argumentlarni kiritishda qadam berish va otilish burchak kattaliklariga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

Amaliyot o'qituvchisi talabalar ishtirokida dastur kodlarini kiritadi;

Dasturlash ishlari yakuniga yetgach kompilyatsiya jarayoni amalga oshiriladi va otilish burchagi va tezlik qiymatlarini ketma-ket kiritilgandan so'ng tegishli natijalarga ega bo'linadi;

Talabalar ishlab chiqilgan dastur bo'yicha o'z fikrlarini beradilar;

Fikrlariga sabab ko'rsatadilar;

Masalada berilgan kattaliklarni o'zgartirib misol keltiradilar;

Formaga otilish burchagi va boshlang'ich tezlikning istalgan qiymatini kiritilsa aniq natija kelib chiqishi bilan birgalikda grafik tasvirlari ham namoyon bo'ladi.

Amaliyot o'qituvchisi talabalar fikrlarini umumlashtiradi va yakuniy xulosaga beradi.

Borland C++ dasturlash tilida gorizontga burchak ostida otilgan jism harakatida uchish uzoqligi, uchish vaqti, maksimal ko'tarilish balandligini hisoblash, harakat trayektoriyasining vizual dasturini tuzish amalga oshirildi. Bunday dasturlarni ishlab chiqish talabalarni kasbiy faoliyat turlariga tayyorlashda va undan amaliy mashg'ulotlarida foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [3].

Matematika, sonli usullar va dasturlash fanlaridan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yuqorida keltirib o'tilgan ta'lim metodikasini qo'llagan holda C++ va Delphi dasturlash tillari yordamida hodisa va jarayonlarni vizuallashtirishni ko'rsatib o'tamiz.

Delphi7 muhitida ishlash Turbo Paskal dasturlash tilida ishlashga qaraganda qulay va yuqori imkoniyatlarga ega hisoblanadi hamda vizual komponentalardan foydalanilishi bilan ajralib turadi. Agar talaba Pascal dasturlash tilini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa qiyinchilik bo'lmaydi. Vizual dasturlash dastur tuzishni osonlashtiradi va talabada dasturiy vositalar yaratishga bo'lgan qiziqishini oshiradi [5].

Amaliy mashg'ulot jarayonida ko'rsatib o'tilgan uslublar bo'yicha talabalar o'z fikrlarini bildiradi, sabab ko'rsatadi, misollar keltiradi. Amaliyot o'qituvchisi fikrlarni umumlashtiradi va yakuniy xulosaga kelinadi.

Fizika fanidan amaliy mashg'ulotlarda Delphi 7 dasturlash tilida ishlab chiqilgan axborot almashinuvchi ma'lumotlar bazasini yordamida grafiklar hosil qilish, elektr zanjirlariga doir masalalarning yechimini topish metodikasini keltirib o'tamiz.

Amaliyot o'qituvchisi o'qitishning ko'rgazmali metodi yordamida talabalar nazariy egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatadi.

Masala sharti bilan tanishtiradi;

Masalani yechimini keltirib chiqaradi;

Dasturlash tilida jarayonni vizual dasturini ishlab chiqadi;

Grafiklar hosil qilinadi;

Grafiklar tahrir qilinadi;

Yakuniy xulosaga kelinadi;

Talabalarga qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

Masala. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi ko'rinishda berilgan bo'lsin. bo'lgan hol uchun harakatni grafik tasvirini hosil qiling.

Yechilishi: Berilgan kattaliklarni o'rniga qo'ysak harakat tenglamasi ko'rinishdaga keladi. Tezlik, tezlanish, grafiklarini ma'lumotlar bazasini shakllantirish orqali hosil qilamiz. Argument ga ixtiyoriy qiymatlar berib funksiyaning, qiymatlarini quyidagi jadvalda tushiramiz (1-jadval).

1-jadval

Masofa, tezlik va tezlanishning vaqtga bog'lanishi

t	1	2	3	3.5	3.8	4	4.7	5	5.3	5.9
x	8	15	26	33	37.68	41	53.88	60	66.48	80.52
v	5	9	13	15	16.2	17	19.8	21	22.2	24.6
a	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4


Borland Delphi7 dasturlash tilini ishga tushirib argument "" va funksiya "", "", "a" nomli maydonlardan iborat ma'lumotlar bazasini tuziladi va grafiklar hosil qilinadi (1-rasm).

1. DataBase DeskTop utilitasi ishga tushiriladi. Pusk=> Programmi=> Borland Delphi=>DataBase DeskTop.

2. DataBase DeskTop oynasining bosh menyusidan quyidagi buyruq beriladi: File=>Working Directory.

3. Jadval nomini mbgr1 kabi saqlab DataBase DeskTop oynasi menyusidan File=>Open->Edit Data orqali jadvaldagi ma'lumotlar kiritiladi.

4. Ma'lumotlar bazasini boshqarish algoritmi tuziladi.



1-rasm. Delphi7 muhitida grafik tasvir

Ushbu oynada berilgan funksiyalarning jadval qiymatlari o'zgarisa grafik ham mos ravishda o'zgaradi [6].

Talabalar ishlab chiqilgan dastur yordamida kinematika qonunlariga doir bir nechta masalalarning yechimini topadilar.

Talabalarga amaliy mashg'ulot yakunida ishlab chiqilgan dasturlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha topshiriqlar beriladi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik dasturiy vositalar, matematik dasturiy paketlar va dasturlash tillarining turlari bugungi kunda yetarlicha ko'p, shunga qaramay ulardan foydalanish imkoniyati ham chegaralanmagan. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlarning har bir bo'limiga ijodiy yondashgan holda metodik nuqtai-nazar bilan zamonaviy dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan foydalanib ilmiy-amaliy, ijodiy ishlarda uzluksiz ravishda foydalanish zamonaviy ta'lim metodikasi va zamonaviy dasturlash tillarining bir xilda rivojlanishini ta'minlaydi [8], [9].

Xulosa va takliflar. Shuday qilib biz Akademik litsey AKT, aniq fanlar ta'lim yo'nalishi talabalariga matematik tabiiy-ilmiy fanlardan amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quv rejaga va kasbiy faoliyatiga mos dasturiy vositalarni tanlab oldik va tadqiq etdik.

Microsoft Excel dasturining jadval va imkoniyatlaridan foydalanib fizikaviy jarayonlarni matematik modellash-tirish, birinchidan sonli usullarda jadval imkoniyatidan foydalanib grafik usulida yechimini topish, ikkinchidan dasturlash orqali jadval kattaliklarini hosil qilgan holda muammoli masalalarning yechimini topish usullari ko'rsatib o'tdik.

Matlab va MathCAD matematik dasturiy paketlari yordamida dinamik jarayonlarni, funksiya grafiklarini model-lashtirish orqali fizikaviy masalalar va matematik misollar yechimini topishda foydalanildi. Qo'shimcha ravishda Matlab dasturining dasturlash imkoniyatidan ham foydalanildi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, pedagoglar va muhandislarning o'zaro hamkorligida dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishlarida ayrim tushunmovchiliklar kelib chiqmoq-da. Bunga sabab muhandisning tegishli fan bo'yicha bilimining pastligi yoki pedagogning dasturiy tillariga doir ma'lumotlarga ega emasligidir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun bo'lajak muhandislarga ta'lim berayotgan har bir pedagog fanning barcha bo'limlariga dasturlash tillarini qo'llashi va talabalarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishi lozim. Bunday yondashuv bo'lajak muhandislarni mukammal pedagogik dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishi bilan birga kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. B.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МГПУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
4. Xamidov V.S. Ta'lim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida. «Infocom.uz», - T.: 2010, №1, -54-57 b.
5. Шошгаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. // Шошгаева Е.Б. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
6. Xamidov V.S. Ta'lim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida. «Infocom.uz», - Toshkent. 2010.
7. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.
8. Смолкин, А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А. М. Смолкин. – М.: Высш. шк., 1991. – с. 175
9. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.
10. Maxmadiyev B.S. MathCAD tizimida ishlash asoslari. O'quv qo'llanma. – Qarshi. 2012. – 144 b.
11. Turayev S.J., Xo'jayev L.X., Pardayev B.A. Matlab/Simulink muhitida dinamik sistemalarni model-lashtirish va Borland Delphi7 dasturlash tilida grafisini o'rganish.
12. Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование: Maple или Mathematica. – Таллинн, 2011. -415 с.



Mavluda FAYZIYEVA,
Qarshi Davlat universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti
E-mail: m.fayziyeva@mail.ru.

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M. Norbosheva taqrizi asosida

FACTORS OF FORMATION OF PERSONAL PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS

Annotation

This article describes in detail the factors of formation of constructive psychology, the program of experimental work on the formation of constructive psychological protection of future psychologists, ways to effectively use the established diagnostic, theoretical and organized experimental blocks.

Key words: Constructive psychology, diagnostic, theoretical and organized experimental blocks, Plutchik-Kelerman-Conte survey, overall voltage of the protective system, psychological protection, coping behavior.

ФАКТОРЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ САМОЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены факторы формирования конструктивной психологии, программа опытно-экспериментальных работ по формированию конструктивной психологической защиты будущих психологов, методы эффективного использования организованных в этой области диагностических, теоретических и экспериментальных блоков.

Ключевые слова: Конструктивная психология, диагностические, теоретические и организованные экспериментальные блоки, анкета Плутчика – Келермана-Конте, общая напряженность защитной системы, психологическая защита, компенсаторное поведение.

SHAXS PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMI SHAKLLANISH OMILLARI

Аннотация

Mazkur maqolada konstruktiv psixologiyani shakllantirish omillari, bo'lg'usi psixologlarning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish bo'yicha tajriba-eksperiment ishlar dasturi, bu borada tashkil etilgan diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklaridan samarali foydalanish usullari xususidagi fikrlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konstruktiv psixologiya, diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklari, Plutchik-Kelerman-Konte so'rovnomasi, himoya tizimining umumiy kuchlanishi, psixologik himoya, koping xulq-atvor.

Kirish. Psixolog kasbiy faoliyatining asosiy vazifalariga shaxsning konstruktiv xususiyatlarini barqarorlashtirish va shakllantirish kiradi. Psixolog professional faoliyatining asosiy vositlaridan biri u bajaradigan xarakteristikalarining muvafakiyatini belgilaydigan shaxsiy va kasbiy shakllanganlik psixologik qiyofasi (xarakteristikasi)dir. Psixologning professional faoliyatiga xos zaruriy xususiyatlarining shakllanishi oliy ta'limda tahsil olish davrida ro'y beradi. Oliy ta'limdagi bilim olish jarayonida bo'lajak psixolog ilmiy bilim, konstruktiv o'zaro muloqot-munosabatlarni tashkillahtirish va qiyinchiliklarni yengib o'tish orqali zarur bilim, ko'nikma va malakalarni ma'lum miqdorini egallashi kerak bo'ladi. Shaxsning psixologik himoyasini funksiyalashtirilishi hayotiy qiyinchiliklarni yengishning samaradorligini belgilaydi, shaxsni o'zi haqidagi ijobiy taassurotlarini saqlab qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsning psixologik himoyasi bilan bog'liq izlanishlarga F.V. Bassina, R.M. Granovskoy, G.V. Gracheva, L.R. Grebennikova, YE.L. Dotsenko, V.G. Kamenskoy, G. Kellerman, E.I. Kirshbauma, X. Konte, R. Lazarusa, I.M. Nikolskoy, R. Plutchika, I.D. Stoykova, A. Freyd, Z. Freyda, N. Xaan, V.A. Shtroo va boshqalarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin. Psixologlarning professional faoliyatidagi psixologik himoyaning paydo bo'lish muammosi yetarlicha o'rganilmagan, uning ba'zi aspektlari haqida O.N. Yejova, N.V. Makarova, N.A. Podimov, YE.S. Romanova, YE.N. Yurasova va T.S. Yasenkolarning ilmiy izlanishlarida psixologik izohlar berilgan. Bo'lajak psixologlarning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish muammosini o'rganish psixologning

hozirgi hayot qiyinchiliklarini konstruktiv ravishda bartaraf etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoji va muammoning shakllanishi hamda yuz berishi qonuniyatlarini o'rganib, ularni bartaraf qilish bilan bog'liq mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi o'rtasidagi ziddiyatlarni oqilona yechish bilan belgilanadi.

“Psixologik himoya” fenomeni A. Adler, F.V. Bassin, A.A. Nalchadjyan, R. Plutchik, I.D. Stoykov, F. Perlz, Z. Freyd, A. Freyd, E. Fromm kabi mashhur olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli tushunchalar bilan izohlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, psixologik himoya fenomenining genezisi G. Blyum, G.V. Burmenskiy, YE.M. Granovskaya, R.M. Nikolskaya, YE.T. Sokolova, V.V. Stolin, A. Freyd, YE.V. Chumakova, E.G. Eydemiller va V.V. Yustetskiy tadqiqotlarida o'rganilgan. Himoya funksiyasining ong bilan bog'liqligi F.V. Bassin, R. Berns, R.S. Pantilev, K. Rodjers, V.V. Stolin ilmiy izlanishlarida keng izohlanganligini ko'ramiz. Shaxsning shakllanishida himoyaning ta'siri muammosi, ya'ni u destruktiv va konstruktiv bo'lishi mumkinligi F.YE. Vasilyuk, L.R. Grebennikov, YE.L. Dotsenko, B.V. Zeygarnik, YE.S. Romanova, T.S. Yasenkolarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Psixologik himoyaning tuzilmali va dinamik xususiyatlari, uning individual, shaxslararo va guruhlararo darajalarda paydo bo'lishi A.M. Bogomolov, G.V. Grachev, YE.L. Dotsenko, Y.B. Zaxarova, I.D. Stoykov, Z.A. Parfenova, V.A. Shtroo, M.V. Yurkovalarning ilmiy izlanishlarida tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. “Psixologik himoya” atamasi birinchi marotaba 1894-yilda Z. Freyd tomonidan

"Himoyalovchi neyropsixozlar" nomli tadqiqot ishida qo'llanilgan, keyin esa "Jazava etiologiyasi", "Himoyalovchi neyropsixozlar haqida keyingi fikrlar" kabi ilmiy izlanishlarida keng qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik bu atama muallif tomonidan kam qo'llanilganligini va natijada "chiqarib tashlash" atamasi bilan almashtirilganligini guvohi bo'lamiz. "To'xtash, simptom, qo'rquv" nomli ilmiy ishida Z. Freyd "psixologik himoya" tushunchasiga qaytadi va bu bilan hamma "munosabatda Men qo'llagan texnikalar"ni belgilab chiqadi. Himoya individual hulqni boshqaradi va Z.Freydning fikricha, ong va ongsizlik o'rtasidagi nizoda o'zaro munosabatlarni aniqlab beradi. Ong ongsizlikka regressiya orqali ta'sir qiladi, bu esa uni nomaqbul instinktiv jalb qilishlardan himoya qiladi. Ongsizlik xulq-atvorda amalga oshiriladigan maqbul bo'lgan shakllarga aylantiradigan himoya mexanizmi orqali ongga ta'sir qiladi. Himoya funksiyasi bu ziddiyatlarni zaiflashtirish va ongni nomaqbul instinktiv jalb qilishlardan asrash nazariyasini chuqur o'rganib, uni yanada rivojlantirishni davom ettirdi. U normal funksiyalanishda himoyalarning rolini o'rgandi, himoya mexanizmlarining filogenezi ko'rib chiqdi. Himoya mexanizmlarining faoliyat maqsadi id, superego va tashqi dunyo kuchlari o'rtasida uyg'un munosabatlarni saqlab qolish uchun, qiyin vaziyatlarga moslashish imkonini beradigan tashvish (norozilik) va instinktlarni o'zgartirish, rivojlantirish yoki ba'zi o'rinlarda cheklash bilan bog'langan edi. Tahdid manbaiga qarab, A. Freyd instinktdan himoyalani va ta'sirdan himoyalani farqlashni taklif etadi. Birinchi holatda himoya jarayoni instinktlar bilan bog'liq va "Men" uchun xavfli bo'lgan tasavvurlarni ongidan chetlatishga qaratilgan. Ta'sirdan himoyalani esa faoliyati davrida xavfli istaklar va ta'sirlarni (og'riq, sevgi, rashk, va hokazo.) ongga kirishiga yo'l qo'ymaslikdir. Bundan tashqari, A. Freyd doimiy himoya hodisalari ham borligini belgilaydi, ya'ni ularni "o'tmishda juda kuchli himoya jarayonlarining qoldiqlari, ular asl holatlaridan ajralib, doimiy xarakter xususiyatlariga aylangan"ligini nazarda tutgan.

A.Freyd shaxs himoya mexanizmlarining birinchi ta'rifini shakllantirdi, ya'ni: "Himoya mexanizmlari – bu "Men"ning faoliyati bo'lib, unga xavf tug'diradigan ta'sirlarga duch kelganda boshlanadigan munosabatdir. Ular ongga muvofiq emas, balki avtomatik ravishda faoliyat ko'rsatadi". A.Freydning fikriga ko'ra, shaxsning ongli faoliyati himoya mexanizmlarini joylashtirishda asosiy funksiyalarni bajaradi. Muallif psixologik himoya shakllanishining asosiy omillarini bolalik davridagi shaxslararo munosabatlar sohasidagi turli buzilishlar bilan bog'laydi. Psixologik himoya mexanizmlarini amalga oshirish individual va shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanishi mumkin. Ijtimoiy-genetik mojarolarni hal qilishda himoya mexanizmlari nafaqat tug'ma fazilatlar sifatida, balki ixtiyorsiz ta'limning individual tajribasi mahsulati sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Himoya mexanizmlarining repertuari individualdir va shaxsning moslashish darajasini tavsiflaydi, degan taassurotlar shakllana boshladi. A. Freydning asarlarida psixologik himoyaning birinchi nazariyasi taqdim etilgan, ontogenezda himoya mexanizmlarining shakllanish ketma-ketligi va himoya mexanizmlarini tasniflash mezonlari ajratilgan. A. Freyd Z. Freydning shaxs himoya usullari va patologik kasalliklar o'rtasidagi munosabatlar, himoya mexanizmlarining meyor va individual rivojlanish patologiyasining namoyon bo'lishi haqidagi g'oyalarni yanada rivojlantirgan. Psixoanalizning turli sohalar vakillari psixologik himoyaning muayyan jihatlarni o'rganishni davom ettirdilar. Himoya mexanizmlarini shakllantirishda insonlarning o'zaro aloqasi va shaxslararo munosabatlarning roli birinchi marotaba Neofreydistlarning asarlarida kengroq

muhokama qilinganligini ko'ramiz. Ular inson uchun xavf-xatar manbai, va albatta unga nisbatan himoyani, jumladan ijtimoiy-madaniy omillarni, ya'ni yolg'izlik, himoyasizlik, ota-ona muhabbatining yetishmovchiligi, atrofdagilarning etiborsizligi, o'zaro shaxsiy aloqalar meyorida emasligi sifatida ko'rib chiqishgan. Olimlar nafaqat alohida himoya mexanizmlarni ta'riflashgan: balki kompensatsiya (A.Adler), qochish (E. Fromm), bosim (K. Xorni), saylov e'tibori (G.Sullivan), shuningdek, hulq-atvorning himoya strategiyalari: avtoritarizm, destruktivlik, tobeklik (E. Fromm), odamlarga qarshi intilish, odamlardan qochish, odamlarga intilishni ham ta'riflashgan (K.Xorni).

Tahlil va natijalar. K. Levin va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan umidsizlik muammosini o'rganishga doir izlanishlarning natijalarida ham shaxs psixologik himoyasini o'rganishga bag'ishlanganligini ko'ramiz. Psixoanalizdan farqli o'laroq, ularda psixologik himoya ongli rekonstruksiya mahsuloti sifatida o'rganilgan, eksperimental tadqiqot mualliflari intrapersonal ziddiyatning analogini – ehtiyojning umidsizlik holatini modellashtiradi va bu boshqaruvning tashqi xulq-atvor ko'rinishlarini ifodalaydi. Interaksionistik yondashuv vakili T. Shibusani himoya mexanizmlarini tushunishni idrok etish va ramziylashtirish jarayonlari bilan bog'laydi. Kompensator qurilmalarning ongsiz shakllarini qo'llash, muallif nuqtai nazaridan, muhim ehtiyojlarning xavfsizligi uchun reaksiya sifatida harakat qiladi va salbiy hissiy reaksiyalardan himoya qiladi, tahdidli vaziyatlarni yumshatadi va xulq-atvorni buzilishiga to'sqinlik qiladi. Gumanistik psixologiya vakillari (A. Maslou va boshq.) o'z-o'zini faollashtiruvchi shaxsni o'z himoya mexanizmlaridan voz kechgan shaxs sifatida ko'rib chiqishgan, chunki uzining imkoniyatlarini ochib berish, o'zini psixopatologiyasini fosh etib, himoya mexanizmlarini namoyon etish bilangina o'z hayotining maqsadiga erishish mumkin [15]. Transaksion tahlilda E.Bern [15] himoya mexanizmlarining analoglari deb vaqt tuzulishining turli usullarini hisobga olgan. Bunday tuzulishga bo'lgan ehtiyoj boshqalar e'tiboriga muhtojlik va ularga tegishli bo'lish ehtiyojidan kelib chiqadi.

E. Bern vaqt tuzulishining asosiy himoya mexanizmlari deb:

1. Yopishish – har qanday munosabatlarni rad yetish;
 2. Marosimlar - an'analar va urf-odatlar bo'yicha dasturlashtirilgan butunlay oldindan aytsa bo'ladigan harakatlar;
 3. Ish- ishlashi kerak bo'lgan mahsulot bilan dasturlashtirilgan tashqi haqiqatga qaratilgan xatti-harakatlar.
 4. Ko'ngil ocharlik-marosimlar kabi ruzumlashtirilmagan va boshorat etilmagan bo'lsada, erkin o'zaro tanlashni ifodalash;
 5. O'yinlar-onsiz hayot rejasi (ssenariy) mavjudligi tufayli psixologik foydaga olib keladigan va sherikni tuzoqqa tushiradigan maqsadli o'zaro xatti-xarakatlar majmuasidir.
- Ssenariylar cheklangan miqdorda asoslanadi va mavzular sevimli hikoyalar, masallar, mavzular va afsona shaklida taqdim etiladi. YE. Bern himoya mexanizmlariga yopishish, o'yinlar, ssenariylar va moslashtirish yo'llariga vaqtni taqsimlanishining boshqa usullarini birlashtirgan.
- Rossiya psixoterapeya fani amaliyotida (B.D.Karvasarskiy, G.L.Isurina, V.A.Tashlikov) psixologik himoya shaxsning adaptiv reaksiyalar tizimi sifatida tushuniladi, munosabatlar dezadaptiv komponentlarining ahamiyati himoya o'zgarishiga qaratilgan – kognitiv, emotsional, hulq-atvorli –shaxsning o'z psixotravmatik ta'sirini zaiflashtirish maqsadida qullaniladi. Bu jarayon turli mexanizmlar orqali psixikaning ongsiz faoliyati doirasida sodir bo'ladi. "Psixologik himoya" hodisasini o'rganish tarixini tahlil qila turib, YE.S. Romanova rus psixologiyasida psixoanalizning jiddiy qabul qilinmasligi bilan

tadqiqotchilarga psixologik himoya muammolarini tadqiq qilishga imkon bermaganini ta'kidlaydi. O'tgan asrning 50-70 yillaridagi ishlarda, "himoya" atamasi "psixologik to'siq" atamasi bilan almashtirilgan yoki istisno qilingan, (B. G. Ananyev, YE. YE. Nasinovskaya, L.B.Filonov, M.Y.Yakubovskaya), "shaxsning 10 himoya belgilari" (I.D.Stoykov), "himoya reaksiyasi" (L.I.Bojovich, M.S.Neymark), "semantik to'siq" (L.S.Slavina, L.B.Filonov), va boshqa ko'rinishlarda uchratish mumkin. Keyinchalik, tadqiqotchilar, shaxsda himoya mexanizmlari amaldagi ilmiy o'rganishning mumkin va zarur bo'lgan mavzusi ekanligini tan ola boshladilar (B.V.Zeygarnik, V.K.Myager, A.A.Nalchadjan, YE.T.Sokolova, va hokazo.). Boshqa mualliflar psixoanalitik nazariyani chetlab o'tib, psixologik himoyani (V.S.Rottenberg, I.D.Stoikov va boshqalar.) faoliyat nazariyasi pozitsiyasidan yoki ustanovka nazariyasiga tayanib o'rganishdi (V.N.Volkov, va hokazo Burlakova F.V. Bassin, N.M.)[56]. "Psixologik himoya" atamasi psixologiya fanida turli psixologik voqe'larga jalb qilish bilan izohlanadi. V.I.Jurbin [28] o'zining tasavvur yoki funksional xususiyatlari orqali bu hodisaning o'ndan ortiq ta'riflarini aniqladi: maqsad, natija, bilish jarayonlari, faoliyat, tartibga solish va boshqalar.

Ammo, har bir tadqiqotchi hodisalarni uning amalga oshirilishini: -aqliy faoliyat, aqliy jarayonlar, axborotni qayta ishlash usullari, (F.V.Bassin, R.M.Granovskaya, YE.A.Konstandov, I.M.Nikolskaya, V.YE.Rojnov, Y.V.Savenko, G.Salliven, I.V.Tonkonogiy); - moslashish mexanizmi, gentsatsiya (V.M. Volovik, L.R. Grebennikov, A.A.Nalchadjan, V.A. Tashlikov); -shaxslararo strategiyalarni, guruhlararo aloqalarni o'zicha tasvirlaydi (G.V.Grachev, YE.L.Dotsenko, Y.B.Zaxarova, S.N.Krigina, A.U.Xarash). Mualliflar psixologik himoyaning asosiy vazifasini shaxsni ong sohasini jarohatlaydigan salbiy kechinmalardan, "chegaralash" deb ataydilar; shaxsning psixologik xavfsizligini ta'minlash, ortib borayotgan tashvish, nevrozlar, qo'rquvlar, adekvat o'z-o'ziga baho berish, da'volarning realistlik darajasi, guruhga mansublik hissi, shaxsning hayotiy vaziyatga tashqi va ichki ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligi bilan xarakterlanadi. Biror bir hayotiy vaziyatga duch kelganda, inson u bilan muayyan, o'ziga xos individual-spetsifik tarzda o'zaro aloqada bo'ladi, u esa shaxsning subyektiv-obyektiv yo'nalganligi tarzida namoyon bo'ladi. Ular hayotiy vaziyatda shaxsning subyektiv ishtirok etish darajasini tavsiflaydi. Shunga ko'ra subyektiv-obyektiv yo'nalishlar insonning hayotiy vaziyatlarga nisbatan asosiy hayotiy yo'nalishlarini ifodalaydi va subyektivlik potensialini ro'yobga chiqaradi. Insonni subyektiv yoki obyektiv yo'nalishga olib borish imkonini beruvchi quyidagi ko'rsatkichlar aniqlangan. Shaxsning subyektiv-obyektiv yo'nalishlari biror bir xayotiy vaziyatga duch kelganda, inson u bilan muayyan, individual-spetsifik tarzda o'zaro aloqada bo'lgan damlarda namoyon bo'ladi. Ular hayotiy vaziyatda subyektiv ishtirok etish darajasini tavsiflaydi. Shunga ko'ra subyektiv-obyektiv yo'nalishlar insonning hayotiy vaziyatlarga nisbatan asosiy hayotiy yo'nalishlarini o'zida namoyon etadi va subyektivlik potensialini ro'yobga chiqaradi. 1. Subyektiv-obyektiv yo'nalishlarining umumiy ko'rsatkichi, ya'ni hayotiy vaziyatga kirish; 2. Trans-vaziyatli o'zgaruvchanlik, muhim kechinmalar va hayotiy o'zgarishlarning xilma-xilligi. O'zgaruvchanlikning qarama-qarshi qutbi transsituatsion barqarorlikdir; 3. Trans-situatsion nazorat lokusi, ya'ni o'zi va o'zining hayoti uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga olish. Ichki va tashqi turlarga bo'linadi; 4. Dunyoni trans-vaziyatli o'rganish, ya'ni ichki yoki tashqi dunyoga yo'nalganlik, ego-yoki eko-yo'nalish. 5. Trans-vaziyatli xarakter, ya'ni moslashuvchanlik, yangi aloqalarga va hayotiy vaziyatlarga tayyorlik. Qarama-qarshi qutb – transsituatsion inersiya. 6. Trans-vaziyatli ijodkorlik, ya'ni shaxs hayotiy

pozitsiyasining ijodiy yo'nalganligi xarakteristikasi. Aytilganlar Korjova YE.YU tomonidan ishlab chiqilgan ham hayotiy yo'nalishlar so'rovnomasida keltirilgan. O'stanovka nazariyasi nuqtai nazaridan psixologik himoya bo'yicha tadqiqotlarni F. V. Bassin o'tkazgan [10]. U psixologik himoyani ruhiy travma oqibatlarini o'z-o'zidan davolashga qaratilgan ruhiy faoliyat sifatida; shaxsning ziddiyatlar yuzaga kelganda shaxsiy munosabatlarni o'rnatish tizimining dinamikasini aniqlagan. Muallifning fikricha, himoyaning asosiy roli ustanovka (shay holat) tizimining qayta qurishda, ortiqcha hissiy stressni bartaraf etish maqsadida, kasallikka qarshilik qilish va aqliy faoliyatni tartibsizlanishining oldini olishdan iborat. Himoya mexanizmlarining shakllanishi va ishlashiga olib keladigan vaziyatlarning umumiy ifodalanishi uchun F. V. Bassin "eksklyuziv vaziyatlar" atamasini ishlatadi [11]. Ular ostida muallif rivojlanishning ma'lum bir lahzasi sifatida ziddiyat o'ta keskin bo'lgan va uni bartaraf etishni talab qiladigan vaziyatlarni tushunadi va ziddiyatlarni hal qilish xususiyati shaxsning rivojlanishidagi yo'nalishini aniqlaydi. YE.S. Romanova va L.R.Grebennikovlarning fikriga ko'ra, ekskvizit holatlar mavjud bo'lgan himoya mexanizmlarini ishlab chiqish yoki qayta qurish va shu bilan adaptiv qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. F. V. Bassin psixoanalizni himoya faoliyatining bir tomonlama talqini uchun tanqid qiladi. Shunday qilib, psixoanalitiklar psixologik himoyani faqat ekskvizit vaziyatlarni hal qilish uchun ishlatiladigan mexanizm sifatida, "Men"dagi ziddiyatning dahshatli klinik oqibatlarini oldini olishning yagona vositasi sifatida ko'rib chiqqanlar. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, psixologik himoya nafaqat maxsus holatlarda qo'llaniladi, balki organizm tomonidan kasallikka qarshilikni ta'minlaydigan va aqliy faoliyat va xulq-atvorni buzishga to'sqinlik ko'rinishidagi meyor sifatida qo'llaniladigan psixologik mexanizmdir.

E.Fromm atrofdegilar bilan o'zaro konstruktiv himoya shakllarini rad etgan taqdirda shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan mexanizmlarni ham o'rganib chiqqan. Muallif "erkinlikdan qochish" ni ta'minlaydigan 4 guruh mexanizmlarni ko'rsatib o'tadi: 1. Boshqalar ustidan cheksiz hukmdorlik qilishga intilish-Sadizm; 2. Mazoxizm, "Men"ni tashqi muhit bilan birlashtirib, shaxs mustaqilligidan voz kechishga moyillik; 3. Destruktivizm, obyektini barbod qilish, yo'q qilish va u bilan tinch-totuv yashamaslikdan iborat; 4. Shaxs individiga taklif etilgan umumqabul qilingan meyorlarni o'zlashtirishida, shaxsni boshqa odamlarning kutishlari mavzusiga aylantirish, avtomatlashtirish konformizmni ifodalaydi.

E.Frommning fikriga ko'ra, berilgan metodlar chidab bo'lmas darajadagi yo'qotish hissini yumshatadi, lekin yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hal qilmaydi. Ushbu mexanizmlardan barqaror foydalanish qiyin hayotiy sharoitlardan qochish uchun stereotip strategiyasini shakllantiradi, o'z-o'zini anglash va qobiliyatlarining faol namoyon bo'lishi istagini cheklaydi. O'z-o'zidan insondagi mustaqillik va yaxlitlik tuyg'usini buzadi».

K. Levin va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan umidsizlik muammosini o'rganishga doir izlanishlarning natijalarida ham shaxs psixologik himoyasini o'rganishga bag'ishlanganligini ko'ramiz. Psixoanalizdan farqli o'laroq, ularda psixologik himoya ongli rekonstruksiya mahsuloti sifatida o'rganilgan, eksperimental tadqiqot mualliflari intrapersonal ziddiyatning analogini – ehtiyojning umidsizlik holatini modellashtiradi va bu boshqaruvning tashqi xulq-atvorni ko'rinishlarini ifodalaydi. Interaksionistik yondashuv vakili T. Shibusani himoya mexanizmlarini tushunishni idrok etish va ramziylashtirish jarayonlari bilan bog'laydi. Kompensator qurilmalarning ongsiz shakllarini qo'llash, muallif nuqtai nazaridan, muhim ehtiyojlarning xavfsizligi

uchun reaksiya sifatida harakat qiladi va salbiy hissiy reaksiyalardan himoya qiladi, tahdidli vaziyatlarni yumshatadi va xulq-atvorni buzilishiga to'sqinlik qiladi.

Xulosa va takliflar. Psixologik himoya – ichki va tashqi ziddiyatlar, mojarolar, bezovtalik, noqulaylik bilan bog'liq bo'lgan subyektga ta'sir etuvchi axborotlarni qabul qilmaslik, travmatik tajribalardan himoya qilishga qaratilgan shaxsni barqarorlashtirishning maxsus tizimi.

Psixologik himoyadan foydalanish emotsional stressni bartaraf etish, xatti-harakatlarning tartibsizliklarini oldini olish, qisqa vaqt ichida yangi ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish imkonini beradi. Ba'zi hollarda himoya mexanizmlari doimiy mojarolik holatiga olib kelishi mumkin, shuning uchun ular halokatli (destruktiv) va konstruktiv psixologik himoya mexanizmlari sifatida tasniflanadi.

Shaxsning psixologik himoyasi koping xulq-atvor (shaxsiy muammolarni hal qilish uchun yo'naltirilgan harakat-

lar) himoya mexanizmlari va strategiyalari bilan ta'minlanadi. Birgalikda ular adaptiv (moslashuv) jarayonlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liq shakllarini va shaxsning stressli vaziyatlarga javob berishini ta'minlaydi.

Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish bizga psixologik himoyaning konstruktiv ekanligini aniqlashga imkon berdi, agar u quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsa: jamoatchilik talablari va qoidalariga rioya qilish; fikrlash va tasavvur jarayonlari faoliyat yuritishning asosi hisoblanganda; faoliyat yuritishdan xabardorligi, refleks (aks ettirish) asosida nazorat qilinganda; mudofaa mexanizmlaridan oqilona foydalanish; tashqi ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta'minlash va shaxsiy hayotiy muammolarni qoniqarli hal qilish; o'zaro munosabatlarda konstruktiv psixologik himoya insonning progressiv rivojlanishi va ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bassin F.V. Problema psixologicheskoy zashiti // Psixol. jurnal. –1988. - №9. – S.79-86.
2. Buzin V.M. Zashitniye mexanizmi // Puti obnovleniya psixiatrii. – M., 1992. – S.183-191.
3. Jurbin V.I. Ponyatiye psixologicheskoy zashiti v konsepsiyax Z. Freyda i K. Rodjersa // Voprosi psixologii. – 1990. - №4. – S.14-22.
4. Fayziyeva M. Shaxs psixologik himoya mexanizmlari. Monografiya. 2021-y.



Ойдин ФАЙЗИЕВА,
Старший преподаватель Национальный университет Узбекистана

На основании отзыва доцента УзДЖТСУ А. Шопулатова

UNIVERSITETLAR HAMDA BARCHA O'QUV MUASSASALARINING JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA UCHRAYDIGAN AYRIM XATO VA KAMCHILIKLARNING YECHIMI

Аннотация

Ushbu maqola jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi o'rni shuningdek universitetlarda jismoniy tarbiya va sportning fan sifatida o'tilishidagi asosiy muammolari haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sport, jismoniy tarbiya, ommoviy sport, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, munosabat, masaj.

UNIVERSITIES AND ALL EDUCATION THE SOLUTION OF SOME ERRORS AND DEFECTS IN THE PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS OF THE INSTITUTIONS

Annotation

This course is about the role of physical education and sports in society. Also, the main problems of passing physical education and sports as a science in universities will be covered.

Key words: Sports physical education mass sports, healthy lifestyle stele promotion, attitude, massage.

РЕШЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ОШИБОКИ НЕДОСТАТКОВ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ И СПОРТЕ ВУЗОВ И ВСЕХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация

Данная статья о роли физической культуры и спорта в обществе, а также об основных проблемах преподавания физической культуры в вузах.

Ключевые слова: Спорт, физическая культура, массовый спорт, пропаганда ЗОЖ, отношение, массаж.

Физическая культура и спорт в современном обществе играют, несомненно, важную роль и выполняют множество функций. Это сфера деятельности, направленная в первую очередь на сохранение и укрепление здоровья, а также на развитие психофизических способностей человека посредством двигательной активности, возведенной в систему. Кроме того, это часть культуры, включающая систему знаний, умений, ценностей, которые создает и эксплуатирует общество для физического и интеллектуального развития человека. В процессе занятий спортом человек совершенствует физическую форму, двигательная активность способствует ведению здорового образа жизни, физическое воспитание помогает адаптироваться в социуме.

Но столь важный процесс, как преподавание физической культуры в вузе имеет и ряд проблем. В настоящее время, несмотря на популярность здорового образа жизни, и регулярных занятий спортом, занятия по физической культуре в вузе самостоятельно не могут сформировать здорового образа жизни студента. Молодые люди находятся в таком возрасте, когда резервы их организма находятся в пиковой форме, они чувствуют себя здоровыми и необходимость занятия спортом для них не очевидна. Ярче всего это можно проследить на таком методе оздоровления и восстановления, как массаж.

Студенты практически не пользуются этим методом, несмотря на то, что массаж является неотъемлемой частью комплекса физической культуры, а восстановительный массаж

– неотъемлем от спортивной тренировки. Разные поколения и определяют массаж по-разному. Так для взрослого поколения

– массаж - это процедура оздоровительная или лечебная, а у более молодого поколения

– это больше приятное времяпрепровождение, нередко это понятие воспринимается как действие эротического характера. Эта разница в понимании говорит о том, что у молодого поколения изменилось восприятие жизни в целом.

На данный момент физическая культура проигрывает в информационной войне гедонистическому стилю жизни. И современные молодые люди часто с большим энтузиазмом идут к врачу, нежели в спортивный зал. Это объяснимо: с экранов телевизоров и со страниц печатных и электронных изданий постоянно идет реклама новых лекарственных средств и медицинских процедур, направленных на улучшение тела и состояние здоровья. Свои образовательные и развивающие функции физическая культура наиболее полно осуществляет в целенаправленном педагогическом процессе физического воспитания.

Целью физического воспитания студентов вузов является формирование физической культуры личности и способности направленного использования разнообразных средств физической культуры, спорта и туризма для сохранения и укрепления здоровья, психофизической подготовки и самоподготовки к будущей профессиональной деятельности.

Физическая культура призвана способствовать формированию таких общечеловеческих ценностей, как физическое, психическое и социальное благополучие, повышению жизненных ресурсов человека, к числу важнейших из которых относится здоровье.

Физическое воспитание студентов направлено на совершенствование видов двигательной активности, определяющих значительный интерес и мотивацию включенности студентов в организованную физкультурно-спортивную деятельность.

Одним из таких видов деятельности, имеющих огромную популярность и вызывающих большой интерес в студенческой среде, являются занятия силовой направленности.

Данный вид деятельности привлекает особое внимание в связи с выраженным желанием юношей укрепить мускулатуру, иметь красивую фигуру, повысить в целом жизненный тонус организма. Развитие силы и формирование атлетического телосложения являются ведущим мотивом занятий для студентов. Кроме того, занятия по силовой подготовке не только способствуют развитию силы и повышению работоспособности.

Сила - основное физическое качество человека. Все другие двигательные способности проявляются только совместно с силой. Сила - первопричина и механическая характеристика любого движения. Она проявляется в любых двигательных действиях, из которых складывается трудовая, бытовая, военная, спортивная и всякая другая человеческая деятельность. Мышечная сила в значительной степени определяет здоровье человека, его работоспособность. Недостаточная силовая подготовка - острейшая проблема физической подготовленности студентов. В существующей системе физического воспитания силовая подготовка и упражнения с отягощениями не имеют оптимального применения, достаточного материального и научно-методического обеспечения.

ning holatini baholay olamiz va birgalikdagi faoliyat va muloqotga yaxshiroq moslashamiz. Tadqiqotchi J.M.Kontening ta‘rificha, turli madaniyatlarga mansub kishilarning inson yuzidagi ifodalarni to‘g‘ri idrok etishi va baholay olishi, undan quvonch, g‘azab, qayg‘u, qo‘rquv, jirkanish, ajablanish kabi hissiy holatlarni aniqlay olish inson uchun juda muhimdir[3].

-ikkinchi muhim vazifasi ekspressiv va kommunikativ bo‘lib, u kognitiv jarayonlarni tartibga solishning eng muhim omilidir. Emotsiyalar ichki til, signallar tizimi sifatida harakat qiladi, bu orqali odam sodir bo‘layotgan voqealarning zarurati va ahamiyatini bilib oladi. Emotsional ekspressiv iboralarning ba‘zilari tug‘ma, ba‘zilari esa, ta‘lim va tarbiya natijasida namoyon bo‘ladi[4]. Ushbu yondashuvga asoslanib aytish mumkinki, emotsiyaning bu kabi muhim vazifalari imkoniyati cheklangan bolalarda ma‘lum bir funksiyalarni bajarishda muammolarni keltirib chiqaradi yoki qiyinchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu boisdan, imkoniyati cheklangan bolalarning emotsional holatlarini to‘g‘ri baholash, ulardagi emotsional holatlarning turli vazifalarini boshqalarnikidan biroz boshqa ko‘rinishda tasavvur qilish ijobiy munosabatlarni o‘rnatishimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchi G.Mendlerning yozishicha, emotsional zo‘riqishlarni psixologik tahlil qilishda uning kelib chiqishiga doir qarashlarni o‘rganish talab etiladi. Emotsiyalarning kelib chiqishi bo‘yicha ikkita nuqtai nazar mavjud bo‘lib, biri emotsiya va hissiyotlarning rolini e‘tirof etsa, ikkinchisi – tafakkur va boshqa kognitiv jarayonlarni birlamchi hisoblaydi[5]. Aytish joizki, ko‘plab psixologik xususiyat va holatlarni o‘rganishda turli qarashlar bo‘lgani kabi emotsional holatlarni o‘rganishda ham turli xil yondashuvlar ilgari suriladi. E‘tiborlisi, har bir yondashuvning ilmiy asoslari mavjud va ular imkoniyati cheklangan insonlardagi emotsional buzilishlarni baholashni inkor qilmaydi.

Kanadaning Laval universiteti professori M.Kabanakning yozishicha, emotsiya - bu aqliy aks ettirishning maxsus shakli bo'lib, u bevosita tajriba shaklida obyektiv hodisalarni emas, balki ularga nisbatan subyektiv munosabatni aks ettiradi. Unga ko'ra, emotsiyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular obyektiv xususiyatlarining subyekt ehtiyojlari bilan bog'liqligi tufayli subyektga ta'sir qiluvchi obyektlar va vaziyatlarning ahamiyatini aks ettiradi[6]. Demak, emotsiyalar reallik va ehtiyojlar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu boisdan imkoniyati cheklangan bolalarda paydo bo'lgan extiyojlarni imkoniyati cheklanganligi tufayli yetarli darajada qondira olmasligi ham emotsional zo'riqishlarni paydo qiladi.

Tadqiqotchi S.E.Izardga ko'ra, differensial emotsiyalar nazariyasi hissiyotlarni neyrofiziologik, nerv-mushak va fenomenologik jihatlariga ega bo'lgan murakkab jarayon sifatida tavsiflaydi. Neyrofiziologik darajada emotsiyalar nerv sistemasi, xususan, korteks, gipotalamus, bazal ganglionlar, limbik tizim, yuz va trigeminal nervlarning elektrokimyoviy faolligi bilan belgilanadi. Nerv-mushaklar darajasida hissiyot, birinchi navbatda, mimik faoliyat, ikkinchidan, pantomimik, visseral-endokrin va ba'zan ovozli reaksiyalar bilan ifodalalanadi[7]. Shuningdek, N.N.Danilovning yozishicha, differensial hissiyotlar nazariyasi beshta asosiy farazga asoslanadi[8].

1.To'qqiz asosiy tuyg'u inson mavjudligining asosiy motivatsion tizimini tashkil qiladi.

2.Har bir fundamental hissiyot o'ziga xos motivatsion va fenomenologik xususiyatlarga ega.

3.Quvonch, qayg'u, g'azab va uyat kabi asosiy his-tuyg'ular turli xil ichki tajribalarga va bu tajribalarning turli xil tashqi ifodalarga olib keladi.

4.Tuyg'ular bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi - bir tuyg'u boshqasini kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin.

5.Emotsional jarayonlar turtki va gomeostatik, pertseptiv, kognitiv va harakat jarayonlari bilan o'zaro ta'sirlashadi. Ushbu farazlarga asoslanib aytish mumkinki, imkoniyati cheklangan insonlarning ba'zi tushkun kayfiyati boshqa salbiy emotsional zo'riqishlarni ham keltirib chiqaradi.

B.Parkinsonning fikricha, emotsiya alohida murakkab hodisa bo'lib, u neyrofiziologik va motor-yekspressiv komponentlarni va subyektiv tajribani o'z ichiga oladi. Bu

tarkibiy qismlarning individual jarayondagi o'zaro ta'siri evolyutsion-biogenetik hodisa bo'lgan hissiyotni shakllantiradi. Shuningdek, odamlarda emotsiyalarning ifodasi va tajribasi tug'ma, umumiy madaniy hamda universalligi bilan ajralib turadi[9]. Ushbu yondashuvda, muallif, emotsiyalarning ifodalanishi ular yashayotgan muhit, shart-sharoit va imkoniyatlar bilan bog'langanligini e'tirof etmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarda emotsional holatlarni baholashda ushbu yondashuvning alohida e'tirof etish mumkin.

Tadqiqotchi D.Eduards emotsiyalarni tasniflashda birinchi navbatda ularni tavsiflovchi komponentlarga alohida e'tibor qaratadi. Muallif, ularni quyidagilarga ajratadi:


-ongli faoliyat va tajriba orqali paydo bo'ladigan jarayonlar;

-organizmning asab, endokrin, nafas olish, ovqat hazm qilish va boshqa tizimlarida sodir bo'ladigan jarayonlar;

-emotsiyalarning kuzatiladigan ekspressiv komplekslari, xususan, yuzda aks ettirilgan jarayonlar[10]. Demak, emotsiyalar inson ichki hayotidagi eng aniq va nozik hodisalardan biridir. Aytish mumkinki, to'g'ridan-to'g'ri hayot tajribasi tufayli bu hodisalar nafaqat osonlik bilan aniqlanadi, balki juda nozik tushuniladi. Emotsiyalar shaxsning refleksiv faoliyati bilan bog'liq.

Emotsional zo'riqishlarni tasniflashda yana ba'zi yondashuvlarni e'tiborga olish lozim. Jumladan, tadqiqotchi A.G.Zakabluk tadqiqot ishida keltirishicha, emotsional holatlar insonning ichki hayoti va harakatlarini belgilovchi kuchlar orasida markaziy rollardan birini bajaradi. Aytish joizki, emotsional zo'riqishlar obyektiv o'rganish uchun yetarlicha nozik va ishonchli vositalarni topishga bo'lgan muvaffaqiyatsiz urinishlar tadqiqotchilarning e'tiborini asta-sekin his-tuyg'ularni ifodalash bilan bog'liq emotsional holatlarning faoliyatga ta'siri kabi muammolarning nisbatan tor doirasi bilan cheklana boshlaganiga olib keldi.

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan eshitish nuqsoni bor o'smir o'quvchilarda emotsional zo'riqish va stressogen holatlar bo'yicha so'rovnomalardan olingan ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.




1-расм

Shaxs faoliyatida stress omillarining ekspress diagnostikasi so'rovnomasida bo'yicha olib borilgan izlanishlarimiz natijasiga ko'ra, imkoniyati cheklangan o'smir o'quvchilarning nizolashuvchanlik va o'quv faoliyati doirasida zo'riqish shkalalari o'rta darajada, haddan tashqari zo'riqish va o'qituvchi bilan bog'liq munosabatlardagi zo'riqish quyi darajada, nizolashuvchanlik va o'quv faoliyati doirasida zo'riqish shkalalari yuqori nisbatlarni namoyon qilgan.

Tadqiqotchi D.O.Sanochkinning yozishicha, insonning hissiy baholash qobiliyati nafaqat uning shaxsiy tajribalari

diagnostikasi so'rovnomasida ko'rsatkichlari tajribasi asosida, balki boshqa odamlar bilan muloqotda, xususan, san'at asarlarini, ommaviy axborot vositalarini idrok etishda paydo bo'ladigan hissiy empatiya natijasida shakllanadi. Emotsiyaning baholovchi yoki aks ettiruvchi funksiyasi uning motivatsion funksiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Demak, emotsiya insondagi intilish zonasini ochib beradi, u yerda muammoning yechimi, ehtiyojni qondirish topiladi. Emotsional tajriba ehtiyojni qondirish obyektining tasvirini va unga bo'lgan munosabatni o'z ichiga oladi, bu esa odamni harakatga undaydi.



2-rasm

Shaxs xususiyatlari so'rovnomasi ko'rsatkichlari

Xulosa. Tadqiqotdan olingan natijalardan shuni kuza-tish mumkinki, asabiy-lashganlik, o'z-o'zidan paydo bo'ladi-gan tajovuzkorlik, jizzakilik, ruhiy siqilish va ekstraversiya-introversiya kabi shkalalar quyi natijani, tortinchoqlik va vazminlik shkalalari o'rta natijani, ruhiy siqilish, tortinchoqlik va vazminlik kabi shkalalar esa yuqori birliklarni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida ushbu maqola bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1.O'smiring emotsional sohosi rivojlanish jarayonida o'zgarganligi sababli, u shaxsiyat shakllanishining ko'r-satkichi bo'lib xizmat qiladi.

2.O'smiring emotsional sohasining uyg'un rivoj-lanishidagi muammolar emotsional zo'riqishlar yuzaga chiqishining asosiy sababchilaridan biridir.

3.O'smiring emotsional sohosi yosh xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati hissiy va intellektual rivojlanish o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligi bilan belgilanadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Беленкова Л.Ю. Инновационные подходы к образованию детей с ограниченными возможностями здоровья: от интеграции к инклюзии //Интеграция образования. – 2011. – №. 1. – С. 59-64.
2. Noel C., Dando R. The effect of emotional state on taste perception //Appetite. – 2015. – Т. 95. – С. 89-95.
3. Conte J. M. A review and critique of emotional intelligence measures //Journal of organizational behavior. – 2005. – Т. 26. – №. 4. – С. 433-440.
4. Noel C., Dando R. The effect of emotional state on taste perception //Appetite. – 2015. – Т. 95. – С. 89-95.
5. Mandler G. Emotion //The first century of experimental psychology. – Routledge, 2019. – С. 275-322.
6. Cabanac M. What is emotion? //Behavioural processes. – 2002. – Т. 60. – №. 2. – С. 69-83.
7. Izard C. E. Patterns of emotions: A new analysis of anxiety and depression. – Academic Press, 2013. – С. 96.
8. Данилова Н.Н., Крылова А.Л. Физиология высшей нервной деятельности: Учебник. М.: Учебная литература, 1997. – С. 203.
9. Parkinson B. Ideas and realities of emotion. – Routledge, 2006. – P.113.
10. Edwards D. Emotion discourse //Culture & psychology. – 1999. – Т. 5. – №. 3. – С. 271-291.



UDK: 601(12.3)

*Malikaxon XOJAYEVA,
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi*

Pedagogika fanlari nomzodi S.Aliqulov taqrizi asosida

BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARIDA TARJIMA MATERIALLAR BILAN ISHGLASHDA «FAKT-CHEKING» KO'NIKALARINI RIVOJLANISH MODELII

Аннотация

Maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida tarjima materiallar bilan ishglashda «fakt-cheking» ko'nikmalarini rivojlanish modelini mazmun-mohiyati ochib berilgan. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida rivojlantirish talab etilayotgan tahliliy va tanqidiy tafakkur murakkab fikrlash uslubi bo'lib, uning shakllanishi axborotni passiv qabullashdan boshlab muayyan muammolar yechimiga mustaqil kelishga qadar turli bosqichlarni bosib o'tadi.

Kalit so'zlar: Fakt-Cheking, tarjima material, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari, tafakkurning egiluvchanligi, prognoz, bashorat.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ «ФАКТ-ЧЕКИНГ» В РАБОТЕ С ПЕРЕВОДНЫМИ МАТЕРИАЛАМИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье раскрывается сущность модели развития «фактчекинг» навыков будущих учителей иностранных языков при работе с переводческими материалами. Аналитико-критическое мышление, которое необходимо развивать у будущих изучающих иностранный язык, представляет собой сложный образ мышления, и его формирование проходит различные этапы, начиная от пассивного восприятия информации и заканчивая самостоятельным решением определенных задач.

Ключевые слова: Факт-Чекинг, переводной материал, будущие учителя иностранных языков, гибкость мышления, предсказание, предсказание.

SKILL DEVELOPMENT MODEL "FACT-CHECKING" IN WORKING WITH TRANSLATED MATERIALS IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation

The article reveals the essence of the model for the development of "fact-checking" skills of future teachers of foreign languages when working with translation materials. Analytical-critical thinking, which needs to be developed in future learners of a foreign language, is a complex way of thinking, and its formation goes through various stages, ranging from passive perception of information to the independent solution of certain problems.

Key words: Fact-checking, translation material, future teachers of foreign languages, flexibility of thinking, prediction, prediction.

Kirish. Markaziy Osiyo davlatlari uchun tayyorlanayotgan axborotlarni aksariyati bu hududda yashayotganlar dunyoqarashiga psixologik ta'sir etishni maqsad qilgan mafkuraviy markazlar tamonidan moliyalashtirilmoqda. Ularni maqsadi, mustaqil davlatlar tanlagan yo'lning noto'g'ri ekanligini singdirishga qaratilgan, ularni oxir oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga asosiy e'tibor berilganligidan bilishimiz mumkinki, bularni barchasi millat ruhini tushirish, uni tanlagan yo'lidan qaytarish va homiy axtarishga majbur etish amalga oshirilayotir. Zamonaviy dunyoda "o'zga hududlarni zabt etish uchun, ularning aholisini qirish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari ma'qul yo'nalishga o'zgartirilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy rusurlarga egalik qilish mumkin bo'lib bormoqda". Agar bunda milliy media o'zlik qilsa, axborot maydonidagi iqlimni boshqalar belgilaydigan holga tushadigan bo'lsak, axborot urushida yengilib qolamiz, bu guyoki "erkinlik", "demokratiyani olg'a siljitish" qabilidagi safsata bilan yurtimizga ta'sir etishni mo'ljallayotgan kuchlar uchun ayni muddao bo'ladi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmasligini barchamiz bilamiz[4].

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida rivojlantirish talab etilayotgan tahliliy va tanqidiy tafakkur murakkab fikrlash uslubi bo'lib, uning shakllanishi axborotni passiv qabullashdan boshlab muayyan muammolar yechimiga mustaqil kelishga qadar turli bosqichlarni bosib o'tadi. Kuchli bilimga

ega bo'lgan talabalarda tahliliy va tanqidiy tafakkur yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Demak, biz o'z talabalarimizni yuksak tahliliy va tanqidiy tafakkurga ega mutaxassislar sifatida tarbiyalay olishimiz uchun unda avvalo tanqidiy fikrlash qobiliyatini uyg'otish va rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishimiz kerak. Bunda pedagogning ma'ruzalardagi tanqidiy ruh, tafakkur tarzi eng muhim va zaruriy shart-sharoit, zamin, asos bo'lib hizmat qiladi. Lekin tahliliy va tanqidiy tafakkur muayyan bosqichlarni bosib o'tadigan murakkab nazariy va didaktik jarayon bo'lgani uchun pedagogdan muayyan metodik tayyorgalikni taqozo etadi. Pedagogik jarayonda tahliliy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish asosan quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

tahliliy va tanqidiy tafakkur uchun shart-sharoit, zamin yaratish.

Tanqidiy va tahliliy fikrlashga taklif etish. materialni tanqidiy anglab yetish.

Asosiy qism. Bugungi kun ta'lim tahliliy va tanqidiy tafakkurga urg'u berish orqali bo'lajak kadrlarda quyidagilarni rivojlantirishni maqsad qilmoqda:

Aqlning peshqadamligi belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatidir.

Prognoz, bashorat qila olish esa o'z sohasi rivojidadagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash hisoblanadi[5].

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida "fakt-cheking" ko'nikmalarini rivojlantirishda tafakkur tarzini o'zgarishi va fikrlashda ma'lum bir uslublarning shakllanish jarayonini o'rganish, tafakkur uslublarining ahamiyatli jihatlarini o'rganish va o'rgatish ham samarador hisoblanadi. Xususan, sofistik tafakkur uslubini o'rganish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Sofistik tafakkur ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi «sopism» so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo'llanilganda fikrning mazmuni ko'chma ma'noda bayon qilinadi, ya'ni «Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» deganga o'xshash holat tutiladi. Keyinchalik esa bu so'z asta-sekin boshqacha mazmun kasb eta boshladi: notiqlik va donishmandlikda nom chiqargan mutafakkirlarni sofistlar deb atay boshladilar. Undan keyingi davrlarda esa so'z bilan kishilarning boshini qotirish usullarini ustalik bilan qo'llab, ularni chalg'itadigan odamga nisbatan ham sofist iborasi qo'llangan. «Hozirgacha ham «sofistlar», tushunchasi ana shu, eng oxirgi ma'noda qo'llanib va tushunilib kelmoqda. So'nggi ma'noda sofistlar so'z va iboralarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish va to'qnashtirish yo'li bilan, ularning sirli ma'nosi va ahamiyatini ochish orqali haqiqatni bilish mumkin, deb tushunar edilar. Sofistik tafakkurda bir xil tushunchalar, so'zlar, iboralarning boshqalari bilan shaklan bog'lanishi birinchi o'ringa o'tadi. Bu aslida ma'nosiz so'z o'yinidan boshqa narsa emas. Sofistik tafakkur obyektiv asosga ega bo'lgan so'zlar, tushunchalar bilan qiziqmaydi». Shuning uchun ham sofistika so'zlar doirasiga o'ralib qoladi[2].

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari uchun axborotlarni chuqur tahlil qilishda samarali bo'lgan boshqa bir tafakkur uslubu eklektik tafakkur tarzi hisoblanadi. Eklektik tafakkur muhim va nomuhim bo'lgan, asosiy va ikkinchi darajali bog'lanishlar o'rtasidagi farqni unchalik hisobga olmaydigan, narsalarning turli-tuman, ko'pincha qarama-qarshi tomonlariga nisbatan nuqtai-nazari ko'proq noaniq tamoyillarga asoslanadigan uslubdir. Eklektika narsa va hodisalarning turli tomonlari va xossalarni mexanik ravishda birlashtiradi va ularga «bir tomondan» yoxud «ikkinchi tomondan» degan noaniqroq xulosalar chiqarish prinsipiga amal qiladi. Olamdagi, narsa va hodisalarning munosabatlari majmuidagi konkret-tarixiy aloqadorlik, real harakat, o'zgarish va rivojlanish jarayonidagi asosiy hal qiluvchi jihatlarini ajrata bilmaslik eklektik tafakkurning asosiy metodologik nuqsone deb hisoblanadi.

Shuningdek, axborotlarga tanqidiy va tahliliy munosabatda bo'lishda mantiqiy tafakkur yuritish uslubining ham o'zni yuqori hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash usuli - mantiq qonun-qoidalari asosida hosil qilinadigan bilim, ya'ni mantiqiy tafakkur mohiyat e'tibori bilan subyektiv, noto'g'ri talqinni istisno etadigan, obyektiv aloqadorlik asosida bir fikrdan ikkinchi fikrga o'tishda, ya'ni to'g'ri fikrlashga asoslangan tafakkurga asoslanadi. Mantiq muhokama jarayonida fikrlarimizdagi hal qiluvchi aloqadorlik qonunlarini tahlil qiladi, ularga ko'ra haqiqatni hosil qilish uchun asoslanishimiz lozim bo'lgan qonun-qoidalarni shakllantiradi. Bu borada ushbu qonun-qoidalar asosida to'g'ri fikrlash mantiqiy haqiqat hosil qilishning zaruriy shartidir. Shu ma'noda mantiqiy tafakkurni o'rganish va uning qonun-qoidalarga qat'iy rioya qilish inson tafakkuri, bilimi va analitik tafakkurini rivojlantirishning zaruriy omili hisoblanadi. Uni bilish muhokamada aniqlik, xulosa va mulohazalarda haqiqatga erishish imkoniyatini beradi[1].

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida global internet vositasidagi ta'limda "fakt-cheking" ko'nikmalarini rivojlantirishda axborotlarni dialektik tahlil qilish uslubi ham samaradorligi yuqori hisoblanadi. Pedagogik jarayonda tafakkur uslublarini mushtarak holda qo'llashga o'rgatish muhim hisoblanadi. Bu borada dialektik tafakkur uslubining ham o'zni beqiyos sanaladi. Dialektik tafakkur usulining muhim prinsiplaridan biri narsalarni ularning tabiiy harakati va rivojlanishi jarayonida xolisona va ilmiy tahlil qilishdir. Bu usulning ilmiy bilish borasidagi asosiy talablari quyidagilarda ko'rinadi: birinchidan, axborot olishda hamma tomon va bog'lanishlarni, shuningdek, uning boshqa narsalar va hodisalar bilan o'zaro munosabatlarini hisobga olish zarur. Bu abstrakt talab emas, balki real voqeelikdagi narsalar bir-biridan ajralgan, alohida holda bo'lmasdan, balki bir-biri bilan mustahkam o'zaro bog'lanishlarda mavjud bo'ladi va bir-birini taqozo qiladi. Shuning uchun narsalar mantig'ining in'ikosi bo'lgan inson tafakkuri mantig'i ham olamdagi narsa va hodisalarni butun tashqi olam bilan birga jonli va turli-tuman aloqasini to'la-to'kis qamrab olishi, uni to'g'ri aks ettirishi lozim.

Navbatdagi zarur ko'nikma – "feyk"larni aniqlashga o'rganishdir. Bu bir qarashda oson ish emas. "Feyk"ni faqat yasama, deb tushunishdan saqla-nish kerak. Bu balki beparvolik tufayli matbaa va texnik xatolar ham bo'lishi mumkin. Shu bois tilga olingan odamlarning ismi, kasbi va unvon yozishda tekshirish, muddat, nom, manzillarni solishtirish juda muhim. "Feyk" aniq bir maqsadga qaratilgan harakat ham bo'lishi va ommaning ko'ngilochar tomoshasiga xizmat qilishi mumkin. Biz ochiq videoprancer-lar yoki ijtimoiy tajribalarni ko'rib chiqmaymiz. Biroq psevdoyangilik va kvazijurnalist loyihalar fenomeni juda qiziq.

Mokyumentari formatida qozog'istonlik jurnalist Borat Sagdiyev-ning obrazini yaratgan amerikalik komik aktyor Sasha Baron Koen ishlay-di. To'liqmetrajli film va ko'pgina qisqa syujetlarda ushbu personaj-lar mavjud. Sasha Baron Koenning Bruno ismli feshn-jurnalist obrazi ham bor. Rossiyada Andrey Loshak tomonidan "Rossiya. Polnoye zatmeniyе" muvaffaqiyatli mokyumentari-loyiha amalga oshirilgan.

Psevdoyangiliklarni ishlab chiqaruvchi loyihalar mashhur. Ulardan ayrimlari, masalan, proyekt Onion ko'ngilochar medialar sifatida ochiq ishlaydi. Boshqalari o'zini "jiddiy" nashriyot sifatida ko'rsatadi. Ma-salan, World News Daily Report saytidagi Merilin Monroning qotili to-pilgani to'g'risidagi yangilikni ko'pgina media chop etgan. TJournal "feyk" yangiliklarning doimiy obzori bilan shug'ullanadi – materiallar bilan feyloAV va feyklar orqali tanishish mumkin.

Hissiyotlar – faktchekerning xavfli dushmani (biroq jurnalistning eng yaxshi do'sti hamdir). Ko'p hollarda bizning ishimizda umumiy kay-fiyat hukmronlik qiladi. Ayrim medialar mamnuniyat bilan faktoidlar chiqarishadi, ular auditoriya orasida mashhur. Hissiyotlar bilan birga be-parvolik, jahonni olamshumul yangilik bilan tezroq va birinchilardan bo'lib boxabar yetkazish turadi.

Professionalarning maslahat berishlaricha, tezkor va tekshirilma-gan xabarlarini ularning ishonarli emasligini ta'kidlagan holda ijti-moiy tarmoqlarda joylashtirish lozim. Bu esa ma'lumotni aniqlashti-rish va tekshirish imkonini beradi. Ko'pincha odamlar hali vaziyatni bilmay turib, jazavaga tushadilar. Yaqinda Shvetsiyaning mudofaa vazirligi OAVda chop etilgan ma'lumot-larga, aniq ko'rinmagan fotosuratga tayangan ravishda mamlakat qirg'og'i yaqinida Rossiyaning suvosti kemasini izlagan edi. Oqibatda hech narsa topilmagan va vazirlik sarf-harajatlar uchun soliq to'lovchilardan uzr so'rashga majbur bo'lgandi.

Lekin shvedlar uchun suvosti kemasi mavzusi o'z-o'zidan dolzarb aha-miyat kasb etgani yo'q. O'tgan asrning

80-yillarida Shvetsiyaning harbiy dengiz bazasi yaqinida haqiqatdan ham SHO'rolar suvosti kemasi halokatga uchragan edi. O'shandan beri Rossiya suvosti kemasi mavzusiga qo'rqinch bi-lan qaraladi.

O'tmishda qolgan qo'rquv "shov-shuvli" xabar haqiqatga aylantiril-moqda. Bu media va siyosatchilarga qo'l kelishi mumkin. Oqibatda jamiyat navbatdagi asabbuzarlik holatiga duch kelib, o'ziga taalluqli bo'lgan mu-ammolardan chalg'itayapti. Ba'zan be'mani yangiliklar haqiqatga aylanadi. Ajablanarlisi shun-daki, yangilik haqiqatdan ham ishonchliroq chiqadi. Bu janrda, masalan, Breaking Mad loyihasi ishlaydi. Ayrim yangiliklarga tanqid bilan qa-raydigan odam ham ishonadi-qo'yadi.

Aslida har bir faktning kamida 2-3ta manbadan tekshirish lozim. Biroq aynan ijtimoiy tarmoqlar bir vaqtning o'zida jurnalistlar va tahririyatning ishini ham osonlashtiradi va ham murakkablashtiradi. Faktcheking jarayonida ma'lumot va manbani ajratish zarur. Aniqrog'i unisini ham, bunisini ham tekshirish kerak. Har doim Internet va ijti-moiy tarmoqlar sharofati bilan insonning faoliyati haqida ma'lumot olish, qarindoshlar va do'stlar bilan aloqa o'rnatish, hamkasblar va tani-shlar o'rtasida so'roq o'tkazish mumkin. Butunjahon muharrirlar (WAN IFRA tarkibidagi SFN) forumi - "Trends in NewsRooms - 2014" ning ma'ruzasida ijtimoiy media orqali ma'lumotning verifikatsiyasi asosiy trendlar o'nligiga kiritilgan. Shunday qilib, "The New York Times" gazetasi muharriri Margaret Sallivan Storyful tipidagi servisdan foydalangan holda Twitterni mo-nitoring qilishni tavsiya etadi. Boshqa tahririyatlar yangilikning chop etilishi ijtimoiy tarmoqlarda bahs va muhokamaga sabab bo'lga taqdir-da "ochiq tekshiruv" usulini amaliyotga tadbiiq etadi. Bu esa faktlarning ishonchligini ta'minlaydi.

"Tavakkalchilik ijtimoiy tarmoqlarda qalbaki sahifalarni juda ham oson yaratilishi bilan izohlanmoqda. Aynan bunday akkauntlar yolg'on ma'lumotlar oqimining ko'payishiga sabab bo'ladi. Yaxshi niyatdagi odamlarda ham anglashilmovchilik yuz berib, ba'zan ular faktlarni taqdim etishda noaniqliklarga duch kelishmoqda. <...> Ijtimoiy tarmoqlardan olingan kontentni sifatli tekshira olmaslik auditoriya ishonchini oqlashni xavf ostiga qo'yyapti", - deya SFN ekspertlari ogohlantirishmoqda.

So'nggi paytlarda turli platformalar uchun ma'lumotlarni tekshirish sifatining turli standartlari konsepsiyasi ommalashib bormoqda. "Biz Facebookdagi sahifamizga tekshiril-magan yangilikni joylashtirishimiz mumkin, biroq biz barcha ma'lumotlar o'z tasdig'ini topmaguniga qadar ma-terialni chop etilishiga ruxsat bermaymiz", - deb ma'lum qiladi medi-aekspertlardan biri SFN. Har qanday holatda ham faktcheking - bu mustahkam qoidalarga amal qiladigan ma'lumot emas. Bu birinchi navbatda fakt chekerning mas'uli-yat, manfaat-

dorlik va befarqligi emasligi, medialandshaftni tushunish plyus texnologiya va servislarni tushunish demakdir.

Toffler o'zining "Uchinchi to'lqin" kito-bida bashorat qilgani-dek, endilikda axborot postindustrial jami-yatning bitmas-tuganmas xom ashyosiga aylandi. Ax-borot qadriyatga aylana-digan zamonda bosma va elektron OAV (hatto eng zo'rlari ham) jamiyatda-gi mavjud bo'lgan butun axborot yukini ko'tara olmay qoladi. Shu tufayli, bunday OAV o'z o'rni-ni "uchinchi to'lqin" tamaddunida maksimal darajadagi xilma-xillikni ta'minlay oladigan va hatto shaxsiy so'rovlariga ham javob bera oladigan interaktiv va ommaviy bo'lmagan vositalarga bo'shatishga majbur bo'la-di, deydi futurolog o'z bashoratida. Bosma nashrlarning bugungi kundagi ahvoli (ayniqsa, majburiy obuna bekor bo'lgandan so'ng), TV o'z auditori-yasini saqlab qolish uchun tok-shou va realiti shoularga zo'r berayotgani, radioga bo'lgan ehtiyojning keskin tushib ketishi (yangi gadjetlar radio ilovasisiz chiqarilmoqda) va o'rmini podkastlarga (muayyan mavzuga bag'i-shlangan audioyozuv, musiqalar tasmasi) deyarli bo'shatib bergani Toffler-ning bashorati asosli ekanligini ko'rsatmoqda[7].

Zamonaviy tendensiyalar, kommunikatsiya vositalari mavzusiga bag'i-shlangan maqolalarning deyarli barchasida XXI asrni "axborot asri" deb atalgan jumlagacha duch kelish mumkin. Tofflerning postindustrial jamiyat nazariyasida axborot qadriyatdan tovarga aylanarkan, uning sifati ham ta-lab darajasida o'zgarishi tabiiy holligi ta'kidlanadi. Xalqaro ekspert-larining axborot resurslari borgan sari "feyk" xabar-larga to'lib bora-yotgani va insoniyat yangi davr - haqiqatdan keyingi (postpravda-post-truth) davrga o'tayotgani xususidagi xavotirlari o'zini oqladi. Oksford lug'atiga ko'ra, "post-haqiqat" iborasi 2016 yil atamasi sifatida e'tirof etildi[6].

Xulosa. Uslubni tanlash malakasi tarjima bilan shug'ullanishdan oldin egallashi lozim bo'lgan tajriba bilan keladi. Tarjimon buyurtmachilar va mahsulotlarning yakuniy foydalanuvchilari bilan tajriba o'tkazmasligi lozim. Bugungi kunda e'tibor ko'proq sifatga emas, tarjimaning tezda bajarilishiga va soniga qaratilishi natijasida shartnoma band-larining noto'g'ri bayon etilishi uning buzilishiga va/yoki buyurtmachining ko'p zarar ko'rishiga olib kelishi kuzatil-moqda. Chet tillarini o'qitish sohasida "sotsiologiyistik yon-dashuv" dunyo tilshunos olimlari orasida keng tarqalgan. Ushbu yondashuv tilni obyektiv hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy voqelik deb ko'rib keladi. Demak, ushbu yondashuv doirasida chet tillarini o'qitish tilning ijtimoiy kontekstini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda e'tibor beriladigan jihatlar quyidagilar: 1) til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. Jumladan, qanday qilib ma'lum bir jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tilga, uni ishlatish qoidalarga ta'sir o'tkazishi o'rganiladi va shu tariqa o'rganuvchi tilning ma'lum bir jamiyatda amalda qanday ishlatilishini bilib oladi.

ADABIYOTLAR

1. Asqarova U.M. "The Role of Public and Education in the Formation of Changes in the Spirituality, Consciousness and Thinking of Students." American Journal of Social and Humanitarian Research 3.6 (2022): 255-261.
2. Ismoilov T.I. "Teacher Department of «Social Disciplines» Namangan Engineering Construction Institute Uzbekistan, Namangan city human factor in the spiritual development process." Teacher academician lyceum at Tashkent Pediatric Medical Institute Uzbekistan, Tashkent city Artistic performance of the creativity of russian 42 (2018).
3. Askarova U.M., and G. Abdurakhimova. "Development of speech competence in preschoolers in the process of educational activity through an innovative approach." вестник магистратуры (2022): 87.
4. Askarova U.M., and N. Rakhmanova. "Formation of students'critical thinking competencies based on a creative approach." вестник магистратуры (2022): 94.
5. Asqarova O'.M., M. Xayitboyev, and M. S. Nishonov. "Pedagogika." Toshkent:(Talqin) (2008).
6. Asqarova O'. "Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi." T.: Fan (2010).
7. Аскарова У.М. "Формирование духовно-нравственных качеств воспитанников" домов-милосердия." Булатовские чтения 7 (2020): 112-114.



Muminjon XUJAYEV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi, PhD
E-mail: mumin_81@mail.ru

O'zXIA dotsenti c.f.d. F.Karimov taqrizi asosida

ASRLARNI OSHIB O'TGAN TAFAKKUR SOHIBI

Annotatsiya

Sharq mutafakkiri – Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Sharq tafakkur olamining o'ziga xos yo'nalishini ochib berdi, insoniyat tarixi, taraqqiyoti va tanazzuliga oid mavjud g'oyalarga oydinlik kiritdi. Turli qarama-qarshi qarashlarni o'rganib, o'z qarashlarini o'zgartirib, boyitib bordi. Aniqrog'i, Xorazmiy inson evolyutsiyasini, xalqlarning rivojlanish bosqichlarini, tarixiy voqealarni, tabiat hodisalarini o'rganish maktabini yaratdi.

Kalit so'zlar: Falsafa, tafakkur, matematika, davr, tadqiqot, tarix.

A MASTER OF THOUGHT THAT SUPERVISED THE AGE

Annotation

The Eastern Thinker – Muhammad ibn Muso al-Xorazmi Revealed The Eastern World Of Thought's Specific Direction And Clarified The Existing Ideas Surrounding Humankind's History, Development, And Decline. He Studied Different Contradictory Views And Changed His Views By Enriching Them. More Precisely, Beruni Created A School Of Study Of The Universe, Human Evolution, The Stages Of The Development Of Peoples, Historical Events, Natural Phenomena.

Key words: Philosophy, matematiks, Thought, Essence, Period, Research, History.

МАСТЕР МЫСЛИ ПРЕВОСХОДИВШИЙ ВЕКА

Аннотация

Восточный мыслитель – Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразми раскрыл специфическую направленность восточного мира мысли и прояснил существующие представления об истории, развитии и упадке человечества. Он изучил различные противоречивые взгляды и изменил свои взгляды, обогащая их. Точнее, Беруни создал школу изучения Вселенной, эволюции человека, этапов развития народов, исторических событий, явлений природы.

Ключевые слова: Философия, мысль, сущность, период, исследование, история.

Kirish. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) o'z davri, qolaversa, hozirgi davr fani uchun xam ulkan ahamiyatga molik kashfiyotlar qilgan allomadir.

Allomaning yoshlik chog'lari qanday o'tgani haqida ko'p ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Lekin taqdirning baxtli yulduzlaridan biri uning tavalludiga homiylik qilgan, desak, mubolag'a bo'lmas. Chunki, u yashagan davr g'oyat murakab edi.

O'tkir zehni, chuqur va qamrovli bilimi, teran tafakkuri bilan o'z davrida mashhur bo'lgan yosh olim podshohning o'g'li Ma'mun nazariga to'shadi. Shu hodisa uning taqdir yo'lini keskin o'zgartirib yuboradi. Shahzoda Ma'mun hamisha o'z atrofiga olimu donishmandlarni to'plashga harakat qilar edi. Shu boisdan Xorazmiy kabi allomaning saroy qoshida bo'lishi u uchun katta yutuq edi. Buyuk davlat qurish orzusidagi shahzoda va ezgu orzulari shahzodanikidan ham yuksakroq bo'lgan olimning do'stligi tarix uchun ajoyib "meva"lar berdi.

Otasi Xorun ar-Rashid vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Ma'mun ozgina muddat Marvni xalifalik poytaxti deb e'lon qiladi. Bunga shahar va uning atrofining obodligi, boy-badavlatligi, mintaqa axolisining madaniy darajasi arablar va otashparastlarga nisbatan ancha baland bo'lgani sabab edi.

Biroq hukmdorning Bag'doddan uzoqdaligi sabab saltanat hududida tez-tez isyonlar yuz bera boshlaydi. Qolaversa, muqaddas islom dinini ich-ichidan buzishni niyat qilgan ba'zi oqim namoyandalari Bag'dodda katta kuchga aylanib borayotgan edi. Shu siyosiy sabablar Ma'munni poytaxtni yana Bag'dodga ko'chirishga majbur qiladi. Tabiiyki, yosh alloma ham uning ortidan Bag'dodga yo'l

oladi. Shu yerda uning beqiyos ilmiy izlanishlari amalga oshadi.

Xorazmiy algebra fanining asoschisi hisoblanadi. «Algebra» so'zi esa uning «Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» nomli risolasidan olingan. Hind raqamlariga asoslangan «Arifmetika» risolasi hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik hisoblash tizimi va shu tizimdagi amallarning butun dunyoda tarqalishiga sabab bo'ldi. Al-Xorazmiy nomi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy qoldi. Uning jug'rofiyaga doir risolasi esa arab tilida unlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratgan. Xorazmiyning yulduzlar katalogi - «Zij»i Yevropada ham, Sharq mamlakatlari ham astronomiya rivojiga muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy To'g'on o'zining Xorazmiy ilmiy merosiga oid tadqiqotlarida Qadimgi arab geograflari (Al-Battaniy, Al-Xorazmiy va Zuhra)ning ayniqsa Qadimgi dunyo chegara hududlari (rayonlar) bo'lgan (Afrika, Janubiy-Sharqiy va Shimoliy Osiyo) haqidagi asarlari ham ularning grekcha namunalariga bog'liq bo'lgan [1], degan xulosaga keladi.

Alloma yoshlik chog'larida o'qigan xuddi shu ilmlarga doir kitoblar Xorazmda bo'lgan. Ayni mana shu sabab tufayli ham hukmdor Ma'mun o'zi asos solgan ilm o'chog'i boshqaruvini aynan Movarounnahrlik olimlar guruhiga ishonib topshirgan. Xususan, «Baytulhikma» qoshida faoliyat ko'rsatgan, 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va Damashq yaqinidagi Kasiyun togida 831-yilda barpo etilgan ikkita yirik rasadxonaning biriga al-Xorazmiy, ikkinchisiga Farg'oniy bosh bo'lib, ilmiy tadqiqot olib borishgan. Chunonchi, Xorazmiyning ash-Shammosiya

mahallasidagi rasadxonani 831-yildan to vafotiga qadar boshqargani ilm ahliga yaxshi ma'lum. Aytmoqchimizki, vorisiylik tamoyiliga ko'ra, al-Xorazmiy o'zidan avval o'tgan turonzamin olimlari tafakkuri xazinasini shuurida jo qilgan, ajoyib ilmiy muhitda toblangan donishmand xalqning farzandi edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Allomaning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma'lum. Ammo u XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universitetida kutubxonasida saqlanadi. Risola «Dik- sit Algorizmi», ya'ni «Al-Xorazmiy aytdi» iborasi bilan boshlanadi.

Bu asarda Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik sanoq tizimida sonlar yozilishini bayon qilib beradi. U bunday yozilishdagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilish, sonlarning martaba-darajasini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmastlikni uqtiradi. Aks holda, natija xato chiqadi degan xulosani beradi.

Tahlil va natijalar. Xorazmiyning «Arifmetika» risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik sanoq tizimining Yevropada, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Yevropaga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi bois hozir ham «arab raqamlari» deb ataladi. Hozirgi kungacha «algorizm» yoki «algoritim» deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi.

Xorazmiyning algebraga oid risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo'lim - savdo muomalasi haqidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usul qo'llanib o'lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Olim uni alohida nom bilan «Vasiyatlar kitobi» deb atagan. Muallif o'z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmuni butunlay so'z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Ushbu kitob 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, «tufon», «iskandar», «safar» va xristian yillaridagi sanalarni hijriy yillarga ko'chirish qoidalari keltiriladi. 6-bobda aylana - 12 burjga, burj - 30 darajaga, daraja - 60 daqiqaga, daqiqa - 60 soniyaga va hokazo mayda bo'laklarga bo'linishi bayon etiladi. 7-22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan. Bu boblarda olim qadimgi va ilk o'rta asr hind astronomik ma'lumotlaridan, eron va yunon ma'lumotlaridan mohirona foydalangan holda Ptolemeyning geomarkaz sistemasiga asoslanib, sayyoralar harakatini bayon etgan. 23-bob trigonometriyaga bag'ishlangan, unda alloma «tekis» va «akslangan sinus» tushunchalarini kiritadi va bu funksiyalar jadvalarini keltiradi. 25-27- boblar matematik geografiyaga bag'ishlangan. Bu yerda geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiriladi va bu koordinatlarining o'zgarishi quyoshning yillik, kecha-kunduzlik harakatida ekliptik, ekvatorial koordinatlarining o'zgarishi bilan bog'liqligi tushuntiriladi.

Xorazmiy «Zij»i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o'ziga jalb etdi. Unga olimning zamondoshlaridan Farg'oniy, al-Hoshimiy va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu «Zij»ni sharhlashga uchta asarini bag'ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007-yili ko'chirilgan nusxasi diqqatga sazovordir. Bu nusxani 1126-yili Adelyard Bat Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi. Xorazmiy «Zij»i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to'rt qo'lyozma nusxasi asosida 1914-yili X.Zuter «Zij»ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida O.Neygubauer esa 1962-yili uning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida

«Zij»ning to'la ruscha va qisman o'zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi.

Xorazmiy o'z «Zij»ida boshlang'ich meridian sifatida, hind an'anasiga ko'ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujayn) shahridan o'tgan meridianni tanlagan [2]. Yevropada XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g'oyasining tarafdorlari bo'lganlar. Arin g'oyasiga ko'ra Ayyalik Pyotr (Fransiyadan) 1410-yili o'zining «Yer tasviri» nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487-yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o'ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko'ra, Arin g'oyasi unda yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o'xshash joy bo'lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Olim qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» - algebraik asar, «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» - arifmetik asar, «Kitob surat ul-arz» - geografiyaga oid asar, «Zij», «Usturlob bilan ishlash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar-ruxoma», «Kitob at-ta'rix», «Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola» asarlaridir. Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniy asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchta hali topilgan emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib, Xorazmiyning «Zij»i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo'ldi.

Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arab nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa obyektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan.

Xorazmiy geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta bayon qildi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. U yunon olimi Ptolemeydan farqli o'laroq mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki birinchi iqlimdan to yettinchi iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog'lar tavsiflanadi. Tog'larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Alloma Yaqin va O'rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog'larni ham u yerdagi shaharlar kabi batafsil bayon qiladi.

Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to'rtinchi bobida orollarning qirg'oqlari va ulardagi punktlarni, beshinchi bobda esa mamlakatlarni, oltinchi bobda daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Ulug' bobomizning «Kitob surat ul-arz» asari ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. Lekin asar shu paytgacha birorta hozirgi zamon tiliga to'la-tukis tarjima qilinmagan edi. Olimning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983-yili bu asarning o'zbekcha tarjimasini Xorazmiyning «Tanlangan asarlar»i tarkibida chop etildi.

Alloma asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g'arb va sharq tillariga tarjima qilingan. U o'z asarlari, xitrolari bilan nafaqat o'z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi.

U yunon olimi Ptolemeydan farqli ularoq mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki birinchi iqlimdan to yettinchi iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Zeki Velidi Togan. Der Islam und die geographische Wissenschaft // Hettners Geographische Zeitschrift. Heidelberg. 1934. Heft 10. S.361-372. Islam and the Science of Geography // Islamic Culture. Hyderabad. 1934. October. P.611-627.
2. Prof. Zeki Velidi Togan. Zentralasiatische türkische Literaturen. II: Die islamische Zeit // Hadbuch der Orientalistik. Leiden-Koln. 1963. Abteilung 1. bd.5. Abschnitt 1. S.229-249.
3. Хожаев М. The Religious-Philosophical Legacy Of Ahmed Zeki Velidiy. The Light of Islam 2019 (4), 122.
4. Xujaev M.I. Historical philosophy of Ahmed ZEKIVelidi. Scientific Bulletin of Namangan State University 1 (12), 126-132.
5. Хожаев М. The religious-philosophical legacy of Ahmed ZEKI Velidiy. The Light of Islam. 2019. p. 26.
6. Хужаев Муминжон Исохонович. Bashkir Turkish studies. EPRA International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 5, Issue:8, August 2020.
7. Xujaev M. Mahmudkhujja Behbudiy As A Leader Of Jadid Reforms. The Light of Islam. 2020. 3стр. 39-47.
8. Хужаев М.И. Некоторые особенности этических взглядов Ахмет-Заки Валидова. 2015. Credonew. 2-2. стр.3-3.
9. Хо‘жаев М.И. Ahmad Zaki Validiyning diniy-falsafiy merosining ildizlari. «Internauka» 2018. Tom.33. № 21(33). – S. 177-182.
10. Xujaev M.I. Ahmad Zeki Velidi’s Research on the Translations of the Koran. Miasto Przyszłości Kielce 2022. P. 6-8.
11. Xujaev M.I. Middle Ages Movarounnahr Rulers In The Views Of Researchers. European journal of innovation in nonformal education. 2. №16. P. 134-136.



Elbek XO'JAQULOV,

Qarshi davlat universiteti Tasviriy san'at va munandislik grafikasi kafedrasida tadqiqotchisi

E-mail: xojaqulovelbek2020@mail.ru

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti, PhD E.M. Murtazayev taqrizi asosida

MODERN METHODS OF FORMING SPATIAL IMAGINATION IN TEACHING DRAWING SCIENCE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation

The article will talk about improving the quality of education by applying modern computer technologies to the process of forming spatial imagination when teaching drawing in general secondary schools. It was shown that with the help of Computer Technology, model elements are performed in the form of vivid images of individual geometric bodies, and then they are combined among themselves in the course of the lesson, the formation of a vivid image of which serves as an important factor in the formation of spatial imagination in students.

Key words: Drawing, graphic literacy, spatial imagination, electron information, graphic applications, axonometry, detail parts.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЧЕРЧЕНИЮ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В статье речь пойдет о повышении качества образования за счет применения современных компьютерных технологий в процессе формирования пространственного воображения при обучении черчению в общеобразовательных школах. Показано, что с помощью компьютерных технологий элементы модели выполняются в виде аксонометрических изображений отдельных геометрических тел, которые затем объединяются между собой в процессе урока, образуя наглядное ее изображение, что служит важным фактором формирования у учащихся пространственного воображения.

Ключевые слова: Черчение, графическая грамотность, пространственное воображение, электронная информация, графические редакторы, аксонометрия, части детали.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA FAZOVIIY TASAVVURNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIIY USULLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda fazoviy tasavvurni shakllantirish jarayoniga zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish haqida so'z boradi. Kompyuter texnologiyalari yordamida model elementlari alohida geometrik jismlarning yaqqol tasvirlari ko'rinishida bajarilib, so'ngra ular dars jarayonida o'zaro birlashtirilib, uning yaqqol tasviri hosil qilinishi o'quvchilarda fazoviy tasavvurni shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zi: Chizmachilik, grafik savodxonlik, fazoviy tasavvur, elektron axborotlar, grafik dasturlar, aksonometriya, detal qismlari.

Kirish. Yosh avlodni bugungi kundagi jahondagi o'zgarishlar va rivojlanishlarga mos qilib tarbiyalash dolzarb masalalaridan sanaladi. Maktabda ko'pgina fanlardan bilimlarni o'zlashtirish o'quvchida fazoviy tasavvurning qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Bolada fazoviy tasavvurning shakllanishi insoniyat tomonidan yig'ilgan bilimlarning tegishli qismini o'zlashtirish evaziga amalga oshiriladi. Odatda, o'quvchining har tomonlama mukammal bilimli bo'lishi unda fazoviy tasavvurning yuqori ekanligi bilan bevosita bog'liqligi qator olimlarning tadqiqotlari natijasida aniqlangan. O'quvchi tomonidan maktab ta'limi jarayonining barcha bosqichlarida umumta'lim va maxsus fanlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishining asosiy shartlaridan biri unda fazoviy tasavvurning yuqori bo'lishligidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'quvchilarda fazoviy tasavvurning shakllanishi va uning rivojlanishi masalalarini tadqiq qilish bilan chet ellik olimlardan Sherbakova V. Yu., Yakimanskiy I.S., Andryushina T.V., Pishkalo A.M., Yakimanskaya I.S. Kaplunovich I.Ya, Stoletnev V.S., Suntsova A.V.lar, mamlakatimiz olimlaridan esa Esbog'onova B, Xalimov M.K. [1], Ochilov F. E. Egamberdiyev M.F., Danilenko A.P. [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8], Aynaqulov X.A., Soatov Sh.A. va Abduraxmonov Z.B.lar [9]

shug'ullanishgan. Qator urinishlarga qaramasdan fazoviy tasavvurni shakllantirish va uni rivojlantirish masalasi oxirigacha o'z echimini topmasdan chizmachilik fanlarini o'qitishda muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Grafik savodxonlik, ya'ni chizmalarni chizish va ularni o'qish chizmachilikka oid bilimlarni to'liq egallash uchun dastlabki qo'yilgan qadamdir. Chizmani o'qish va chizishni bilishning asosi esa chizmalarni shartli ravishda bajarish qoidalarinin o'zlashtirish bilan bir vaqtda fazoviy tasavvurning shakllanganligidir. O'quvchilar tomonidan chizmachilik fanini mukammal o'zlashtirilishi o'quvchilarning tasavvur hamda tafakkur qilish qobiliyatining yetarli darajada shakllanganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. O'quvchilarning chizmachilik fani bo'yicha fazoviy tasavvurini rivojlantirish maqsadida dastlab ularga chizmalarni bajarishga doir grafik topshiriqlar, an'anaviy savollar va testlar beriladi va ular asosan detal elementlari sakli, ulardagi teshiklar va o'yiqlar mavjud ekanligini aniqlash, ularning o'lchamlari va bir-biriga nisbatan joylashuviga aloqador bo'ladi. Chizmachilik kursi o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'qitilib, bu davrga kelib avvalda o'zlashtirilgan ayrim fanlar hisobiga o'quvchilarda fazoviy tasavvur ma'lum darajada shakllanib ulgurgan bo'lib, yuqorida aytib

o'tilgan topshiriqlarni bajarish ularda katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bunday hollarda o'quvchining fazoviy tasavvurini yanada yaxshiroq rivojlantirish maqsadida murakkablik darajasi yuqoriroq bo'lgan, yangi, qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

Bevosita dars jarayonida o'tilayotgan mavzu bo'yicha chizmasi bajarilayotgan detal to'g'risidagi fazoviy tasavvur yuqori darajada bolishligini ta'minlash model aksonometrik tasvirini bajarish, uning maketini yasash orqali amalga oshirilishi mumkin. Lekin yuqorida sanab o'tilgan usullarning har ikkalasi ham o'qituvchidan ko'p vaqtni talab qilib, dars uchun ajratilgan vaqt chegaralangan va u juda ham qisqa. Shu nuqtai nazardan detalning elektron modelini zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib, tezkorlik bilan bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, an'anaviy usul bilan o'tilgan darsga nisbatan, elektron ma'lumotlardan foydalanib o'tilgan darslarda, aynan bir xil vaqt oralig'ida, ko'proq ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati yaratiladi.


Umuman, biror narsa-obyektни ko'rib, yoki u haqida eshitib uning tarkibiy qismlari to'g'risida ma'lumotlarni ketma-ket, alohida ongimizga singdirish yo'li bilan qabul qilamiz. Masalan, buyumning elementlari qanday geometrik jismlardan tashkil topganligi, ularning har birining shakli, eni, uzunligi va balandligi kabi ma'lumotlar orqali uning tasviri ongimizda namoyon bo'ladi va shundan keyin biz uni chizmasini bajaramiz.

Bunda yana bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan o'quv axborotlarini o'quvchilar sezgi organlari: ko'zlari va quloqlari yordamida qabul qiladi. Inson sezgi organlaridan biri bo'lgan quloqlar

15500 sezgir elementlar-retseptorlarga, ko'zlar esa 126000000 sezgir elementlarga, ya'ni quloqqa nisbatan 8000 marta ko'p elementlarga ega [10]. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, darslarni ko'rgazmali qurollar asosida, jumladan kompyuter texnologiyasi asosida mavzuga mos slaydlardan foydalanib o'tilganda o'quvchidarga ko'zlari vositasida ko'proq axborotlarni qabul qilish va ularni yaxshi o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.


Chizmachilik fani mavzulariga oid chizmalarni avvaldan tayyorlab, elektron ma'lumotlarni, slaydlarini yaratib va proyektor yordamida, katta ekranda o'quvchilarga namoyish etilsa, ular berilayotgan va namoyish etilayotgan ma'lumotlarni qiziqish bilan, tezda qabul qiladilar. Nafaqat chizmalarni, balki, dars ishlanmalari, testlar, uy ishlari, terminlar va ularning lug'aviy ma'nolari hamda interfaol metodlarning elektron slaydlarini ishlab chiqib, o'quvchilarga namoyish etish ham ta'lim mazmunini boyitadi, grafik ta'limning sifat va samaradorligi yuqori bo'lishligini ta'minlaydi.

Ayaylik maktab chizmachiligi kursi bo'yicha buyumning berilgan ikki proyeksiyasi (1-chizma) ga asosan uning aksonometrik proyeksiyasini bajarish talab etilgan bo'lsin. Topshiriqni bajarish uchun model haqida umumiy tasavvurga ega bolishimiz lozim bo'ladi. Model haqida umumiy fazoviy tasavvurni shakllantirish uchun uning qanday qismlardan tashkil topganligini o'rganib chiqamiz. Modelning berilgan chizmasini tahlil qilish natijasida uning, bo'yi va eni o'lchamlari 100*60 mm, balandligi esa 16 mm bo'lgan to'rt burchakli prizma asos va uning ustiga dagonali o'qlari asos simmetriya o'qlariga mos qilib o'rnatilgan, ichida radiusi 14mm




1-chizma. Topshiriq varianti

bo'lgan tsilindrik teshigi bo'lgan, tomonlari 42 mmlik kvadratdan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, asosning uzunligi bo'ylab o'tqazilgan o'q chizig'ida chuqurligi 10 mm eni esa 20 mm qilib har ikkala tomonidan o'yiqlik hosil qilingan (2-chizma).



2-chizma. Model alohida elementlari yaqqol tasviri.



3-chizma. Model yaqqol tasviri

Tahlil va natijalar. Modelning talab qilingan yaqqol tasvirini bajarishda o'quvchilar uni tezda tasavvur qilishda bir muncha qiyinchilikka duch kelishi mumkin, shu sababli aksanometriyani birinchi navbatda qismlarga ajratib olib o'quvchilarga tushintirilsa u to'g'risida fazoviy tasavvur hosil bo'lishi jarayoni osonlashadi. Modelning aksanometriyasini bo'laklarga ajratib chizmasini qo'lda bajarishda ortiqcha vaqt va jihozlar talab etiladi. Ish samaradorligini oshirish uchun hozirgi zamon kompyuter texnologiyalaridan, ya'ni kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikni bajarishni tavsiya qilamiz:

modelning qanday geometrik jismlardan tashkil topganligini tahlil qilib o'rganib chiqamiz;

modelning aksanometriyasini dastlab bo'laklarga ajratilgan holda, alohida geometrik jismlar ko'rinishida chizib olamiz (2-chizma);

ajratib chizib ko'rsatilgan model elementlarini birlashtirib, tegishli joylarga o'rnatib, uning yaqqol tasvirini hosil

qilamiz (3-chizma) va shu orqali o'quvchida detal to'g'risida to'laqonli fazoviy tasavvur hosil bo'lishiga erishamiz.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi izlanishlarga asoslanib quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

o'quvchilarda fazoviy tasavvurning to'laqonli shakllanganligi umumta'lim va maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi;

qator olimlar va tadqiqotchilarning izlanishlariga ko'ra o'quvchilarga bilimlarni etkazib berishning eng maqbul usuli ularga dars mazmunini ko'rgazmali materiallar shaklida taqdim etish ekanligi ta'kidlab o'tildi;

chizmachilik darslarida o'quvchilarning fazoviy tasavvurini shakllantirish va rivojlantirish uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llab, chizmasi bajarilishi talab qilingan detailning berilgan chizmasini tahlil qilib, elektron modelini alohida geometrik jismlar ko'rinishidagi yaqqol tasvirini bajarish, so'ngra ularni bir butun qilib birlashtirish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Есбоғанова Б., Халимов М.К. Чизмачилик фанидан талабаларнинг фанни ўзлаштирмастик сабаблари ва унинг олдини олиш омиллари // FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. - №4, 2018. – 58-62 бетлар.
2. Очилов Ф.Э., Хужакулов Э.Э. Формирование и развития пространственного воображения в школе на уроках черчения // “Zamonaviy arxitekturada chizma geometriya masalalarini qo'llash muammolari va yechimlari” nomli respublika ilmiy-amaliy konferentsiya. - Namangan: Namangan muhandislik qurilishi instituti bosmaxonasi, 2022. - С. 402-407.
3. Очилов Ф.Э., Эгамбердиев М. Ф. Макет яшаш технологияси ва уни ўргатиш методикаси чизмачилик таълими самарадорлигини оширувчи омил сифатида // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. - 2020. - №3. - С. 18-22.
4. Очилов Ф.Э., Эгамбердиев М. Ф. Талабаларнинг ижодий қобилиятларини ривожтириш психолого-педагогик муаммо сифатида // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. - 2020. - №6. - С. 19-24.
5. Очилов Ф.Э., Хўжакулов Э. Формирование и развитие пространственного воображения на уроках черчения как средства улучшающий качества образование в школе // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў, №3/3. 2022. Нюкис, 90-93 бетлар.
6. Ochilov Farkhod, Khuzhakulov Elbek, Odellierung als methode der bildung und entwicklung der räumlichen vorstellungskraft in der schule im zeichnungsunterricht // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866. Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. 507-511 pages/ <http://berlinstudies.de/>.
7. Очилов Ф.Э., Даниленко А. П., Эгамбердиев М.Ф. Методы и средства активизации творческого развития студентов // Материалы Международной научно-практической конференции «Художественное образование в условиях пандемии: проблемы и новые решения».. - Алматы: Кыздар университет баспасы, 2022. - С. 18-20.
8. Очилов Ф.Э., Даниленко А.П. Черчение. - 1 изд. - Белгород: «ПОЛИТЕРРА», 2022. - 227 с.
9. Айнакулов Х.А., Соатов Ш.А., Абдурахмонов З.Б. Талабалар фазовий тасаввурини шакллантиришнинг психологик ва педагогик ўзига хосликлари // Хотин-қизларнинг фан, таълим, маданият ва инновацион технологияларни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (2019-йил 17-18-май) 1 ТОМ. Жиззах-2019-йил. – 53-55 бетлар.
10. Каримова С. Чизмачилик фанини ўқитишда фхборот тухнология лари орқали самарадорликка эришиш // «Uzluksiz ta'lim tizimining chizma geometriya va muhandislik grafikasi yo'nalishida pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2015-yil 15-aprel. Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi. – 163-164 бетлар.



Gulnoza XUSHMATOVA,
O'zbekiston Milliy Universiteti tadqiqotchisi
E-mail: gulnozanorqulovna@mail.ru

TDSHU dotsenti. s.f.n., Sh.I.Shazamanov taqrizi asosida

THE PROBLEM OF SPIRITUAL AWAKENING AND MENTAL HEALTH IN YOUTH

Annotation

In this article, the author talks in detail about the need to raise the spiritual outlook of young people, improve their mental health, lead to perfection, and bring them out of an unhealthy environment into a healthy one.

Key words: Spiritual image of youth, perfect person, healthy and unhealthy environment, youth outlook, healthy thinking, healthy society, logical thinking.

ПРОБЛЕМА ДУХОВНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ И ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье автор подробно рассказывает о необходимости поднять духовное мировоззрение молодежи, оздоровить ее психическое здоровье, привести к совершенству, вывести из нездоровой среды в здоровую.

Ключевые слова: Духовный образ молодежи, совершенный человек, здоровая и нездоровая среда, молодежное мировоззрение, здоровое мышление, здоровое общество, логическое мышление.

YOSHLARDA MA'NAVIY UYG'OQLIK VA TAFAKKUR SOG'LOMLIGI MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, fakakkurini sog'lomlashtirish, komillik sari yetaklash, nosog'lom muxitdan sog'lom muxitga olib kirish kerakligi xaqida batafsil yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Yoshlar ma'naviy qiyofasi, komil inson, sog'lom va nosog'lom muhit, yoshlar dunyoqarashi, sog'lom tafakkur, sog'lom jamiyat, mantiqiy tafakkur.

Kirish. Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida mustaqil fikrga, bilimni, chuqur tafakkurga ega bo'lgan yangi avlodni tarbiyalab yetishtirishda ulkan yutuqlarga erishganligimizni fikrimiz boshida e'tirof etib o'tib ketishimiz kerak albatta. Murakkab tez o'zgaruvchan globallashtirilgan jahon sharoitida har qanday davlatning zamonaviy jamiyatga transformatsiyalanganlik darajasi ular tomonidan siyosiy, iqtisodiy, sotsiomadaniy voqealardagi yoshlarning o'ziga xos roli va mavqei anglanganligi bilan belgilanadi. Yoshlar muammolarini hal qilish sohasidagi samarador davlat siyosatini amalga oshirish hamda unda qo'llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirib borish nafaqat ijtimoiy barqarorlik balki, umuman davlat xavfsizligini kafolati hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida umumjahon standartlari va milliy-mintaqaviy xususiyatlarni o'zida uyg'un tarzda sintezlagan innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan samarador yoshlarga oid davlat siyosati modelini ishlab chiqishga bo'lgan zaruratni yanada kuchaytirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillikni mustahkamlash uni jaxonning eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, yetishib kelayotgan yosh avlodni mustaqillik talablari asosida barkamol etib tarbiyalash jamiyatning kelgusi rivojini taminlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki qaysi ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy, ma'naviy va ma'rifiy muammolarning yechimiga nazar tashlamaylik, albatta bu jarayon kadrlarning bilimi aql-zakovati, o'z sohasi bo'yicha bilimdonligi, ishbilarmonlik darajasi bilan bog'liqligini ko'ramiz. Shuning uchun ham asosiy e'tiborni shakllanib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga qaratish shu kunning eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaz vazifalaridan biri ekanligini anglashimiz lozim. Ma'naviy jihatdan rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'unlikni g'oyasini ro'yobga chiqaradigan

yangi avlodni voyaga yetkazish zarur. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning dunyoqarashini boyitish maqsadida beshita tashabbus bugun hayotimizga tadbiiq qilinmoqda. Ushbu besh tashabbus mamlakatimizda yashayotgan barcha aholi, jumladan, yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda dasturil amal bo'lib hizmat qiladi. Har qanday mushkulot va taxdidlarni ilm, ma'rifat, mutolaa, shijoat, jismoniy baquvvatlik, sabr-bardosh bilan yengish mumkin, degan qat'iyatni yoshlarimizning ongiga singdiradi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Shu kunlarda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlarning salohiyatlari nafaqat bizlarni, balki xorij mutaxassislarini ham hayratga solmoqda. Yoshlarga yaratilayotgan o'qish sharoitlari, ta'limni texnologiyalashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rinli qo'llash uchun to'liq sharoitlar yaratilgan bo'lib, yoshlarga ustozlari talablariga qunt bilan quloq solib, ortiqcha hayuxavaslariga berilmasdan bilim olish, kitob mutoalasiga qaytish, o'z ustida mustaqil ishlab, o'zlarida erkin tafakkur talablarini shakllantirishgina qoladi.

Yangi asrda amalga oshirish lozim va shart bo'lgan eng muxim masalalardan biri yoshlarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdir. Yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ta'lim muassasalarini badiiy, ma'rifiy, ilmiy ommabop va tarbiyaviy adabiyotlar bilan taminlashni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor bermok lozim.

Demak mutolaa madaniyatining muhim tarkibiy jihati shundaki ixtiyoriylik, ta'lim olish, o'qib o'rganishdagi anglash, faoliyatini erkin tanlash, takomillashuvga bo'lgan ongli rag'bat, ichki da'vat tamoyillari bo'lib, ular inson rivojlanishi uchun o'ziga xos harakatlantiruvchi omillar sanaladi.

Ma'lumki, kitobxonlik faqat ko'p o'qish bilangina belgilanmaydi. Unda avvalo o'qigan kitoblari vositasida ezgu xarakter, ezgu xulq-odob, sog'lom dunyoqarash, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik shakllangandagina amalga oshadi. Yoshlarga yaxshi, zarur foydali axborotni, kitobni ajratib berishda tajribali murabbiylar, o'qituvchilar va adabiyotshunoslar ko'magiga ehtiyoj katta. Kitobxonlarni ayniqsa, yosh kitobxonlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish uchun malakali maslahatlar, tavsiyalar zarur. O'quvchilarni mutolaa-ga yo'llashni rivojlantirish-bu mutolaa sohasida shaxsning eng yaqindagi va istiqboldagi rivojlanishi va o'z o'zini rivojlantirish maydonini yaratish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdir[2]. Jamiyatda mutolaa madaniyatini oshirish deganda faqat kitob o'qishnigina tushunish ham bir tomonlama yondoshuvga olib keladi. O'qish bilan birga odamlarga foydasi tegadigan, ezgu bilimlarni tarqatadigan, jamiyat ahloqini takomillashtirishga xizmat qiladigan kitoblarni chop etishdan tortib, ularning kitobxonlar, jumladan farzandlarimiz tomonidan o'zlashtirilishi, qalbga jo'qilinishigacha bo'lgan barcha jarayonlar mutolaa madaniyatining tarkibiy qismlaridir. Bunga mualliflarning saviyasiyu darajasi ham, noshirlarning did-farosati ham, kitob savdosi xodimlarining malakasiyu kutubxonachilarning o'z kasbini naqadar egallagani ham, nihoyat har bir ota-onaning (o'qituvchi-murabbiyning) o'z farzandini kitobga xavasmand etib tarbiyalashdagi imoniyatlari ham kirib ketadi.

O'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik xissi bilan yondashish lozim. Ta'limni zo'rovonlik bilan singdirmaslik kerak. Zo'rovonlik orqali berilgan ta'lim yosh avlod xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Xar bir ta'lim tarbiya beruvchi ta'lim oluvchiga "aqliy xujum" orqali o'zlarini himoya qilishni o'rgatishlari lozim. Yoshligidan bolaning ongiga "Sen dunyoni o'zgartirishga qodirsan" degan ishonchni singdirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.[3] Yosh avlodni ajdodlar hotirasiga sodiqlik ruhida tarbiyalash, aql-zakovatli, sog'lom tafakkurga ega etib voyaga yetkazish, donolar fikrida o'z aksini topgan kitob mutolaasiga chorlash va targ'ibotini olib borish hamisha zamon talabidir.

Bugungi kun yoshlari mustaqil davlatimizning kelajak taqdirini hal qiluvchi, jamiyatni rivojlantiruvchi, uni modernizatsiya qilishga qodir bo'lgan sog'lom kuchlardir. Mamlakat kelajagi xozirda tarbiyalanayotgan, sog'lom fikrlashga o'rgatilyotgan, takakkuri sog'lom kadrlar qo'lida. "Yoshlarimiz shu narsani unitmasliklari kerakki, zanjirsiz qo'l abjir, kishansiz oyoq ildam, qulfsiz til burro, erkin dil balandda parvoz qiladi"[4]. Shuning uchun erkin fikrlashga, har ko'rgan va eshitgan narsasini tafakkur qilib, o'ylab analiz qilib keyin boshqalar bilan ulashishlari kerak. Ko'r ko'rona eshitganini ommaga yoyish, birov nima desa unga ergashib ketavermaslik darkor.

Tarixdan ma'lumki, o'z davrining barkamol insonini tarbiyalab yetishtirish komil inson ta'lablari asosida amalga oshirilsagina, maqsadga yo'naltirilgan, ijobiy natijalarni berishi mumkin. Shuni qayd etish lozimki, biz o'z o'tmishimizni aniq bilmay turib bugunimizni va kelajagimizni obektiv baholay olmaymiz. Yetmish yillar mobaynida cheklangan va toptalgan xaq-huquqlarimizni, unit bo'lib ketayozgan milliy qadriyatlarimizni, milliy, madaniy va ma'naviy ma'rifiy merosimizni qayta tiklab, ularni zamonaviylashtirgan holda qo'llashdek muhim va hayrli ishga qo'l urar ekanmiz, yetishib kelayotgan yosh avlodni qayd etilgan tarixiy dalillardan to'liq xabardor qilgan holda tarbiyalamog'imiz lozim. Bu borada yosh avlodga tarbiya beruvchi tarbiyachilarning o'zlari ham yetuk tarbiya uslubiga ega bo'lmoqliklari, millatning tarixiy, milliy qadriyatlari bilan izchil va to'liq qurollangan

bo'lmoqliklari lozim. Aks holda bu tarbiya ko'zlangan ijobiy natijalarga olib kelmasligi mumkin.

Real hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug'ullanish insongagina hosdir. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Xususan, mantiq ilmida, "Aql-xar qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezonini sifatida talqin etiladi. Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim-chin bilim bo'lolmaydi, demak u haqiqiy bilim emas. Mantiq, insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi"[5], - deb yozadi o'z asarlarida buyuk allomimiz Abu Ali ibn Sino. Demak mantiqiy takakkur xar bir yosh avlod uchun kerak balki, xar bir inson uchun zarur. Mantiq yordamida inson xaqiqiy bilimni yolg'ondan ajratadi va nomalum narsalarni o'rganadi. Nomalum narsalarni o'rganish va yechimini izlash yoshlarimiz uchun qiziq albatta. Buning uchun keng sharoit bo'lsa bas. Shuni unutmaslik kerakki, faqat sog'lom muhitga ega jamiyatdagina sog'lom, bilimli, aql zakovatli farzandlar tarbiyalanadi. Bugun bu borada ham anchagina ijobiy natijalarga erishayotganligimizni shu kungi taraqqiyot aniq ko'rsatib turibdi.

Tahlil va natijalar. Mantiqiy tafakkur bilan birgalikda bilimning boshqa barcha shakllarini o'zlashtirishga xarakter qilib borish inson ongini yuksaltirib boraveradi. Har qanday bilishning negizida haqiqatni aniqlash yotadi shunday ekan inson bu maqsadga o'zini o'zi takomillashtirish va o'zini o'zi bilish yo'li bilan erishadi.[6] O'z mohiyatini bilish jarayonida inson o'z menini o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini tanigan, o'zini hurmat qilgan inson o'zgalarga ham xurmat ko'rsata oladi deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda jamiyatimiz ma'naviy sohasiga va yoshlarimizning ma'naviy olamiga tahdid solib turgan omillar talaygina. Nafaqat siyosat va iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqdalar. Maqsad-yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoxud xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysindirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ko'ra dahshatlidir.[7] Bu esa fuqarolar ayniqsa yoshlarimizni turli niqoblar ostidagi ma'naviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmini yanada jonlantirishni taqazo etadi.

Zamon bilan hamnafas bo'lib o'sib kelayotgan hozirgi yoshlarning ongiga yangi, teran fikrlarni singdirish bilan birgalikda, ularda shakllanib borayotgan mustaqil, tanlash huquqiga ega bo'lgan erkin pozitsiyani, sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga nisbatan tanqidiy qarashlarni ham e'tiborga olish zarur. Tan olish joizki, yoshlarimizning har jabhada ongining yetukligi oshib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki yoshlar mamlakat aholisining eng yosh va tez o'zgaruvchan qismini tashkil etuvchi, o'zining ijtimoiy tarkibi jixatidan bir-biriga yaqin bo'lgan qatlamidir. Ushbu qatlamning tafakkurini sog'lomlashtirish kelgusi jamiyatning sog'lomligini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlar siyosatining amal qilish bosqichlarida yoshlar kayfiyatlari, orzu-umidlari, hayotiy maqsadlari, intilishlarini ilmiy o'rganish, ulardan turli xulosalar qilish, ular intilishlarini ijobiy va bunyodkorlik ishlariga yo'naltirishga erishish o'ta dolzarb strategik vazifalardan hisoblanadi. Jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok etish yoshlarda hayotiy tajribasi ortib boraveradi. Ular o'zgaruvchan va qarama-qarshi ijtimoiy hodisalarni chuqur anglay oladilar, o'zlarining siyosiy qarashlari va hatti xarakterlariga zarur tuzatishlar kirita boshlaydi. Insoniyat shunday mavjudotki qanchalik bilgani, o'rgangani, erishgani sayin shunchalik ko'p narsalarga erishishga,

anglashga harakat qilaveradi, garchi uni qanday to'ldirishni bilmasada o'z mavjudligining sababini bilishga intiladi. Shunday qilib inson hayoti jarayonida jamiyatning siyosiy

hayotida ishtirok etish, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, faol bo'lishga intilish shaxs sifatida rivojlanishning muhim shartiga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi -T.: "O'zbekiston" nashriyoti., 2021 –B. 262-263.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik ma'daniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentyabr'dagi PQ-3271-sonli Qarori.
3. "Zukkolar va landavurlar" Malkolm Gladuell. T., 2019 B. 185-186.
4. "Yangicha tafakkur va badiiy madaniyat" Qosimova M. T., 2016-yil.
5. "Kamolot sari" Iqtidorli yoshlar ilmiy to'plami 13-son. T., 2016-yil.
6. "Gnoseologiya-bilish nazariyasi" N.A.Shermuhamedova. T., 2011-yil.
7. "Ma'naviy salohiyat" uslubiy qo'llanma. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar matni. Toshkent-2009.
8. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni/2016-yil 14-sentyabr O'RQ-406-sonli/www.lex.uz/ acts/3026246 21.



Gulchehra SHADIMETOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: gshadimetova@inbox.ru

O‘zDSMI professor v.b., f.f.n. Umarov M.B. taqrizi asosida

DIALECTIC CONNECTION OF SOCIAL AND SPIRITUAL CHANGES IN UZBEKISTAN WITH NATIONAL HOLIDAYS

Annotation

In this article, when determining the basic requirements that ensure the longevity of national holidays, holidays are analyzed as a powerful factor that regulates positive relations in society with its emotional impact on the audience. At the same time, mass events and holidays, on the one hand, are a means of forming new social relations between people, and on the other hand, they are a way of expressing and demonstrating these relations.

Key words: Folk holidays, art samples, aesthetic ideal, moral values, aesthetic culture, socio-spiritual phenomenon, positive mood.

ДИАЛЕКТИЧЕСКАЯ СВЯЗЬ СОЦИАЛЬНЫХ И ДУХОВНЫХ ПЕРЕМЕН В УЗБЕКИСТАНЕ С НАЦИОНАЛЬНЫМИ ПРАЗДНИКАМИ

Аннотация

В данной статье при определении основных требований, обеспечивающих долговечность национальных праздников, праздники анализируются как мощный фактор, регулирующий позитивные отношения в обществе с его эмоциональным воздействием на аудиторию. Вместе с тем массовые мероприятия и праздники, с одной стороны, являются средством формирования новых социальных отношений людей, а с другой стороны, являются способом выражения и демонстрации этих отношений.

Ключевые слова: Народные праздники, образцы искусства, эстетический идеал, нравственные ценности, эстетическая культура, социально-духовный феномен, позитивное настроение.

O‘ZBEKISTONDA KECHAYOTGAN IJTIMOYIY VA MA‘NAVYI O‘ZGARISHLARNING MILLIY BAYRAMLAR BILAN DIALEKTIK ALOQADORLIGI

Annotatsiya

Psixologiyada qobiliyatni miqdor jihatidan o‘lchash, uni tavsiflash uchun intellekt tushunchasi qo‘llanilgan. Tadqiqotchilarning nazariyasiga binoan, har bir inson umumiy intellektning muayyan darajasini o‘zida aks ettiradi, bu esa, o‘z navbatida, uning tashqi muhit bilan munosabatiga bog‘liqdir. Ularning fikriga ko‘ra, har bir odamda o‘ziga xos qobiliyatni rivojlantirishning turli darajalari mavjud bo‘lib, ular yaqqol masalalarni yechish jarayonida ko‘rinadi. Dastlab intellekt tadqiqotlarida uning differentsiatsiyasi mavjud bo‘lmagan. Intellekt muammosi xorij psixologiyasida juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Intellekt, qobiliyat, iste‘dod, konsepsiya, semantik, divergent, konvergent, tafakkur, kreativlik, aqliy harakat, idrok.

Kirish. Har qanday jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqe-lik, avvalo, uning ma‘naviy jihatdan mushohada etilishi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, bir tomondan, jamiyat a‘zolarining ma‘naviy-ruhiy poklanishga intilishini, ikkinchi tomondan, madaniyat hamda san‘at arboblari tomonidan bunday harakatlarning qo‘llab-quvvatlanishini ijobiy hol sifatida baholash mumkin.

O‘zbekistonning yangilanish va yuksalish davrida milliy bayramlarni nishonlash ijtimoiy-ma‘naviy hodisaga aylandi. Ular: tarixan tarkib topgan; o‘zida axloqiylik va namunaviylik tamoyillarini mujassam etgan; falsafiy jihatdan sermazmun; go‘zallik va ezgulikka undovchi; badiiy qadriyatlarini ulug‘lovchi; xalqimizning estetik madaniyatini belgilovchi; muhim omil va ma‘naviy hodisalardir. Shu bois, milliy bayramlarni ijtimoiy-falsafiy va axloqiy-estetik mohiyatiga ko‘ra, quyidagicha tasniflash mumkin. Bular:

–milliy bayramlar tantanasi yuksak san‘at namunalarini namoyon qiladigan tadbir sifatida;

–O‘zbekiston bayramlari estetik idealni targ‘ib qiluvchi badiiy vosita sifatida;

bayram tantanalari va xalq sayillari estetik va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi ma‘naviy tadbir sifatida;

– milliy bayramlar tantanalari estetik madaniyatning o‘ziga xos teatrlashgan namoyishi bilan ijtimoiy va ma‘naviy o‘zgarishlarni namoyon qilishi sifatida.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Milliy bayramlar jamiyatda ma‘naviy-axloqiy muhitni yuksaltirish bilan bir qatorda insonning estetik didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham ommaviy tadbirlardagi barcha san‘at turlarining o‘zaro sintezlashgan ko‘rinishidagi, tantanavor, o‘zbekona shakli jahon madaniyatshunoslari va bayramshunoslari tomonidan, yangi teatrlashgan musiqali-xoreografik badiiy kompozitsiya sifatida e‘tirof etildi[1]. O‘zbekona shakldagi tantanavorlikda hujjatli publitsistika va badiiy obrazlilik o‘zaro birlashib, sintezlashgan tadbir tomoshasiga, avvalo, milliylik, qolaversa, ulug‘vorlik, ifodaviylik, teranlik va estetik ta‘sirchanlik bag‘ishlamoqda.

Milliy bayramlar va ommaviy tarzdagi davlat tadbirlarining e‘tiborga loyiq bo‘lishida amaliy san‘at

turlarining badiiy fon bezaklari sifatidagi o'rni beqiyos. Tadbir bezaklarining ko'rgazmali, g'oyaviy-estetik qimmatini, avvalo, sintezlashgan san'at turlarining badiiy ifodaviylik darajasi va inson his-tuyg'ulariga darhol ta'sir etish kuchidadir. Chunki, mavzu va g'oyaga mos turli-tuman liboslar, texnik vositalar, san'at turlarining badiiy ifodasi, eng muhimi, minglab odamlarning katta maydondagi sayillarda, bayramona kayfiyatda maqsadga muvofiq harakatlanishi, o'zaro muloqotga kirishib, bir-birini qutlab estetik his-tuyg'ular ta'sirida bo'lishini ta'minlaydi. Maqsadga muvofiq jamlangan va sintezlashgan san'at turlaridan paydo bo'lgan zavqli tuyg'ular bayram tomoshalarining badiiy ulug'vorligini ta'minlab, minglab tomoshabinlarni go'zallik olamiga olib kiradi.

M.YE. Saltikov-SHedrin fikricha, "Bir shahar tarixi"da: "Ikki xil bayramlar bo'ladi: biri bahorda "Barqarorlik bayrami" bo'lib, keladigan ofatlarga tayyorgarlik ko'rishga xizmat qiladi; boshqasi – kuzda, "Hukumatni ushlab turuvchi bayram" deb nomlanib, bo'lib o'tgan ofatlarni eslashga bag'ishlanadi"[2]. Shu boisdan ham milliy bayramlar va ommaviy tarzdagi davlat tadbirlarini tashkillashtirish, asosan, ikki qism – barcha san'at turlarini uyg'unlashtirgan tomosha ssenariysini yaratish va uni sahnalashtirish, ya'ni tomoshaga aylantirishdan iborat bo'ladi.

J. Mamatqosimov o'zining "Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar" deb nomlangan ssenariylar to'plamida ommaviy tadbir ssenariysini yaratishning asosiy bosqichlarini tahlil qilgan. Risolada ommaviy tadbir ssenariysining mavzusi, g'oyasi, kompozitsiya qonunlari asosida san'at turlarining uyg'unlashgan muqaddimasi, tuguni, harakatlar rivoji, kulminatsiyasi va final masalalari ko'rib chiqilgan [3].

Davlatning qudrati fuqarolarining vatanparvarlik tuyg'usi; yoshlarning milliy madaniyati va ziyolilik darajasi; ularning ma'naviyati va tafakkuri boyligi; yaratuvchanlik salohiyati bilan belgilanadi. Shu ma'noda, vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lgan komil inson ma'naviy qadriyatlarini anglashga, moddiy yoki ma'naviy boylik yaratish va yurtini yuksaltirishga qodir bo'lgan fuqarodir. Yaratish qudrati faqat qobiliyatli insonga xos fazilat. Shuning uchun ham qobiliyatli tomonidan yaratilgan san'at turlari insoniyatning ma'naviy ko'zgusi sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, shaxs kamoloti millatning estetik ideallarini anglashga asoslangan holda rivojlanadi. Estetik ideal esa o'z-o'zidan shakllanadigan hodisa emas. Uni shakllantirishning ibtidosi ham, intihosi ham insonning ijtimoiy-ma'naviy olamidadir. Abdulla SHer estetik ideal borasida gap ketganda: inson uchun mavjudlik shartlari masalasi muhimligini; ijtimoiy ideal esa ko'proq kelajak bilan; shaxsiy ideal esa asosan o'tmish bilan bog'liqligini; idealning murakkab tomoni qadriyatlar bilan bog'liq masala ekanligini ta'kidlaydi.

Milliy qadriyatlar estetik idealning obyektidagi in'ikosi tarzida namoyon bo'ladi. "Avvalo shuni aytish kerakki, – deydi faylasuf, – estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik idrok etadi. Shu sababli estetik ideal go'zallik, ulug'vorlik, mo'jizaviylik va boshqa estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzga chiqadi. Inson ana shu idealga mos keladigan go'zallik yoki ulug'vorlikni tan oladi, mos kelmaydiganlarini esa aksil estetik hodisa sifatida inkor etadi. Estetik ideal o'ziga mos go'zallik va ulug'vorlikni yoki mo'jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi"[4].

Estetik idealni, ayniqsa, badiiy idealni shakllantirish borasida tadqiqot ishlari olib borgan S.Agzamxodjayeva ijtimoiy ideal bilan badiiy-estetik idealning o'zaro bog'liq gnoseologik negizi mavjudligini uqtiradi. Ular yon-atrofnii anglashga, idrok etishga, shu tariqa ma'lum tasavvurlarni, subyektiv qarashlarni ifoda etishga qaratilgan faoliyat turidir.

Shuning uchun, tadqiqotchining nazarida, ijtimoiy ideal bilan badiiy-estetik ideal mutlaq aynan voqelik emas. Buning bir qator sabablari mavjud. Jumladan, ijtimoiy ideal jamiyat, davlat, insoniyat, umuman, ijtimoiy borliqni takomillash-tirishga qaratilgan har qanday g'oyani, obrazli tasavvurlarni, maqsadlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, badiiy-estetik idealni ham shunday izohlash mumkin. Chunki, badiiy-estetik ideal yon-atrofnii shunchaki ifodalash, tasvirlash usuli emas, uning negizida hayotni go'zallashtirish, talab darajasida insoniyashtirish, nafasat qonuniyatlariga muvofiq tashkil etish haqidagi o'y, xayol, orzu yotadi. Shu tariqa badiiy-estetik ideal ijtimoiy borliqqa, kishilarning ushbu borliqni yuksaltirishga qaratilgan orzulariga xizmat qiladi. Demak, badiiy-estetik ideal negizida olamni bilish, mavjud hayotni takomillash-tirish, go'zallashtirish, taraqqiyot yo'llarini anglash yoki ko'rsatib berish g'oyasi yotadi. Shu tariqa, ijtimoiy-ma'naviy borliq badiiy-estetik idealning obyektiga aylanadi.

Badiiy-estetik ideal shaxsning ma'naviy hayotiga go'zallik, estetik tasavvur va qarashlar, eng muhimi estetik tajriba, ya'ni madaniy-ijodiy jarayon orqali ta'sir etadi[5].

Estetik idealni rivojlantiruvchi milliy bayramlar tantanalaridagi badiiy yaxlitlik shakllari estetik, mazmunan axloqiy mohiyat kasb etadi. Uning nafosatlilik mezonini badiiy go'zallikning ustuvorligi bilan belgilash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda nishonlanayotgan milliy bayramlarning o'ziga xos jihatlari nazar tashlasak, bu bayramlar o'zida estetik va axloqiy qadriyatlarini uyg'unlashtirishi, O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni qamrab olishi bilan ma'naviyatni yuksaltiruvchi muhim badiiy omil sifatida ulug'vorlik kasb etadi.

Sababi, umumxalq sayli va tantanalardagi axloqiy va estetik qadriyatlarining uyg'unligi, uning mavzusi hamda g'oyasi bilan bog'liq ijtimoiy va ma'naviy komponentlarda namoyon bo'ladi. Bu komponentlar paytda yangi shakllangan bayramning estetik mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, san'atkor voqelikni o'z estetik ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlar ekan, mavzu, g'oya va uning shaklini mafkura mantig'iga ko'ra badiiy realikka aylantiradi. Bunday badiiy realik esa muayyan muloqot mezonlari asosida tomoshabin ongi va qalbida estetik qadriyatlarga aylanadi. Shu ma'noda, milliy bayramlarda mujassamlangan san'at turlari ifodalagan badiiy ideallar, yuksak estetik qadriyatlar darajasida "bo'rtib" ko'zga tashlanadi va ijtimoiy ehtiyojga aylanadi.

Bu bayramdagi axloqiy va estetik qadriyatlarining uyg'unligi bevosita inson hamda jamiyat munosabatlari kontekstida ko'rib chiqiladigan masalalar sirasiga kiradi. Unda ishtirok etgan shaxs kamoloti – axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligini namoyon etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. "Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi muammosi" bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan olim M.Nurmatovanning fikriga ko'ra, mustaqillik tuyg'usi – oliy axloqiy va estetik qadriyat. Tadqiqotchi, mustaqillik: axloqiy qadriyat ekanligi: xalqning iqtisodiy, g'oyaviy so'z va fikr erkinligi tiklanganligi; fuqarolar o'zining moddiy va ma'naviy hayotini dialektik uyg'unlikda tashkil qilganligi; buning uchun zaruriy sharoitlar tizimi yaratilganligi bilan qimmatli ekanligini izohlaydi. Shuningdek, mustaqillik oliy qadriyat hamda estetik fenomen sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi, xalqning ulug'vor ishlarni amalga oshirish imkoniyatlarining kengayishida, bunyodkorlik salohiyatini namoyon etuvchi hodisalarni ro'yobga chiqaruvchi qudratida ekanligi bilan belgilanadi.

“Mustaqillikning bunyodkori, ijodkori bo‘lgan inson – deb ta’kidlaydi falsafa fanlari doktori, professor Mukarram Nurmatova, – o‘zining azaliy urf-odatlarini, bayramlari va boshqa marosimlarini an’anaviy tarzda davom ettirib, undagi go‘zallik, ulug‘vorlik va qahramonlik ruhini o‘z farzandlarining qalbiga singdirib kelayotganligi bilan ham go‘zal va ulug‘vordir”[6]. Mazkur fikr mustaqillik bayramlarining tamoyillari ham axloqiy, ham estetik qadriyat ekanligini nazariy jihatdan asoslaydi. Bu tamoyillar “Mustaqillik kuni” bayramining xususiy va umumiy xarakteriga ega bo‘lgan badiiylashgan tantanalarda o‘z ifodasini topgan.

Mustaqillik sharofati bilan jahon madaniyati va rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk allomalarimiz, jahonshumul tarixiy shaxslarimiz tavallud topgan sanalariga bag‘ishlangan tantanalari ham davlat tadbiri darajasida nishonlanishi an’anaga aylandi. Bunday bayramlar ulug‘ajdodlarimizdan g‘ururlanish, faxrlanish va buyuklardan namuna olish maqsadida tantanali tarzda, estetik ideal sifatida amalga oshirilmoqda. Albatta, har bir millat o‘z ajdodlarini, ulug‘larini eslash, ularning hurmatini joyiga qo‘yishga intiladi. Milliy estetik ideallar yuksalishiga bag‘ishlangan bunday xayrli ishlar o‘z mohiyati jihatidan yoshlarning estetik kamolotini shakllantirishga ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Millatning estetik madaniyatini o‘ziga xos mustaqil hodisasi sifatida namoyon qiladigan bayramlar fuqarolarning faol jonli muloqoti hamda barcha ishtirokchilarning erkin hatti-harakatlariga asoslanadi. Bunday tadbirlar, avvalo, ishtirokchi va tomoshabin o‘rtasidagi har qanday tafovutlarni bartaraf etishga qaratiladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda milliy bayramlar tashkilotchilari, tashviqotchi va targ‘ibotchilarining vazifalari “uyushmagan yoshlar”ni maqsadli uyushtirish va har qanday nizoli vaziyatning yechimida optimistik ruhdagi tomosha usullaridan to‘g‘ri foydalanib, aholini bir-biriga bag‘rikenglik munosabatida bo‘lishga da‘vat qilishdan iborat. Agarda bayram tomoshalari har bir shaxsning “men”ini namoyon qilishga imkoniyat yaratib beruvchi omil desak, uning tashkilotchilari har bir ijodkorga “shaxsiy yondashuv” ma’nosini chuqurroq anglashi zaruratga aylanadi. Chunki, bayramda ishtirok etuvchilar vosita emas, balki tadbir maqsadini, undagi qadriyatlar mohiyatini ochib beruvchi asosiy mezondir. Shunday ekan, to‘g‘ri yo‘nalishda tashkil qilingan milliy bayramlar O‘zbekistonda kechayotgan ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlarni namoyish qilish bilan tadbir insonlarda kelajakka ishonch va ko‘tarinki kayfiyatni hosil qila oladi.

ADABIYOTLAR

1. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. –Toshkent: Sharq, 2002. - 16 b.
2. Салтыков-Щедрин М.Е. История одного города // Салтыков-Щедрин М.Е. Собр. соч.: В 10 т. – Т.2. – М.: Правда, 1988. – 450 с.
3. Mamatqosimov J. Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar. –Toshkent: TDMI, 2004. – 6 b.
4. file:///C:/Users/Ferrari_430/Downloads/estetika.pdf. – 46 b.
5. Agzamxodjayeva S.S. Ijtimoiy ideal va O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyot muammolari: Dis....fals.fan.dokt. –Toshkent: O‘zMU, 2009. – B 207-227.
6. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. /Monografiya. – Toshkent: Universitet. 2009. – 105 b.



Nargiza SHERMUXAMEDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Dotsent Q.Arzibayev taqrizi asosida

СТРУКТУРА СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЮНЫХ ГАНБОЛИСТОВ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В статье исследуются вопросы касающейся подготовки юных гандболистов учебно-тренировочных групп, специализированных детских и юношеских спортивных школ. В частности, исследована учебно-нормативная документация, планирование учебных нагрузок по видам подготовок на разных этапах годового цикла, их содержание и структура, а также структура соревновательной деятельности юных гандболистов.

Ключевые слова: Юные гандболисты, учебная программа, планирование, распределение учебных часов, технико-тактические действия, объём технико-тактических действий, эффективность технико-тактических действий.

YOSH GANDBOLCHILARNI MUSOBAQA FAOLIYATI TIZIMINI AKS ETTIRUVCHILARI VA UNDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Аннотация

Maqolada ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabining o'quv-tayyorlov guruxi gandbolchilarini tayyorlash bilan bog'liq masalalari tadqiq etilgan. Hususan, guruxga tegishli bo'lgan o'quv meyoriy xujjatlar, yillik sikl jarayonida tayyorgarlik turlari bo'yicha yuklamalarni rejalashtirilishi, dastur materiallari, ularning tuzilishi va mazmuni hamda yosh gandbolchilarning musobaqa faoliyati tizimi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Yosh gandbolchilar, o'quv dasturi, rejalashtirish, o'quv soatlar taqsimoti, texnik-taktik harakatlar, texnik-taktik harakatlar hajmi, texnik-taktik harakatlar samaradorligi.

YOUNG HANDBALL PLAYERS' COMPETITIVE ACTIVITY REFLECTS THE SYSTEM AND ITS SPECIFIC FEATURES

Annotation

This article analyses some issues related to the training of handball players of the training group of the specialized sports school for children and teenagers. Particularly, the educational normative documents belonging to the group, the planning of loadings by its types of preparation, during the annual cycle, the program materials, their structure and content were examined.

Key words: Young handball players, curriculum, planning, distribution of training hours, technical and tactical actions, the volume of technical and tactical actions, the effectiveness of technical and tactical actions.

Kirish. Mamlakatimizda gandbol sport turi jismoniy tarbiya va sport tizimida muxim joy egallagan sport turlaridan biri xisoblanadi. Chunki, gandbol bilan shug'ullanish, shug'ullanuvchi organizmiga ko'p taraflama ijobiy ta'sir etib, jismoniy rivojlanish hamda funksional imkoniyatlarni oshirishga yaqindan hizmat qiluvchi hususiyatga egadir.

O'zbekistonda gandbolchilarni professional tarzda tayyorlash masalalariga keladigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, gandbol sport turini rivojlantirish masalalari bugungi kunda dolzarbligini yo'qotmagan [1]. Chunki, gandbolchilarimizning halqaro miqqiyosdagi musobaqalarda erishgan va qo'lga kiritgan kam sonli ijobiy natijalari, bunday xulosa qilishga asos bo'ladi.

Bugungi kunda gandbolning halqaro miqqiyosdagi nufuzini oshirishda, yuqori natijalarni qo'lga kiritishdagi asosiy jixatlardan bo'lib, bu yetishib kelayotgan zaxira sportchilarini tayyorlash masalalari hisoblanadi. Bunda tayyorgarlikni ta'minlovchi asosiy e'tiborga loyiq tomonlaridan bo'lib, tayyorgarlik yuklamalarini, ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining bosqichlarida to'g'ri va ratsional tarzda rejalashtirish, ularni shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarlik darajalariga mosligini ta'minlash masalalari xisoblanadi [4].

Yana bir jixat - bu musobaqa faoliyati xususiyatlari va unda qayd etilayotgan natijalarga (ko'rsatkichlarga) asoslangan xolda, mashg'ulot yuklamalarini ratsional tarzda rejalashtirish orqali, tayyorgarlikni boshqarish muhim jixatlardan ekanligini soha mutahassislari alohida ta'kidlashadi.

Musobaqa faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omillar qatorida, mashg'ulotlarda qo'llanilgan vosita va usullarning tayyorgarlikning davri va bosqichlariga mosligi, yuklamalarning yo'nalishlari tayyorgarlikning vazifalariga mosligi bilan ko'p jixatdan bog'liq bo'lishi ham mutahassislar tomonidan e'tirof etiladi [5].

Zamonaviy gandbol sportchilar tayyorgarligiga yuqori talablarni qo'yishi bilan tavsiflanmoqda. Musobaqa sharoitlarini shiddatli kechishi, sportchilar tomonidan amalga oshiriladigan texnik-taktik harakatlarni tezlikda, qisqa vaqt fursatlarida hamda raqib o'yinchilarining yuqori faollikdagi qarshilik ko'rsatish sharoitlarida amalga oshirish kerakligini talab etilayotganligi, musobaqa tayyorgarligiga nisbatan ham eng yuqori talablarni belgilamoqda [2]. Bu borada esa, avvalam bor musobaqa faoliyati tuzilmasini bilish, undagi o'ziga xos hususiyatlar xaqida aniq tasavvurga ega bo'lish, kelgusi tayyorgarlik jarayonlarini yanada samarali boshqarishga imkon yaratuvchi omil sifatida qaralishini soha mutahassislari alohida ta'kidlashadi.

Tadqiqotning maqsadi. O'quv mashg'ulot guruxi gandbolchilarining musobaqa faoliyati tuzilishini tadqiq etish va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot ishining usullari: mavzuga tegishli ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, musobaqa faoliyati jarayonini pedagogik kuzatish va qayd etish usullari, to'plangan natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullari.

Tadqiqot ishining natijalari. Mashg'ulot hamda musobaqa yuklamalarini nazorat qilish muammolari

V.M.Zatsiorskiy, Y.V.Verxoshanskiy, L.P.Matveyev, M.A.Godik kabi yetuk mutaxassislar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mahalliy olimlarimizdan T.E.Nabiyev, J.A.Akramovlar bu yo'nalishlarda tegishli tadqiqot ishlarini olib borishgan. Yosh sportchilarni tayyorlash masalalari V.Ignatyeva, A.Gamayun, V.P.Filin, N.A.Fomin, N.J.Bulgakova, L.P.Makarenko va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shu bilan birga aytish joizki, O'zbekistonda yosh gandbolchilarni tayyorlash masalalariga hozirgi vaqtga kelib yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi va bu borada tayyorgarlik jarayoni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlarini deyarli olib borilmaganligini maxsus manbalarning tahlili ko'rsatib berdi.

Yuqori malakali va yosh gandbolchilarning musobaqa faoliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bir-biridan keskin farq qilishi, bir qator tegishli tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra aniqlangan. Ma'lum bo'lganki, yosh gandbolchilar (13 yosh) kattalarga nisbatan ko'proq harakatlanish faoliyatini amalga oshirishadi. Yoshlar musobaqalashish uchun ajratilgan 40 daqiqalik musobaqa vaqtida kattalar uchun ajratilgan 60 daqiqalik vaqtda bajaradigan xujum harakatlariga teng harakatlarni amalga oshirishligi aniqlangan. Yoshlarda xujumlarning uchdan bir qismi o'ta tezkor xujum harakatlari nisbatiga to'g'ri keladi. Lekin harakatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari malakali sportchilarnikiga qaraganda pastroq ko'rinishlarga ega bo'ladi. Shu sabab, mutaxassislar aynan yoshlar bilan ishlashda e'tiborni shu jihatga qaratish lozimligini ta'kidlashadi.

V.Ignatyeva tomonidan olib borilgan qator tadqiqot ishlari yosh gandbolchilarni musobaqa faoliyati tuzilmasi haqida atroflicha ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishga imkon yaratdi. O'rganishlardan ma'lum bo'lganki, qizlarda xujum harakatlarini amalga oshirish vaqtida tayanch holatda darvoza zarba berish harakatlari jami zarbalarning 33-34 % nisbatlarida ushlanib turadi va 15-16 yoshga kelib bu ko'rsatkich 25% larga kamayishi kuzatiladi ya'ni, sportchining yoshi katta bo'lib borgan sayin, uning murakkab harakatlarini bajarish nisbati ortib boradi va aksincha oddiy harakatlarning nisbati kamayib boradi. O'g'il bolalarda esa, tayanch holatda darvozaga zarba berish harakatlari musobaqa sharoitida nisbatan stabil ko'rinishlarda bo'lib (30-35% atrofida), 15 yoshga kelib bunday zarbalarni nisbati jami zarbalarning 24 %ni tashkil etadi.

Sakragan holatda darvozaga zarba berish harakatlari jami zarba berish harakatlariga nisbatan 43-60 % holatlarda amalga oshiriladi. Qizlarda esa, bu ko'rsatkich 50-65 %ni tashkil etgan. Zarba berish harakatlarini yana bir turi - bu eng murakkab ko'rinishdagisi bo'lib, sakrab yiqilayotgan holatda

darvozaga zarba berish hisoblanadi. Qizlarda bu harakatlar jami zarbalarning nisbatini 4-15 %ni tashkil etadi, o'g'il bolalarda esa, bu ko'rsatkich 10-23 % tashkil etadi. 13-14 yoshda o'g'il bolalarda bu kabi zarbalarning nisbati 25%gacha ko'tarilishi aniqlangan. Bu davrni mutaxassis aynan zarba berishning murakkab ko'rinishlarini shakllantirishdagi sensitiv davri sifatida baxolash kerakligini taklif etadi [5].

Musobaqa faoliyatini tadqiq etishlar to'pni yo'qotish holatlari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishga imkon yaratgan. Xususan, 16 yoshli gandbolchilarning musobaqa sharoitida turli vaziyatlarda to'pni yo'qotishdagi holatlar quyidagicha ko'rinishlarni xosil qilgan:

- chiziqni bosish orqali to'pni yo'qotish – 20 %;
- o'yindan chetlashtirish – 16 %;
- qizil kartochka olganligi sababli – 6 %;
- to'pni olib yurishdagi xatoliklar sababli – 6 %;
- probejka – 12 %;
- to'pni olib olishdagi xatolik -10 %;
- to'pni uzatishdagi xatolik – 20 %;
- ikki qo'lda to'pni olib yurish – 6 %;
- boshqa holatlarda – 4 %.

Shaxsiy olib borgan pedagogik kuzatish va tahlil etish natijalariga ko'ra, ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabining 1-o'quv-mashg'ulot guruxining yosh gandbolchilarning tayyorgarlik yuklamalari va musobaqa faoliyati tuzilmalari o'rtasida yetarli darajadagi mutanosiblik kuzatilmadi. Bunday holatning kuzatilishi salbiy ekanligini mutaxassislar e'tirof etishadi. Murakkab o'yin vaziyatlarida sportchilarning texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishga nisbatan rejalashtirilgan yuklamalar, musobaqa faoliyati xususiyatlarini to'liq aks etmagan ya'ni, musobaqa faoliyati vaqtida sportchilar tomonidan qayd etilayotgan harakat nisbatlari, mashg'ulotlarda boshqa nisbatlarda namoyon bo'lmoqda. Aksariyat hollarda yetarli bo'lmagan nisbatlarda rivojlantirilmoqda ya'ni vaqt ajratilmoqda[3]. Bu holat esa, o'z navbatida mashg'ulotlarning samaradorligini yuqori bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Yuklamalarni rejalashtirish dasturida xujumlarni tashkil etishning faol fazalarida to'p uzatish harakatlarini takomillashtirishga 40% va xujumlarni yakunlovchi fazalarida bor yo'g'i 5% vaqt ajratilib, mashg'ulotlar tashkil etilgan. Lekin, shu yoshdagi gandbolchilarning musobaqa faoliyatida olib borilgan pedagogik kuzatish ishlaridan ma'lum bo'ldiki, xujumlarni yakunlovchi fazalarida to'p uzatish harakatlaridan foydalanish bir muncha ko'pchilikni tashkil etgan. Bu holat esa, mashg'ulotlar davomida yuklamalar uchun rejalashtirilgan soatlar taqsimotini ratsional tarzda amalga oshirilmaganligini xulosa qilishimizga asos bo'ladi.

1-jadval.

IBO'SM qizlar gandbol jamoasining (O'MG-1) xujum harakatlarini tashkil etishda turli o'yin sharoitlarida to'p uzatish texnik-taktik harakatlarining bir uchrashuvda amalga oshirishning o'rtacha ko'rsatkichlari (2021-mavsum)

Jamoa	Turli to'p uzatish texnik-taktik harakatlari						Jami uchrashuvda TTX
	Xujum tashkil etishning passiv fazasida		Xujum tashkil etishning faol fazasida		Xujum tashkil etishning yakunlovchi fazasida		
	Harakatlari soni	Nisbati %	Harakatlari soni	Nisbati %	Harakatlari soni	Nisbati %	
TTX xajmi	93 ± 9	49	74 ± 7	39	22 ± 4	12	190 ± 14
TTX SK %	75.5		59.4		38.2		57.3

Izoh: TTX SK % - texnik-taktik xarakatlarning samaradorlik ko'rsatkichi %

Xulosalar. Mamlakatimizda yosh gandbolchilarning tayyorgarligini tashkil etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Bunda tayyorgarlik yuklamalarini rejalashtirish masalalarini zamon talablariga mosligini ta'minlash asosiy jixatlardan hisoblanadi.

Shaxsiy tadqiq etish ishlari natijalarining tahlili shuni ko'rsatib berdiki, musobaqa sharoiti vaqtida yosh gandbolchilar tomonidan amalga oshirilayotgan asosiy texnik-taktik harakatlarda ko'p sonli nuxsonlarga yo'l qo'yilgan. Murakkab o'yin vaziyatlarida xususan, xujum harakatlarini faol va yakunlovchi fazalarida to'p uzatish texnik-taktik

harakatlarining samaradorlik ko'rsatkichlari past darajada bo'lgan.

Xujum harakatlarini faol yoki yakunlovchi fazalarida texnik-taktik harakatlarni samaradorligini oshirish talab etiladi. Buning uchun esa, mashg'ulot yuklamalarini ratsional tarzda rejalashtirish asosiy masala sifatida tushunilishi kerak.

Kuchli raqib qarshilik qilayotgan o'yin vaziyatlarida bajarilayotgan harakatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

yuqori bo'lishini ta'minlash maqsadida, sportchilarning tayyorgarlik jarayonlarini shunday tarzda tashkil etish kerakki (mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish), jarayonda qo'llanilayotgan vosita va usullar aynan shu harakatlarni rivoji uchun xizmat qilib, sportchilarning maxsus tayyorgarlik darajalarini oshirishga ko'maklashishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Акрамов Ж.А. Построение тренировочного процесса гандболистов высших разрядов в многотуровом соревновательном периоде. // Фан-спортга, №3, 2006, С.29-33.
2. Гусев Ю.А. Методика формирования координационных способностей у юных гандболистов на основе моделирования условий соревновательной деятельности: дис. канд. пед. наук / Ю.А. Гусев. - Волгоград. - 2003. - 156 с.
3. Спорт таълим муассасалари учун гандбол спорт тури бўйича намунавий ўқув дастури. 2019 – 124 б.
4. Савинков Е.О. Нормативные основы физического развития и физической подготовленности гандболисток различного игрового амплуа на возрастных этапах: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Савинков Евгений Олегович; Рос. гос. акад. физ. культ. - М., 2002. - 21с
5. Игнатъева В.Я., Игнатъев А.В., Игнатъев А.А. Средства подготовки игроков в гандболе. Учебное пособие. 2015. - 160 с.
6. Игнатъева В.Я. Многолетняя подготовка гандболистов в детско-юношеских спортивных школах. / В. Я. Игнатъева, Петрачёва И.В. -М.; Советский спорт. - 2004. - 216 с.
7. Мизхер Хайдер. Анализ соревновательной деятельности как условие повышения эффективности тренировочного процесса высококвалифицированных гандболистов: на примере Ирака: дис.... канд. пед. наук: 13.00.04 /Тамбов, 2011. — 370 с.



UDK: 374.463

Raima SHIRINOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori
f.f.d., professor
Gulasal ROFIEVA,
f.f.d.PhD
E-mail: r.shirinova@nuu.uz
O'zMU professori, y.f.d. V.Topildiyev taqrizi asosida

ANALYSIS OF INTERNATIONAL RATING RESULTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, the issues of inclusion of universities in our republic, in particular National University of Uzbekistan and Samarkand State University, into the world's top 500 universities by 2030, as well as 10 universities into the top 1000 universities. During the past time, the higher education institutions of the republic have done a number of positive things in terms of training competitive personnel in the world education market, improving the quality of education, bringing the university closer to the international education standard.

Key words: International education standard, international ranking, rating agencies, strategic program, top universities, article index.

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ МЕЖДУНАРОДНОГО РЕЙТИНГА ВУЗОВ

Аннотация

В концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года рассмотрены вопросы включения вузов нашей республики, в частности Национального университета Узбекистана и Самаркандского государственного университета, в число 500 лучших университетов мира к 2030 году, а также как 10 университетов в топ-1000 университетов. За прошедшее время высшие учебные заведения республики сделали ряд положительных дел в части подготовки конкурентоспособных кадров на мировом рынке образования, повышения качества образования, приближения вуза к международному стандарту образования.

Ключевые слова: Международный стандарт образования, международный рейтинг, рейтинговые агентства, стратегическая программа, топовые вузы, индекс статей.

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING XALQARO REYTING NATIJALARI TAHLILI

Аннотация

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida respublikamizdagi oliygohlarni, xususan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand Davlat universitetini 2030-yilga qadar dunyoning kuchli TOP 500 universitetlar, shuningdek, 10 ta oliygohni esa TOP 1000 universitetlar qatoriga kiritish masalalari belgilab berilgan. O'tgan vaqt mobaynida respublikadagi oliy ta'lim muassasalari dunyo ta'lim bozorida raqobatbardosh kadr tayyorlash, ta'lim sifatini yaxshilash, universitetni xalqaro ta'lim standartiga yaqinlashtirish borasida bir qancha ijobiy ishlarni amalga oshirdilar.

Kalit so'zlar: Xalqaro ta'lim standarti, xalqaro reytingi, reyting agentliklari, strategik dastur, top universitetlar, maqolalar indeksi.

Kirish. Oliy ta'lim tizimida universitetlarda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek, jahonning top universitetlari xalqaro reytingidan munosib o'rin egallash masalasi so'zsiz xalqaro reytinglardagi faol ishtirok bilan bevosita bog'liq. Bu borada ham ko'pgina universitetlar o'z natijalarini ko'rsata boshladilar. Ma'lumki, 2021-yilda THE Education Impact Rankingsda respublikadagi 10 ta oliy ta'lim muassasasi qatnashgan bo'lsa, 2022-yilda esa ularning soni 30 taga yetdi. Reytingdan o'rin olgan O'zbekiston OTMLari qatorida Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent moliya instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Akfa universiteti ham bor. Bu ko'rsatkichlar har bir universitet ta'lim sifatini yaxshilash, ta'lim bozorida va xalqaro reytingda o'z o'rnini egallash borasida harakat qilayotganidan dalolatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2021-yilda QS xalqaro reyting agentligi tomonidan Markaziy Osiyo va Rivojlanayotgan Yevropa reytingi natijalarida esa O'zbekiston tarixida ilk marta mamlakatimizning bir yo'la to'rtta oliy

ta'lim muassasasi eng kuchli universitetlar qatoridan o'rin egalladi. Bular:

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti (251-300);

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti (351-400);

Samarqand davlat universiteti (351-400);

Toshkent davlat texnika universiteti (351-400).

2022-yilda esa 2022 QS World University Rankings: EECA (Emerging Europe and Central Asia) reytingi natijalari e'lon qilinganda respublikamiz OTMLarida 2021-yilga nisbatan natijalar o'sganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Natijalarga ko'ra O'zbekiston milliy universiteti o'z pozitsiyasini 100 pog'onaga yaxshilab 351-o'rindan 251-o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti 40 pog'onaga yuqorilab, 211-o'rinni egalladi. Toshkent davlat texnika universiteti 351-o'rin va Samarqand davlat universiteti 401-pozitsiyani egalladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, Quacquarelli Symonds xalqaro reyting agentligi kuchli universitetlar reytingini tuzishda ularning akademik nufuzi (30 foiz), ish

beruvchilar o'rtasidagi nufuzi (20 foiz), o'qituvchilar va talabalar miqdori mutanosibligi (10 foiz), professor-o'qituvchilarning ilmiy faolligi (10 foiz), ilmiy maqolalarning o'qilishi, ularga nisbatan berilgan iqtiboslar soni (5 foiz), xorijiy o'qituvchi va xodimlar (2,5 foiz) hamda talabalar (2,5 foiz) ulushi va shu kabi boshqa muhim jihatlarga asoslanadi. Reytingni tuzishda dunyoning 102 ming nafardan ortiq olimlar, professor-o'qituvchilar va OTmlar rahbarlari, 52 ming nafardan ziyod ish beruvchi kompaniya vakillari, shuningdek, QS mutaxassislari ham ekspert sifatida ishtirok etadilar.

Tahlil va natijalar. 2022-yil 6-aprelda "Quacquarelli Symonds" xalqaro reyting kompaniyasi dunyo universitetlarining fan sohalari reytingi (Subject Rankings)ni e'lon qildi. Unda O'zbekiston Milliy universiteti "QS by Subject Rankings" bo'yicha matematika sohasida erishgan natijalariga ko'ra dunyoning kuchli universitetlari orasida 451-500 o'rinni egalladi. Mazkur fan bo'yicha olimlarning Scopus bazasiga kirgan ilmiy jurnallardagi maqolalari soni, ulardan iqtiboslik ko'rsatkichining yuqoriligi, dunyo matematiklari universitetning akademik obro'sini yuqori baholanganligi bunga yo'l ochdi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Milliy universitetining xalqaro reytinglarda ishtiroki, bu borada to'plagan tajribasi hamda universitetning bu borada ishlab chiqqan metodologiyasi borasida fikr yuritiladi.

O'zMU THE va QS xalqaro reytinglardan tashqari bir qator ya'ni GreenMetric World University Ranking (354+) (Yashil universitetlarning global reytingi), WURI Ranking (50+) ya'ni Dunyo universitetlarining "Eng yaxshi innovatsion loyihalar" reytingi, Round University Ranking va Multi Ranking kabi xalqaro reytinglarda ishtirok etdi va natijalar ko'rsatdi.

Xalqaro reytinglarda ishtirok etish jarayoni oddiy jarayon bo'lmay balki uzoq yilgi natijalar, ko'rsatkichlar hamda mezonlarga asoslanadi. Ishtirokchi universitetlar oldida eng katta talab reyting agentliklari metodologiyasini chuqur o'rganish, natijalar e'lon qilindan so'ng ularni tahlil qilish, ko'rsatkichlarni yaxshilash borasida tizimli va maqsadli strategik dasturni amalga oshirish vazifasi turadi. Chunki, universitetlarning xalqaro reytinglarda ishtirok etishi nafaqat muassasaning akademik salohiyati, balki mamlakatning mintaqadagi iqtisodiy ahvoriga ham bog'liq. Shuni aytish joizki, dunyo reytingida ishtirok etish Yevropa mamlakatlari uchun qiyinchilik tug'dirmasada biroq, O'rta Osiyo va sobiq ittifoq davlatlari uchun ayrim noqisliklarni tug'dirishi muqarrar. Bu albatta birinchi navbatda dunyo olimlarining

ilmiy raqobat tili ingliz tili bo'lganligi ilmiy obro' ko'rsatkichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sobiq ittifoq mamlakatlarida aksariyat ilmiy nashrlar rus tilida va ularga bo'lgan talab ham Scopus bazasidan indeksatsiya qilingan jurnal talablaridan batamom farq qiladi.

Milliy universitetda xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'limining tashkil qilinganligi boshqa universitetlarga qaraganda mazkur sohada yaxshi natijalarga erishishda o'zining ijobiy samarasini berdi. Chunki mazkur bo'lim muntazam ravishda universitet professor-o'qituvchilarning maqolalar nashr ko'rsatkichi va sifatli jurnallardagi nashrlarni tahlil qilish, yosh o'qituvchilar va doktorantlar uchun maqola nashr qilish, jurnal tanlash va jurnallarga maqola yuborish kabi mavzularga bag'ishlangan seminar-treninglar tashkil qilib bordi. Dastlab, xorijda faoliyat olib boradigan ilmiy salohiyati yuqori va mazkur sohada tajribaga ega O'zMU bitiruvchilari ishtirokida seminar-treninglar tashkil qilindi[1], keyinchalik Elsevier kompaniyasi bilan hamkorlikda Workshop, "Jurnal klublar" tashkil qilinib, yo'nalishlarni o'zaro hamkorlikda fanlar va yo'nalishlararo kesishuv muammolari yechimiga qaratilgan maqolalar nashr qilish tajribasi o'rgatildi.

Xorijlik professor-o'qituvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilinishi, fakul'tetlarda xorijiy talabalarning sonini oshirish hamda hamkorlikda qo'shma ilmiy loyihalar yozish kabi yo'nalishlarda kafedralarda olib borilgan ishlar har uch oyda nazorat qilinib, natijalarni yaxshilash va ularni oshirishga bag'ishlangan tadbirlar amalga oshirildi. Shu ishlar natijasi o'laroq 2019-yilda universitetga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar soni 77 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 105 nafarni va 2022-yilda esa 303 nafarni tashkil qildi (onlayn-oflayn). SHuningdek, xorijiy talabalarni o'qishga qabul qilishda ham o'tgan yillarga nisbatan 2022-yilda uch baravarga oshirilganligi kuzatildi.

Universitetda maqolalar nashrida dastlab songa e'tibor qaratilgan bo'lsa, oxirgi yillarda ularning sifati, yuqori faktorli ya'ni Q1 va Q2 jurnallarda maqolalarning chop etilishiga e'tibor qaratildi. Bu uchun universitet rahbariyati dastlab maqolalar soniga qarab byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan har bir maqolaga 2 mlndan mualliflarni rahbatlantirgan bo'lsa, oxirgi yillarda jurnallarning kvartiliga qarab rag'batlar yo'lga qo'yildi. Ya'ni Q1 dagi nashrlar uchun mualliflar 5 mlndan, Q2 jurnallardagi maqolalar 4 mln, Q3 jurnallardagi nashrlar 3 mln hamda Q1 va konferentsiya materiallari nashri uchun professor-o'qituvchilar 2 mlndan rag'batlantirildi. Mazkur rag'bat natijasida 2020-yilda Q1 va Q2 jurnallardagi nashrlar soni 2 baravariga oshganligini quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin.

1-rasm



SHuning uchun ham 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasidagi maqolalar nashrida yetakchilik qilgan universitetlar natijasi tahlil qilinganda boshqa universitetlarga

qaraganda O'zMUda yaxshi natijalar yaqqol ko'zga tashlandi. Quyidagi jadvalda respublikadagi OTmlarning nashr ko'rsatkichlari aks etgan.

UNIVERSITETLARDA Q1 va Q2 JURNALLARDA MAQOLALAR SONI (2019-2021-yy)

2-jadval

INSTITUTIONS	Q1	Q2	Q3	Q4	Jami	Q1 Q2
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek	149	137	213	222	721	286
Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers National Research University	15	34	70	226	345	49
Tashkent State Transport University	4	5	132	84	225	9
Tashkent State Technical University	60	62	326	347	795	122
Tashkent State Agrarian University	3	8	133	90	234	11
Samarkand State University	17	27	70	61	175	44
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi	15	34	70	226	345	49

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan 2019-2021-yillarda yuqori impakt faktorli Q1 va Q2 jurnallarda nashr qilingan maqolalar sonini tahlil qilganimizda quyidagi natijalar ko'rindi. Toshkent texnika universiteti 3 yilda 122 ta nufuzli jurnallarda, ya'ni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti 49 ta, Toshkent axborot texnologiyalari instituti 49 ta, Samrqand davlat universiteti 44 ta, Toshkent agrar universiteti 11 ta, O'zbekiston Milliy universitetining professor-o'qituvchilari tomonidan 286 ta maqola Q1 va Q2 jurnallarda nashr qilingan. Tahlillar shu narsani ko'rsatadiki professor-o'qituvchilar maqolalariga iqtiboslik darajasini oshishiga olib keladi. Nomlari qayd qilingan universitetlarda konferentsiya materiallari Q4 jurnallarda maqolalar nashri assosiy ko'rsatkichni bermoqda. Aytish joizki, yuqori impakt faktorli jurnallarda maqola nashr qilish, mazkur maqolalarga iqtiboslikni oshishiga va ko'plab soha olimlarining xabardor bo'lishiga olib keladi. Oxirgi yillarda Q4 va Q 3 jurnallar Scopus bazasidan chiqib ketishi yoki bo'lmasa o'z faoliyatini tugatishi kuzatilmoqda.

Yosh tadqiqotchilar va doktorantlarning ilmiy jurnal tanlash va xalqaro ilmiy nashrlariga ko'mak berish maqsadida O'zbekiston Milliy universitetida Elsevier kompaniyasi mutaxassislari Damir Raxmetov, Rabiga Kojamkuli va Kiril Ivanovlar bilan muntazam seminar-trening va Jurnal klublar o'tkazilib kelinmoqda. Unda asosan yosh o'qituvchilar va doktorantlarga jurnal tanlash, jurnal talablaridan kelib chiqib maqola rasmiylashtirish, xorijiy hammualliflarni izlash hamda maqolani mustaqil ravishda jo'natish kabi masalalar o'rgatilib borilmoqda. Har bir tadqiqotchi dunyo ilm bozorida tanilishi, ingliz tilida ham maqola nashr qilishiga o'rgatish, jurnal badallarini to'lashda amaliy yordam berish maqsadida universitet rahbariyati tomonidan jurnallarning kvartiliga qarab maqola mualliflarining rag'batlantirish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

O'rganilgan materiallar va tahlillar natijasida aytish mumkinki, nafaqat O'zbekiston Respublikasidagi oliygo'harlar, balki qo'shni ya'ni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va boshqa davlatlarning oliygo'harlarida dunyo xalqaro reytingiga kirishda yetarli mumamolar mavjud.

3-jadval

QS ASIA UNIVERSITY RANKING 2023 (Central Asia)								
RANKING	NAME OF UNIVERSITY	COUNTRY	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1 Q2	Q3 Q4
44	Al-Farabi Kazakh National University	Kazakhstan	1048	903	1458	999	1952	2457
96	L.N. Gumilyov Eurasian National University (ENU)	Kazakhstan	514	598	547	395	1122	942
147	Abai Kazakh National Pedagogical University	Kazakhstan	1104	235	221	72	339	293
177	Auezov South Kazakhstan University (SKU)	Kazakhstan	49	124	164	192	173	356
281+	Kyrgyz-Turkish Manas University	Kyrgyzstan	92	104	114	777	196	191
301+	Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers (TIAME)-National Research University	Uzbekistan	116	60	340	593	176	933
351+	National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek	Uzbekistan	255	211	283	310	466	493
451+	Zhangir khan West Kazakhstan Agrarian Technical University	Kazakhstan	22	50	85	275	72	347

Jumladan, nashr faoliyati jahon ilmiy hamjamiyatida oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy faoliyatining muvaffaqiyati va samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy mezonlardan biridir. Nashrlarning soni, maqolalarga havolalar, maqolalar indeksi, xorijiy hammuallif bilan hamkorlikda chop etilgan maqolalar, Yevropa va Osiyo

mamlakatlari olimlari bilan hammualliflikda chop etilgan maqolalar muayyan ilmiy muassasa ishining muvaffaqiyati baholanadigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Nashr faolligini oshirishning muhim vositalaridan biri universitet professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilari ishini

rag'batlantirishning turli xil ko'rinishlarini ishlab chiqish. Masalan:

Xalqaro bibliometrik ma'lumotlar bazalarida indekslangan jurnallardagi nashrlar uchun alohida rag'bat;

Ilmiy maqolalar ko'p nashr qilgan professor-o'qituvchilar o'quv yuklama soatlarini qisqartirish;

Professor-o'qituvchilarining nashr indeksi ko'tarilishga qarab alohida rag'bat;

maqola nashr qilgan jurnalning nufuziga qarab rag'bat joriy qilish lozim.

Ta'kidlash joizki, rag'batlantiruvchi dastur tadqiqot sohasini, hisobot davrida nashrlarning sonini va muallif chop etiladigan jurnalning sifatini hisobga olishi kerak, ya'ni, masalan, jurnal Scopus bazasida qaysi kvartilda joylashganligini hisobga olish kerak. Times reytingiga kirish uchun o'qituvchilar eng ko'p baholangan jurnallarda tez-tez (yiliga 2-3 marta) nashr qilishlari tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan jahon reytinglari asosidagi xalqaro bibliometrik ma'lumotlar bazalari, asosan ingliz tilida nashr etiladigan indeks jurnallari xalqaro ilmiy til ekanligini inobatga olish lozim.

Shunga ko'ra, universitet xalqaro miqyosda o'z obro'sini yaratishi, tanilishi, xalqaro ilmiy maydonda faol ishtirok etishi uchun universitet xodimlari o'z maqolalarini ingliz tilida nashr etishlari lozim. Ilmiy til ingliz tili ekanligi, Markaziy Osiyo davlatlarining oliy ta'lim muassasalarida maqolalar nashr qilishda professor-o'qituvchilarning ingliz tilini yaxshi bilmasliklari yoki bo'lmasa tarjima qilingan maqolalarning sifat darajasini past bo'lishi kabi bir qator mavjud muammolar va ularning sabablari to'g'risida ilmiy jurnallarda faktlar ko'rsatib o'tilgan[2]. Aytish joizki, yoshi ulug' professorlar va mustaqil tadqiqotchilarning aksariyati ingliz tilida maqola nashr qilish, jurnal tanlash, jurnal talablari doirasida maqolani rasmiylashtirish masalasida yetarlicha tajribaga ega emasligi mazkur sohada bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bu borada samarali ishlarni tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

istiqbolli yo'nalish va mutaxassisliklarda ta'lim tilini ingliz tilida qilish va ular sonini yilma-yil oshirib borish;

bakalavriyat, magistratura va doktoranturada ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha sertifikatni talab qilish;

Xalqaro konferentsiyalarda ingliz tilida ma'ruzalar bilan ishtirok etish;

O'qituvchilar uchun tekin ingliz tili kurslari tashkil qilish;

Ingliz tilini bilgan va maxsus sertifikatga ega xodimlar maoshiga rag'batni muntazam berib borish;

Ishga qabul qilishda ingliz tilini bilgan istiqbolli yosh olimlarni qabul qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish lozim.

Xalqaro reyting agentliklari metodologiyasining baholash me'zonida eng katta foiz bu akademik obro' va ish beruvchilar obro'sini obro'siga ajratilgan. Erishilgan tajribaga tayanib mazkur ko'rsatkichlarni oshirish bo'yicha quyidagilarni taklif qilish mumkin: Akademik obro'ni oshirish uchun:

Xalqaro konferentsiyalar, forumlar, seminarlarni muntazam o'tkazish;

xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarni ko'paytirish;

xorijiy olimlar bilan hamkorlikda ilmiy loyihalarda ishtirok etish;

qo'shma ta'lim dasturlari sonini oshirish;

ikki rahbarlikni yo'lga qo'yish;

xorij olimlari bilan hammualliflikda maqolalar, darsliklar va monografiyalar yozish lozim.

Ish beruvchilar reputatsiyasini bo'yicha ko'rsatkichlarni oshirish uchun quyidagilarni faollashtirish shart. Bular:

Universitetlarda "Bitiruvchilar assotsiatsiyasi"ni tuzish va faoliyatini rivojlantirish;

bitiruvchilar bilan turli xil uchrashuvlar, yubiley tadbirlari, forumlarni o'tkazish;

universitet, fakultet va kafedraning bitiruvchilar bazasini shakllantirib borish;

"Ochiq eshiklar kuni", "Karera kuni" kabi tadbirlarni muntazam o'tkazib borish;

Xorijda va qo'shni davlatlarda bo'lib o'tadigan xalqaro ta'lim ko'rgazmalarida qatnashish kabilar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bugungi kunda oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari oldida nashr faolligini oshirish va uning samaradorligini jahon sahnasida o'z saviyasini namoyish etish vazifasi turganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu vazifa tadqiqot sifatini yaxshilash uchun institutlar yoki mamlakatlarga berilishi mumkin bo'lgan yagona umumiy yechimga ega emas. Universitet jamoasi mazkur sohada barcha ko'rsatkichlarni oshirishga kompleks yondashishi lozim.

Oliy o'quv yurtining jozibadorligi va obro'siga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri xorijdan kelgan pedagog kadrlarning mavjudligidir. Ko'proq xorijiy tadqiqotchilarni jalb qilish, ayniqsa, boshqa universitetlarning professorlari bilan hamkorlikda chop etilgan maqolalarning sifati va miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, Ilmiy muassasalarda ilm-fanning rivojlanish darajasida nashr faoliyati ko'rsatkichi oliy ta'lim muassasalarining reytinglarini tuzishda jahon reyting agentliklarining ajralmas mezonini hisoblanadi.

Demak, mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi OTMlarining xalqaro reyting ko'rsatkichlari bo'yicha ayrim natijalari ko'rib chiqildi. Xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha bir-biriga yaqin universitetlar uchun O'zbekiston Milliy universiteti tajribasidan kelib chiqib tavsiyalar va takliflar berildi. Bu esa Maraziy Osiyo va Rivojlanayotgan Yevropa davlatlarining oliygohlari uchun reyting ko'rsatkichlari ustida ishlash bo'yicha imkon qadar yaxshi natijaga erishish yo'lini ko'rsatib berishi muqarrar.

Mazkur tahliliy jadvalda Markaziy Osiyo universitetlarining yuqori kvartill jurnallarda nashr qilingan maqolalari tahlil qilinmoqda. Ma'lumki, maqolalarga iqtibos keltirish, maqolalarning sifati va hozirgi zamon global muammolar yechimiga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliygohlarning xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha tizimli va manzilli ishlarni amalga oshirish, davlat tomonidan universitetlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish shart. Har bir universitet yaqin va uzoq yillarga mo'ljallangan universitetni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi va ular asosida maqsadli indikatorlar hamda chora-tadbirlar rejasini bajarilishi bo'yicha muntazam monitoring qilib borish lozim.

UNIVERSITETLARDA Q1 va Q2 JURNALLARDA MAQOLALAR SONI(2017-2021 yy)

QS ASIA UNIVERSITY RANKING 2023 (Central Asia)								
RANKING	NAME OF UNIVERSITY	COUNTRY	Q1	Q2	Q3	Q4	Q1 Q2	Q3 Q4
44	Al-Farabi Kazakh National University	Kazakhstan	1048	903	1458	999	1952	2457
96	L.N. Gumilyov Eurasian National University (ENU)	Kazakhstan	514	598	547	395	1122	942
147	Abai Kazakh National Pedagogical University	Kazakhstan	1104	235	221	72	339	293
177	Auezov South Kazakhstan University (SKU)	Kazakhstan	49	124	164	192	173	356
281+	Kyrgyz-Turkish Manas University	Kyrgyzstan	92	104	114	777	196	191
301+	Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers (TIAME)-National Research University	Uzbekistan	116	60	340	593	176	933
351+	National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek	Uzbekistan	255	211	283	310	466	493
451+	Zhangir Khan West Kazakhstan Agrarian Technical University	Kazakhstan	22	50	85	275	72	347

ADABIYOTLAR

1. <https://nuu.uz/elsevier-vakili-bilan-navbatdagi-seminar/>; <https://nuu.uz/elsevierning-kimyo-biologik-qarorlar-boyicha-direktori-ozmuda/>
2. Kuzhabekova, A., & Ruby, A. (2018a). Impact factor publication requirement in Kazakhstan. *European Education*, 50(3), 266., Kurambayev, B., & Freedman, E. (2021). Publish or perish? The steep, steep path for Central Asia journalism and mass communication faculty. *Journalism & Mass Communication Educator*, 76(2), 228–240. Agbo, S. (2013). New perspectives on higher education reform in post-Soviet Kazakhstan: the dilemma of English language competence. library.iated.org.
3. Reytinq universitetov mira QS – metodologiya (2021). Luchshie universiteti.
4. <https://www.topuniversities.com/qs-world-university-rankings/methodology>.
5. Redden, E. (2013). Izuchenie reytingov QS. Vnutri Vysshego Ed <https://www.insidehighered.com/news/2013/05/29/-methodology-qs-rankings-comes-under-scrutiny>.
6. Ablameyko S.V., Gusakovskiy M.A. Uchastie universitetov v mirovix reytingax kak faktor povysheniya kachestva podgotovki spetsialistov //Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2013. – №. 5.
7. Abakumova N.N. Monitoringovoe issledovanie otsenki effektivnosti uchastiya rossiyskix vuzov v mirovix reytingax //Globalnyy nauchnyy potentsial. – 2020. – №. 3. – S. 8-11.
8. Avadeni Yu. I. i dr. Aktualnyye voprosy nauchnyx issledovaniy XXI veka. – 2015.
9. Aref'ev A. L. Ob uchastii rossiyskix vuzov v mejdunarodnyx reytingax //Rossiya reformiruyushayasya. – 2015. – №. 13.
10. Balatskiy Ye.V., Yekimova N.A. Mejdunarodnyye reytingi universitetov: praktika sostavleniya i ispolzovaniya //Jurnal Novoy ekonomicheskoy assotsiatsii. – 2011. – №. 9. – S. 150-172.
11. Balashov A.I., Xusainova V.M. Proekt" 5-100": pogonya za globalnoy konkurentosposobnostyu ili instrument perezagruzki natsionalnoy sistemy vysshego obrazovaniya? //Ekonomika i upravlenie. – 2016. – №. 10 (132).
12. Gorchakov S.Ye. Sovershenstvovanie upravleniya organizatsionnym povedeniem v nauchnyx organizatsiyax : dis. – Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy ekonomicheskiy universitet, 2020.
13. Gugelev A.V., Semchenko A.A. Opyt uchastiya otechestvennyx vuzov v mejdunarodnyx reytingax kak stimul k povysheniyu konkurentosposobnosti //Vestnik Saratovskogo gosudarstvennogo sotsialno-ekonomicheskogo universiteta. – 2015. – №. 2 (56).
14. Guzikova L.A., Plotnikova Ye.V. Pozitsii i perspektivy uchastnikov Proekta 5-100-2020 v mejdunarodnyx reytingax universitetov //Voprosy metodiki prepodavaniya v vuze. – 2014. – №. 3 (17).



УДК: 372.869.

Фароғат ЮЛДАШЕВА,

Старший преподаватель Национального университета Узбекистана

E-mail: yuldashevafarogat@mail.ru

На основе рецензии кандидата педагогических наук, доцента М.Х. Ахмедовой

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы удовлетворения потребности и интересов студентов высших учебных заведений в будущей профессиональной деятельности и специальной подготовке, внедрения новых государственных образовательных стандартов, структурной реформы и модернизации системы высшего образования, актуализации содержания профессионального образования. Говорится об образовательных технологиях, формах организации учебного процесса, самостоятельной работы.

Ключевые слова: Система высшего образования, специалист, социально-экономические, реформы, вузы, развитие, модернизация.

THE IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS ON THE BASIS OF SEQUENCE

Annotation

In this article, the issues of meeting the needs and interests of students of higher educational institutions for future professional activities and special training, introducing new state educational standards, structural reform and modernization of the higher education system, and updating the content of vocational education are considered. , educational technologies, forms of organization of the educational process, independent work, improvement of the students' skills were solved directly by the formation of an intellectually creative highly qualified specialist in production enterprises.

Key words: Higher education system, specialist, socio-economic, reforms, institutions, development, modernization.

IZCHILLIK ASOSIDA TALABALARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyati va maxsus tayyorgarligiga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini qondirish, yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, oliy ta'lim tizimini tarkibiy isloh qilish va modernizatsiya qilish, kasb-hunar ta'limi mazmunini yangilash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va kasb-hunar ta'limining mazmunini yangilash; ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, mustaqil ishlash, talabalarning malakasini oshirish bevosita ishlab chiqarish korxonalarida intellektual ijodiy yuqori malakali mutaxassisni shakllantirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim tizimi, mutaxassis, ijtimoiy-iqtisodiy, islohotlar, institutlar, rivojlanish, modernizatsiya.

Введение. В мировых образовательных учреждениях внедряются последовательные технологии адаптации современного профессионального образования к международным требованиям. На основе рекомендаций международных организаций ведется планомерная работа по реализации масштабных проектов, направленных на обеспечение социальной адаптации современных специалистов к практике, информационно-коммуникативное обучение, совершенствование подготовки специалистов-билингвов, владеющих несколькими иностранными языками, а также подготовка активных квалифицированных конкурентоспособных кадров с использованием согласованных технологий.

Основная часть. Сегодня для сферы высшего образования Узбекистана характерно продолжение процесса реформ и дальнейшая реализация Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, что является одним из его основные цели. и «...подготовка высококвалифицированных кадров, отвечающих требованиям высокой духовности и этики на уровне зарубежных стран», способных эффективно работать, готовых к постоянному профессиональному росту и самообразованию, социальной и профессиональной мобильности. Разрабатываются и внедряются государственные

образовательные стандарты, определяющие новые требования к качеству и квалификации выпускников. Роль науки и образования в развитии всех сторон жизни человека возросла в глобальном масштабе, беспрецедентные масштабы научно-технического прогресса привели к многократному увеличению потока знаний и информации. Это, в свою очередь, значительно повысило требования к повышению уровня и качества образования и подготовки молодых специалистов, обучающихся в высших учебных заведениях. Проблема повышения качества профессиональной подготовки выпускников остается актуальной. Эта задача должна решаться прежде всего в развитии личности студента (духовном, профессиональном), в направлениях непрерывного самообразования.

Методология исследования. В педагогике мы понимаем системность не просто как расширение и усложнение организации учебной деятельности, а как непрерывный процесс перехода от количественных изменений к качественным. Этот процесс обеспечивает беглость обучения студентов вуза и развитие студентов, основанное на объективных закономерностях, выражающееся в постепенном усложнении учебных задач и целенаправленном изменении уровня/уровня образования.

Непрерывность и системность образования тесно связаны между собой. Принцип системности является необходимым условием достижения преемственности, прогресса, плавности и интеграции образования. Как было установлено в ходе анализа, учебная деятельность организована в виде учебных циклов, состоящих из 30 аудиторных занятий, по ситуационному принципу и объединена для выполнения одной учебной задачи. В каждом цикле решается конкретная воспитательная задача по развитию коммуникативных навыков в рамках социально-бытовых и профессионально-трудовых ситуаций. Выполнение в определенной последовательности большого количества учебных заданий, составляющих учебный курс, в конечном итоге приведет к овладению учащимися русским языком в рамках определенных программными целями. Преподаватель составляет календарно-тематические планы и рабочие программы, в которых определяет задачу, содержание и методическое обеспечение каждого цикла. В учебном процессе рекомендуется использовать различные виды наглядных пособий, такие как аудиозаписи, диафильмы, видеофильмы, учебные и документальные фильмы, диапозитивы и др., а также технические средства обучения и учебные компьютерные программы, как во время аудиторных занятий и самостоятельных занятий. Чтобы к концу курса обучения у них были следующие навыки и умения в различных видах речевой деятельности: участвовать в непринужденной беседе на темы быта, учебы и досуга студентов и знать манеру речи; с помощью активно осваиваемых грамматических правил устно излагать свои мысли в рамках определенной лексики, по пройденным темам, а также по темам, связанным с учебно-производственной деятельностью студента и его будущей специальностью; слушать и понимать речь, состоящую из усвоенного языкового

материала, в том числе звукозаписи, в которых допускается употребление незнакомых слов, значение которых можно понять на основе навыка использования языковых и лексических предположений; читать с помощью словаря отечественные, общенаучные тексты и материалы по будущей специальности студента; чтение без словаря текстов, состоящих из диалогов на обсуждаемые темы и ситуации общения, а также текстов, моральная ситуация которых может служить предметом разговора, высказывания и обсуждения на русском или родном языке; правильное написание слов и словосочетаний, входящих в словарный минимум, указанный в программе; описать содержание текста письменно с использованием словаря.

Заключение. Анализируя природу системности как педагогического явления, можно отметить следующее. Ретроспективный анализ зарубежной и отечественной психолого-педагогической литературы показывает, что системность воспринимается либо как взаимообусловленность прошлого, настоящего и будущего в процессе обучения, либо как последовательность в овладении учащимися знаниями, умениями и навыками. Основной целью принципа системности обучения является развитие и формирование учащегося, последовательный и рациональный подбор содержания обучения, методов, форм и средств, направленный на дальнейшее совершенствование этих компонентов. Основная задача образовательной системности состоит в том, чтобы обеспечить постепенность личностно-образовательных процессов, найти оптимальное сочетание содержания обучения, методов, форм и средств, помогающих адаптироваться обучающимся в профессиональном образовательном учреждении, установить взаимосвязь между основными этапами образовательного процесса. непрерывное профессиональное образование.

ЛИТЕРАТУРА

1. Умаров Б.М. Узлуксиз таълим жараёнида мустақил фикрловчи, иждокор шахсни шакллантиришнинг айрим психологик жиҳатлари. Замонавий таълим / современное образование 2017.
2. Турғунов С.Т. Педагогик жараёнларда талабалар рефлексив фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш. Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар халқаро илмий конференция. 2018 й. 14-б.
3. Современные теории и методики обучения иностранным языкам /Под ред. Л.М. Федоровой. –М.:Экзамен, 2004. - 320 с.
4. Кыверьялг А.А. Методы исследования в профессиональной педагогике /А.А. Кыверьялг. - Таллин: Валгус, 1980. - 334с.
5. Иванов Д.А. Компетентностный подход как способ достижения нового качества образования: Материалы для опытно- экспериментальной работы школ / Иванов Д.А., Загвоздкин В.К. , Каспржак А.Г. и др. - М.: Наука, 2003. - 128с.